81.2 ўзб.

IT-2013» loyihasi turkumidan

MADRIM HAMRAYEV

ONA TILI

(TO'LDIRILGAN VA QAYTA ISHLANGAN YANGI NASHRI)

ABITURIYENTLAR UCHUN

2013

81.2 Yzb.

MADRIM HAMRAYEV

«ABITURIYENT–2013» loyihasi turkumidan

ONA TILI

(To‘ldirilgan va qayta ishlangan yangi nashri)

ABITURIYENTLAR UCHUN

42669/2016
CHIRCHIQ TEXNIKA KASB-HUNAR KOLLEJI AXBOROT RESURS MARKAZI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI AXBOROT RESURS MARKAZI 3-FILIALI

«SHARQ»
NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT
2013

«SHARQ» NMAK qoshidagi «MAFIS MEZAN» axborot-izlash chiqarish markazi «Abituriyent» nashrlari 2014

UO‘K: 811.512.133(072)
KBK: 81.2O‘zb

Taqrizchilar: **E. UMAROV,**
filologiya fanlari doktori, professor;

Sh. YO‘LDOSHEVA,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir: **Sh. SARIYEV,**
TTYSI qoshidagi Qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish markazining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Mazkur to‘plam Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Mazkur qo‘llanma o‘zbek tili fanining barcha bo‘limlarini qamrab olgan bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tili haqida ancha to‘liq ma’lumot beradi. Bu qo‘llanma oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar, bakalavriyat yo‘nalishidagi talabalar va ona tilimizni o‘rganishni istagan barcha qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining qabul imtihonlariga tayyorlanayotgan abituriyentlar uchun mo‘ljallangan mazkur to‘plamning nashr etish hamda nusxalarini tarqatishga taalluqli barcha huquqlar amaldagi qonunlarga asosan himoyalangan. Qo‘llanmani qalbakilashtirish, ko‘paytirish, mualliflarning yozma ruxsatisiz chop etish taqiqlanadi.

«ABITURIYENT–2013» turkumi ostida nashr etilgan qo‘llanmalar Nizomiy nomidagi TDPU hamda «NAFIS BEZAK» dizayn va ishlab chiqarish markazining qo‘shma loyihasi asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9943-26-022-1

© M.A.Hamrayev, «NAFIS BEZAK» dizayn markazi, 2013
© «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2013

SO‘ZBOSHI

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.
Islom Karimov[1]

Til – insonlar orasidagi eng muhim aloqa vositasidir. Insonlar o‘z fikrlarini til vositasida ifodalaydilar va bir-birlarini tushunadilar.

Til inson faoliyatida borliqni bilish, fikr almashish, jamg‘arilgan bilimlarni avloddan avlodga yetkazish vositasidir. Tilda millatning bor-yo‘g‘i, o‘y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg‘ulari aks etadi. Tildagi har bir so‘z inson tafakkuri va tuyg‘usining natijasidir.

Shunday ekan, ona tiliga hurmat va uning bebaho xazinasidan o‘rinli foydalanish, nutqiy savodxonlikka erishish shu til vakili bo‘lgan har bir insonning muqaddas burchidir.

Qo‘lingizdagi ushbu qo‘llanma o‘zbek tili fanining barcha bo‘limlarini qamrab olgan bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tili haqida ancha to‘liq ma’lumot beradi.

Qo‘llanma filologiya fanlari nomzodi, dotsent Madrim Hamrayev tomonidan yaratilgan **«Ona tili fanidan test topshiriqlari to‘plami»**, **«O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami»** nomli metodik qo‘llanmalari uchun asos vazifasini bajarib, ular birgalikda «Ona tili» kursi bo‘yicha yaxlit o‘quv-didaktik majmuani tashkil etadi.

Ushbu qo‘llanma necha yillardan beri qayta-qayta nashr etilmoqda va muxlislar olqishiga sazovor bo‘lmoqda. Undagi ma’lumotlar yildan yilga sifat jihatidan ham, son jihatidan ham boyitilib, mukammallashtirilib borilmoqda. Bugungi kunda ushbu kitob ***«Abituriyentlar uchun o‘zbek tili fanidan eng ma’qul qo‘llanma»*** degan e’tirofga sazovor bo‘lgan.

Ma’lumki, test sinovlari jarayonida ona tili va adabiyot fanlari bir blokni tashkil etadi. Shu munosabat bilan bu ikkala fanni birga o‘zlashtirish tavsiya etiladi.

«Abituriyent – 2013» loyihasi turkumidagi ona tili va adabiyot fanlari bo‘yicha ushbu kitoblarning yangi nashrida kitoblar soni **7 ta** bo‘lib, ular birgalikda yaxlit o‘quv-didaktik majmua hisoblanadi. Kitoblarning elektron variantlari bilan **nafisbezak.uz** va **imtihon.uz** saytlarida tanishishingiz mumkin.

Tahririyat

[1] I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 83-bet

1-MAVZU.
KIRISH. TILSHUNOSLIK HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1-§. Til – ijtimoiy hodisa

Hozirgi paytda yer yuzi aholisi 7,5 milliarddan oshib ketdi[2]. Mana shu aholi 3000 dan ortiq tilda gaplashadi. Til odamlarning bir-birlari bilan muomalada bo'lishi uchun yordam beradigan eng muhim vositadir. Odamlar til vositasida o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatining shakllanishida tilning roli beqiyosdir.

Tafakkur va **til** bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tafakkur zohiriy olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in'ikosi hisoblansa, til fikrni ifodalash usuli, uni boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasidir. Boshqacha aytganda, til – tafakkurning borliq shaklidir[3].

Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo'lishi mumkin emas, til jamiyat uchun, insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun u **ijtimoiy hodisa** hisoblanadi, ya'ni til yakka insonga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlantirilib boriladi.

2-§. O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili[4]

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqida Qonun qabul qilindi (1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 4-sessiyasida "Davlat tili haqida"gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi). O'ylaymizki, bu mustaqillik tomon tashlangan birinchi qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: *"O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir"*[5].

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI DAVLAT TILI HAQIDA (yangi tahrirda)

1-modda: O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

2-modda: O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitusiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda: O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa

[2] 2013-yildagi internet ma'lumoti

[3] A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. – 5-bet.

[4] Bu fasl Sh.Sariyev bilan hamkorlikda yozildi.

[5] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 9-bet.

qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda: O'zbekiston Respublikasida Davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda: O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

6-modda: O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

7-modda: Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda: O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari Davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda: Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatiga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda: Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda: Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda: O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda: Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda: O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda: O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda: Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda: Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda: Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda: Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarning, shuningdek, milliy, madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda: Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda: Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda: Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda: O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda: O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

3-§. Dunyo tillari

Dunyoda tillar xilma-xil. Bu tillarning ayrimlarida bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishilar gaplashsa, ba'zilaridan bir necha ming kishigina foydalanadi. Masalan, xitoy tilida hozir **bir milliardga yaqin** kishi so'zlashsa, chukot (bu til Chukotka yarimorolida) va vele (bu til Kareliya hududida) tilida atigi bir necha ming kishi muloqotda bo'ladi. Yangi Gvineyada deyarli har bir qishloq aholisi o'z tiliga ega. Kongoda aholi 500 tilda, Indoneziyada 250 tilda, Sudanda 117 tilda gaplashadilar[6].

Dunyodagi tillar kelib chiqishi, qarindoshligi, lug'aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo'linadi. Yer yuzida 20 dan ortiq til oilasi bor. Til oilalari **bobo til** nomi bilan ataladi. Til oilalari o'z navbatida til turkumlariga bo'linadi.

Jahonda keng tarqalgan til oilalari quyidagilar:

Hind-yevropa oilasi quyidagi til turkumlarini o'z ichiga oladi: **hind turkumi** (hind, urdu, bengal, panjob, gujarat va h.), **eron turkumi** (fors, afg'on, osetin, kurd, tojik va h.), **slavyan turkumi** (rus, ukrain, belorus, chex, slovak, polyak, serb, makedon, bolgar, xorvat, sloven), **boltiq turkumi** (litva, latish, latgal), **german turkumi** (dat, shved, norveg, island, ingliz, golland, nemis, yangi yahudiy tili), **roman turkumi** (fransuz, provansal, italyan, ispan, portugal, rumin, moldovan tillari, o'lik lotin tili), **kelt turkumi** (irland, shotland, breton, uels), **anatoliy turkumi** (o'lik), **tohar turkumi** (o'lik). Grek, alban, arman tillari birorta turkumga mansub bo'lmasdan, shu til oilasiga kiradi.

Turkiy tillar oilasiga *turk, mo'g'ul, manchjur, yapon, koreys* va boshqa til tarmoqlari kiradi. ***Turkiy tillar tarmog'i*** o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi: **o'g'uz guruhi** (turkman, gagauz, ozarbayjon, turk, qrimtatar va bolqon turklari tillari), **qipchoq guruhi** (qo'miq, qarayim, balkar, tatar, boshqird, no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari, o'zbeklarning qipchoq lahjasi), **qarluq-uyg'ur guruhi** (o'zbek va yangi uyg'ur tillari), **uyg'ur-o'g'uz guruhi** (tuva, tofalar, yoqut, xakas, shor, sariq uyg'ur va boshqa tillar), **qirg'iz-qipchoq guruhi** (qirg'iz va oltoy tillari) kiradi[7].

Turkiy tillar agglyutinativ tillar jumlasiga kiradi, ya'ni har bir grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi va bu qo'shimchalar so'zning oxiriga qo'shiladi.[8]

Fin-ugor tillar oilasiga fin guruhi (fin, eston, karel, komi-ziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, mordva tillari), **ugor guruhi** (venger, mansiy, xantiy tillari) mansubdir.

[6] H.Ne'matov va boshq. Ona tili (9-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 5-bet.

[7] H.Ne'matov va boshq. Ona tili (9-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 6-bet.

[8] A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylar uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 14-bet.

Som-xom tillar oilasiga semit guruhi (arab, axmar, xarari, oysor, ivrit tillari), **qushit guruhi** (galla, somali, saho, beja tillari), **berber guruhi** (kobil, shilx, rif, tamazist tillari), **chad-xom guruhi** (xuase, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi tillari), **arab guruhi** (qadimgi arab) kiradi.

Kavkaz oilasiga g'arbiy guruh (abxaz, abazin, adigey, kabardin, ibix tillari), **nax guruhi** (chechen, ingush, batsbiy tillari), **dog'iston guruhi** (avar, darg'in, lezgin, lak, karatin, gunzib tillari), **janubiy guruh** (megrel, chan, gruzin, kartaliy, svan, guriy) kiradi.

Xitoy-tibet oilasiga tay-xitoy guruhi (xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vetnam tillari), **tibet-birma** guruhi (tibet, birma tillari) kiradi.

Bulardan tashqari, **dravid, malay-polinez, avstraliya, papua, afrika** til oilalari ham bor.

Dunyo tillari yana morfologik jihatdan, ya'ni tarkibidagi so'zlarning tuzilishi jihatidan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra tillar quyidagi 4 guruhga bo'linadi:

1. Amorf tillar tarkibidagi so'zlar hech qanday sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarsiz, to'g'ridan-to'g'ri birikib, bog'lanib keladi. Bu tillarga xitoy, tibet, birma, vetnam va xitoy-tibet oilasiga mansub bo'lgan boshqa tillar misol bo'la oladi.

2. Agglyutinativ tillarda har bir grammatik ma'no ma'lum bir grammatik ko'rsatkich bilan ifodalanadi. Masalan, *maktablarga* so'z shakli tarkibidagi *-lar* qo'shimchasi ko'plik ko'rsatkichi, *-ga* affiksi jo'nalish kelishigi ko'rsatkichidir.

Agglyutinativ tillarga turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili, fin-ugor tillari, dravid, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek, alohida tillar hisoblanmish yapon va koreys tillari kiradi.

3. Flektiv tillarda birdan ortiq grammatik ma'no birgina grammatik ko'rsatkich orqali ifodalanadi: rus tilidagi *kniga* so'zi tarkibidagi *–a* qo'shimchasi jinsni (jenskiy rod), bosh kelishikni, birlik sonni bildirib kelgan. Flektiv tillarga hind-yevropa, semit, xamit tillari kiradi.

4. Polisintetik tillarning xususiyati shundan iboratki, ularda butun bir gap bir so'z holida yoziladi. Polisintetik tillarga chukot tili, suningdek, Amerikadagi ayrim hind tillari, Osiyodagi paleoosiyo oilasiga kiruvchi ayrim tillar kiradi.

4-§. Jonli va jonsiz (tirik va o'lik) tillar

Hozirgi paytda ma'lum bir xalq vakillari uchun muloqot vositasi bo'lib xizmat qilayotgan tillar **jonli tillar** hisoblanadi: *rus, ukrain, o'zbek, ozarbayjon, qirg'iz tillari* va boshq.

Hozirgi davrda hech bir xalq uchun muomala vositasi bo'lib xizmat qilmayotgan, lekin qoldiqlari bizgacha yetib kelgan tillar **jonsiz tillar** deb yuritiladi: *lotin, qadimgi hind yoki sanskrit tili, qadimgi slavyan tili, qadimgi xorazmiy tili, qadimgi arab tili, qadimgi fors tili, so'g'd tili* hozirgi paytda jonsiz tillar hisoblanadi.

Lotin tili qadimgi Rim imperiyasining rasmiy tili sifatida mavjud bo'lgan. Mazkur imperiya yemirilgandan keyin, bu til ham asta-sekin o'lik

tilga aylana borib, hozirgi kunda bu tilning qoldiqlarini ilmiy atamalarda uchratishimiz mumkin. Lotin tili o'rta va oliy tibbiyot o'quv yurtlarida o'qitiladi.

Qadimgi xorazmiy tili esa eroniy tillarning sharqiy turkumiga mansub bo'lib, qadimgi Xorazm vohasining aholisi shu tilda gaplashgan. Bu til XI asrgacha muomalada bo'lgan va keyinchalik iste'moldan chiqqan hamda o'lik tilga aylangan.

5-§. Til va nutq

Til va nutq tushunchalari yaqin-yaqingacha farqlanmasdan kelinardi, bu ikki so'zni ma'nodosh (sinonim) so'zlar sifatida ishlataverar edik. Keyingi paytlardagi tadqiqotlar til va nutq tushunchalarini farqlash zarurligini ko'rsatadi.

Til deganda ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo'lgan hodisani tushunishimiz kerak. Nutq esa shu tilning ma'lum paytda va ma'lum o'rinda namoyon bo'lishidir. Ayrim olimlar til va nutq tushunchalarini farqlashda shaxmat o'yinini misol qilib keltirishadi. Shaxmat donalari, taxtasi, shaxmat o'yini qoidalari yig'indisi tilga qiyos qilinadi. Har bir shaxmatchining o'yin uslubi, o'ziga xos xususiyatlarini esa nutqqa o'xshatishadi. Demak, ma'lum so'zlar yig'indisi vositasida bitta fikrni turli ko'rinishlarda ifoda qilish mumkin. *"Ega+to'ldiruvchi+kesim"* ko'rinishidagi qolip tilga tegishli bo'lsa, nutqda shu qolip asosida son-sanoqsiz gaplar tuzish mumkin: *"Men ukamni ko'rdim // Sobir akasiga yordamlashdi // Salim opasidan eshitdi..."*. Bu esa shu nutqning yaratuvchisiga bog'liqdir.

Til bilan nutqning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin:

1. Til aloqa materiali bo'lsa, nutq aloqa shaklidir.

2. Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.

3. Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog'liq holda uzoq bo'ladi, nutqning hayoti esa qisqa bo'ladi.

4. Til nisbatan turg'un, barqaror bo'lsa, nutq doim harakatda bo'lib, o'zgaruvchan hodisa sanaladi.

5. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq[9].

Shveysariya olimi **Ferdinand de Sossyur** tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlagan.

Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi. Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi – til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi – nutqdir. Til va nutq umumiylik – xususiylik, imkoniyat – voqelik, mohiyat – hodisa zidlanishini o'zida namoyon etib, bir-biriga zidlanadi[10].

[9] A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. – 10-bet.

[10] A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylar uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 35-bet.

Bir kishining nutqi **monolog**, ikki kishining nutqi **dialog**, ikkitadan ortiq kishining nutqi esa **polilog** deb yuritiladi. Nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud.

6-§. Milliy (umumxalq) til, adabiy til va shevalar

Qayerda yashashidan qat'i nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til milliy (umumxalq) o'zbek tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish, qarg'ish so'zlari), varvarizm (tilda o'rinsiz ishlatilgan chet so'zlar) kabi guruh so'zlarni qamrab oladi.

Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo'lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari mavjud.

Sheva bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir.

Sheva adabiy tildan fonetik (ya'ni tovush), leksik (ya'ni so'z) va grammatik (ya'ni, qo'shimchalar va gap qurilishi) jihatdan farq qiladi. Xalq shevalarining faqat og'zaki shakli mavjud.

Shevalarning bir-biriga yaqin bo'lgan guruhlari **lahja** deb ataladi (**dialekt** so'zi sheva hamda lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.).

O'zbek milliy tili tarkibida uchta lahja bor:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).
2. Qipchoq lahjasi (janubiy-g'arbiy guruh).
3. O'g'uz lahjasi (shimoliy-g'arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Qarshi). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

1) ayrim so'zlar oxiridagi ***k*** tovushi ***y*** tarzida aytiladi: *elak - elay, terak – teray;*

2) ayrim so'zlardagi ***a*** tovushi ***o*** tarzida aytiladi: *aka - oka, nahor – nohor;*

3) bu lahjada qaratqich kelishigining qo'shimchasi yo'q bo'lib, uning o'rniga tushum kelishigi qo'shimchasi ***-ni*** ishlatiladi: *ukamni(ng) daftari.*

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning barcha viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

1) ***y*** o'rnida ***j*** ishlatiladi: (barchasida emas) *yo'l - jo'l, yo'q - jo'q;*

2) ***g'*** o'rnida ***v*** ishlatiladi: *tog' - tov, sog' – sov;*

3) ayrim so'zlar oxirida ***q*** tushiriladi: *quru(q), sari(q).*

O'g'uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Belgilari:

1) unlilar qisqa va cho'ziq aytiladi: *at (hayvon) - aad (ism);*

2) ***t*** tovushi ***d kabi, k*** esa ***g*** tarzida aytiladi: *tog' – dog', keldi – galdi;*

3) ***-ning*** qo'shimchasi ***-ing*** tarzida, ***-ga*** qo'shimchasi esa ***-a, -na*** tarzida aytiladi: *Urganch(n)ing qovuni, yorimga – yorima, alina (qo'liga).*

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg'ona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos bo'lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

7-§. O'zbek tili va uning taraqqiyot bosqichlari

O'zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi. Dunyoda 30 ga yaqin turkiy til bor: *o'zbek, uyg'ur, turkman, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turk, boshqird, qoraqalpoq, tatar, qrim-tatar, chuvash, yoqut, qorachoy-bolqor, tuva, oltoy turklari, xakas, gagauz, shor, qoraim, qo'miq, no'g'oy, oyrot, karagas* va boshqalar.

Turkiy tillar ichida faqat o'zbek tili "o"lovchi til hisoblanadi.

Turkiy tillarga mansub bizgacha yetib kelgan qadimgi yozma yodgorliklar eramizning V asrida bitilgan **"Xuastuanift"**, V-VII asrlarda yaratilgan **O'rxun-Enasoy obidalari**, Mahmud Koshg'ariyning **"Devonu lug'otit- turk"** asaridir[11].

O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:[12]

1. Qadimgi turkiy til (VII asrdan XIII asrgacha. Boshqa manbada bu davr *miloddan oldingi davrlardan X asrgacha* deb olingan[13]). O'rxun-Enasoy yodgorliklari (VI-VII asrlar), Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" ("Turk tillari devoni"), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Baxt-saodatga yo'llovchi bilim") asarlari shu tilda yaratilgan.

O'rxun-Enasoy yozuvi haqidagi dastlabki xabarlar *N.K.Vidzen, S.U.Remezov, I.Tabbet-Stralenberg, D.G.Messershmidt, M.A.Kastren* kabi tadqiqotchilar tomonidan e'lon qilingan.

V.V.Radlov, V.Tomsen, P.M.Melioranskiy kabi olimlar bu sirli yozuvlarni o'qishga harakat qiladilar. 1893-yilning 25-noyabr kuni V.Tomsen birinchi bo'lib bitiktoshlar sirini ochganligini e'lon qilgan. Bu vaqtda V.V.Radlov 10 ta harfni o'qib ulgurgan.

Hozirgi turkiy tillarning shakllanish tarixini ko'pchilik olimlar bir necha davrlarga bo'ladilar: *I. Oltoy davri. II. Eng qadimgi turk davri. III. Qadimgi turk davri. IV. O'rta turk davri* va boshq[14].

[11] H.Ne'matov va boshq. Ona tili (9-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 8-bet.

[12] A.Muxtorov, U.Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 23-bet.

[13] *Qarang:* H.Ne'matov va boshq. Ona tili (9-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 5-bet.

[14] *Qarang:* A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylar uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 27-28-betlar.

2. Eski turkiy til (XIII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha. Boshqa manbada bu davr *XI-XIV asrlar* deb olingan[15]. Shu sababli *"Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" ("Turkiy tillar devoni"), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Baxt-saodatga yo'llovchi bilim"), Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" asarlari, Ahmad Yassaviy hikmatlari shu tilda yaratilgan"* deyilgan[16].). Xorazmiyning «Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissayi Rabg'uziy", Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

3. Eski o'zbek adabiy tili[17] (XII-XIII asrdan XX asr boshigacha. Boshqa manbada bu davr *XV-XIX asrlar* deb olingan[18]). G'arbiy til an'anasida yozilgan *Qul Alining "Qissayi Yusuf" dostoni* (1232-yil) hamda sharqiy til an'anasida yozilgan *Rabg'uziyning "Qissas ul-anbiyo"* (1310-1311) asarlari o'zbek adabiy tilining shakllangan davrini ifoda etuvchi badiiy asarlardir.

A.Borovkovning e'tirof etishicha, "Tafsir" (XIII asr) tili o'zbek tilining yorqin namunasidir. *"O'g'uznoma", "Tafsir"* (Qur'onning so'zma-so'z tarjimasi, izohlar, sharhlar, tushuntirishlar), *Qutbning "Xusrav va Shirin", Sayfi Saroyining "Guliston", Xorazmiyning "Muhabbatnoma"* asarlari eski o'zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalardir.

XII–XIII asrlarda yaratilgan «Devoni hikmat», «Qissasi Rabg'uziy», «Muhabbatnoma», «Me'rojnoma», «Muqaddimat-ul adab», «Yusuf va Zulayho», «O'g'uznoma» kabi asarlar ham eski o'zbek tilini boyitgan manbalardir[19].

3. Hozirgi o'zbek adabiy tili (XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha). "Turkiston viloyati gazeti" nashr qilina boshlagan vaqtdan (1870-yildan) e'tiboran to hozirgi kungacha o'zbek tilida yaratilgan barcha asarlar hozirgi o'zbek tilining namunalari hisoblanadi.

O'zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIII asrda eski o'zbek adabiy tili shakllanib bo'ldi.

Eski o'zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog'liqdir. U eski o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi "Muhokamat-ul lug'atayn" nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o'zbek tilining boshqa tillardan, jumladan, fors-tojik tilidan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi.

[15]*Qarang:* H.Ne'matov va boshq. Ona tili (9-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 5-bet.

[16]A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylar uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 29-bet.

[17]*Qarang:* A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylar uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 31-32-betlar.

[18]*Qarang:* H.Ne'matov va boshq. Ona tili (9-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 5-bet.

[19]A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. – 15-bet.

8-§. Tillar o'rtasidagi munosabatlar

O'zbek va tojik tillari turli oilalarga mansub tillardir. Shunga qaramasdan, o'zbek tilining tarkibida ko'plab tojikcha so'zlar, tojik tilining tarkibida esa ko'pgina o'zbekcha so'zlar singishib ketgan. Chunki bu xalqlar asrlar davomida qo'ni-qo'shni bo'lib yashab, madaniyat va san'atlari, udumlari, urf-odatlari ham uyg'unlashib ketgan. Tojik tilidan o'zbek tiliga *dono, otashkurak, paypoq, dastro'mol* kabi so'zlar o'tgan. O'zbek tilidan tojik tiliga *qaymoq, qayroq, qanor, yurt* kabi so'zlar o'tgan. Lekin bu tillarning fonetikasi va grammatikasi bir-biriga o'xshamaydi.

O'zbek va rus tillari to'g'risida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin.

9-§. Tilshunoslik fanining bo'limlari

Tilshunoslik fani quyidagi bo'limlarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. **Leksikologiyada** tilning lug'at boyligi o'rganiladi. Uning lug'at tuzish masalalari bilan shug'ullanadigan bo'limi **leksikografiya** (lug'atshunoslik) deb ataladi.
2. **Fonetikada** nutq tovushlari o'rganiladi.
3. **Frazeologiyada** ko'chma ma'noli birikmalar, ya'ni iboralar o'rganiladi.
4. **So'z yasalishida** so'z yasash usullari o'rganiladi.
5. **Morfemika** bo'limida o'zak va qo'shimchalar, ularning turlari o'rganiladi.
6. **Grammatikada** tilning grammatik qurilishi o'rganiladi. U ikki bo'limdan iborat: **morfologiya** bo'limida so'z turkumlari o'rganilsa, **sintaksisda** so'z birikmasi va gap turlari o'rganiladi.
7. **Imlo(orfografiya)**da to'g'ri yozishning qonun-qoidalari o'rganiladi.
8. **Tinish belgilari (punktuatsiya)** haqidagi bo'limda tinish belgilarini qo'llash qoidalari o'rganiladi.
9. **To'g'ri talaffuz(orfoepiya)**da nutq tovushlari va so'zlarni to'g'ri aytish qoidalari o'rganiladi.
10. **Til tarixida** fonetika, lug'at boyligi, grammatikada ro'y bergan o'zgarishlar tekshiriladi.
11. **Shevashunoslikda (dialektologiya)** tildagi shevalar o'rganiladi.
12. **Uslubiyat (stilistika)da** nutq uslublari o'rganiladi.
13. **Etimologiyada** so'zlarning paydo bo'lish yo'llari o'rganiladi.
14. **Grafika** bo'limida har bir tilning harflar tizimi o'rganiladi.
15. **Semasiologiya** bo'limida so'z va gaplar ma'nosi o'rganiladi.
16. **Onomastika**da kishi ismlari, nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari o'rganiladi.
17. **Atamashunoslik (Terminologiya)** atamalarni yaratish tamoyillari va ularni tartibga solish muammolari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning maxsus bo'limidir.

Til bo'limlari quyidagi jihatlar bo'yicha ham farqlanadi:

1. **Mazmuniga ko'ra:** *Fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis.*
2. **Qo'llanishiga ko'ra:** *Alifbo, imlo, talaffuz, tinish belgilari, uslub.*

2-MAVZU.
FONETIKA

1-§. Fonetika haqida umumiy ma'lumot

Fonetika so'zi yunoncha *"fone"* – "tovush" degan ma'noni bildirib, og'zaki nutqning tovush tomoni o'rganiladigan bo'lim nomini bildiradi.

Til fikr ifodalash vositasidir. Agar fikr tovushlar yordamida ifodalansa, bu **og'zaki** nutq, harflar yordamida ifodalansa, bu **yozma nutq** hisoblanadi. Yozma nutqning xususiyatlarini o'rganadigan bo'lim **grafika** deb ataladi.

So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi axborot uzatish va shu axborotni qabul qilish jarayoni **nutqiy faoliyat** deb ataladi. Bu jarayonda axborot uzatuvchi ham, axborot qabul qiluvchi ham ma'lum faoliyat turini namoyon qiladi.

2-§. Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi

Biz gapirganimizda tovushlarni talaffuz qilamiz. Inson talaffuz qiladigan va boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan birliklar **nutq tovushlari** deb ataladi. Bu tovushlarni hosil qilishda qatnashadigan inson a'zolari **nutq a'zolari** deb yuritiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. O'pka. 2. Un paychalari. 3. Tog'aylar. 4. Og'iz bo'shlig'i. 5. Katta va kichik til. 6. Yumshoq va qattiq tanglay. 7. Yuqori va pastki lablar. 8. Yuqori va pastki tishlar. 9. Burun bo'shlig'i. 10. Bo'g'iz bo'shlig'i.

Nutq tovushlarini hosil qilishda **tovush paychalari, lablar** va **til** faol ishtirok etadi.

Nutq tovushlarining uch tomoni (belgisi) mavjud[20]:

1. Fiziologik tomoni (belgisi) deganda tovushning ma'lum nutq a'zosi ishtirokida hosil qilinishi nazarda tutiladi.

2. Akustik tomoni (belgisi) deganda tovushning balandligi, kuchi, tembri, uzunligi nazarda tutiladi.

3. Vazifaviy tomoni (belgisi) deganda tovushning so'z ma'nolarini farqlash vazifasi nazarda tutiladi.

3-§. Tovush va fonema

Tovush va fonemaning o'zaro farqi ham nutq va til o'rtasidagi o'zaro farqqa borib taqaladi. Boshqacha aytganda, tovush nutqqa tegishli tushuncha bo'lsa, fonema tilga tegishli tushunchadir.

Nutq tovushlari so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi. Bu ularning asosiy vazifasidir: *tob, toj, toy, tok, tol, tom, tor, top, tot, tosh, tog', toq.* Ko'rinyaptiki, bu so'zlar o'zaro bitta (oxirgi) tovush bilan farq qilyapti. So'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush **fonema** deb ataladi. Nutq tovushlarini hosil qilishda o'pkadan chiqayotgan havo nafas yo'li – kekirdak orqali bo'g'izga, undan og'iz bo'shlig'i yoki burun bo'shlig'iga o'tib, tashqariga chiqadi.

[20] *Qarang:* A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylar uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 37-38-betlar.

Nutq tovushlarini tasnif qilganda ularni bir-biridan farqlantiruvchi belgilar **farqlovchi** belgilar hisoblansa, shu tovushlar uchun umumiy belgilar esa **birlashtiruvchi** belgilar sanaladi: ***b*** va ***p*** tovushlari uchun lablar ishtirokida hosil bo'lish va portlovchilik belgilari **birlashtiruvchi** belgilar sanalsa, jarangli-jarangsizlik belgisi **farqlovchi** belgidir.

4-§. Unli va undosh tovushlar

Nutq tovushlari ikki xil: **unli tovushlar, undosh tovushlar**. Bular quyidagicha farqlanadi:

№	Unli tovushlar	Undosh tovushlar
1	*Unli tovushlar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi.*	*Undosh tovushlarni hosil qilishda o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo'ladi.*
2	*Unlilarni cho'zib talaffuz qilish mumkin.*	*Undoshlarni cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi*
3	*Unlilar talaffuzida tovush paychalari albatta titraydi.*	*Undoshlar talaffuzida tovush paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.*
4	*Unlilar bo'g'in hosil qilib biladi: a-ka, o-i-la, mu-do-fa-a.*	*Undoshlar bo'g'in hosil qilib bilmaydi.*

Unli fonemalar tasnifi. Unli tovushlar faqat un(ovoz)dan hosil bo'ladi. O'zbek tilida ular jami 6 ta bo'lib, yangi alifbodà 6 ta *(a, o, u, o', i, e)* harf bilan ifodalanadi. Unli tovushlar quyidagicha guruhlarga ajratiladi:

Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra			Lablarning ishtirokiga ko'ra	
old qator	orqa qator	yuqori tor unlilar	o'rta keng unlilar[1]	quyi keng unlilar	lablangan	lablanmagan
i, e, a	*u, o', o*	*i, u*	*e, o'*	*a, o*	*u, o', o*	*i, e, a*

Bu jadvalni quyidagi ko'rinishda ham ifodalash mumkin:



Undosh fonemalar tasnifi. Yangi alifbo bo'yicha o'zbek adabiy tilida quyidagi undosh tovushlar mavjud: *b, d, f, g, h, j* (vijdon), *j* (jo'ja), *k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.*

Undosh tovushlarning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega.

O'zbek adabiy tilida undoshlar quyidagicha guruhlarga bo'linadi:

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra		Hosil bo'lish usuliga ko'ra		Hosil bo'lish o'rniga ko'ra						
				Lab undoshlari		Til undoshlari				Bo'g'iz undoshi
				lab-lab	lab-tish	til oldi	til o'rta	til orqa	chuqur til orqa	
Shovqinlilar	jarangli	Portlovchilar	Sof portlov-chilar	b		d		g		
	jarangsiz			p		t		k	q	
	jarangli		Qorishiq portlov-chilar			j				
	jarangsiz					ch				
	jarangli	Sirg'aluv-chilar			v	z, j	y		g'	
	jarangsiz				f	s, sh			x	h
Ovozdor (sonor)lar	jarangli	Portlovchi-sirg'aluvchilar	Burun tovushi	m		n		ng		
			Yon tovush			l				
			Titroq tovush			r				

8 ta jarangli undosh o'zining 8 ta jarangsiz juftiga ega: *b – p, v - f, g – k, d – t, j* (qorishiq) *– ch, j* (sirg'aluvchi) *– sh, z – s, g' – x.*

Keyingi yillarda ozbek adabiy tilidagi undosh tovushlarning sal boshqacharoq tasniflari ham paydo bo'ldi[21]:

Hosil bo'lish usuliga ko'ra	Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra	Hosil bo'lish o'rniga ko'ra						
		Lab undoshlari		Til undoshlari				
		lab-lab	lab-tish	til oldi	til o'rta	til orqa	chuqur til orqa	Bo'g'iz undoshi
Portlov-chilar	jarangli	b, m		d, r, n		g, ng		
	jarangsiz	p		t		k	q	
Sirg'aluv-chilar	jarangli		v	z, j,l	y		g'	
	jarangsiz		f	s, sh			x	h
Qorishiq-lar	jarangsiz			ch				
	jarangli			dj				

5-§. Tovush o'zgarishlari

Nutq tovushlari talaffuz paytida ba'zi o'zgarishlarga uchraydi. Bular asosan ikki xil bo'ladi:

Tovush almashishi		Tovush tushishi	
Unlilar	Undoshlar	Unlilar	Undoshlar
son – sana *ong – angla* *sayla – saylov* *o'qi – o'quv*	*yutuq – yutug'i* *kurak– kuragi* *tug –tukkan* *ketdi-ketti* *maktab-maktap* *yozsin-yossin* *yigitcha-yigichcha* *tanbur-tambur* *ozod-ozot*	*shahar – shahri* *qorin – qorni* *burun – burni* *ocha oladi* *–ocholadi*	*men – mening* *past – pasay* *sust – susay* *g'isht - g'ish* *farzand – farzan* *kelsa – kesa*

[21]A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litsey talabalari uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 51-bet.

Bulardan tashqari, tovush o'zgarishlarining yana quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Singarmonizm - unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi. Bunga ko'ra so'zlarning oldingi bo'g'inida qanday unli kelsa, keyingi bo'g'inida ham shunday unli kelishi kerak: *burun, quruq, uzun.*

Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyati buzilgan. Masalan, *bola* so'zida birinchi unli til orqa bo'lsa, ikkinchisi til oldi unli.

2. Assimilyatsiya qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir. Assimilyatsiya ikki xil bo'ladi:

1) progressiv assimilyatsiya oldingi tovushning keyingi tovushni o'ziga o'xshatishidir: *aytdi – aytti, yurak+ga – yurakka.* **2) regressiv assimilyatsiya** keyingi tovushning oldingi tovushni o'ziga o'xshatishidir: *yigit+cha = yigichcha, tuz+siz = tussiz.*

3. Dissimilyatsiya ikkita o'xshash tovushning noo'xshash bo'lib qolishidir. Dissimilyatsiya ham ikki xil bo'ladi: **1) progressiv**: *birorta – bironta, zarur - zaril;* **2) regressiv**: *ittifoq – intifoq, koridor - kolidor.*

4. Metateza undosh tovushlarning o'rin almashuvidir: *tuproq – turpoq, aylanmoq – aynalmoq, yog'mir-yomg'ir, ahvol-avhol, o'granmoq-o'rganmoq.*

5. Tovush orttirilishi hodisasi so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida yuz berishi mumkin: *stakan - istakan, stol – ustol, fikr–fikir, doir–doyir, tank–tanka, disk–diska.*

6. Tovush moyillashuvida quyidagi hodisa yuz beradi: talaffuz jarayonida ikkita jarangsiz tovushdan biri ikkinchisini o'ziga to'liq emas, qisman o'xshatib oladi: *maqtov – maxtov, to'qson – to'xson, taqsim – taxsim, maqsad – maxsad* va h.

6-§. Bo'g'in va uning turlari

O'pkadan chiqayotgan havo to'lqiniga bir zarb berish bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig'indisi bo'g'in deyiladi: *ki-tob-lar, o-i-la.*

Unli tovush bilan tugagan bo'g'in **ochiq**, undosh bilan tugagan bo'g'in **yopiq** bo'g'in hisoblanadi. Yopiq bo'g'inlar: *daf-tar, gul-don.* Ochiq bo'g'inlar: *o-i-la, to-la.*

Har bir bo'g'in tarkibida unli tovush bo'lishi shart, demak, so'z tarkibida nechta unli tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi. Bo'g'in tarkibida undoshlar qatnashmasligi ham mumkin: *u-ka, o-na.* O'zbek tilida quyidagi bo'g'in shakllari mavjud: bir undoshli: *ot, bu;* ikki undoshli: *ost, non;* uch undoshli: *to'rt, shart;* to'rt undoshli: *sport, start.*

Bo'g'inning amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) yozuvda bir satrga sig'may qolgan so'z keyingi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi;

2) birinchi sinf o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatish bo'g'in asosida amalga oshiriladi;

3) she'riy misralarda bo'g'inlar sonining tengligi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

7-§. Segment va ustsegment birliklar haqida[22]

Og'zaki nutq oqimi ketma-ket joylashgan hamda bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar tizimidan iborat. Bunday bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar qatori **segment birliklar qatori** hisoblanadi. Og'zaki nutq faqat segment birliklardangina tashkil topmaydi. Bulardan tashqari ketma-ket tovushlar qatori ustiga qo'yiladigan **ustsegment birliklar** ham mavjud.

Ustsegment birliklar **urg'u, to'xtam (pauza), nutqning emotsional bo'yog'i (darak, so'roq, buyruq, his-hayajon va boshqalar)** kabilarni o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan ustsegment birliklarning jami **nutq intonatsiyasini (ohangini)** tashkil etadi.

Og'zaki nutq segment birliklar bilan ustsegment birliklarning o'zaro munosabatidan iborat bo'ladi.

8-§. Urg'u va uning turlari

So'z bo'g'inlaridagi unli tovushlardan birining yoki gap tarkibidagi ayrim so'zning boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi **urg'u** deyiladi. Urg'u yozuvda (') belgisi bilan ifodalanadi: *bolá, paxtá, yumshóq.* So'zning urg'u tushgan bo'g'ini urg'uli bo'g'in, qolganlari urg'usiz bo'g'in deyiladi. Urg'u ikki xil bo'ladi:

1. So'z urg'usi so'z tarkibidagi ayrim unli tovushning kuchliroq aytilishidir: *qalám – qalamdón – qalamdondá.* O'zbek tilida so'z urg'usi, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zlarga qo'shimcha qo'shila borishi bilan urg'u ham ko'cha boradi: *g'allá, g'allakór, g'allakorlár, g'allakorlargá.* O'zbek tilida so'z urg'usi birinchi va o'rta bo'g'inlarga tushadigan so'zlar ham bor: *hámma, kímdir, albátta, afsúski, hátto* kabi. Urg'usi turli bo'g'inga tushadigan ko'p so'zlar tilimizga kirib, o'zlashmoqda: *rúchka, gazeta, matemátika, respúblika* va b.

O'zbek tilida quyidagi birliklarning oxirgi bo'g'iniga urg'u tushmaydi:

1) qo'shimcha ko'rinishidagi *-chi, -mi, -ku, -dir, -gina, -da, -oq(-yoq)* yuklamalari qo'shilgan so'zlar; bunda urg'u mazkur yuklamalardan oldingi bo'g'indagi unliga tushadi: *keldíngmi, bugún-chi, kechágina* va b.

2) *hámma, bárcha, bári, hátto, albátta* kabi so'zlarning oxirgi bo'g'iniga urg'u tushmaydi.

O'zlashma so'zlardagi urg'u tushgan ***o*** unlisi aniq talaffuz qilinadi va urg'u oladi: *futból, kóllej.* Urg'u tushmagan bo'g'indagi ***o*** unlisi esa ***a*** tovushiga

[22] *Qarang:* A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litsey talabalari uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 76-bet.

o'xshab talaffuz qilinadi: *motór (matór), fontán (fantán), vodoprovód (vadapravód). Tráktor, dóktor* kabi so'zlar oxiridagi urg'usiz ***o*** unlisi ***i*** unlisiga yaqin talaffuz qilinadi: *tráktir, dóktir.*

Urg'u so'z ma'nolarini farqlash uchun ham xizmat qiladi: *olmá* (meva) – *ólma* (harakat), *yangí* (sifat) – *yángi* (ravish), *qishloqchá* (ot) – *qishlóqcha* (ravish).

2. Gap (mantiqiy, logik, ma'no) urg'usi gap tarkibidagi ayrim so'zlarning kuchliroq aytilishidir; urg'u olgan so'z har doim kesim oldida joylashadi: *Bugun **maktabga** bordim. Maktabga **bugun** bordim.*

3-MAVZU.
GRAFIKA (YOZUV). ORFOEPIYA. ORFOGRAFIYA (IMLO)

1-§. O'zbek alifbosi haqida

Nutq tovushlari nutqning eng kichik, bo'linmas qismidir. Nutq tovushlarining yozuvdagi shakli **harf** deb ataladi. Nutq tovushlarini talaffuz qilamiz va eshitamiz. Harflarni esa ko'ramiz, yozamiz va o'qiymiz. Ma'lum tartibda joylashgan harflar qatori **alfavit** (yoki alifbo) deyiladi. Lug'atlarda, turli ro'yxatlarda so'zlar alfavit tartibida joylashtiriladi. Masalan, barcha lug'atlardagi so'zlar, saylovchilar ro'yxati, kutubxona kartotekasida mualliflarning familiyalari, kitoblarning nomlari alfavit tartibida joylashtirilgan bo'ladi. Shu sababli alfavitni yoddan bilishimiz zarur.

Dastlab nutq faqat og'zaki shaklda bo'lgan. Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum davrida hayotiy zaruriyat natijasida asta-sekin yozuv yaratilgan. Tarixchilarning aniqlashicha, yozuv dastlab Messopotamiya degan joyda paydo bo'lgan va bu yozuv tarixga **mixxat** nomi bilan kirgan.

Eramizdan oldingi V–IV asrlarda Markaziy Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida mixxat ishlatilar edi. Hozirgi eramizdan boshlab taxminan VI asrgacha **so'g'd (sug'd)** yozuvi ishlatilgan. V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar **O'rxun-Enasoy** yozuvidan foydalanishgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari dastlab Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida topilgan. Shunga nisbatan qadimgi turkiy yozuv O'rxun-Enasoy obidalarining yozuvi deb ham yuritiladi. 1893-yili daniyalik olim V.Tomsen va rus olimi V.V.Radlovlar qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. O'rxun-Enasoy yozuvlari Rim yozuvlariga o'xshab ketganligi uchun **run (turkiy run, runik)** yozuvlari yoki **dulbarchin** deb ham yuritiladi.

Markaziy Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi mahalliy xalqi sak va massaget urug'lari bo'lib, ularning ham o'z yozuvlari mavjud edi. Ana shu yozuvdan qadimiy **xorazmiy** va **so'g'd** yozuvlari yaratilgan.

1970-yillargacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Keyingi topilmalar turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o'tmisbdan izlamoq kerak, degan xulosani chiqarishga asos

bo'ldi. 1988-yilda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan ko'za topildi. Uning bandi sirtiga qadimiy turkiy bitik o'yib tushirilgan ekan. Bu bitik VII-VIII asrlarga oid turkiy obidalardan yosh jihatidan qariyb I-II asrcha qadimiyroqdir.

VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar uyg'ur yozuvidan foydalanishgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklarning eng qadimgisi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Vena kutubxonasidagi nusxasidir. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari uyg'ur yozuvida yozilgan. Uyg'ur yozuvi X-XV asrlarda mavjud bo'lib, arab yozuvi bilan ma'lum davrgacha baravar ishlatilgan.

720-yildan arab yozuvi tarqala boshlagan. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Bular Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Qohira nusxalaridir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari ham arab yozuvida yozilgan. Xalqlarimiz taxminan 1200 yildan ko'proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalanganlar. 1929-yildan lotin alifbosi asosidagi yangi yozuvga o'tilgan edi. 1940-yildan boshlab esa rus (kirill) grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga o'tildi.

Bizning davrimizda jahondagi xalqlar **220** xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvlardan juda keng tarqalgani lotin yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30 foizidan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. 1993-yil 2-3-sentabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengash yig'ilishida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga ayrim o'zgarishlar kiritildi va bu yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. 2004-yilda chiqarilgan qonunga ko'ra esa lotin yozuviga to'liq o'tish muddati 2010-yil sentabriga qadar cho'zildi[23].

Isloh qilingan yangi o'zbek alifbosida **29** ta harf bor. Shulardan 3 tasi harfiy birikma: **sh, ch, ng.**

YANGI O'ZBEK ALIFBOSI

Aa(1) **Bb**(2) **Dd**(3) **Ee**(4) **Ff**(5) **Gg**(6) **Hh**(7) **Ii**(8) **Jj**(9) **Kk**(10) **Ll**(11) **Mm**(12) **Nn**(13) **Oo**(14) **Pp**(15) **Qq**(16) **Rr**(17) **Ss**(18) **Tt**(19) **Uu**(20) **Vv**(21) **Xx**(22) **Yy**(23) **Zz**(24) **O'o'** (25) **G'g'** (26) **Sh sh**(27) **Ch ch**(28) **Ng ng**(29).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA[24]

O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan.

Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-

[23] "Qalqon" jurnali. – 2004, 7-son.

[24] Toshkent: O'zbekiston, 1993. – 4-6-betlar.

xohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishni jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

1-modda. O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan quyidagi 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o'zbek alifbosi joriy etilsin:

Lotinча			Kirillча	Lotinча			Kirillча
Harflar			Harflar	Harflar			Harflar
Bosma	Yozma	Talaffuz		Bosma	Yozma	Talaffuz	
A a	*A a*	a	А а	R r	*R r*	er	Р р
B b	*B b*	be	Б б	S s	*S s*	es	С с
C c	*C c*	ce	Ц ц	T t	*T t*	te	Т т
D d	*D d*	de	Д д	U u	*U u*	u	У у
E e	*E e*	e	Э э	V v	*V v*	ve	В в
F f	*F f*	ef	Ф ф	X x	*X x*	xa	Х х
G g	*G g*	ge	Г г	Y y	*Y y*	yo	Ё ё
H h	*H h*	he	Ҳ ҳ	Z z	*Z z*	ze	З з
I i	*I i*	i	И и				
J j	*J j*	je (Юра)	Ж ж (Жўра)	Ch ch	*Ch ch*	che	Ч ч
K k	*K k*	ka	К к	Gʻ gʻ	*Gʻ gʻ*	gʻa	Ғ ғ
L l	*L l*	el	Л л	J j	*J j*	je (ajdod)	Ж ж (аждод)
M m	*M m*	em	М м	Ng ng	*Ng ng*	ne	Нг нг
N n	*N n*	en	Н н	Oʻ oʻ	*Oʻ oʻ*	o (ordak)	Ў ў (ўрдак)
O o	*O o*	o (ota)	О о (ота)	Sh sh	*Sh sh*	she	Ш ш
P p	*P p*	pe	П п	(ʻ)— tutuq belgisi (апостроф)			
Q q	*Q q*	qa	Қ қ				

2-modda. Lotin yozuvi asosidagi o'zbek yozuvini joriy etish bilan birga O'zbekiston xalqining milliy iftixori bo'lmish bebaho ma'naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o'rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: I.A.KARIMOV

Toshkent shahri, 1993-yil 2-sentabr

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA"GI QONUNIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrida qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 331-modda) quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1. 1-moddadagi "31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan" so'zlari "26 harf va 3 ta harflar birikmasidan" so'zlari bilan almashtirilsin.

2. *Ş ş, J j* harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarilsin.

3. *Öö* harfi *Oʻ oʻ* shaklida, □□ harfi *Gʻ gʻ* shaklida, *Şş* harfi *Sh sh* shaklida, *Çç* harfi *Ch ch* shaklida, *Ñ ñ* harfi *Ng ng* shaklida, □ harf belgisi *ʻ* shaklida ifodalansin.

4. *Aa, Ii, Gg, Gʻgʻ, Qq, Oʻoʻ, Zz* harflari va *Ch ch* harflar birikmasining yozma shakli tegishlicha tarzda ifodalansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: I. KARIMOV

Toshkent shahri, 1995-yil 6-may

ORFOEPIYA (TALAFFUZ) QOIDALARI

To'g'ri talaffuz qoidalarining yig'indisi **orfoepiya** (grekcha: *orphos* – to'g'ri, *epos* – nutq) deb yuritiladi. To'g'ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi. Talaffuz me'yorlari deganda ma'lum bir qonun-qoidalarga amal qilib so'zlash tushuniladi.

Unlilar orfoepiyasi

Aa unlisi *savob, zamon* singari so'zlarda **o** kabi, *muomala, munosabat, muhokama* kabi so'zlarda **i** kabi talaffuz qilinadi.

Oo unlisi *tonna, noyabr* so'zlarida **o'** kabi talaffuz qilinadi.

Ii unlisi *bir, sira* so'zlarida qisqa, *ilm, muhim, doir* so'zlarida cho'ziq, ***q, x, g'*** tovushlaridan keyin kelganda ruscha **ы** tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. *Mix, tig', xil* kabi so'zlardagi ***i*** tovushi esa ***e*** tovushiga yaqin aytiladi.

Uu unlisi *kuch, tutun* kabi so'zlarda qisqa, *uyg'ur, yozuv* so'zlarida cho'ziq va torroq talaffuz qilinadi.

O'o' unlisi *o'tin, o'roq, to'liq* kabi so'zlarda keng, *o'rik, ko'lmak* kabi so'zlarda esa torroq talaffuz qilinadi.

Ee unlisi *Feruz, dehqon, telefon, adres* so'zlarida ***i*** tovushiga yaqin aytiladi.

Ayrim undoshlar orfoepiyasi

Bb undoshi *kitob, maktab* so'zlari oxirida kelganda ***p*** tarzida, *kelaber, sabab, kabob, dorboz* so'zlari o'rtasida kelganida ***v*** tarzida aytiladi.

Vv undoshi chetdan kirgan *avtobus, avtomat, Ivanov* so'zlarida ***f*** kabi aytiladi.

Gg undoshi ***k, q*** bilan tugagan so'zlarda ***k*** va ***q*** tarzida aytiladi: *ek+gan=ekkan, chiq+gan=chiqqan.*

Dd undoshi *obod, ozod* kabi so'zlar tarkibida kelganda ***t*** kabi aytiladi, *xursand, farzand* kabi so'zlarda undoshdan keyin kelganda esa tushib qoladi.

Jj qorishiq portlovchi undoshi *avj, mavj* so'zlarida ***ch*** kabi aytiladi.

Jj sirg'aluvchi undoshi chetdan kirgan *furajka, telejka* kabi so'zlarda ***sh*** kabi aytiladi.

Zz undoshi *sakkizta, tuzsiz* kabi so'zlarda yonidagi tovush ta'sirida ***s*** kabi aytiladi.

Nn undoshi *manba, tanbur, shanba* kabi so'zlarda ***m*** kabi aytiladi.

Ff undoshi *fakt, taft* kabi so'zlarda ***p*** kabi aytiladi.

Qq undoshi *maqsad, taqsimot, to'qson, oqshom* kabi so'zlarda ***x*** kabi aytiladi.

Chet tillardan kirgan *traktor, direktor* kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi unli deyarli talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi.

3-§. Talaffuz va ohang

Talaffuzda ohang muhim o'rin tutadi. Ohang vositasida so'z birikmalari va gap, uning bo'laklari farq qilinadi: *Ko'ksaroy* (ot, atoqli ot) – *ko'k saroy* (so'z birikmasi). Gap bo'laklari talaffuz qilinganda, ular orasida to'xtam (pauza) qilinadi. Ikkita qisqa to'xtam orasidagi nutqiy bo'lak **sintagma** deb yuritiladi: *Dalaga chiqib, // tabiat qo'ynida dam oldik.* To'xtamning o'zgarishi gap mazmuniga ta'sir qiladi: *1. Mashinadan // ikki bolali ayol tushdi. 2. Mashinadan ikki // bolali ayol tushdi.* 1-gapda ayol bitta, bola ikkita, 2-gapda esa ayol ikkita. Sintagmalar orasiga yozuvda ba'zan vergul qo'yiladi, ba'zan qo'yilmasligi ham mumkin.

Misollar: *1. Haligi // sumka ko'targan qizini chaqirdi. Haligi sumka ko'targan // qizini chaqirdi. 2. Bu ishing yomon // bo'lmadi. Bu ishing yomon bo'lmadi. 3. Ona aziz // farzandiga yelni ham ravo ko'rmaydi. Ona aziz farzandiga yelni ham ravo ko'rmaydi.*

ORFOGRAFIYA (IMLO) VA UNING QOIDALARI

Tilda so'zlar va qo'shimchalar ma'lum qoidalar asosida yoziladi. Bu qoidalar yig'indisi **imlo (orfografiya)** deb yuritiladi. Imloda to'g'ri yozish me'yorlari o'rganiladi. Imlo quyidagi qoidalarga (tamoyillarga) asoslanadi:

1. Fonetik yozuv (tamoyil). Bu qoidaga muvofiq ba'zi so'z va qo'shimchalarni eshitganimiz bo'yicha yozish mumkin:

a) ko'k+ga = ko'kka;
b) og'iz+im = og'zim, burun+im = burnim;
d) yosh+a = yasha, ong+la = angla;
e) ikki+ov = ikkovi, yetti+ovi = yettovi;
f) so'ra+q = so'roq, bo'ya+q = bo'yoq;
g) kes+dir = kestir, kel+dir = keltir;
h) ishlay ber (ishlayver), kela oldi (keloldi).

2. Morfologik yozuv (tamoyil). Bu qoidaga ko'ra so'z o'zagi va qo'shimchalar aynan, asliga muvofiq yoziladi:

a) ketti emas *ketdi, aytipti* emas *aytibdi;*
b) Toshkenttan emas *Toshkentdan;*
d) ishka emas *ishga;*

e) kulub, uchunchi, tug'uldi emas *kulib, uchinchi, tug'ildi* yoziladi.

3. Shakliy (etimologik) yozuv(tamoyil). Bu qoidaga ko'ra boshqa tillardan kirgan so'zlar o'sha tillarda qanday yozilsa, shunday yoziladi: *stol* (*ustol* emas), *bank (banka* emas), *teatr* (*tiatr* emas), *soldat* (*sallot* emas)[25].

4. Tarixiy-an'anaviy yozuv bo'yicha so'z va qo'shimchalar tarixan, an'anaviy tarzda qanday yozib kelingan bo'lsa, hozir ham shunday yozilishi mumkin: *schyot - cho't, borgil, borur* (*borgin* va *borar* bilan bir qatorda).

5. Differentsiatsiyalash (farqlash) yozuvi(tamoyili) so'zlarni urg'u yoki boshqa fonetik vositalar (masalan, tutuq belgisi) yordamida farqlab yozishdir: *olmá – ólma, sher – she'r.*

4-MAVZU.

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

1995-yil 24-avgustda qabul qilingan asosiy imlo qoidalari quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:
a) unlilar imlosi (1-7-bandlar);
b) undoshlar imlosi (8-32-bandlar).
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-bandlar)
3. Qo'shib yozish (38-50-bandlar)
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar)
5. Ajratib yozish (57-65-bandlar)
6. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar)
7. Ko'chirish qoidalari (75-82-bandlar)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI[26]

1995-yil 24-avgust 339- son Toshkent shahri

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARINI TASDIQLASH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda

[25] *Misollar olindi:* G'.Abdurahmonov, H.Rustamov. Ona tili (10-sinf uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2003. – 20-bet.

[26] *Qarang:* T.Tog'ayev va boshq. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. – T.: Sharq, 2004. – 31-48-betlar.

ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat matbuot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo'llanma sifatida o'zbek tilining imlo lug'atini, kishi ismlari va joy nomlari lug'atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko'rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo'limlariga yuklansin.

VAZIRLAR MAHKAMASINING
RAISI I. KARIMOV

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

1. Aa harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, *vaqt, vahm* kabi so'zlarda **a** aytiladi va yoziladi.

2. Oo harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. Ii harfi:

1) *ish, iz, qil, xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki, volida, piramida, bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o'tin, o'rik, bo'lim* kabi oldingi bo'g'inida o' unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. Uu harfi:

1) *uy, kun, buzoq, buloq, Buxoro, butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura, ko'zgu, uyqu, aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. O'o' harfi *o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. Ee harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba'zan **y** *undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:*

a) ia: material, milliard, radiator; tabiat, shariat kabi;

b) io: biologiya, million, stadion, radio kabi;

d) ai: mozaika, ukrain, said, maishat kabi;

e) oi: alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila kabi;

f) ea: teatr, okean, laureat kabi;

2) ***ae, oe*** *unlilar so'z ichida kelganda ikkinchi unli* **y** *aytilsa ham, asliga muvofiq* **e** *yoziladi: aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

8. Bb harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so'zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so'zlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so'zlarda ba'zan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. Pp harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so'zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. Vv harfi:

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so'zlarda ovozdor sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o'zlashma so'zlarda **v** ba'zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. Ff harfi:

1) *fan, fe'l, futbol, fizika, asfalt, juft, insof, isrof* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so'zlarda **f** tovushi ba'zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. Mm harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi so'zlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. Dd harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi so'zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *odob, savod, marvarid, zavod, pud, sud; badqovoq, badxo'r* kabi so'zlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. Tt harfi *tong, tun, butun, o'tin, o't, kut* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. Zz harfi:

1) *zar, zamon, toza, o'zbek, yoz, g'oz* kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. Ss harfi *sog', somon, oson, asos, olmos* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. Sh sh harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik, ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq (') belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

18. Jj harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat, rivoj, vaj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor, gijda, ajdar, tiraj* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. Ch ch harflar birikmasi *choy, chevar, chiroyli, chaman, achchiq, uchun, bichiqchi, kuch, kech* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. Rr harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi so'zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. Ll harfi *lola, loyiq, la'l, iloj, mahal* kabi so'zlarda sirg'aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. Nn harfi:

1) *non, nomus, ona, tana, bilan, tomon* kabi so'zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik, yonma-yon, ko'rinmaslik* kabi so'zlarda **n** tovushi ba'zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. Gg harfi *gul, go'zal, ega, gugurt, teg, eg* kabi so'zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. Kk harfi *ko'l, ko'ylak, uka, moki, tok, bilak* kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. Yy harfi *yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz, tuya, dunyo, tayyor, soy, tuy* kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. Ng ng harflar birikmasi *yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz, tong, ming, teng* kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. Qq harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. G'g' harfi *g'oz, bag'ir , tog'* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. Xx harfi *xabar, xo'roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. Hh harfi *hosil, hamma, bahor, isloh, nikoh* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd, do'st, artist, g'isht* kabi so'zlarda **d, t** tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar=metallar, kilogramm+mi=kilogrammi* kabi.

32. ' – tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim, ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda **o'** unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, *tutuq belgisi qo'yilmaydi;*

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi - o'quvchi, qazi - qazuvchi, sovi - sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri-og'riq, qavi-qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: *ol-oluv, yoz-yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: *uz - uzuq, yut - yutuq* kabi.

Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq (shuningdek, bulduriq)* kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

34. k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak - tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi; tayoq-tayog'i, qo'shiq-qo'shig'i, yaxshiroq-yaxshirog'i, yo'q-yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir, ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, olti, yetti* so'zlariga *-ov, -ala* qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin-o'rnim, qorin-qorni, burun-burning, o'gil-o'g'ling, ko'ngil-ko'ngli, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug' - ulg'ay, sariq-sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov* kabi;

2) **u, bu, shu, o'sha** olmoshlariga **-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -cha** qo'shimchalari qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o'shancha kabi;* bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

3) **o, o', u, e** unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari)** shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro'; mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro' ; mavqe* so'zlariga **-yi** shaklida, *xudo, mavzu* so'zlariga esa **-si** shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi **y** undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda **-si** qo'shiladi: *dohiysi* kabi);

4) **men, sen** olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo'shimchalari ba'zan **-von, -voz** aytilsa ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi: *darvozabon, masxaraboz* kabi. Lekin **-vachcha** qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi **-di** qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan **t** aytilsa ham, hamma vaqt **d** yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi **-illa (chirilla, taqilla)** qo'shimchasi so'z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bolganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g`inli so'zlarga *(kel so'zidan boshqa)* , shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi *-gacha*, ravishdosh shaklini yasovchi *-gach, -guncha, -gani, -gudek*, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi **-gin**, shuningdek, **-gina** qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalaming bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkan, ekkin, kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, tiqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek, achchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat'i nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi.

QO'SHIB YOZISH

38. Xona, *noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mi-joz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan **qo'shma ot** va **qo'shma sifatlar** qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug`doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. -(a) r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki **obod** so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'ma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalaming barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUning* kabi. Lekin yonma-

(kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi)* kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.*

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *"Tong" (mehmonxona), "Saodat" (firma), „Navro'z" (xayriya jamg'armasi), "Kamalak" (matbaa birlashmasi), „G'uncha" (bog'cha), "Botanika" (sanatoriy), "Paxtakor" (stadion), "Qutlug' qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich)* kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekison Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *"O'zbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal).* Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *"Sog'lom avlod uchun" (orden), "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa a'lochisi" (nishon)* kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim.*

Eslatma:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa) kichik harf bilan yoziladi: *"Bu men", – qo'rqibgina javob berdi ko'laga* (O.Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

– *mazkur ishni ko'rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;*

– *ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;*

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:

1) umumturkiy so'zlar; 2) o'zbekcha so'zlar; 3) tojik tilidan kirgan so'zlar; 4) arab tilidan kirgan so'zlar; 5) rus tilidan kirgan so'zlar ("O'zbek tili" darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi)* kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti)* kabi.

KO'CHIRISH QOIDALARI

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-ta-kor, paxta-kor* kabi. **Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi:** *va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi.

2) uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi **(sh, ch, ng)** birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *5 - "A" sinf, V "B" guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.*

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: *"Navro'z-92" (festival), "O'qituvchi-91"*

(ko'rik tanlov), "Andijon-9", "Termiz-16" (g'o'za navlari), "Boing-767" (samolyot), „Foton-774" (televizor) kabi.

82. *A.J.Jabborov, A. D. Abduvaliyev* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** *(va boshqalar)*, **sh.k.** *(shu kabilar)* singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

Eski (1956-y.) va yangi (1995-y.) imlo qoidalari o'rtasidagi ayrim farqlar haqida

Yangi alifboga o'tilgandan keyin 1995-yil 24-avgustda "O'zbek alifbosining yangi imlo qoidalari" qabul qilindi. Oldingi imlo qoidalari bilan hozirgi imlo qoidalari o'rtasida quyidagi ayrim o'zgarishlar mavjud:

1) juft so'zlar orasida bog'lovchi bo'lib kelgan yuklamalar o'zi bog'langan so'zdan chiziqcha bilan ajratiladi: *do'st-u dushman, kecha-yu kunduz;*

2) yil, oyni ko'rsatuvchi raqamlardan keyin ham chiziqcha qo'yiladi: *1995-yil 24-avgust, 1993-yil 2-sentabr;*

3) kirilchadagi ***ts*** harfi so'z boshida va oxirida ***s*** harfi bilan beriladi: *цирк – sirk, абзац – abzas.* So'z o'rtasida unlidan keyin ***ts*** harfiy birikmasi, undoshdan keyin esa ***s*** harfi bilan beriladi: *лицей – litsey, акция – aksiya.*

4) ***-ga*** qo'shimchasi ***g'*** tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda morfologik yozuv bo'yicha asliga muvofiq yoziladi: *bog'+ga= bog'ga, tog'+ga= tog'ga.*

5) oldin shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yozib kelingan juda ko'p chet tili so'zlari endilikda fonetik yozuv bo'yicha yoziladigan bo'ldi: *sentabr (сентябрь), oktabr (октябрь), budjet (бюджет), rejissor (режиссёр), likor (ликёр).*

6) ayrim so'zlar esa oldin fonetik yozuv bo'yicha yozilgan bo'lsa, yangi alifboda morfologik yozuvga ko'ra yoziladigan bo'ldi: *ertalabki* emas *ertalabgi.*

Fonetik tahlil namunasi	
1. So'zda necha tovush, necha harf bor? *2. Unli va undosh tovushlar aniqlanib, tasniflanadi.* *3. Tovush o'zgarishlari aniqlanadi.*	*4. So'z bo'g'inga ajratilib, turlari aniqlanadi.* *5. So'zning urg'usi aniqlanadi.* *6. So'z qaysi yozuv qoidasi bo'yicha yozilgan?*

5-MAVZU.
LEKSIKOLOGIYA

1-§. Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot

Biz o'z fikrimizni gap bilan ifodalaymiz. Gap so'zlardan tuziladi. So'z tilning qurilish materialidir, shuning uchun so'zni bilmay turib tilni bilish mumkin emas. Tildagi so'zlarning barchasi tilning lug'at boyligini, ya'ni leksikasini tashkil qiladi.

Leksika so'zi yunoncha ***leksis*** so'zidan olingan bo'lib, ***so'z*** degan ma'noni bildiradi. ***Leksikologiya*** so'zi esa ***leksis*** – so'z, ***logos*** – fan, ta'limot degan ma'nolarni bildiradi. Demak, leksikologiya so'z va uning ma'nosi haqidagi ta'limot, fan ekan.

2-§. So'z ma'nosi haqida

So'zning borliqdagi shaxs, narsa, belgi, harakat, miqdor, holat, payt, o'rin, sabab kabi tushunchalarni ifodalashi so'zning **atash (lug'aviy) ma'nosi** deyiladi: *chaqaloq* (yangi tug'ilgan inson), *yo'lbars* (yirtqich hayvon), *yashil* (rang), *uchmoq* (havoda harakatlanmoq), *sakkiz* (miqdor nomi), *ertalab* (payt), *tez* (holat), *pastda* (o'rin), *noiloj* (sabab).

Mustaqil so'zlargina atash ma'nosiga egadir. Mustaqil so'zlarga mansub bo'lgan olmoshlar atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarga ishora qiladi: *Keyin* ***Mulla Fazliddin*** *devorga xomaki naqsh chizayotganda Xonzoda begim* ***uning*** *oldiga kelib, ishini qiziqib tomosha qila boshladi. (P.Q.)* Bu gapdagi *Mulla Fazliddin* so'ziga *uning* olmoshi ishora qilyapti.

3-§. So'z va leksema[27]

Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi **so'z** sanaladi.

Grammatik ma'nosiz, faqat leksik (lug'aviy) ma'no bildiruvchi til birligi **leksema** hisoblanadi.

So'z morfologiya birligi sifatida, **leksema** esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi. So'zlar leksema va grammatik qo'shimchalarga bo'linadi. Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi.

4-§. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar

Ayrim so'zlar gapdan tashqarida ham, gap ichida ham bir ma'noni bildiradi. Bunday so'zlar **bir ma'noli (monosemantik)** so'zlar deyiladi. Gapdan tashqarida bir ma'noni, gap tarkibida boshqa ma'noni ifodalaydigan so'zlar **ko'p ma'noli (polisemantik)** so'zlar deyiladi. *Qush, chumchuq, men, sen, kechagi, bugun* kabi so'zlar bir ma'noli so'zlardir. *Tosh yo'l, tosh yurak.* Bunda *tosh* so'zi ko'p ma'noli so'zdir. Polisemiya (ko'p ma'nolilik) tildagi deyarli barcha turkum so'zlarga xosdir.

Yasovchi qo'shimchalarning ko'p ma'noliligi sababli ham yasama so'z ko'p ma'noga ega bo'lishi mumkin: *Yog'li (yog'i bor) qo'lini sochiqqa artdi. Yog'li (yog'i ko'p) palov yedik.*

5-§. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari

Ayrim so'zlarning o'z ma'nosi va ko'chma ma'nosi bo'ladi. So'zning gapdan tashqarida ifodalaydigan, nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan ma'nosi **bosh (o'z) ma'no** deyiladi. So'zning boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan,

[27] *Qarang:* A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litsey talabalari uchun darslik). II kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 183-184-betlar.

izohlanadigan ma'nosi **ko'chma ma'no** deyiladi: *ko'z* – ko'rish a'zosi (o'z ma'nosi), *ignaning ko'zi* – ko'chma ma'no; bosh – odamning ta'na a'zosi (o'z ma'nosi), *ko'chaning boshi* – ko'chma ma'no[28].

6-§. Ma'no ko'chish usullari

O'zbek tilida ma'no ko'chishning quyidagi usullari mavjud:

1. Metafora (grekcha: *ko'chirish*) – biror predmet shaklining, belgisining, harakatining o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirishdir: **shakliy o'xshashlik** – *odam qulog'i* (o'z ma'no.) – *qozonning qulog'i* (ko'chma ma'no). Umuman mavjudotlarning a'zolari bilan bog'liq ko'chishlar juda ko'p uchraydi: *stolning oyog'i, arraning tishi, varrakning dumi, o'choq og'zi, ariqning labi, egarning qoshi, yog'ochning beli, maktabning biqini (yonboshi), rubobning qorni, ko'chaning boshi, kemaning tumshug'i* va hokazo. **Belgi o'xshashligi** – *yengil* eshik (o'z ma'no) – *yengil* ta'zim (ko'chma ma'no): *issiq yuz, sovuq xabar, shirin so'z, achchiq haqiqat, oq (qora) ko'ngil, bemaza gap, yorug' yuz, ochiq ko'ngil.* **Harakat o'xshashligi** – *ipni uzmoq* (o'z ma'no) – *qarzni uzmoq* (ko'chma ma'no). O'zbek tilidagi harakat bildiruvchi deyarli har bir so'z ko'chma ma'noga egadir.

2. Metonimiya (grekcha: *qayta nomlash*) – narsa, belgi va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'no ko'chishidir. Bunda:

1) narsaning nomi shu narsa ichidagi boshqa bir narsaga ko'chiriladi: *auditoriya* – xona; *auditoriya kuldi* – xona ichidagi odamlar; 2) narsaning nomi shu narsaga asoslangan o'lchov birligi nomiga ko'chiriladi: *qop* – narsa = *besh qop (shakar) oldi*; 3) o'lchov birligi nomi shu o'lchov birligi bilan bog'liq bo'lgan narsa nomiga ko'chiriladi: *to'qson besh* – o'lchov birligi = *to'qson besh choy* –choy navi; 4) muallifning nomi uning asarlariga ko'chiriladi: *Navoiyni ko'p mutolaa qilgan.*

3. Sinekdoxa (grekcha: *birga anglash, nazarda tutish*) – shaxs yoki predmet qismi nomini aytish bilan uning o'zini tushunish yoki o'zining nomini aytish bilan uning qismini tushunish asosida ma'no ko'chishidir. Sinekdoxaning quyidagi turlari mavjud: 1) qism nomi butunga ko'chadi: *Dunyoda o'zimizdan keyin qoladigan tuyog'imiz*... (A.Qodiriy). *Tirnoq* (farzand ma'nosida), *ko'z* (mahalla qora ko'zlari), *quloq (Eshitgan quloq nima deydi?), qo'l (egri qo'llar), oyoq (qing'ir oyoqlar* – o'g'rilar ma'nosida. *Cho'loqqa achinish bilan qaramoq* (cho'loq oyoqli odam ma'nosida)), *bosh (Bu bosh nimalarni ko'rmadi?!), yostiq* (hayot, umr ma'nosida – *Urush ko'plarning yostig'ini quritdi*), *yurak (Sher yuraklar jangda chekinmaydilar!), bo'yin (... yo'g'on bo'yinlar bekor yurishibdi), tish (Sichqon tish tirjayib javob berdi...), soch (Jingalak soch burilib qaradi.), yuz (Rapida yuz yoyilib kuldi.)* so'zlari ham sinekdoxaning shu turiga misol bo'la oladi; 2) butun nomi qismga ko'chadi: *qo'l (Besh qo'l barobar emas), panja (Besh panjangni og'zingga tiqma), osh* (umuman ovqat ma'nosidan palov ma'nosiga ko'chadi) kabi so'zlardagi ma'no ko'chishi sinekdoxaning shu turiga misol bo'la oladi.

[28]*Qarang:* 3-ilova. Navoiy asarlari lug'atidan olingan bosh so'zi bilan bog'liq ko'chma ma'nolar.

4. Kinoya – so'zlarning aks ma'noda qo'llanishidir. Bunday ko'chishlarni kuchaytirish uchun so'zlar yozuvda qo'shtirnoqqa olinadi: *Qo'shinning oldingi qismi "dushman" lagerini egallashga ulgurgan edi.*

5. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi narsalarning bajaradigan vazifasi o'xshashligi jihatidan ma'no ko'chishidir: *o'q* – yoy o'qi, *o'q* – miltiq o'qi, *tomir* – daraxt ildizi, *tomir* – qo'l tomiri, *siyoh* – yozuvda qo'llanadigan qora rangdagi suyuqlik (*siyoh* – fors-tojikcha *qora* deganidir), *siyoh* – yozuvda shu vazifani bajaradigan har qanday rangdagi suyuqlik, *chiroq* – kerosin bilan yonadigan yorug'lik taratuvchi asbob, *chiroq*– elektr toki yordamida yorug'lik taratuvchi xuddi shu vazifani bajaradigan asbob, *ko'mir* – ilgarilari o'tinni ko'mib kuydirish orqali olinadigan yoqilg'i turi, *ko'mir* – yer ostidan qazib olinadigan va xuddi shu vazifani bajaradigan yoqilg'i turi.

6. Tag ma'no – butun boshli gapning, hatto kichik hajmdagi matnning ko'chma ma'noda qo'llanishidir. Misol:

Notin: – *Sizga teggunchа alvastiga tegsam bo'lmasmidi?!*

Er: – *Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan*[29].

6-MAVZU.
LEKSIKOLOGIYA
(davomi)

SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARI

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatidan, bir xillari esa talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari esa bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ana shu xususiyatlarga ko'ra so'zlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Omonimlar (shakldosh so'zlar) – grekcha *homos* – "bir xil", *onoma* yoki *onyma* – "nom" degan ma'nolarni ifodalab, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo atash ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir: *yuz* (ot) – *yuz* (son), *tut* (daraxt)–*tut* (harakat).

Omonimlar bir so'z turkumiga (*yosh* – ko'z yoshi, *yosh* – umr o'lchovi), ikki xil so'z turkumiga (*och* – sifat, *och* - fe'l), uch xil so'z turkumiga (*oshiq* – ot, *oshiq* – fe'l, *oshiq* – sifat; *hur* – ot, *hur* – sifat, *hur* - fe'l) ham oid bo'lishi mumkin. Bir turkum doirasidagi omonimlik asosan ot va fe'llarda mavjud. Bunday omonim so'zlar qo'shimchalar qabul qilganda ham omonimligini saqlab qolaveradi. Omonimlar va ko'p ma'noli so'zlarni o'zaro farqlash zarur. Ko'p ma'noli so'zlar qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Omonimlar boshqa-boshqa so'zlar bo'lgani uchun ularning ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi. "Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlardir"[30].

[29]*Misol olindi:* G'.Abdurahmonov, H.Rustamov. Ona tili (11-sinf uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 28-bet.

[30]N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: "Ma'naviyat, 2011. – 173-bet.

Ko'p ma'noli so'zlar ma'nolari o'rtasida aloqa uzilsa, omonim vujudga keladi: *kun* – quyosh (o'z ma'no); *kun* – sutkaning quyosh bilan yoritiladigan yorug' qismi (ko'chma ma'no); *dam* – nafas (o'z ma'no), *dam* – temirchi bosqoni (ko'chma ma'no), *dam* - hordiq (ko'chma ma'no); *ko'k* – rang (o'z ma'no), *ko'k* – osmon (ko'chma ma'no), *gap* – nutq va til birligi (o'z ma'no), *gap* – ziyofat (ko'chma ma'no). Hozir bu so'zlar o'zaro omonimdir.

2. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) – grekcha *synonymos* yoki *synonymon* – "bir nomli" degan ma'noni bildirib, bir umumiy ma'noni ifodalaydigan kamida ikkita so'zdir. Ma'nodosh so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma'nosi betaraf bo'lgan, ko'p qo'llanadigan so'z **asosiy so'z (dominanta, bosh so'z)** deb ataladi: ***chiroyli***, *go'zal, ko'hlik*. Ma'nodosh so'zlar guruhi (qatori) uchun xos bo'lgan **umumiy** va **xususiy** ma'nolarni farqlash kerak. Umumiy ma'no ma'nodosh so'zlar qatoridagi barcha so'zlar uchun xos bo'lgan ma'nodir. Masalan, *kishi, inson, odam* ma'nodosh so'zlar qatori uchun "ongli mavjudot", *oz, kam* so'zlari uchun "me'yorga yetmagan" kabi ma'nolar umumiy ma'nolar bo'lib hisoblanadi. Xususiy ma'nolar ma'nodosh so'zlar qatoridagi har bir so'z uchungina xos bo'lgan ma'nolardir. Ma'nodosh so'zlar qatoridagi so'zlar o'zaro quyidagicha farqlanadi: 1) ma'no qirrasiga ko'ra; 2) uslubiy bahosiga ko'ra; 3) salbiylik-ijobiylikka ko'ra. Masalan, *shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo'kirmoq, to'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq, irod etmoq, bayon etmoq* ma'nodosh so'zlar qatorini yuqoridagi belgilar bo'yicha 3 ta guruhga bo'lish mumkin[31]:

Umumiy ma'no	Xususiy ma'nolar		
	Ovozning baland-pastligiga ko'ra	Uslubiy bahosiga ko'ra	Salbiylik-ijobiylikka ko'ra
So'zlash	*shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo'kirmoq,*	*irod etmoq, bayon etmoq*	*to'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq*

Ma'nodosh so'zlar nutqning ta'sirli bo'lishiga, bir ma'noning turli xil qirralarini ifodalashga yordam beradi. Ular bir xil so'z turkumiga oid bo'ladi: *yuz, bet, afti, bashara, turq, chehra, oraz, jamol* (ot); *hayoli, andishali, oriyatli, iboli* (sifat); *yarim, ikkidan bir* (son), *hamma, bari, barcha* (olmosh); *gapirdi, so'zladi* (fe'l), *ko'p, mo'l, bisyor* (ravish); *va, hamda* (bog'lovchi); *kabi, singari, yanglig'* (ko'makchi); *xuddi, naq* (yuklama), *ehtimol, balki* (modal so'zlar) va hokazo.

Tildagi o'zlashma (boshqa tildan kirgan) so'zlar o'zbekcha so'zlar bilangina emas, balki o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin: *respublika* (lot.) – *jumhuriyat* (arab.). Tub so'zlar yasama so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: *his* (tub) – ***sezgi*** (yasama), *savol* (tub) – ***so'roq*** (yasama).

[31] *Misollar olindi:* N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2011. – 179-bet.

sinonimik qatordagi so'zlar eskirishi mumkin: *odat, rasm, urf,* ***fan*** (rasm, odat); *iltimos, o'tinch,* ***tavallo****; oqsoq, cho'loq,* ***lang***.

3. Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) – grekcha *anti* – "zid", "qarama-qarshi", *onoma* yoki *onuma* "nom" degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardir. Antonimik juftlikdagi so'zlar faqat bir xil so'z turkumlariga oid bo'ladi: *yer-osmon* (ot), *uzun-qisqa* (sifat), *ko'p - oz* (ravish), *keldi - ketdi* (fe'l).

Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatidan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi.

Ko'p ma'noli so'zlar har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin: *qattiq yer – yumshoq yer; qattiq (xasis) odam – saxiy odam*. Antonimik juftlar ko'chma ma'no ifodalab, yangi so'zlar hosil qilishi mumkin: *tun-u kun* – "hamma vaqt" ma'nosida, *achchiq-chuchuk* "salat" ma'nosida, *yosh-u-qari* – "hamma" ma'nosida, *uzoq-yaqin* – "hamma yoqdan" ma'nosida.

4. Paronimlar (talaffuzdosh so'zlar) - ruscha *para,* ya'ni "juft" va grekcha *onoma* yoki *onyma,* ya'ni "nom" degani bo'lib, aytilishi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Paronimlar ko'pincha bir tovush bilan bir-biridan farq qiladi: *asr - asir, shox - shoh, amr - amir.*

Paronimlar ba'zan og'zaki nutqda, badiiy asarlarda uchraydi. Ular bir so'z turkumiga ham, turli so'z turkumlariga ham oid bo'lishi mumkin: *zirak* (ot) – *ziyrak* (sifat); *asr* (ot) – *asir* (ot).

5. Uyadosh so'zlar bir turdagi narsa, belgi, voqea-hodisa, harakat ma'nolarini ifodalaydigan, bir mazmuniy guruhga mansub bo'lgan so'zlardir: **kiyim turlari**: *ko'ylak, shim, kostyum, do'ppi;* **rang turlari**: *oq, qizil, sariq;* **ruhiy holatni bildiruvchi harakat turlari**: *yig'lamoq, kulmoq, xo'rsinmoq.* Uyadosh so'zlarni sinonim so'zlardan farqlash kerak. Sinonimlar bir tushunchaninng turli qirralarini ifodalaydi, uyadosh so'zlar esa bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalaydi.

Tildagi so'zlarning bunday mazmuniy guruhlarga birlashgan holda mavjud bo'lishi so'zlarning inson xotirasida osongina saqlanishiga yordam beradi, chunki narsalar, belgilar, harakatlarning inson ongidagi timsollari bir-biriga bog'langan holda yashaydi.

Masalan, *qo'y* sozini eslasak, unga bog'liq bo'lgan *qo'zichoq, qorako'l, sovliq, qo'chqor, jun, qo'ychivon* kabi so'zlar, *qoramol* so'zini eslasak, *sigir, novvos, buzoq, buzoqboqar* kabi so'zlar esimizga tushadi va bu so'zlardan nutq paytida unumli foydalanishimiz mumkin.

7-MAVZU.
O'ZBEK TILI LUG'ATINING TARKIBI

1-§. O'zbek tili lug'atining boyish manbalari

O'zbek tili so'z boyligi fan, texnika va san'atning rivoji bilan bog'liq holda yildan yilga boyib bormoqda. Boyish, asosan, ikki manbaga asoslanadi:

1. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari (ichki manba). Bunda tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida boyishi nazarda tutiladi. Ichki manba ham ikki ko'rinishga ega: 1) so'z yasash orqali yangi so'zlar hosil qilinadi: *sinfdosh, limonzor, namunali, ijarachi, vazirlik, tinchliksevar, guldasta, MDH, O'zMU* va boshq. 2) o'z shevalarimizdan so'z olish: *oyi, bolish, dugona, et* (go'sht).

2. Boshqa tillardan so'z olish (tashqi manba). O'zbek xalqi qadim zamonlardan buyon boshqa xalqlar bilan aloqada bo'lib kelgan. Bu tilimizda ham aks etgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirgan quyidagi so'zlarni misol qilib keltirish mumkin: **1) arabcha:** *kitob, maktab, ma'no, harakat, sanoat, muomala, doim, me'da, a'lo, san'at, asosiy, ommaviy, oddiy, milliy, abadiy, ammo, biroq, balki, va, lekin, vaholanki* (o'zbek tilidagi arabcha so'zlar ko'proq ot va sifat turkumiga tegishli bo'lib, ularning belgilari quyidagilardir: ikkita unli yonma-yon keladi: *doim, shoir, muomala, shijoat, shuur, inshoot, murojaat, tabiiy;* tutuq belgisi (') ishtirok etadi: *ma'no, qal'a;* ko'pincha yumshoq ***h*** tovushi qatnashadi; *-iy, -viy* qo'shimchalarini olib yasalgan bo'ladi) **2) fors-tojikcha:** *oftob, dasta, olov, chopon, chorpoya, boshpana, barg, anor, korxona, nodon, dono, kamtar, tilla, kaptar, dasturxon, dastro'mol, poydevor, poyafzal, darhol, darvoza, xursand, farzand, do'st, go'sht, sust, past, g'isht* (ko'rinyaptiki, fors-tojikcha so'zlarda *poy, dast, dar* kabi qismlar qatnashyapti, so'zlar oxirida jarangsiz undoshlardan keyin ***t***, jaranglidan keyin ***d*** tovushlari ishtirok etyapti); **3) mo'g'ulcha:** *tuman, navkar, yasovul, yasoq;* **4) uyg'urcha**: *manti, lag'mon, manpar;* **5) xitoycha**: *choy* (xitoy tilida *tsay* deyilar ekan); **6) ruscha**: *stol, stul, ruchka, samolyot, parovoz, paroxod, pulemyot, pero, cho't* (schyot). Rus tilidan olingan so'zlar orasida asli kelib chiqishi boshqa tillarga xos so'zlar ham bor: *buxgalter, soldat, tank, shtab* (nemischa), *palto, triko* (fransuzcha), *klub, futbol* (inglizcha), *tomat, limon* (ispancha).

Boshqa tillardan o'tgan so'zlar **olinma (o'zlashma) so'zlar** deyiladi. O'zbek tilidan ham boshqa tillarga so'zlar o'tgan: *o'rik, anjir, somsa* (ruscha: *uryuk, injir, samsa*). *Karandash* (qora tosh), *kavardak* (qovurdoq), *yeralash* (aralash), *utyug* (o'tli yuk) kabi so'zlarning ham rus tiliga o'zbek tilidan o'tganligi isbotlangan. Hozirgi paytda o'zbek tilida ishlatilayotgan *bekat* so'zi ham yevropa tillarida *piket* tarzida qo'llanayotganligi fanga ma'lum. Hozirgi paytda o'zbek milliy sport turlaridan bo'lgan **kurashning** xalqaro miqyos darajasiga ko'tarilishi natijasida *kurash, yonbosh, chala, halol* kabi o'zbekcha so'zlar boshqa tillarda ham ishlatilyapti.

2-§. Atamalar

Ilm-fan, texnika, san'atga yoki biron kasb-hunarga xos so'zlar **atamalar** deb ataladi. Bular odatda bir ma'noni bildiradi: *urg'u, kesim, undalma* va boshq. Atamalar 2 ta guruhga bo'linadi:

1) ilmiy atamalar ma'lum bir fan, san'at yoki texnika sohasida qo'llanadigan atamalardir. Ular ikki xil usul bilan hosil qilinadi:

a) umumxalq ishlatadigan so'zlar orasidan ayrimlarining ma'nosi torayib, umumxalq tilida bir ma'noni, ilmiy nutqda esa boshqa ma'noni ifodalaydigan bo'lib qoladi. Bunga o'xshagan atamalar tilimizda anchagina: so'z turkumlarining nomlari – *ot, sifat, son, fe'l, ravish;* matematikaga oid atamalarning ayrimlari – *ildiz, surat, to'plam* va hok. *Fe'l* so'zi umumxalq tilida xarakter, fe'l-atvor ma'nosini, ilmiy tilda so'z turkumi nomini bildiradi. b) boshqa tillardan so'z olish orqali hosil qilinadi: *omonim, kasr, tangens, musbat, sinus, manfiy* va hok.

2) kasbiy atamalar, nomlanishidan ko'rinib turganiday, ma'lum bir kasb-hunarga oid so'zlardir. O'qituvchilik kasbiga doir atamalar: *reyting, yillik baho, sinf jurnali, pedkengash* va hok.

Tikuvchilik kasbiga doir atamalar: *andoza, angishvona, qatim, bichiq* va boshqalar.

3-§. Shevaga xos so'zlar

Faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, boshqa hududda yashovchi o'zbek tili vakillari uchun xos bo'lmagan so'zlar **hududiy chegaralangan (shevaga xos) so'zlar** yoki **dialektizmlar** deyiladi[32].

Bir millatning ma'lum hududdagina yashaydigan vakillari tomonidan ishlatiladigan so'zlari shevaga xos so'zlardir: **xorazmcha:** *momo* (buvi), *gashir* (sabzi), *moyak* (tuxum), *o'jak* (buzoq), *taxya* (do'ppi), *secha* (chumchuq), *taka* (yostiq), *hovva* (ha); **farg'onacha:** *shatta* (shu erda), *valish* (ishkom) *paqir* (chelak); **buxorocha** *kallapo'sh* (do'ppi), *inak* (sigir), *nana* (ona); **toshkentcha:** *ada* (ota), *doda* (bobo).

Shevaga xos so'zning bir varianti adabiy til uchun qabul qilinadi va shu so'z imlo va orfoepik lug'atlarda me'yoriy so'z sifatida beriladi *(yuqoridagi misollarning qavs ichidagi variantlari o'zbek adabiy til uchun me'yor bo'lib hisoblanadi).*

4-§. Eskirgan so'zlar

Kundalik hayotda ishlatilmaydigan bo'lib qolgan so'zlar **eskirgan so'zlar** deb ataladi. Jamiyat to'xtovsiz rivojlanib boradi. Yillar o'tishi bilan mehnat qurollari, kiyim-kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo bo'ladi, eskilarining ba'zilari ishlatilmaydigan bo'lib qoladi, natijada ularni ifodalovchi so'zlar ham bora-bora juda kam qo'llanadi yoki iste'moldan chiqib ketadi. Masalan: *ashu* (qizil tuproq), *ashuq* (temir qalpoq, dubulg'a), *aqru* (sekin)[33]. Eskirgan so'zlar ikkita guruhga ajratiladi:

1) tarixiy so'zlar – hozirda mavjud bo'lmagan narsa-hodisalarning iste'moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda so'z o'zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: *mingboshi, ellikboshi, kanizak, omoch, dodhoh, mumsik, xalfa, mo'ndi...*

[32] A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litsey talabalari uchun darslik). II kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 216-bet.

[33] *Misollar olindi:* G'.Abdurahmonov, H.Rustamov. Ona tili (11-sinf uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 30-bet.

2) arxaik so'zlar hozirda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir; bunda so'z eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, u boshha so'z bilan ifodalanadigan bo'lib qoladi. Bunday so'zlar iste'moldan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi bo'lgan so'zlardir (qavs ichida hozirgi tildagi sinonimlari berilgan): *rayon* (tuman), *ekspress* (tezyurar), *oblast* (viloyat), *vrach* (shifokor), *xirurg* (jarroh), *injener* (muhandis), *redaktor* (muharrir), *redaksiya* (tahririyat), *ulus* (xalq), *bitik* (yozuv) va h.

So'zlar eskirgani kabi qo'shimchalar ham eskirishi mumkin. Masalan, qadimgi o'zbek tilida tushum kelishigining *-(i)g, -(i)g'* shakli, jo'nalish kelishigining *-ra/ru* kabi shakllari mavjud bo'lgan, shuningdek, *-(i)n* qo'shimchali vosita kelishigi ham bo'lgan: *eligin tutdi* – qo'li bilan ushladi[34].

5-§. Yangi so'zlar

Fan, texnika va san'atning rivojlanishi bilan tilda yangi paydo bo'lgan tushunchalarning nomlarini ifodalovchi so'zlar **yangi so'zlar** deb ataladi: *xokkeychi, limonzor, fermer, teleminora, kompyuter, disket, sayt, fayl, mikrochip, shou, debat* va h. Bunday so'zlarda yangilik bo'yog'i sezilib turadi, ya'ni ular hali butun xalqimiz tomonidan bir xilda ishlatilmaydi.

1. Yevropa tillaridan kirgan yangi so'zlar: *avizo* – hisob-kitob operatsiyasi; *aksiya* – paychiga beriladigan qimmatbaho qog'oz; *auksion* – kimoshdi savdosi; *balans* – narsalarning o'zaro muvofiq salmog'i; *bankrot* – qarzini to'lashga qurbi yetmagan korxona, savdogar; *biznes* – foyda orttirishga qaratilgan ish; *biznesmen* – biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs; *broker* – rasmiy dallol; *budjet* – kirim-chiqim hisobi; *viza* – o'zga mamlakatlarga kirishga berilgan ruxsatnoma; *deklaratsiya* – 1) hukumat bayonoti; 2) chegaradan olib o'tish uchun ariza; 3) daromad to'g'risidagi ma'lumot; *bakalavr* – to'rt yoki besh yillik oliy ma'lumot tizimi; *magistratura* – bakalavrdan so'ng chuqurlashtirilgan oliy ma'lumot berish tizimi; *disketa* – magnitlangan egiluvchi disk, *dotatsiya* – davlat tomonidan beriladigan pul, yordam, *dublikat* – asl nusxaning ko'chirmasi, kopiyasi, *immigrant* – chet ellik muhojir, *import* – chet el mahsuloti, *innovatsiya* – fan-texnika sohasidagi yangillik, *inflatsiya* – qog'oz pullarning ko'payib ketishi va qadrsizlanishi, *kalkulatsiya* – bajarilgan ishning o'lchovini hisoblash, *kollej* – o'rta maxsus o'quv yurti, *konsenus* – tortishuvchi masala bo'yicha kelishish, *korrupsiya* – shaxsiy boyish uchun bo'lgan xatti-harakat, *litsenziya* – chetga mol chiqarish yoki keltirish uchun ruxsatnoma, *marketing* – mahsulotni sotish choralari majmuyi, *menejer* – yuqori malakali yollangan boshqaruvchi, *netto* – mahsulotninig og'irligi, asl bahosi, *ofis* – idora, korxona, firma egallagan joy, *patent* – xususiy shaxsga berilgan hujjat, *prezentatsiya* – biror narsani ko'rsatish, taqdim etish, *privatizatsiya* - mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, *pudrat* – biror ishni haq hisobiga batamom tugallash majburiyati, *rezume* – qisqa xulosa, *sanksiya* – qonun

[34] *Ma'lumotlar olindi:* G'.Abdurahmonov, H.Rustamov. Ona tili (11-sinf uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 30-bet.

yoki shartnomani buzgan tomonga ko'riladigan chora, jarima, *aksioner* – [illegible], *kanselyariya* – devonxona. va boshq.

2. Arab va fors-tojik tillaridan kirgan hamda eski o'zbek tilidan tiklangan yangi so'zlar: *anjuman* – yig'in, majlis, qurultoy; *badal* – evaziga beriladigan narsa; *bayonnoma* – rasmiy bayonot, tushuntirish; *boj* – chet ellardan keltirilgan mol uchun to'lov; *buyurtma* – biror narsani ishlab berish haqida topshiriq; *vazir* – ministr, oliy mansab; *vasiqa* – mol-mulk olingani haqida hujjat; *voris* – merosxo'r; *juri* – maslahatchilar kengashi; *ishbay* – bajaradigan ishiga qarab haq to'lash; *kafolat* – kafillik, ishonch xati; *erkinlashtirish* – liberallashtirish, yumshatish; *muallif* – avtor, ixtiro yoki kitob egasi; *xatboshi* – abzas, *paychi* – aksioner, *hakam* – arbitr[35].

6-§. Olinma so'zlar

Dunyoda boshqa tildan so'z olmaydigan, faqat o'z so'zlari bilangina ish ko'radigan til yo'q. Rivojlanish (sivilizatsiya) shu darajada shitob bilan amalga oshmoqdaki, dunyoning eng chekkasida yashaydigan kichik qabilalar ham bu jarayondan chetda qolayotgani yo'q. Natijada, ular ham boshqa tillardan kirgan so'zlarni qo'llashadi. Bir tildan boshqa tilga kirib o'zlashib qolgan so'zlar **olinma so'zlar** deb ataladi. Masalan, hozirgi paytda o'zbek tiliga kirib o'zlashib qolgan va endi o'zlashayotgan *avtobus, tramvay, radio, trolleybus, televizor, institut, kollej, litsey, gimnaziya* kabi so'zlar olinma so'zlardir.

So'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'zlashishi davlatlar o'rtasidagi siyosiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa aloqalar asosida yuz beradi[36].

7-§. Evfemizmlar

Ba'zan biron bir tushunchani o'z nomi bilan emas, shunga mos keladigan boshqa so'zlar yoki iboralar bilan ifodalash talab qilinadi. Bunda muayyan millatning urf-odatlari shunday qilishga undaydi. Masalan, ***o'ldi*** so'zining ma'nosi *vafot etdi, narigi dunyoga ketdi, ko'zi yumuldi* kabi bir qancha iboralar bilan beriladi.

Demak, aytilishi noqulay bo'lgan so'zlar o'rnida qo'llangan silliq, yumshoq so'zlar **evfemizmlar** deb yuritilar ekan.

8-§. Noadabiy qatlam

Xalqimizning jonli tilida uchraydigan, ayrim shaxslarning fe'l-atvorini ko'rsatib turadigan so'z, ibora va birikmalar **noadabiy qatlamni** tashkil etadi. Bu qatlam quyidagi guruhlarni o'z ichiga oladi:

1) jargon so'zlar (fransuzcha *jargon* – "buzilgan til" degani) - qiziqishlari, mashg'ulotlari umumiy bo'lgan odamlar (saroy aristokratiyasi,

[35] *Ma'lumotlar olindi:* G'.Abdurahmonov, H.Rustamov. Ona tili (11-sinf uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 14-bet.

[36] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). T.: Ma'naviyat, 2011. – 196-bet.

savdogarlar, otarchilar, talabalar, o'quvchilar) tomonidan ishlatiladigan so'zlardir: *oftobi olam* (podshoh), *tish* (guruch), *ellik olti* (ipak), *qayvi* (revizor) kabi.

2) argo so'zlar (fransuzcha *argot* – "lahja" degani) o'g'rilar, bezorilar, qimorbozlar o'rtasida ishlatiladigan yashirin ma'noli so'zlardir: *loy, yakan* (barchasi pul ma'nosini bildiradi), *bedana* (to'pponcha), *zamri* (qimirlama), *atamri* (ishingni davom ettir), *shuxer* (qoch) va boshq.

Ayrim argolar umumtil leksikasidan olinadi. Bunda ular boshqa ma'noda qo'llanadi.

3) vulgarizmlar tilda mavjud bo'lgan so'kish va qarg'ish so'zlardir: *haromi, qiztaloq, yer yutkur, oqpadar* va b.

4) varvarizmlar tilda o'rinsiz ishlatiladigan chet so'zlar: *uspet qilolmadim, papasha, mamasha, nastroyeniyem yaxshi, znachit, tak, vau, yess* va boshq.

9-§. Iboralar

Ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan, yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan va ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar yoki gaplar **ibora (frazeologik birlik)** deyiladi: *qo'y og'zidan cho'p olmagan* (yuvosh), *kapalagi uchib ketdi* (cho'chidi), *og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi* (lapashang) va hok. Iboralar gap ichida bitta so'roqqa javob bo'ladi va yaxlit ko'rinishda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi. Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi **frazeologiya** deb ataladi.

Iboralar o'rtasida ham o'zaro omonimlik, sinonimlik, antonimlik va paronimlik bo'lishi mumkin: **omonim** iboralar: *dam bermoq* (yel haydamoq) – *dam bermoq* (hordiq bermoq); *ko'z yummoq* – o'lmoq, *ko'z yummoq* – e'tibor bermaslik; *boshiga ko'tarmoq* – e'zozlamoq, *boshiga ko'tarmoq* – to'polon qilmoq; **sinonim** iboralar: *tegirmonga tushsa butun chiqadi – suvdan quruq chiqadi;* **antonim** iboralar: *yerga urmoq - ko'kka ko'tarmoq;* **paronim** iboralar: *yuragi tars yorilib ketayozdi* – sabr-chidami tugamoq, *yuragi qoq yorila yozdi* – sevinganidan qattiq hayajonlanmoq.

10-§. Tasviriy ifoda (parafraza)

Narsa-buyumning nomini aniq atamay, uni tasvirlab anglatadigan so'z birikmasi **tasviriy ifoda** (yoki **parafraza**) deyiladi: *qushlar – qanotli do'stlar; fazogirlar – samo lochinlari; makkajo'xori – dala malikasi; rassomlar – mo'yqalam sohiblari.* "Tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi hisoblanadi"[37]. Tasviriy ifodalardagi bitta so'z har doim o'z ma'nosida bo'ladi, shu bilan ular iboralardan farq qiladi. Tasviriy ifodalar ham omonimlik, sinonimlik xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. **Omonim** tasviriy ifodalar: *aql gimnastikasi* – 1) matematika; 2) shaxmat; *qora oltin* – 1) neft; 2) ko'mir.

[37] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2011. – 190-bet.

tasviriy ifodalar: *g'azal mulkining sultoni* va *o'zbek adabiy tilining asoschisi* – Alisher Navoiy; *uyg'onish fasli* va *fasllar kelinchagi* – bahor.

11-§. Lug'aviy birliklar haqida ma'lumot

Lug'aviy birlik deganda tilning lug'at boyligiga kiradigan barcha birliklar nazarda tutiladi. Bunga birinchi navbatda **so'z** kiradi. So'zga ma'no jihatidan teng keladigan barcha birliklar ham lug'aviy birlik hisoblanadi. Masalan, **ibora (frazeologik birikma), tasviriy ifoda, qo'shma so'z, juft so'z, takroriy so'zlar, birikmali so'zlar** (*oliy ma'lumotli yigit, O'zbekiston Respublikasi*) ma'nosi jihatidan so'zga teng. Demak, bular ham lug'aviy birliklardir.

12-§. Barqaror birikmalar haqida[38]

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriladigan til birliklari **barqaror birikmalar** hisoblanadi.

Bunday birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.

2. Ma'no butunligi.

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi **paremiologiya** (lotincha *"parema"* – barqaror, *"logos"* – ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa **paremiografiya** (lot. *"parema"* – barqaror, *"grofho"* – yozmoq) sanaladi.

Barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Frazeologizmlar (ko'chma ma'noli barqaror birikmalar).

2. Maqollar (grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar) va **matallar** (grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to'g'ri ma'noda qo'llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar).

3. Aforizmlar (grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalar).

13-§. Lug'atlar va ularning turlari

Tildagi jamiki so'zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan **lug'atshunoslik** shug'ullanadi. Mukammal tuzilgan lug'at va so'zliklar u yoki bu tilning boyligini o'zida to'playdi. Lug'atlar qadimdan yaratib kelingan. Masalan, Mahmud Koshg'ariy tomonidan XI asrda yaratilgan "Devonu-

[38] *Qarang:* A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litsey talabalari uchun darslik). II kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 234-248-betlar.

lug'otit-turk", XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan "Abushqa" lug'atlari tarixdan bizga ma'lum. Lug'atlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Qomusiy lug'atlarda mashhur shaxslar, ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida ma'lumot beriladi. "O'zbek milliy ensiklopediyasi", "Salomatlik ensiklopediyasi", "U kim, bu nima" kabi lug'atlar shular jumlasidandir.

2. Lingvistik (tilshunoslik) lug'atlar bir tilli va ko'p tilli bo'ladi. **Bir tilli** lug'atlarga **imlo lug'ati** (so'zlarni to'g'ri yozishga yordam beradi), **chappa (ters) lug'at** (so'zlar oxirgi harfi bo'yicha alfavit tartibida joylashtiriladi), **orfoepik lug'at** (so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi), **morfem lug'at** (so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratishga yordam beradi), **o'zlashma so'zlar lug'ati** (chet tillardan kirgan so'zlarga ta'rif beriladi), **frazeologik lug'at** (iboralar lug'ati), **terminologik lug'at** (ma'lum fan sohasi bo'yicha atamalarga izoh beriladi), **izohli lug'atlar** (tilda mavjud bo'lgan so'zlarga izoh beriladi), **chastotali lug'atlar** (ma'lum asarlarda so'zlarning qo'llanish darajasi haqida ma'lumot beradi), **paronimlar lug'ati** (tilda mavjud bo'lgan talaffuzdosh so'zlar haqida ma'lumot beradi).

2005-2006 yillarda yaratilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" besh jilddan iboratdir. Bu lug'atda so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida to'la ma'lumot beriladi. Bunday lug'atlar ma'lum bir ijodkor asarlari bo'yicha ham yaratilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy asarlari uchun yaratilgan 4 jildli lug'atda 60 000 dan ortiq so'z berilgan.

Ko'p tilli lug'atlarga esa tarjima lug'atlari kiradi. O'zbek tilida mavjud bo'lgan barcha so'zlar (shu jumladan, sheva so'zlari ham) yig'ilsa, 100-120 ming so'zdan oshib ketadi[39].

QO'SHIMCHA MA'LUMOT[2]

O'z asarlarida Alisher Navoiy **26 035** ta betakror so'z (jami 1 378 660 ta)[3], Aleksandr Pushkin **21 193** (21 197) ta, Uilyam Shekspir **20 000** dan ortiq (20 000 ga yaqin), Migel de Servantes **18 000** dan ortiq (18 000 ga yaqin), Abdurahmon Jomiy **17 600** ta, Abdulla To'qay **14 000** dan ortiq so'zni ishlatgan.

Leksik tahlil namunasi

1. So'zning atash (lug'aviy) ma'nosi. *2. So'zning bir ma'noli yoki ko'p ma'noli ekanligi aniqlanadi.* *3. Ma'no ko'chgan bo'lsa, ko'chish usuli aniqlanadi.* *4. So'zning omonimlik, sinonimlik, antonimlik, paronimlik xususiyatlari aniqlanadi.*	*5. Umumxalq ishlatadigan so'zmi yoki umumxalq ishlatmaydigan so'zmi?* *6. Gap tarkibidagi ibora va tasviriy ifodalar aniqlanib, ma'nolari izohlanadi.*

[39]G'.Abdurahmonov, H.Rustamov. Ona tili (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 11-bet.

8-MAVZU.
MORFOLOGIYA. SO'Z TARKIBI

1-§. Morfologiya haqida umumiy ma'lumot

Siz oldingi mavzularda tilshunoslik bo'limlaridan bo'lmish **grammatikaning** ikkita qismdan, ya'ni **morfologiya** va **sintaksis** qismlaridan iborat ekanligi haqida ma'lumotga ega bo'lgansiz. "So'zlarning grammatik ma'nolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi morfologiya sanaladi".[40] Morfologiyaga berilgan mazkur ta'rifni tahlil qilamiz. **Birinchidan**, grammatik ma'no nima? Tilimizdagi so'zlarning ko'pchiligi atash ma'nosiga ega ekanligini bilasiz. Masalan, *qalam* so'zining atash ma'nosi "yozuv quroli", *sariq* so'zining atash ma'nosi "rang", *olti* so'zining atash ma'nosi "miqdor nomi", *bormoq* so'zining atash ma'nosi "bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga tomon harakatlanmoq", *bugun* so'zining atash ma'nosi "nutq so'zlanib turgan kun" kabi ma'nolardir. Bu so'zlar atash ma'nosidan tashqari, shu ma'no ustiga qo'shiladigan turli ma'nolarni ham ifodalaydi. Masalan, *qalam* so'zi *nima?* degan so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bir so'zlar guruhiga kiradi, birlik, kelishik ma'nolariga ega, gap ichida ma'lum bir vazifani bajaradi: *Qalam (ega) topildi*. Yuqoridagi boshqa so'zlar ham shu kabi atash ma'nolaridan boshqa ma'nolarga ega so'zlardir. Demak, so'zlarning qaysi guruhga mansubligi, shu guruh uchun umumiy bo'lgan turli ma'nolar va shu so'zning gap ichida ma'lum vazifa bajarishi **grammatik ma'no** deb yuritiladi. **Ikkinchidan**, grammatik shakl nima? Yuqoridagi *qalam* so'zi shu shaklida birlik va bosh kelishik ma'nolarini ifodalayapti, *qalamlar* shaklida ko'plik ma'nosini, *qalamim* shaklida esa egalik ma'nosini ifodalayapti. Demak, har bir grammatik ma'no uchun mos shakl mavjud ekan. Ana shu shakllar **grammatik shakl** deb yuritiladi.

So'zlarning leksikologiya bo'limida o'rganiladigan atash ma'nolari so'zning o'zak yoki negiz qismi yordamida ifodalanaveradi: *uy-* inson yashaydigan joy; *ikki* – miqdor tushunchasi; *kel* – harakat tushunchasi. Grammatik ma'no esa quyidagi vositalar yordamida ifodalanadi:

1. Qo'shimchalar yordamida: *uyga, ukam, kelsa, boraman.*
2. Yordamchi so'zlar vositasida: *qalam bilan yozdi, sen uchun oldim.*
3. So'z tartibi orqali: *keng ko'cha* (birikma) – *Ko'cha keng* (gap).
4. Ohang yordamida: *Dars tugadi* (darak gap). *Dars tugadi?* (so'roq gap) *Dars tugadi!* (undov gap)
5. So'zlarni juftlash va takrorlash orqali: *qozon-tovoq* (jamlash ma'nosi), *baland-baland* (kuchaytirish ma'nosi) binolar.
6. Urg'u yordamida: *gullár* (ot) – *gúllar* (fe'l), *yigitchá* (ot) – *yigítcha* (ravish), *olmá* (ot) – *ólma* (fe'l) – bunda so'z turkumlari o'zgaryapti.

[40]N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2009. – 14-bet.

2-§. So'z tarkibi (Morfemika)

So'zlar kopincha tarkibiy jihatdan turli qismlardan iborat bo'ladi: *Mustaqil-lik-ning 19 yil-lik bayram-i nishon-la-n-di.* Ko'rinyaptiki, gap tarkibidagi so'zlar atash ma'nosini yoki grammatik ma'noni ifodalaydigan qismlarga bo'lindi. Bu qismlar **asos** va **qo'shimchalar** deb yuritiladi. Ayrim manbalarda asos va qo'shimchalar **morfema** degan bitta so'z bilan atalib, **yetakchi**(asos) va **ko'makchi**(qo'shimcha) morfemalarga bo'linadi.[41]

So'zning tub (atash) ma'nosini bildirib, mustaqil qo'llana oladigan qism **asos** deb ataladi: ***gul**zor, **bog'**bon, **chizg'**ich, **paxta**kor.* Asos so'zdagi ma'noli qismlarning yetakchisi bo'lib, u boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydi. Asos so'z tarkibida doim qatnashadi.

Asosga qo'shilib, turli ma'nolarni ifodalaydigan yoki so'zlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan qism **qo'shimcha** deyiladi: *tok**zor**, qiz**cha**, yoz**gi**, katta**roq**, ish**la**, kel**di**, bir**inchi**, ish**ni**.* Qo'shimchalar so'z tarkibida qatnashmasligi ham mumkin, ular ayrim qo'llanmaydi, doim asosga qo'shilib keladi.

Qo'shimchalar vazifasi va so'zga qo'shilib anglatadigan ma'nosiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar asosga qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalardir: *o't - o'tloq, arra - arrala, kuch - kuchli, hosil -serhosil.* So'z yasovchi qo'shimchalar unumli *(-li, -la, -chi, ser-, -dosh, -kor)* va unumsiz *(-vul, -ag'on, -chil, -in, -a)* bo'lishi mumkin.

> **Diqqat!** So'zlarni asos va so'z yasovchi qo'shimchalarga ajratishda quyidagi qoidaga rioya qiling: **asos va undan so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yasalgan so'z ma'no jihatidan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak:** *kitob* (o'qiladigan narsa) – *kitobxon* (shu o'qiladigan narsani o'qiydigan shaxs).

2. Shakl yasovchi qo'shimchalar asosga qo'shilib, ma'noni bir oz o'zgartiradigan yoki so'zlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiladigan qo'shimchalardir. Bu qo'shimchalar bajaradigan vazifasi hamda ma'nolariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar asosga qo'shilib, unga ko'plik, kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, oshirish, kuchaytirish, gumon, taxmin kabi ma'nolarni ifodalaydigan qo'shimchlardir: *uy**cha**, kitob**lar**, katta**roq**, ozgina, yurib, ona**jon**, bura, oqar**ingira(di)**, chay**qa**, tep**kila**.*

2) sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchlardirdir: Bularga **kelishik** (*kitob**ni** o'qidi, uyga ketdi, daftar**ning** varog'i*), **egalik** (*maktabimiz hovlisi, mening uka**m**, talabalar uyi**)**, **shaxs-son** *(biz keldi**k**, men bordi**m**, sen keldi**ng**)*

[41] A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litsey talabalari uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 116, 119-betlar.

qo'shimchalari kiradi. Bu qo'shimchlar yana **sintaktik munosabat shakllari** ham deyiladi.

O'zbek tilida qo'shimchalarning asosga qo'shilish tartibi, odatda, quyidagicha:. **asos + so'z yasovchi qo'shimcha + lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha + sintaknik shakl yasovchi qo'shimcha:** *kitob+xon+lar+ning.*

Qo'shimchalar tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Sodda qo'shimchalar boshqa qo'shimchalarga ajralmaydi: *aqlli.*

2. Murakkab qo'shimchalar kamida ikkita qo'shimchaning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *dehqon**chilik**, odam**garchilik**, yordam**lash**, ot**lan**, uydagi, yuz**lab**, butun**lay**, ochiq**chasiga**, tort**qila**, xom**ligicha**, tep**kila**, turt**kila**, yugur**gilamoq**, ez**g'ila**moq, aka**larcha**.* Bunday qo'shimchalar ma'lum bir so'z tarkibidagina ajralmas holatga kelib qolgan, boshqa o'rinlarda ular tarkiban ajratilishi mumkin: *odamgarchilik* so'zi tarkibidagi *-garchilik* murakkab qo'shimchasi *zargar, ishchi, tinchlik* so'zlarida uchta mustaqil sodda qo'shimcha sifatida mavjuddir.

3-§. Qo'shimchalardagi shakldoshlik (omonimlik), ma'nodoshlik — (sinonimlik) va zid ma'nolilik (antonimlik)[42]

So'zlarda bo'lgani kabi qo'shimchalarda ham yuqoridagi kabi xususiyatlar mavjud.

1. Qo'shimchalardagi **shakldoshlik** quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

a) so'z yasovchi qo'shimcha bilan so'z yasovchi qo'shimcha o'rtasida: *ek**in*** (ot) – *erk**in*** (sifat) – *yashir**in*** (ravish).

b) so'z yasovchi qo'shimcha bilan shakl yasovchi qo'shimcha o'rtasida: *so'z**lamoq*** (yangi fe'l yasalgan) – *quv**lamoq*** (fe'lning kuchaytirish shakli yasalgan).

d) shakl yasovchi bilan shakl yasovchi o'rtasida: *kiy**inmoq*** (o'zlik nisbati shakli) – *ol**inmoq*** (majhul nisbat shakli).

2. Qo'shimchalardagi **ma'nodoshlik** quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

a) so'z yasovchilar o'rtasida: **otlar**: *til**chi** – til**shunos**;* **sifatlar**: *g'ubor**siz** – **beg**'ubor;* **ravishlar**: *mard**ona** – mard**larcha**.*

b) shakl yasovchilar o'rtasida: *bun**ga** tushunmadi – bu**ni** tushunmadi.*

3. Qo'shimchalardagi **zid ma'nolilik** ko'pincha so'z yasovchilar o'rtasida (asosan **sifat** turkumida) uchraydi: *aql**li** –aql**siz**, **ser**suv- suv**siz**.*

9-MAVZU.
SO'Z YASALISHI

So'zlar tub va yasama bo'lishi mumkin.

Tub so'zlar quyida berilgan bironta usul yordamida yasalmaydigan so'zlardir. Bunday so'zlar tarkibiy jihatdan asos va so'z yasovchi qo'shimchalarga bo'linmaydi, lekin ular tarkibida shakl yasovchi qo'shimchalar qatnashishi mumkin: *gul, kitoblar, daftarni, uycha, qalamim.*

[42] Qo'llanmadagi ilovalarda bu haqda batafsil ma'lumot berilgan.

Yasama so'zlar quyida berilgan usullardan biri yordamida hosil qilinadigan yangi so'zlardir: *guldon, ra'nogul, uyma-uy.*

Turli usullar yordamida so'z hosil qilinishi **so'z yasalish** deb ataladi. So'z yasash hodisasi tarkibiga quyidagi qismlar kiradi: **1. So'z yasash asosi** har qanday so'z yasalishi uchun asos bo'lgan qismdir. Masalan, ***ekin*** so'zi yasalishi uchun ***ek*** qismi yasash asosi bo'lib xizmat qilgan. Qo'shma so'zlarda har bir qism so'z yasash asosi bo'lib hisoblanadi: ***oshqovoq*** so'zidagi ***osh*** va ***qovoq*** qismlari so'z yasash asosidir. **2. So'z yasovchi vosita** so'z yasash asosiga qo'shilib, yangi so'z yasash uchun xizmat qiladigan vositadir. Masalan, yuqoridagi ***ekin*** so'zi tarkibidagi ***-in*** qo'shimchasi so'z yasash vositasidir. **3. Yasalma** shu ikki qismning qo'shilishidan yuzaga kelgan hosiladir. Yuqoridagi ***ekin*** so'zi yasalma hisoblanadi.

O'zbek tilida so'zlar asosan besh xil usul bilan yasaladi. Bu usullar yordamida **ot, sifat, fe'l, ravish** turkumiga oid so'zlar yasaladi. Olmosh, son va yordamchi so'zlar **yasalmaydi.** So'z yasash usullari:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar bilan (affiksatsiya yoki morfologik usul): *ishchi, aqlli, ishla, yashirin.* Bitta asosdan yasalgan so'zlar **asosdosh so'zlar** deb ataladi: *suvli, suvsiz, suvdon, suvchi.*

2. So'zlarni qo'shib, juftlab so'z yasashda (kompozitsiya yoki sintaktik usul) qo'shma va juft so'zlar yasaladi: *qora+mol =qoramol, ko'z+oynak = ko'zoynak, idish-tovoq, apil-tapil, unda-bunda.* Birdan ortiq so'zning birikishidan yasalgan so'zlar **qo'shma so'z** deyiladi: *choyquti, gultojixo'roz, sotib oldi, himoya qildi, bir oz, rahmdil, O'rta Osiyo, Oliy Majlis.* Ikkita so'zning juftlanishidan yasalgan so'zlar **juft so'zlar** deyiladi: *birin-ketin, omon-eson jiz-biz* (ovqat ma'nosida). Juft so'zlarning barchasi ham yasama hisoblanmaydi, ikkita so'z juftlangandan keyin yangi ma'no ifodalansagina, juft so'z yasalgan bo'ladi: *chol-kampir, aka-uka, katta-kichik* kabi so'zlar yasama emas. Bu so'zlarda yo ma'no umumlashgan bo'ladi, yoki ma'no kuchaytiriladi.

3. Qisqartma usulda so'zlar turli ko'rinishda qisqartirib qo'shish (abbreviatsiya) yo'li bilan yasaladi. Bular **qisqartma so'zlar (yoki abbreviaturalar)** deyiladi. Qisqartirib so'z yasash faqat otlarda uchraydi: *elektron hisoblash mashinasi - EHM, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi – MDH, ijroiya qo'mita - ijroqo'm.*

4. Bir turkumdan boshqa turkumga so'z ko'chishi yordamida so'z yasalishi (**semantik** usul): sifat va fe'l otga, son ravishga o'tadi: *o'g'il bola* (o'g'il - sifat) *O'g'li keldi* (otga o'tgan). *U soat birga* (son) *keldi. Akasi bilan birga* (ravish) *keldi. O'quv, yozuv, qurilish* (fe'l otga o'tgan). Boshqa turkumga ko'chgan so'zning ma'nosi va gapdagi vazifasi ham o'zgaradi.

5. So'zlarni takrorlash yordamida so'z yasalishi. Bunda so'zlar takrorlanib yangi so'zlar yasaladi: *paqpaq* (o'yin), *tur-tur* (turish), *bipbip* (avtobus), *pat-pat* (mototsikl), *xola-xola* (o'yin), *manman, yo'l-yo'l* (rang), *es-es* (zo'rg'a). Takroriy so'zlarning hammasi ham yasama emas. Bunda ham yangi ma'no yasalsagina, yasama so'z hisoblanadi: *tez-tez, katta-katta* kabi takroriy so'zlar yasama emas, bunda ma'no kuchaytirilgan, xolos.

So'z tarkibi va so'z yasalishi bo'yicha tahlil namunasi:	
1. So'zning asos va qo'shimchalarini aniqlang. *2. Qo'shimchalarning vazifalariga ko'ra turlarini aniqlang.*	*3. Qo'shimchalarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.* *4. So'z yasama bo'lsa, uning qaysi usul bilan yasalganligini aniqlang.*

10-MAVZU.
MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI. OT

1-§. So'z turkumlari haqida umumiy ma'lumot

Ma'lumki, har qanday fan tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan turli narsa va hodisalarni, inson bilan bog'liq xususiyatlarni o'rganadi. Ularni o'rganish esa mavjud bo'lgan narsa, xususiyat va hodisalarni to'plamlarga bo'lishdan boshlanadi: "O'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi **to'plam** deyiladi. To'plamni o'xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga bo'lish **tasnif** hisoblanadi"[43].

So'zlarni turkumlarga ajratish juda qadimdan boshlangan. Qadimgi hindlar turkumlarni uchga ajratishgan: **otlar, fe'llar, yordamchilar.** Arablar ham uchta turkumni farqlashgan: **ismlar, fe'llar, yordamchilar**. Qadimgi yunonlar, jumladan, Arastu **fe'l** va **yordamchilar**ni ajratgan holda ismlar ichidan **sifatlar, sonlar** va **olmoshlar**ni farqlagan (demak, oltita turkumni farqlashgan). G'arb va rus tilshunoslari mustaqil so'z turkumarini oltitaga ajratadilar: **ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish**. Rus tilshunoslari ot, sifat, son va olmoshni ism bildiruvchi so'zlar sifatida ajratadilar. Turkiy tilshunoslikda ham qadimdan **ot, sifat, son va olmoshlarni** ajratishgan.

Tildagi so'zlarning umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra ma'lum guruhlarga bo'linishi **so'z turkumlari** deb yuritiladi. So'z turkumlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Mustaqil so'z turkumlari lug'aviy ma'noga ega bo'lib, biror so'roqqa javob bo'ladigan, gap ichida ma'lum sintaktik vazifa bajaradigan so'zlardir. Bu guruhga **ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish** kiradi.

2. Yordamchi so'zlar yakka holda ma'no anglatmaydigan, gap bo'lagi bo'la olmaydigan, grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so'zlardir. Ular mustaqil so'zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so'zga va gapning mazmuniga turli qo'shimcha ma'nolar qo'shadi. Yordamchi so'zlarga **ko'makchi, bog'lovchi, yuklama** kiradi.

3. Alohida olingan guruh so'zlar lug'aviy ma'no bildirmaydigan, lekin ba'zan gap bo'lagi vazifasini bajaradigan so'zlardir. Bularga **modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar** kiradi.

[43]N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2009. –26-bet.

2-§. Ismlar va ularning lug'aviy hamda munosabat shakllari

Ma'lumki, ot, sifat, son va olmoshlar egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradi. Egalik va kelishik shakllari bu turkumlarni, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so'zlarni ham o'zgartirishi mumkin. Shu sababli egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradigan barcha turkumlarni bitta umumiy nom – **ismlar** deb birlashtirish mumkin.

Gap tarkibida ismlar turli shakllarda kelishi mumkin. Bu shakllar ikki xildir:

1. Ismlarning lug'aviy shakllari deganda ularning ko'plik, kichraytirish, erkalash, hurmatlash, qiyoslash ma'nolarini ifodalaydigan qo'shimchalarni olgan shakllar tushuniladi: *bolalar, kattalar, qushcha, toychoq, yaxshigina, senday* va h.

2. Ismlarning munosabat shakllari deganda quyidagi shakllar tushuniladi:

1) egalik qo'shimchalarini olgan shakllari: *kitobim, kichigi, beshovi, kimim, buguni;*

2) kelishik qo'shimchalarini olgan shakllari: *uyni, menga, beshni;*

3) ***–man, -san, -dir*** qo'shimchalarini olgan shakllari: *talabaman, o'qiysan, sensan, ustozimdir;*

4) *bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq* so'zlari: *ukasi bo'laman.*

3-§. Mustaqil so'zlar haqida ma'lumot

Lug'aviy ma'no ifodalaydigan, ma'lum so'roqqa javob bo'ladigan va ma'lum gap bo'lagi vazifasini bajaradigan so'zlar **mustaqil so'zlar** deb ataladi: *daftar* (nima?), *kichik* (qanday?), *olti* (necha?), *men* (kim?), *o'qimoq* (nima qilmoq?), *bugun* (qachon?).

Mustaqil so'zlar guruhiga quyidagi turkum so'zlar kiradi: **ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.**

4-§. Ot. Uning leksik-grammatik xususiyatlari

Kimsa, narsa-buyum va joy nomini bildiradigan hamda *kim? nima? qayer?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladigan so'zlar turkumi **ot** deb ataladi.

Otlar kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi, birlik va ko'plik sonda ishlatiladi (kelishik va son shakli ularning doimiy xususiyatidir), egalik qo'shimchalarini oladi (bu doimiy xususiyat emas).

Otlar sifat o'rnida qo'llanishi mumkin: ***asfalt*** *yo'l,* ***oltin*** *bilaguzuk,* ***temir*** *sandiq.*

Otlar gapda bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, shuningdek, undalma bo'lib keladi: ***Onam*** *parrandachilik fermasida ishlaydi. Bugungi* ***ishni*** *ertaga qo'yma!* ***Bolalar****, ko'cha harakati qoidalariga rioya qiling!*

5-§. Otlarning ma'no jihatdan turlari

1. Atoqli otlar va ularning turlari

Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan otlar **atoqli otlar** deyiladi. Ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: *Rahim Mahmudov, Oybek;*

2) hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar: *Olapar, To'rtko'z, Targ'il, Boychibor, Raxsh, G'irko'k;* 3) joy nomlari (bularga oddiy ko'cha nomlaridan tortib qit'a nomlarigacha barchasi kiradi): *Navoiy ko'chasi, Toshkent shahri, Pomir tog'i, Osiyo qit'asi, Kavkazorti, Boltiqbo'yi;*

4) tashkilot, muassasa va idora nomlari: *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Nizomiy nomli TDPU;*

5) kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, spektakl nomlari: *"O'tgan kunlar" romani, "Ma'rifat" gazetasi, "Kelinlar qo'zg'oloni" spektakli;*

6) tarixiy voqealar, bayram nomlari: *Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami.*

7) suv havzalari va inshoot nomlari: *Orol dengizi, Amudaryo, Katta Farg'ona kanali, Tallimarjon suv ombori.*

Ko'pchilik atoqli otlar turdosh ot yoki boshqa biron so'z turkumi asosida vujudga keladi: *Po'lat, Go'zal, Sakson ota, Kimsan, Sotiboldi, Ko'paysin.* Ba'zan atoqli otlar turdosh otga aylanishi ham mumkin: *amper* (tok o'lchovi), *xosiyatxon* (atlas turi), *makintosh* (kiyim turi).

2. Turdosh otlar va ularning turlari

Bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayonning[44] umumiy nomini bildirgan otlar **turdosh otlar** deb ataladi: *shahar, odam, maktab, to'y.*

Turdosh otlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) shaxs otlari shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko'ra nomlab keladigan otlardir[45]: *ota, ona, o'g'il, shahzoda, professor, kampir, bola, agronom, rais.* Bu otlar ***kim?*** so'rog'iga javob bo'ladi.

2) narsa otlari jonli va jonsiz narsalarning nomini bildiradigan otlardir[46]: *olma, danak, halvo, arslon, pichoq, oy, chuchvara* va h. Bu otlar ***nima?*** so'rog'iga javob bo'ladi.

3) o'rin-joy otlari ***qayer?*** (ba'zan ***nima***?) so'rog'iga javob bo'ladigan otlardir: *qishloq, ko'cha, o'tloq, yo'l, tolzor, olchazor, maydon, hovli, bostirma, molxona, qo'ra, do'kon, mehmonxona, ostona, ayvon, uy, qo'riqxona.*

4) faoliyat-jarayon otlari kimsalarning yoki narsalarning faoliyat jarayononi bildiruvchi otlardir: *mehribonlik, ezmalik, chopiq, g'allachilik, bardosh, sayohat, xayrlashuv, shofyorlik, bilim, duradgorlik, ovoragarchilik, ipakchilik, dehqonchilik, terim.*

---

[44] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2005. – 104-bet.

45 N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2005. – 105-bet.

[46] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2005. – 108-bet.

5) aniq otlar beshta sezgi (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri orqali sezish) yordamida sezish mumkin bo'lgan predmetlarni ifodalaydi va shaxs otlari, qavm-qarindoshlik otlari, kasb-koriga ko'ra shaxs otlari, hayvonot otlari, daraxt va o'simlik otlari, narsa-buyum otlari, moddalarni ifodalovchi otlar, o'rin-joy otlari, payt otlari kabi guruhlarga bo'linadi: *kitob, tovush, havo, shahar, daqiqa.*

6) mavhum otlar ong yordamidagina idrok qilinadigan tushunchalarni ifodalaydi va belgi-xususiyat otlari, munosabat ifodalovchi otlar, harakat-holat otlari, voqea-hodisa otlari, kasb-kor otlari, faoliyat ifodalovchi otlar kabi guruhlarga bo'linadi: *qalb, dev, g'azab, holat, hunar, did, hasad, o'kinch, yaxshilik.*

6-§. Otlarning lug'aviy shakllari haqida ma'lumot

Otlarning **birlik-ko'plik (son), kichraytirish-erkalsh, qiyoslash** shakllari ularning lug'aviy shakllari hisoblanadi.

1. Otlarning son shakllari

Otlar birlik va ko'plik sonda keladi. Birlik sondagi otlar bir predmetni bildiradi: *uy, daftar, bola.* Ko'rinyaptiki, birlik shaklining maxsus qo'shimchasi yo'q. Ko'plik sondagi otlar birdan ortiq predmetni bildiradi. Otlardagi ko'plik ma'nosi quyidagicha ifodalanadi: **1) morfologik usulda** ko'plik *-lar* qo'shimchasi orqali ifodalanadi: *bola**lar**, uy**lar**.* **2) leksik usulda** ko'plik ma'nosi qo'shimchasiz holda maxsus so'zlar yordamida ifodalanadi: ***bir qancha** odam, **ming-ming** daraxt, **beshta** daftar.*

3) leksik-morfologik usulda bu ikkala usul aralash ifodalanadi: ***Ko'p** ota-ona**lar** kelishdi.*

Harakat-holat, belgi nomini bildirgan otlar, donalab sanalmaydigan narsa va jism nomlari, juft predmetlarni bildiruvchi otlar va atoqli otlar **faqat birlikda** qo'llanadi: *do'stlik, un, ko'z, Muattar* va h.

-lar qo'shimchasi ko'plik ma'nosidan tashqari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1) narsalarning turini, navini xilini: *Do'konga yog'**lar** (guruchlar, suvlar...) keltirildi;* 2) jamlikni: *Ma'murxona**lar** kelishdi;* 3) hurmatni: *Dadam**lar** ishlaydi**lar**;* 4) kinoyani: *Janob**lari** kelibdi**lar**-da;* 5) kuchaytirishni: *Bosh**lar**im og'rib ketdi;* 6) taxminni: *Soat besh**lar**da keladi.*

-lar ko'rsatkichi otlardan tashqari olmosh, son, sifat, fe'l, ravish turkumidagi so'zlarga ham qo'shilishi mumkin: *bular, kimlar, bizlar, tushuntirishlar, kattalarni, beshlar, ilgarilari, kelganlar* kabi. Bu ko'rsatkich fe'lga qo'shilganda tuslovchi tarkibida keladi: *boradi**lar*** (3-shaxs tuslovchi tarkibida).

2. Otlarning kichraytirish, hurmatlash va erkalash shakllari

Nutqimizda kichraytirish, hurmatlash va erkalash otlari ham qo'llanadi. Otlarning bunday shakllari hurmatlash, kichraytirish, ba'zan esa ham kichraytirish, ham erkalash ma'nolarini anglatadigan quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:

-cha:	*Akbar**cha** (kesatish ma'nosida), uy**cha**, ro'mol**cha**, kitob**cha***
-choq,-chak,-chiq:	*qo'zi**choq**, kelin**chak**, qopa**chiq***
-(a)loq:	*qiz**aloq**, bo'ta**loq***
-jon:	*uka**jon**, Rahim**jon***
-xon:	*Odil**xon**, Salima**xon***
-oy:	*Qunduz**oy**, Tursun**oy***
-begim:	*Nodira**begim***
-nisa:	*Zebun**nisa***
-bibi:	*Oysha**bibi***
-bek:	*Ota**bek***
-xo'ja:	*Akbar**xo'ja***
-gina:	*qizgi**na**m, bolagi**na**si*

Diqqat! ***-gina*** qo'shimchasi kichraytirish, erkalashdan tashhari, achinish ma'nosini ham ifodalaydi. Bu qo'shimcha ***-gina*** ayiruv yuklamasi bilan shakldoshdir.

Farqlari: ***-gina*** yuklamasi barcha qo'shimchalardan keyin qo'shiladi, urg'u olmaydi; ***-gina*** qo'shimchasi esa urg'u olishi mumkin.

11-MAVZU.
OTLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI, YASALISHI VA TUZILISH TURLARI

Otlarning munosabat shakllari haqida ma'lumot

Otlarni boshqa so'zlarga bog'lash uchun xizmat qiladigan shakllar ularning **munosabat shakllari** hisoblanadi. Bularga otlarning egalik, kelishik shakllari, shuningdek, otlarni kesim sifatida shakllantirib, egaga bog'laydigan shakllar kiradi. Otlarning egalik va kelishik shakllari yordamida o'zgarishi **turlanish** deb yuritiladi.

1. Otlarning egalik shakllari

Otlarga qo'shilib, shu ot ifodalagan tushunchaning uch shaxsdan (so'zlovchi, tinglovchi, o'zga) biriga tegishli ekanini bildiradigan qo'shimchalar **egalik qo'shimchalari** deb ataladi. Egalik qo'shimchalari oxiri unli bilan tugagan otlarga birlikda *-m, -ng, -si;* ko'plikda *-miz, -ngiz, -(lar)i* shaklida; oxiri undosh bilan tugagan otlarga esa birlikda *-im, -ing, -i;* ko'plikda *- imiz, -ingiz, -(lar)i* shaklida qo'shiladi:

Shaxs / son	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	*dala**m**, kitob**im***	*dala**miz**, kitob**imiz***
2-shaxs	*dala**ng**, kitob**ing***	*dala**ngiz**, kitob**ingiz***
3-shaxs	*dala**si**, kitob**i***	*dala(**lar**)**i**, kitob(**lar**)**i***

Egalik qo'shimchalarining 3-shaxs shakli joy nomlarini bildiruvchi so'zlar bilan qo'llanganda, tegishlilik, egalik ma'nosini emas, balki xoslik, umumdan ajratilganlik ma'nolarini ham ifodalaydi. Bunday paytda egalik qo'shimchasini olgan so'z bog'lanib kelgan so'z tarkibidagi qaratqich kelishigi qo'shimchasi tushiriladi[47]: *Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi* va hokazolar.

Ba'zi so'zlar tarkibidagi egalik qo'shimchalari ajralmaydigan holatga kelib qolgan: *kechasi, kunduzi, oldinlari.*

K va *q* undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, o'zak-negiz oxiridagi jarangsiz ***k*** undoshi jarangli ***g*** tovushiga, jarangsiz ***q*** undoshi jarangli ***g'*** undoshiga aylanadi va *koptogi, tuprog'i* kabi yoziladi.

Og'iz, burun, zahar kabi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi qisqaroq aytiladigan ***a, i, u*** unlilari tushib qoladi: *og'zi, burni, zahri. Obro', parvo* so'zlariga egalik qo'shimchasi qo'shilganda esa ***y*** tovushi orttiriladi: *parvoyi, obro'yim.*

Singl-i-si, shun-i-si, bun-i-si so'zlarida egalik qo'shimchalari ikki marta qo'shilgan.

Egalik qo'shimchalari ot turkumidan tashqari harakat nomi va sifatdoshlarga ham qo'shilishi mumkin. Bunda egalik qo'shimchalari harakat bajaruvchisining shaxs va sonini ifodalab keladi, shuning uchun harakat nomi va sifatdoshlardan oldin qaratqich kelishigidagi so'zning bo'lishi shart emas: *mening o'qiganim* deyish o'rniga *o'qiganim, uning ishlashi* deyish o'rniga *ishlashi* desa ham bo'laveradi[48].

2. Otlarning kelishik shakllari

Otlarni boshqa so'zlarga tobe qilib bog'lash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar **kelishik qo'shimchalari** deyiladi: *shaharda yashaydi* birikmasidagi ***-da*** qoshimchasi "yashamoq" degan harakatning bajarilish o'rnini izohlab kelyapti, izohlayotgan so'z esa tobe so'z hisoblanadi.

Demak, kelishik qo'shimchasi har doim tobe qismga qo'shilar ekan. Kelishik shakllari otlarning gapda bajaradigan sintaktik vazifalarini belgilab beradi. Otlarda oltita kelishik shakli mavjud:

№	Kelishik nomi	Qo'shimchasi	Misollar	Ishlatilishi	
				Belgili	Belgisiz
1.	***Bosh kelishik***	–	***Bola, daftar***	–	
2.	***Qaratqich kelishigi***	***-ning , -n***	***Bolaning, daftarning***	+	+
3.	***Tushum kelishigi***	***-ni, -n***	***Bolani, daftarni***	+	+
4.	***Jo'nalish kelishigi***	***-ga, -ka, -qa***	***Bolaga, eshikka, o'qqa***	+	+
5.	***O'rin-payt kelishigi***	***-da***	***Bolada, daftarda***	+	+
6.	***Chiqish kelishigi***	***-dan***	***Boladan, daftardan***	+	–

[47] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2009. – 39-bet.

[48] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2009. – 40-bet.

Bosh kelishikning maxsus qo'shimchasi yo'q va bu kelishikdagi otlar ko'pincha ega *(**Dars** boshlandi.)*, ot-kesim *(Mening ukam – **talaba**.)*, undalma *(**Og'ayni**, bugun birga dars tayyorlaylik.)*, ba'zan sifatlovchi aniqlovchi *(Mashina **asfalt** yo'lga chiqib oldi.)* vazifalarini bajaradi.

Qaratqich kelishigidagi ot doim ot bilan bog'lanadi va qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi: ***maktabning** hovlisi, **kitobning** varag'i.* Bu kelishik shaklidagi ot **qaratqich**, u bog'langan so'z esa **qaralmish** deyiladi; qaralmish doim **egalik** shaklida bo'ladi. Qaratqich va qaralmish o'rtasida so'z qatnashmasa, ***-ning*** qo'shimchasi tushirilishi mumkin: *cho'l havosi, daftar varag'i.* Agar ikkalasining o'rtasida biron-bir so'z ishtirok etsa, qaratqich tarkibida egalik qo'shimchasi mavjud bo'lsa, qaratqich qo'shimchasi turdosh otlardan boshqa so'zlarga (atoqli otlarga, olmoshlarga, sifatdoshlarga) qo'shilsa, ***-ning*** qo'shimchasi tushirilmaydi: ***cho'lning mayin** havosi, **daftarimning** varag'i, **Salimning** ukasi, **mening** akam, **o'qiganning** foydasi, **o'nning** yarmi, **ertaning** bolasi.*

Tushum kelishigidagi ot doim o'timli fe'l bilan bog'lanadi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *maktabni sevish, kitobni o'qish.* Bunday otlar bilan o'timli fe'l o'rtasida so'zlar ishtirok etmasa, tushum kelishigi qo'shimchasi tushirilishi mumkin: *hikoya(ni) yozish, paxta(ni) terish.* Agar ikkalasining o'rtasida biron-bir so'z ishtirok etsa, tushum kelishigidan oldin egalik qo'shimchasi mavjud bo'lsa, tushum kelishigi qo'shimchasi turdosh otlardan boshqa so'zlarga (atoqli otlarga, olmoshlarga, sifatdoshlarga) qo'shilsa, ***-ni*** qo'shimchasi tushirilmaydi: *hikoyani **bugun** yozmoq, singlisini uzatmoq, **Navoiyni** o'rganmoq, **uni** uchratmoq, **maqtanganni** sinamoq, **beshni** ayirmoq.*

Jo'nalish, o'rin-payt va **chiqish** kelishigidagi otlar ***qayerga? qayerda? qayerdan?*** so'roqlariga javob bo'lib, o'rin holi vazifasini bajaradi: *shaharga ketdi, bog'ga chiqishdi, uyda o'tirmoq, ko'chadan kelmoq.* Ko'rinyaptiki, bunda kelishik qo'shimchalari **o'rin** otlariga qo'shilyapti. Bu kelishiklardagi otlar ***qachon?*** so'rog'iga javob bo'lib, payt holi vazifasini bajaradi: *kuzga qoldirilmoq, yozda o'tkazmoq, sahardan boshlamoq.* Misollardan ko'rinyaptiki, bunda kelishik qo'shimchalari **payt** otlariga qo'shilyapti. **Jo'nalish, o'rin-payt va chiqish** kelishigidagi otlar ***kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan?*** so'roqlariga javob bo'lib, to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *ukasiga aytmoq, yog'ga botirmoq, daftarga yozmoq, do'stida ko'rmoq, onasidan eshitdi.* Misollardan ko'rinyaptiki, bunda kelishik qo'shimchalari **shaxs** va **narsa** otlariga qo'shilyapti.

Bu kelishiklardagi otlar gapning oxirida kelib, ot-kesim vazifalarini bajaradi: *Bu sovg'a senga. Kitob menda. Yordam mendan.*

Chiqish kelishigidai otlar ***nega?*** so'rog'iga javob bo'lib, **sabab holi** vazifasini ham bajarishi mumkin: *Quvonchidan yig'lab yubordi.*

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi ***k*** tovushi bilan bitgan so'zlarga ***-ka*** tarzida, ***q*** tovushi bilan bitgan so'zlarga ***–qa*** tarzida qo'shilib, shunday yoziladi: *ko'ylak+ga=ko'ylakka, ishq+ga=ishqqa.* ***G'*** tovishi bilan tugagan so'zlarga

qo'shilganda, **-qa** tarzida eshitilsa ham, **-ga** yoziladi: *bog'ga, bug'ga, yog'ga, tog'ga.* Qaratqich, tushum kelishigi qo'shimchalari qisqarib,

-n shaklida kelishi mumkin va bu qo'shimchalar o'zaro omonim holatga kiradi: *Otin(ing) boshin(i) burdi.*

3. Otlarni kesimga xoslovchi shakllar

Otlar gap tarkibida ot-kesim vazifasini bajarishi mumkin. Bunda ularga yordam beruvchi vositalar **otlarni kesimga xoslovchi shakllar** deb yuritiladi. Bu vazifada quyidagi vositalar qatnashadi: 1) **–man, -san, -dir** qo'shimchalari: *Men talaba**man**. Sen o'quvchi**san**. U shifokor**dir**.* 2) *bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq* so'zlari. Bu so'zlar yuqoridagi qo'shimchlar bilan ma'nodosh bo'lgandagina, otni kesimga xoslovchi shakl hisoblanadi, aks holda ko'makchi fe'l hisoblanadi: *Men talaba **bo'laman** – Men talaba**man**.* 3) *edi, ekan, emish, emas* to'liqsiz fe'llari: *U ishchi edi.* Bunda shaxs bildiruvchi qo'shimchalar shu so'zlarga qo'shiladi: *Sen talaba **ekansan**.* Bu vositalar **bog'lama** deb ham yuritiladi.

Harakat nomi ham kesimga xoslanishi mumkin. Uni kesimga xoslovchi vositalar *kerak, darkor, lozim, zarur, shart* kabi so'zlar hisoblanadi. Bunda shaxs-son bildiruvchi qo'shimchalar harakat nomiga qo'shiladi: *Men borish**im** **kerak**.*

6-§. Otlarning yasalishi

Otlar besh xil usul bilan yasaladi. 1. Ot yasovchi qo'shimchalar yordamida. 2. So'zlarni qo'shish yoki juftlash yordamida. 3. So'zlarni qisqartirish yordamida. 4. Turkumdan turkumga so'z ko'chishi yordamida. 5. So'zlarni takrorlash yordamida.

1. Yasovchi qo'shimchalar bilan ot yasash (morfologik yoki affiksatsiya usuli)

Ot yasovchi qo'shimchalar asos bilan birikkan holda quyidagi ma'nolarni bildiruvchi otlar yasaydi:

1. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar:

-chi	*suv**chi**, sport**chi**, navbat**chi**.*
-dosh	*sinf**dosh**, suhbat**dosh**.*
-kor (-kar, -gar, -gor)	*paxta**kor**, talab**gor**, mis**kar**, zar**gar***
-kash:	*arava**kash**,*
-dor:	*chorva**dor**, amal**dor***
-bon:	*saroy**bon**, darvoza**bon***
-boz:	*dor**boz**, askiya**boz***
-paz:	*osh**paz**, manti**paz***

-xon:	*gazet**xon**, kitob**xon***
-shunos:	*til**shunos**, zar**shunos***
-do'z:	*gilam**do'z**, etik**do'z***
-soz:	*soat**soz**, arava**soz***
-xo'r:	*choy**xo'r**, qimiz**xo'r***
-parast:	*shaxsiyat**parast**, amal**parast***
-go'y:	*duo**go'y**,*
-furush:	*meva**furush**, chit**furush***
-vachcha:	*tog'a**vachcha**,amaki**vachcha***
-(u,o)vchi:	*yozu**vchi**, uchu**vchi**, tinglo**vchi**,o'qu**vchi***
ham-	***ham**suhbat **ham**yurt*
-sil:	*yo'q**sil** (arxaiklashgan)*

2. Narsa-buyum otlari yasovchi qo'shimchalar:

-gich (-kich,-qich,-g'ich)	*purka**gich**, ko'rsat**kich**, qis**gich**, chiz**g'ich**.*
-gi (-ki,-qi,-g'i, -g'u)	*supur**gi**, tep**ki**, tutat**gi**, chalg**'i**, tuyg**'u***
-k,-ak	*kura**k**, pirpira**k**, varra**k**,*
-q,-oq	*tara+q = taro**q**, o'ro**q**, bo'ya+q =bo'yo**q***
-iq,-ik,-uq	*chopi**q**, topshiri**q**, teshi**k**, uchu**q**, yutu**q**.*
-ma	*to'qi**ma**, bo'g'**ma**, bos**ma**.*
-m,-im,-um	*to'pla**m**, kiyi**m**, unu**m**, uy+um = uyu**m**.*
-don	*qalamdo**n**, tuzdo**n**.*
-noma	*taklifno**ma***
-qin(-qun,-g'in,-g'un)	*to'lqi**n**, yong'i**n**, uchqu**n**, yulg'u**n**.*
-in(-un, -on):	*yig'i**n**, tugu**n**, to'zo**n**.*
-(i)ndi:	*chiri**ndi**, cho'ki**ndi**.*
-machoq:	*bekin**machoq**, tortish**machoq**.*
-(i) sh:	*quri**lish**, turlani**sh**.*
-(u)v, (o)v:	*yozu**v**, sayo**v**.*
-ildoq:	*shaqi**ldoq***
-a:	*sharshar**a**, jizz**a**.*
-os	*chuvv**os**, guldur**os**.*
-poya	*beda**poya**, g'o'za**poya**.*

-qoq(-kak, -gak)	bot**qoq**, esh**kak**, il**gak**.
-dak(-doq)	yugur**dak**, qovur**doq**.
-chiq	yopin**chiq**, suyan**chiq**.
-chak	bur**chak**, kemir**chak**.
-machoq	bekin**machoq**, aylan**machoq**.
-iz	bo'g'**iz**.
-miq	Bula**miq**.
-t(-it, -at, -ot)	qur**t** (quri+t), chiq**it**, o'l**at**, ko'ch**at**, siz**ot**
-mish:	o't**mish**, qil**mish**.
-kilik (-gilik):	ich**kilik**, ko'r**gilik**.
-moq(-mak):	quy**moq** (ovqat turi), chert**mak**(o'yin turi)
-cha:	qizil**cha**, ola**cha**.
-ka:	yo'l**ka**

3. O'rin-joy otlari yasovchi qo'shimchalar:

-zor:	gul**zor**, paxta**zor**, olma**zor**
-iston:	O'zbeki**ston**, guli**ston**
-loq:	o't**loq**, tosh**loq**
-goh:	saylg**oh**, o'yin**goh**
-xona:	osh**xona**, choy**xona**
-obod:	Yunus**obod**, Yangi**obod**

4. Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar:

-lik	bola**lik**, do'st**lik**, bir**lik**, mustaqil**lik**
-liq	ota**liq**, bor**liq**
-ch	sevin**ch**, quvon**ch**, tayan**ch**
-garchilik	odamg**archilik**, og'ayni**garchilik**
-chilik	kamc**hilik**, dehqonc**hilik**,
-sh(-ish)	quril**ish**, emla**sh**
-v(-uv)	undo**v**, uq**uv**
-i	suyunch**i**
-at(-ot)	madaniy**at**(madaniy+at=madaniyat), shaxsiy**at**, tashviq**ot**, targ'ib**ot**

2. So'zlarni qo'shib, juftlab, bog'lab ot yasash (sintaktik yoki kompozitsiya usuli)

Bunda qo'shma va juft otlar yasaladi. **Qo'shma otlar** quyidagicha yasaladi:

1) ot bilan otdan: *otquloq, qo'larra;*
2) sifat bilan otdan: *ko'ksulton, xomtok;*
3) ot bilan sifatdan: *gulbeor, oshko'k;*
4) son bilan otdan: *mingoyoq, qirqog'ayni, uchburchak;*
5) ot bilan fe'ldan: *o'rinbosar, beshiktervatar;*
6) fe'l bilan fe'ldan: *iskabtopar, olibsotar.*

Quyidagi qo'shma otlar **qo'shib** yoziladi:

1) qismlari turdosh otlardan iborat bo'lib, bir urg'u bilan aytiladigan narsa-buyum nomlari: *gulko'rpa, oshqozon, o'qilon, tutmayiz, oshko'k.*

2) birinchi qismi ot, fe'l va sondan, ikkinchi qismi **-ar** qo'shimchali fe'l bilan yasalgan qo'shma otlar: *otboqar, olibsotar, iskabtopar, beshotar.*

3) ikkinchi qismi turdosh ot bo'lgan geografik nomlar: *Sirdaryo, Ug'iepa.*

Quyidagi qo'shma otlar **ajratib** yoziladi:

1) ikkinchi qismi ***y*** harfi bilan boshlangan qo'shma otlar ajratib yoziladi: *yer yong'oq, eshak yemi, qozon yuvg'ich.*

2) ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lgan otlar: *O'rta Chirchiq, G'arbiy Yevropa.*

Juft otlar quyidagicha yasaladi:

1) bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardan: *uy-joy, oyoq-qo'l.*
2) sinonim so'zlardan: *kuch-quvvat, oziq-ovqat, baxt-saodat.*
3) antonimlardan: *yosh-qari, ost-ust.*
4) butun-bo'lak ma'nosini ifodalovchi so'zlardan: *tog'- tosh, idish-tovoq, gap-so'z, oy-kun, vaqt-soat.*

Har doim ham ikkita otning juftlanishidan yangi ot yasala bermaydi. Juft so'zning turkumini qismlarning qaysi turkumdan ekanligiga qarab emas, balki juft so'zning butunligicha qanday ma'no anglatishiga qarab aniqlash kerak bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, quyidagi turkum so'zlar juftlanib, ot yasaladi:

1. Ot: *yor-birodar, to'y-tomosha.*
2. Sifat: *oq-qora(ni tanimoq), issiq-sovuq (sehr-jodu).*
3. Ravish: *kam-ko'st.*
4. Sof fe'l: *ur-yiqit, keldi-ketdi.*
5. Fe'lning harakat nomi shakli: *yurish-turish, yozuv-chizuv.*
6. Taqlidiy so'zlar: *adi-badi, qiy-chuv.*

3. So'zlarni qisqartirib ot yasash (abbreviatsiya usuli)

Qisqartma otlarning yasalishi:

1) so'zlarning birinchi harfidan: ***BMT*** *(Birlashgan millatlar tashkiloti),* ***RTM*** *(Respublika ta'lim markazi).*

2) birinchi so'zning bosh qismini va boshqa so'zlarning birinchi harfini olish bilan: ***O'zMU*** *(O'zbekiston Milliy universiteti).*

3) so'zlarning bosh qismidan: ***ijroqo'm*** *(ijroiya qo'mita).*

4) aralash, ya'ni birinchi so'zning bosh qismi, ikkinchi so'zni to'liq keltirish bilan: ***pedkengash, partmajlis.***

4. Turkumdan turkumga ko'chish vositasida ot yasalishi (semantik usul)

1) sifatdan otga ko'chish: *o'g'il* (bola), *qiz* (bola), *ayol* (kishi), *chol* (odam); 2) fe'ldan otga ko'chish: *kelajak* (O'zbekiston kelajagi buyuk davlatdir); 3) juft fe'llar otga ko'chadi: *keldi-ketdi, oldi-sotdi, qo'ydi-chiqdi.*

5. So'zlarni takrorlash yordamida ot yasash

Lik-lik (ko'kat turi), *pat-pat* (mototsikl), *bog'cha-bog'cha* (o'yin), *yugur-yugur* (shoshilish), *biyov-biyov* (qush), *shaq-shaq* (qush).

7-§. Otlarning tuzilish jihatdan turlari

Otlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda otlar birgina asosdan iborat bo'lgan otlardir. Bular o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

a) sodda tub otlar so'z yasovchi qo'shimcha olmagan otlardir: *kitob, qalam.*

b) sodda yasama otlar so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan otlardir: *ishchi, guldon.*

2. Qo'shma otlar: *belbog', qo'lqop, Yangiyo'l, yer yong'oq.*

3. Qisqartma otlar: *MDH, ToshDSHI.*

4. Juft otlar: *yem-xashak, ko'rpa-yostiq.*

5. Takroriy otlar: *choy-poy, in-iniga, tomir-tomiriga, don-dun, irim-sirim.*

Juft va takroriy otlar orasiga chiziqcha qo'yib yoziladi.

Agar juft otlar o'rtasida ikki otni bir-biri bilan bog'laydigan ***u(yu)*** tovushi bo'lsa, chiziqcha qo'yiladi: *Ona-yu bola – gul-u lola.* Takroriy otlar bir otni takrorlash yordamida hosil qilinadi: *Aytilgan so'zlar jon-jonidan o'tib ketdi.* Tilimizda takrorlangan, so'zning boshida kelgan undosh ***p*** yoki ***m*** undoshidan biriga almashadigan yoki unli tovushdan oldin ***p, ch, s*** kabi tovushi orttiriladigan *choy-poy, non-pon, qop-mop, osh-posh, pul-mul, meva-cheva, irim-sirim,* ikkinchi qismda unli o'zgaradigan *don-dun* kabi takroriy otlar ham bor.

Ot tahlili namunasi:	
1. So'rog'i aniqlanadi. *2. Ma'no turlari aniqlanadi.* *3. Birlik yoki ko'pligi (soni).* *4. Kelishigi.* *5. Egalik qo'shimchasi bo'lsa, uning shaxs-soni aniqlanadi.*	*6. Kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma'nolari bo'lsa, aniqlanadi.* *7. Tuzilish turi aniqlanadi.* *8. Tub yoki yasamaligi aniqlanadi.* *9. Gapdagi sintaktik vazifasi aniqlanadi..*

12-MAVZU.
SIFAT

1-§. Sifatning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning belgisini bildirib, *qanday?, qanaqa?, qaysi?* so'roqlaridan biriga javob bo'lgan so'zlar sifat deyiladi: *pakana, ko'k, kuzgi.* Sifatlarning **morfologik** xususiyatlari: 1) belgining darajasini ko'rsatadi: *sho'x, sho'xroq, eng sho'x.* 2) otlashadi: ***Kattalarni*** *hurmat qiling.* 3) fe'lga bog'lanib, ravish

o'rnida keladi: *Sattor* ***chiroyli*** *yozadi.* Sifatlarning **sintaktik** xususiyatlari: 1) asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: ***Yoqimli*** *shamol esa boshladi. Tabiat* ***go'zal.*** 2) sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, aniqlab kelayotgan so'zi bilan moslashmaydi, qo'shimcha olishi shart emas: *keng(-)ko'cha, baland(-) tog'.*

2-§. Sifatlarning ma'no jihatdan turlari[49]

1. Xususiyat sifatlari. Bunday sifatlar shaxs va narsalarning xil-xususiyatlarini, holatini ifodalaydi: *yaxshi, yomon, aqlli, sergak, so'zamol, sho'x, kamtar, quvnoq, g'amgin, xursand.*

2. Rang-tus sifatlari. Bular narsalarning turli xil rang-tusini ifodalaydi: *oq, qora, sariq, kul rang;*

3. Maza-ta'm sifatlari. Bu sifatlar narsalarning maza-ta'mini bildiradi: *shirin, achchiq, nordon, sho'r, achimsiq.*

4. Hajm-o'lchov sifatlari. Bu sifatlar narsalarning hajmini, vaznini, o'lchovini bildirib keladi: *keng, tor, chuqur, katta, kichik, uzun, qisqa, baland, og'ir, yengil, zildek, vazmin, yapaloq, tekis, yassi, dumaloq.*

5. Hid sifatlari. O'z-o'zidan ma'lum, bu sifatlar narsalarning turlicha hidlarini ifodalaydi: *xushbo'y, sassiq, badbo'y, muattar, qo'lansa.*

6. Makon-zamon sifatlari. Bular narsalarning o'rin va paytga nisbatan olingan belgilarini ifodalaydi: *uydagi, ko'chadagi, yozgi, qishki, avvalgi, dastlabki, bulturgi, kechki.*

3-§. Asliy va nisbiy sifatlar

Narsalarning belgisini bevosita, to'g'ridan-to'g'ri ifodalay oladigan va belgini darajalab ko'rsata oladigan (ya'ni ***–roq*** qo'shimchasini qabul qila oladigan) sifatlar **asliy sifatlar** deb ataladi: *kichik, yomon, aqlli, qora, oriq.*

Narsalarning belgisini bevosita emas, balki o'rin yoki paytga nisbatan ifodalaydigan va ko'pincha daraja ko'rsata olmaydigan sifatlar **nisbiy sifatlar** deb ataladi. Bunday sifatlar yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan bo'ladi: *sharsimon, ko'chma, devoriy, yozgi, uydagi, oilaviy, toshkentlik.*

4-§. Sifat darajalari

Shaxs va narsalarga xos belgining ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi **sifat darajasi** deb yuritiladi. Sifatlarning quyidagi daraja shakllari bor:

1. Oddiy darajadagi sifatlar belgining me'yordagicha ekanligini ko'rsatadi va maxsus ko'rsatkichga (qo'shimchaga) ega emas: ***keng*** *ko'cha,* ***yashil*** *yaproq,* ***yaxshi*** *odam.*

[49] *Tasnif olindi*: N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2009. – 135-bet.

2. Orttirma darajadagi sifatlar belgining me'yordan ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlardir. Orttirma daraja quyidagi usullar yordamida hosil qilinadi:

1) maxsus so'zlar yordamida. Bunda oddiy darajadagi sifatlardan oldin *eng, juda, g'oyat, nihoyatda, bag'oyat, hammadan, zap, xo'p, beqiyos, tim* kabi so'zlar keltiriladi: *eng kichik, hammadan chiroyli, zap g'alati, beqiyos chiroyli, naqadar ulug'vor, xo'p bemaza, cheksiz quvonchli.*

2) birinchi bo'g'inni takrorlash yordamida. Bunda oddiy darajadagi sifatlarning birinchi bo'g'ini to'g'ridan to'g'ri yoki turli tovush o'zgarishlari bilan takrorlanadi: *dum-dumaloq, pak-pakana; to'ppa-to'g'ri, yap-yangi, ko'm-ko'k, kap-katta, top-toza, bus-butun, bo'm-bo'sh, oppoq, tip-tiniq, qip-qizi, sap-sariq.*

3. Qiyosiy darajadagi sifatlar belgining me'yordan sal kam ekanligini qiyoslab, solishtirib ifodalaydi va oddiy darajadagi sifatga ***-roq*** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: *Olma daraxti shaftoli daraxtidan balandroq.*

4. Ozaytirma darajadagi sifatlar belgining me'yordan kamligini ifodalaydi. Bu daraja quyidagicha yasaladi:

1) oddiy darajadagi sifatdan oldin *yarim, nim, biroz, och, xiyol, xiyla, chizi, sal, aytarli, uncha, picha* so'zlarini keltirish bilan: *yarim ochiq (eshik), xiyol katta, sal uzun;*

2) oddiy darajadagi sifatlarga ***-(i)mtir, -(i)sh, -gina*** qo'shimchalarini qo'shish orqali: *qoramtir, qizg'ish, oqish, sarg'imtir, ko'kimtir.*

5-§. Sifatlarning yasalishi

1. So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida:

1) otdan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-li	*rasmli* (kitob), *kuchli* (shamol)
-lik	*toshkentlik* (bola)
-siz	*tuzsiz* (ovqat)
-iy,-viy	*tarbiyaviy* (soat), *devoriy* (gazeta)
-gi,-ki,-qi	*bahorgi* (ishlar), *qishki*(kiyim), *sirtqi*(o'qish)
-a-ki, -o-qi	*jizzaki, jirttaki, pistoqi*
-yi	*havoyi(gap)*
-chan	*ishchan (bola)*
ser-	*serhosil olma*
ba-	*badavlat, baquvvat*
be-	*beg'ubor, bexabar*

-simon	*odamsimon maymun*
-vor	*aybdor, vafodor*
-kor, -gar	*isyonkor, zulmkor, javobgar, ig'vogar*
-i	*qishloqi, qozoqi*
-cha	*farg'onacha, erkakcha, arabcha (o'yin)*
-namo	*avliyonamo, darveshnamo*
-parvar	*xalqparvar, adolatparvar*
-on	*charog'on, za'faron*
-aki	*dahanaki, og'zaki*
bad-	*badbaxt, badnafs*
-shumul	*olamshumul, jahonshumul*
-mand	*kasalmand, davlatmand*
-don	*gapdon, bilimdon*
-kash	*dilkash, hazilkash*
-bop	*palovbop, qishbop*
xush-	*xushfe'l, xushhavo*
-in	*erkin, otashin*
bar-	*barhayot, barvaqt*
-chil	*xalqchil, izchil*
-lik (-liq)	*ko'ylaklik(chit), bolalik(chog'lar)*
-i	*jannati (kampir)*
-loq	*baqaloq, qo'shaloq (g'o'za)*
-kor	*devkor(ish), fusunkor(husn)*
-kash	*zahmatkash(odam), noskash(kampir)*
-chi	*gapchi(odam), vahimachi(ayol)*
-von	*zo'ravon(odam)*
-qa	*loyqa(suv)*
-omuz	*hazilomuz(gap), zaharomuz(hazil)*
-xo'r	*g'amxo'r(odam), go'shtxo'r(hayvon)*
-soz	*soatsoz(usta)*
-dek(-day)	*muzdek(suv), jo'jabirday(jon)*

2) fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-choq,-chak,-chiq	*maqtanchoq, kuyunchak, qizg'anchiq*
-gir, -g'ir, -kir, -qir, -qur	*sezgir, topqir, o'tkir, olg'ir, uchqur*
-ma	*qaynatma (sho'rva), burma (ko'ylak)*
-k (-uk, -ik,-ak)	*chirik, teshik, tuzuk, g'alvirak*
-q(-uq,-iq,-aq)	*iliq, siniq, buzuq, qol+aq=qoloq.*
-oq	*qochoq, qo'rqoq, baqiroq*
-qi	*sayroqi (qush),*
-qoq, -g'oq	*tirishqoq, uyushqoq, toyg'oq*
-ag'on	*bilag'on, chopag'on*
-mon	*bilarmon, qirarmon*
-kun, -qin, -g'in	*tushkun, ozg'in, jo'shqin,*
-g'un, -qun	*turg'un, tutqun*
-(a)rli	*yetarli, zerikarli*
-ch	*tinch, jirkanch*
-g'ich:	*yulg'ich (odam)*
-ong'ich:	*tepong'ich, suzong'ich*
-ovuch:	*hurkovuch, iskovuch*
-mas:	*o'tmas(pichoq), indamas(odam)*
-(i)ndi:	*asrandi (bola)*
-a:	*ko'tara (savdo),*

3) boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo'shimchalar:

Ravishdan	*-gi*	*kechagi, dastlabki*
Sifatdan	*no-*	*noma'lum, noto'g'ri*
	-lom	*sog'lom*
	-msiq	*qarimsiq, achimsiq*
Taqlid so'zdan	*-ildoq*	*bijildoq, likildoq*

2. So'zlarni qo'shish, bog'lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

1) qo'shma sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo'shib yoziladi: *bodomqovoq, sheryurak;*

b) sifat va otdan. Bular qo'shib yoziladi: *qimmatbaho;*

d) ot yoki ravishga **-ar** qo'shimchali fe'lni qo'shish bilan yasaladi: *tezoqar* (daryo), *ertapishar* (o'rik).

e) otga *aro, umum, yarim, g'ayri, nim, rang* so'zlarini qo'shish bilan. Bular qo'shib yoziladi: *xalqaro, umumkomanda, yarimaytomat, g'ayridin, nimpushti, jigarrang.*

Qo'shma sifatlar: a) ikki tub so'zdan tashkil topadi: *sovuqqon, xom semiz, kamgap;* b) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: *ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o'zbilarmon.*

2) juft sifatlar quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: *katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas,*

bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi; 2) sinonim ko'rinishdagi so'zlardan: *erka-aziz, boy-badavlat, sog'-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, qo'rqmas-qobil, xor-zor;* 3) yaqin ma'noli so'zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o'ydim-chuqur, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi.*

Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, *-u, -yu* yuklamalari bilan bog'lansa, yuklamalar birinchi qismdan chiziqcha bilan ajratib yozladi: *katta-yu kichik.*

3. So'zlarni takrorlash yordamida sanoqli miqdordagi sifatlargina yasaladi: *yo'l-yo'l* (ko'ylak), *manman* (odam), *shiqshiq* (tugma), *liplip* (chiroq), *chaqchaq* (odam).

6-§. Sifatlarning otlashishi

Sifat bog'langan otning tushib qolishi natijasida shu otning ma'nosi hamda vazifalari siifatga yuklansa, bu **sifatlarning otlashuvi** deb yuritiladi. Otlashgan sifatlar *kim?, nima?* so'roqlariga javob bo'ladi, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan qo'llanadi. Otlashgan sifatlar gap ichida **ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi** va **undalma** bo'lib keladi: *Qozonga yaqin yursang, **qorasi** yuqar, **yomonga** yaqin yursang, yarasi yuqar* (maqol). ***Bilimlining** kuchi mingga yetar, **bilimsizning** kuchi birga yetar. **Yaxshilar**, uni eslang!*

7-§. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari

1. Sodda sifatlar bir asosdan iborat bo'ladi va ikki xildir:

1) **sodda tub** sifatlar tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan sifatlar: *yaxshi, yashil, go'zal*dir. 2) **sodda yasama** sifatlar so'z yasovchi qo'shimchalari mavjud bo'lgan sifatlardir: *aqlli, suvsiz, hozirgi.*

2. Qo'shma sifatlar kamida ikkita asosdan iborat bo'ladi va bu asoslar ma'no jihatidan o'z mustaqillini yo'qotib, ular o'rtasidagi munosabatlar sezilmaydi: *rahmdil, ertapishar.*

4. Juft sifatlar: *o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq.*

5. Takroriy sifatlar: *baland-baland, uzun-uzun, yo'l-yo'l (pijama).*

Sifat tahlili namunasi	
1. So'rog'i. *2. Darajasi.* *3. Ozaytirma yoki kuchaytirma sifat.* *4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.*	*5. Tuzilish turi.* *6. Tub yoki yasamaligi.* *7. Gapdagi sintaktik vazifasi*

13-MAVZU.
SON

1-§. Sonning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog'ini, tartibini bildirgan so'zlar turkumi **s o n** deb ataladi. Son *necha?, qancha?, nechta?, nechanchi?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Sonlarning **morfologik** xususiyatlari: 1) sonlar *juft, dona, metr, siqim* kabi hisob so'zlari bilan qo'llana oladi; 2) sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar sonning hamma turlariga ham qo'shilavermaydi: 1-shaxs birlikdagi egalik qoshimchalari sonlarga deyarli qo'shilmaydi; 3) boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi.

Sonning **sintaktik** xususiyatlari 1) sonlar doim otlar bilan birga qo'llanadi; 2) sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so'zlarni o'ziga tobe qilib kelmaydi; 3) sonlar ot oldida aniqlovchi bo'lib kelganda, u bilan birikib yaxlit bir bo'lak vazifasini bajaradi: *Uch dugona kelishyapti;* 4) son va sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, oldin son, keyin sifat keladi: *ikkita chiroyli ko'ylak.* 5) sonlar gapda ko'pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: *Maqsadimiz bitta. Beshta qalam oldi.*

Sonlarda quyidagi xususiyatlar ham mavjud: 1) omonimlik: *yuz* (son) – *yuz* (chehra), *uch* (son) – *uch* (harakat), *qirq* (son) – *qirq* (harakat), *yigirma* (son) – *yigirma* (harakat); 2) sinonimlik: *bir – yakka, ikki – juft;* 3) paronimlik: *yetti – yetdi.*

Sonlar ko'pincha raqamlar bilan yoziladi:

1) arab raqamlari bilan *0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.*

2) rim raqamlari bilan: *II chorak, XX asr.*

Badiiy asarlarda sonlar so'z bilan yoziladi: *To'rt yil kutdi.*

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan 23 ta sodda son bo'lib, boshqa sonlar shularning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard.*

Qadimgi o'zbek tilida *lak* (yuz ming), *tuman* (o'n ming) sonlari ham bo'lgan.

2-§. Sonning ma'no turlari

Sonlar ma'no va grammatik jihatdan dastlab 2 guruhga bo'linadi:

1. Miqdor son shaxs, narsa-buyumlarning qanday miqdorini ifodalashiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) sanoq sonlar bir turdagi narsa-buyumlarning umumiy sonini, miqdorini bildiradi: ***besh** kun, **ellik uch** yosh.*

Sanoq sonlar jumlasiga kiradigan ***bir*** so'zi sanoq bildirishdan tashqari quyidagi ma'nolarni ham ifodalaydi: 1) noaniqlik (bunda u ***qandaydir*** olmoshiga sinonim bo'ladi): *Eshikni bir kishi taqillatyapti;* 2) kuchaytirish (bunda u ***juda*** so'ziga sinonim bo'ladi): *Bir yugurdim, bir yugurdim;* 3) ketmaketlik (bunda u ***dam, goh*** bog'lovchilariga sinonim bo'ladi): *Bir menga, bir unga qaraydi;* 4) chegaralash (bunda u ***faqat*** yuklamasiga sinonim bo'ladi): *Hamma keldi, bir Asqar kelmadi;* 5) tenglik (bunda u ***teng*** so'ziga sinonim bo'ladi): *Qonun oldida hamma bir.*

2) dona son narsa-buyumning donalab sanaladigan miqdorini bildiradi. Dona son sanoq songa ***-ta*** qo'shimchasini (jonli va jonsiz narsa nomlariga birika oladi) qo'shish yoki *dona* (narsa nomlariga birikadi), *nafar, bosh* (mavjudot nomlari bilan birikadi), *tup* (o'simlik nomlari bilan birikadi) so'zlarini keltirish yordamida hosil qilinadi: *beshta qush, uch dona non, o'n nafar odam, yuz bosh qo'y.*

3) chama son narsa-buyumlarning taxminiy sonini bildiradi va quyidagicha hosil bo'ladi: 1) sanoq songa ***-tacha*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *o'ntacha mashina;* 2) sanoq songa ***-lar, -larcha*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *Soat o'n birlar edi. Yuzlarcha odam yig'ildi.* 3) sanoq songa ***-lab*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *minglab odam;* 4) ikki sanoq sonni juft keltirish bilan: *besh-olti, uch-to'rt.*

4) jamlovchi son narsa-buyumning umumiy sonini bildiradi va sanoq songa quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi:

1) ***-ov*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *uchovi, to'rtovi;*

2) ***-ala*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *ikkala, uchala;*

3) ***-ovlon*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *beshovlon, oltovlon;*

Ikki, olti, yetti sanoq sonlaridan jamlovchi son hosil qilinganda, o'zakdagi ***i*** tovushi tushib qoladi: *ikkovi, oltovi, yettovi.*

Uch, to'rt sonlariga ***–ala*** qo'shilganda, *uchchala, to'rttala* tarzida aytilsa ham, *uchala, to'rtala* deb yoziladi.

Jamlovchi sonlar ko'pincha 1 dan 7 gacha bo'lgan sonlardan yasaladi (nutqda *o'nala, o'novi* shakllari uchraydi) va ular ma'no jihatidan **otlarga** yaqin turadi.

5) taqsim son narsa-buyumlarning taqsimlanish miqdorini anglatadi va sanoq songa ***-tadan*** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: *ikkitadan, o'ntadan, yuztadan.* Ba'zan sanoq son takrorlanib, taqsim son yasalishi mumkin: *Ikki-ikki bo'lib yurdik.* (Miqdor bildiruvchi so'z qatnashsa, ***-ta*** tushiriladi: *beshtadan – besh kilogrammdan*)

6) kasr son narsa –buyumlar miqdorini bo'laklab, qismlab ifodalaydigan son turidir: *1/2 (yarim), 1/4 (chorak), 1/8 (nimchorak).*

Kasr son ikki xil ifodalanadi: 1) ikki son chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan bog'langan bo'ladi: *ikkidan bir;* 2) o'z holicha kasrni anglatadigan so'z bo'ladi: *yarim, chorak, nimchorak.*

2. Tartib son narsa-buyumning sanoqdagi tartibini bildiradi. Tartib son unli bilan tugagan sanoq songa ***-nchi***, undosh bilan bitgan miqdor songa

- ***(i)nchi*** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: *birinchi, ikkinchi.*

Tartib sonlar arabcha raqamlar bilan ifodalansa, bu qo'shimchalar yozilmaydi, raqamdan keyin chiziqcha qo'yiladi: *2-uy;* rim raqamlari bilan ifodalansa, chiziqcha ham qo'yilmaydi: *VI sinf.*

Tartib sonlar ma'no jihatidan sifatlarga yaqin turadi va ularning ayrim turlari sifat turkumiga ko'chishi ham mumkin: *yettinchi lampa, o'ninchi (yoki qirqinchi) ip, yuzinchi lampochka.*

3-§. Hisob so'zlari (numerativlar) haqida ma'lumot

Sanoq sonlar bilan qo'llanib, noaniq miqdor tushunchasini ifodalaydigan so'zlar **hisob so'zlari (numerativlar)** deb ataladi. Bunday so'zlar sanoq son bilan sanaladigan narsalarni bildiradigan so'zlar o'rtasida keladi: *besh yuz* ***so'm*** *pul, yuz* ***gramm*** *yog', yuz* ***yil*** *vaqt.* Bunday so'zlar aslida **ot** turkumiga mansub bo'lib, o'z lug'aviy ma'nolarini qisman yo'qotgan holda noaniq miqdor ifodalaydigan bo'lib qolgan so'zlardir.

Hisob so'zlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan: *dona, nusxa, tup, bosh, nafar;*

2) butunning qismini hisoblash uchun: *parcha, varaq, burda, og'iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultum, yutum, ho'plam, tomchi, chaqmoq, nimta, to'g'ram, poy, toqa, bo'lak, shingil;*

3) to'dalab ko'rsatuvchi: *gala, to'p, guruh, to'da, dasta, bog', quchoq, shoda, hovuch;*

4) juftlab ifodalovchi: *juft, para;*

5) og'irlikni o'lchaydigan: *gramm, kilogramm, sentner, tonna, misqol, pud, botmon, qadoq, paysa, dahsar;*

6) uzunlik o'lchovini bildiradigan: *millimetr, santimetr, metr, kilometr, chaqirim, tosh (eskirgan), gaz, qarich, quloch, yog'och, qadam;*

7) yosh o'lchovini bildiradigan: *yashar, yoshlik, oylik, kunlik;*

8) vaqt o'lchovini bildiradigan: *soniya..., soat, kun, oy, hafta, yil;*

9) maydon o'lchovini bildiradigan: *sotix, gektar, tanob.*

10) qiymat o'lchovini ifodalaydigan: *so'm, tiyin, tanga, miri, paqir.* Bulardan tashqari, quyidagi hisob so'zlari son va fe'l orasida kelib, harakat miqdorini bildiradi: *marta, navbatda, karra, bor, hissa, qatla, sidra, daf'a.*

4-§. Sonlarning otlashishi

Gapda otning so'rog'iga javob bo'ladigan va ot kabi ko'plik, egalik, kelishik shakllarida kela oladigan son **otlashgan** son deb ataladi: *Beshga, uchni, ikkimiz, ikkinchilar.* Otlashgan sonlar xuddi otlar kabi ega, otkesim, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi va hol vazifalarini bajaradi: ***Besh*** *– o'nning yarmi.* ***Beshni*** *uchga qo'shsa,* ***sakkiz bo'ladi****. Imtihonlar* ***yigirmanchida*** *bo'ladi.*

5-§. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari

Sonlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda sonlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: *bir, uch.*

2. Qo'shma sonlar ikki yoki undan ortiq sonning birga yozilishidan tuziladi: *o'n uch, bir yuz o'n sakkiz.*

3. Juft sonlar ikkita turli o'zakning juftlashishidan tuziladi: *besh-olti, yetti-sakkiz, o'n besh-o'n olti.*

4. Takroriy sonlar bir o'zakning takrorlanishidan tuziladi: *ikki-ikki, to'rtta-to'rtta, o'nta-o'nta.*

Juft va takroriy sonlar chiziqcha bilan yoziladi.

Tilchi olimlar *sakson* va *to'qson* sonlarining *sakkiz* va *o'n, to'qqiz* va *o'n* so'zlaridan tuzilganligini aniqlashgan.

Son tahlili namunasi	
1. So'rog'i.	*5. Otlashgan yoki otlashmaganligi.*
2. Butun yoki kasrligi.	*6. Tuzilish turi.*
3. Ma'no turi.	*7. Gapdagi sintaktik vazifasi.*
4. Hisob so'zi bor-yo'qligi.	

14-MAVZU.
OLMOSH

1-§. Olmoshning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba'zan so'z birikmasi va gap o'rnida qo'llana oladigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'z turkumi **olmosh** deb ataladi: 1) ot o'rnida: ***Karim*** *juda quvondi, chunki* ***u*** *o'z orzusiga erishgan edi.* 2) sifat o'rnida: ***Kechagi*** *kitobingni berib tur, men* ***shu*** *kitobdan misollar olmoqchiman.* 3) son o'rnida: *Menda* ***ikkita*** *qalam bor, senda* ***nechta*** *bor?* 4) fe'l o'rnida: *Men gap qaytardim,* ***bu*** *dadamga yoqmadi.* 5) ravish o'rnida: *Men bugun ketaman, sen* ***qachon*** *ketasan?* 6) so'z birikmasi o'rnida: ***Yolg'on gapirish*** *yaxshi emas,* ***bu*** *yomon oqibatlarga olib keladi.* 7) gap o'rnida: ***Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan****,* ***bu*** *esa insondagi eng yomon xislatdir.*

Ot o'rnida keladigan olmoshlar turlanadi, gapda ko'pincha ega, to'ldiruvchi va undalma vazifalarini bajaradi: ***Hamma*** *keldi.* ***Bizni*** *tabriklang. Hoy* ***sen****, beri kel!* Sifat va son o'rnida almashib keladigan olmoshlar esa aniqlovchi bo'lib keladi: ***Shu*** *kitobni bering.*

Olmoshlar gapda so'zlarni o'rinsiz takrorlashdan qutqaradi, fikrni ixcham, qisqa qilib ifodalashga yordam beradi. Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlariga ega: 1) olmoshlar ot, fe'l, ravish, sifat kabi turkumlarning yoki iboralarning yasalishi uchun asos bo'lishi mumkin: *o'zlik, sensirama, o'zicha, menbop, o'zboshimcha, o'ziga kelmoq, o'zidan ketmoq);* 2) juftlanib, boshqa so'z turkumi vazifasida keladi: *o'sha-o'sha, shu-shu* (ravish); 3) olmoshlar otlarga xos sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni olishi mumkin: *unga, shunisi;* 4) olmosh hech vaqt o'zidan oldin aniqlovchi olmaydi.

2-§. Olmoshlarning ma'no turlari

1. Kishilik (shaxs) olmoshlari uchta shaxsni bildiradigan quyidagi olmoshlardir: ***men*** (so'zlovchi), ***sen*** (tinglovchi), ***u*** (o'zga), ***biz*** (so'zlovchi va uning atrofidagilar), ***siz*** (tinglovchi va uning atrofidagilar), ***ular*** (o'zga

va uning atrofidagilar). Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. ***Men, sen*** olmoshlariga qaratqich, tushum kelishigi hamda ***-niki*** qo'shimchasi qo'shilganda, bir ***n*** tushib qoladi: *mening, seniki, seni.* ***U*** kishilik olmoshiga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda, bir ***n*** orttiriladi: *unga, unda, undan.* Kishilik olmoshlariga egalik qo'shimchalari deyarli qo'shilmaydi. ***Biz*** olmoshi kamtarlik, bir ishni bajarishda o'zini ta'kidlamaslik ma'nolarini ifodalab, birlik o'rnida kelishi mumkin: ***Bizning*** *bu maqolamizda...* ***Siz, ular*** hurmat ma'nosida birlik o'rnida qo'llanishi mumkin: *Ustoz,* ***siz*** *ko'zimni ochdingiz.* ***Ular*** *menga ota bo'ladilar.* Kishilik olmoshlari gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, otkesim, izohlovchi vazifalarini bajaradi: ***Men*** *ketdim.* ***Senga*** *gapiryapman.* ***Uning*** *zehni o'tkir. Buni bajaruvchi –* ***siz.***

2. O'zlik olmoshi narsa-buyumni aniqlab yoki ta'kidlab ko'rsatish uchun ishlatiladigan ***o'z*** so'zidir. Bu olmosh narsa-buyumning shaxsga xosligini, tegishliligini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: *o'z uyi, o'z ukasi.* O'zlik olmoshi egalik qo'shimchasini olib, kishilik olmoshlariga sinonim bo'ladi: *o'zim - men, o'zing - sen, o'zi - u.*

O'zlik olmoshi turlanganda kelishik qo'shimchalaridan oldin egalik qo'shimchalari bo'lishi shart: *o'ziga, o'zingdan* va b. ***O'z*** olmoshi belgisiz qaratqich kelishigi shaklida qo'llanishi mumkin: *O'z uying – o'zingning uying.*

O'zlik olmoshi kishilik olmoshlaridan keyin qo'llanganda ta'kid ma'nosini ifodalaydi: *mening o'zim, sening o'zing, uning o'zi.*

3. Ko'rsatish olmoshlari narsa-buyumni, kimsani ko'rsatish uchun ishlatiladigan va o'zi ishtirok etgan gapdan oldingi gapga, so'zga yoki so'z birikmasiga ishora qiladigan quyidagi olmoshlardir: *u, bu, shu, o'sha, ana, mana, ana shu, mana bu (* yoki *manavi), ana bu (*yoki *anavi) ushbu* (bu so'z ko'tarinki, tantanali ma'no ifodalaydi).

Kishilik olmoshi ***u*** bilan ko'rsatish olmoshi ***u*** gapdagi ma'nosiga qarab farqlanadi. Bunda ***u*** kishilik olmoshi *kim?* so'rog'iga, ko'rsatish olmoshi ***u*** esa *qaysi?* so'rog'iga javob bo'ladi. *U, bu, shu, o'sha* olmoshlari jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga *-day, -cha* qo'shimchalari qo'shilganda, qo'shimcha oldidan bir ***n*** tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunday, o'shanday, uncha.*

U, bu olmoshlari juftlanib har xil narsa va shaxs, *unaqa-bunaqa* tarzida belgining ortiqligi, *uncha-muncha* tarzida oz miqdor ma'nolarini ifodalaydi. Ko'rsatish olmoshlari ega *(Bu mening kitobim.)*, aniqlovchi *(Q'sha yigit bugun ham keldi.)*, *hol (Shunda men uyg'onib ketibman.)* va kesim *(Bizning burchimiz – shu.)* vazifalarini bajaradi.

4. So'roq olmoshlari biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so'roqni bildiradigan olmoshlardir. So'roq olmoshlarining nimaga nisbatan so'roq bildirishini quyidagi jadvaldan bilsa bo'ladi:

№	So'roq turi	Olmoshlar
1.	Shaxsga so'roq	*Kim?*
2.	Narsaga so'roq	*Nima?*
3.	Belgi-xususiyatga so'roq	*Qanday? Qanaqa? Qaysi?*
4.	Miqdorga so'roq	*Qancha? Necha? Nechta?*
5.	Tartibga so'roq	*Nechanchi?*
6.	Sabab-maqsadga so'roq	*Nega? Nimaga ?*
7.	O'rin-joyga so'roq	*Qayerda? Qayda? Qayoqqa?*
8.	Paytga so'roq	*Qachon?*
9.	Mavjudlikka so'roq	*Qani?*

Kim olmoshi shaxsga nisbatan, *nima* olmoshi narsaga nisbatan ishlatiladi hamda birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik va kelishik qo'shimchalarini oladi: *Kim so'zladi? Nimalarni ko'rding? Nimang bor? Nima* olmoshi belgisiz kelishik shaklida kelishi mumkin: *Nima(ni) olding?*

Qanday, qanaqa, qaysi olmoshlari belgini aniqlash uchun ishlatiladi: *qanaqa odam, qaysi kitob. Qayerda, qani, qayoqqa, qachon, nega* olmoshlari o'rin, payt, mavjudlik, sabab, maqsad kabilarni aniqlash uchun ishlatiladi: *Qachon ketdi? Qayerda yuribdi? Ukang qani? Qayoqqa ketdi? Nega ketdi?*

5. Belgilash olmoshlari "to'pdan ajratilgan yoki jamlab ko'rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni"[50] ifodalaydi. Bu olmoshlarni ikkiga bo'lish mumkin: **1) jamlovchi belgilash olmoshlari** shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni jamlab ifodalaydi. Bularga *hamma, barcha, bari, jami, jamiyki, butun, yalpi* so'zlari kiradi. Bu olmoshlar gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifalarini bajaradi: ***Bari*** *keldi.* **2) to'pdan ajratuvchi belgilash olmoshlari** butundan ajratilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni ifodalaydi. Bularga *har* so'zining o'zi *(har qovunlarki...)* va *har kim, har nima, har bir, har qaysi* kabi so'zlar kiradi. *Har* so'zi ayrim yoziladi.

Hamma, barcha, bari olmoshlari ko'plikni anglatadi. Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan qo'llanadi: *Hammalari jim. Har kimga aytaverma.*

6. Bo'lishsizlik olmoshlari inkor ma'nosini bildiradigan olmoshlardir. Bular *hech* so'zining o'zi va shu so'zning ba'zi so'roq olmoshlari yoki *bir, narsa,* so'zlari bilan bog'lanishidan hosil qilinadi: *hech kim, hech nima, hech qanday, hech qaysi, hech qachon, hech bir, hech narsa. Hech* so'zi ayrim yoziladi. Bu olmoshlar egalik, kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi: *U hech kimni ko'rmadi.*

Bo'lishsizlik olmoshi ishtirok etgan gapning kesimi inkor shaklda bo'ladi.

Kimsa so'zi ham bo'lishsizlik olmoshlari o'rnida qo'llanishi mumkin: *Buni kimsa (hech kim) bilmasligi kerak.*

[50] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2009. – 24-bet.

7. Gumon olmoshlari narsa, belgi yoki voqea haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladigan olmoshlardir. Ular *alla-* yoki *-dir* qo'shimchasini so'roq olmoshlariga yoki *narsa* so'ziga qo'shish yordamida hosil qilinadi: *allakim, allanima, allanarsa, allaqaysi, allaqayer, allaqayoq, allanechuk, allaqancha, allanechanchi, kimdir, nimadir, qachondir, qandaydir, qayerdadir, qayergadir, negadir.* Gumon olmoshlari so'roq olmoshlariga *bir, ham* so'zlarini qo'shish orqali yasalishi ham mumkin: *Uni **kim ham** chaqirayotgan edi-ya. Akasi unga **bir nima** deganday bo'ldi.* (Ba'zan *bir nima* birikmasi bo'lishsiz olmosh o'rnida kelishi mumkin: *Buni ko'rib **bir nima** demadi.*) *Birov* so'zi ham gumon olmoshi hisoblanadi. Gumon olmoshlari birlik va ko'plikda *(allakimlar)* keladi, kelishiklarda turlanadi *(kimnidir)*, egalik qo'shimchasini oladi *(hech kimim)*. Bu olmoshlar gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarini bajaradi: ***Allaqayeri** o'g'liga o'xshab ketar ekan. **Kimgadir** topshiriq berdi. **Qaysidir** korxonada ishlaydi. **Allaqachon** yetib kelgan.*

3-§. Boshqa turkumlarga oid so'zlarning olmoshlar o'rnida ishlatilishi

Quyidagi turkum so'zlarga tegishli ayrim so'zlar olmoshga ko'chadi: **1) ot:** *odam, kishi, inson, narsa, ish;* **2) sifat**: *ba'zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi;* **3) son**: *bir*. Umuman olganda, *bir, har, hech* so'zlari bilan keladigan ko'pgina so'zlar olmoshga ko'chishi mumkin: *hech narsa, bir narsa.*

Eski o'zbek tilida *men* olmoshi o'rnida *kamina* (hozir ham ishlatiladi), *faqir, kaminai kamtarin, qulingiz, bandai ojizingiz* kabi so'zlar qo'llangan.[51]

4-§. Olmoshlarning tuzilish jihatdan turlari

1. Sodda olmoshlar bir asosdangina iborat bo'lgan olmoshlardir. Bularga *men, sen, kim, shu, qachon, nima, hamma, barcha* kabi tub olmoshlar, *kimdir, qaysidir, allakim* kabi yasama olmoshlar kiradi.

2. Qo'shma olmoshlar ikkita asosdan iborat bo'lgan olmoshlardir: *ana shu, har kim, hech nima.* Bunday olmoshlar ajratib yoziladi.

3. Juft olmoshlar ma'nosi jihatdan bir-birga yaqin bo'lgan olmoshlarning birikishidan hosil bo'ladi: *u-bu, unga-bunga, siz-biz, uncha-muncha.*

4. Takroriy olmoshlar bir olmoshning aynan yoki ba'zi tovush o'zgarishlari bilan takrorlanishidan hosil bo'ladi: *uncha-muncha, kim-kim.*

Juft va takroriy olmoshlar qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Olmosh tahlili namunasi	
1. So'rog'i.	*3. Ma'no turi.*
2. Qaysi turkum o'rnida kelganligi.	*4. Tuzilish turi.*
	5. Gapdagi sintaktik vazifasi.

[51] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2009. – 28-bet.

15-MAVZU. FE'L

1-§. Fe'lning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Shaxs yoki narsalarning harakat-holatini bildirib, *nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?* so'roqlaridan biriga javob bo'lgan so'zlar **fe'l** deyiladi: *yozdi, kulyapti, bormoqchi.* Fe'l orqali ifodalangan harakatni amalga oshiradigan shaxs va narsa **harakatning bajaruvchisi** deb ataladi.

Fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz shakllarga ega, zamon va shaxs-son ifodalay oladi, o'zining vazifadosh (xoslangan) shakllariga ega, mayl ko'rsata oladi, o'timli-o'timsizlik xususiyatiga ega. Fe'llar gapda ko'pincha kesim vazifasini bajaradi: *Kuz **keldi**.*

Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Harakat fe'llari shaxs va narsaning jismoniy faoliyati natijasida yuz bergan harakatni bildiradi:[52] *yurmoq, yugurmoq, chiqmoq, bormoq, qimirlamoq, yelmoq, sudralmoq, sakramoq, uchmoq, o'tmoq* va h.

2. Holat fe'llari shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan boshqa holatga otishini bildiradi:[53] *uxlamoq, kulmoq, yig'lamoq, tirjaymoq, dam olmoq, shoshmoq, isimoq, qizarmoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq, xursand bo'lmoq, xandon urmoq, dahshatlanmoq, shod bo'lmoq, og'rinmoq* va h.

2-§. Fe'lning ma'no guruhlari[54]

Ayrim darsliklarda fe'llar qanday harakat-holat ifodalashi jihatidan quyidagi ma'noviy guruhlarga bo'linadi:

1. Nutqiy faoliyat fe'llari: *gapirmoq, pichirlamoq, demoq, so'zlamoq, so'ramoq, yalinmoq, o'tinmoq, yolvormoq, vaysamoq, surishtirmoq, baqirmoq, o'shqirmoq, ming'irlamoq, to'ng'illamoq, aytmoq* va h.

2. Aqliy faoliyat fe'llari: *o'ylamoq, fikrlamoq, xayol qilmoq, tasavvur qilmoq, hukm chiqarmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, gavdalantirmoq, fikr qilmoq* va h.

3. Jismoniy faoliyat fe'llari: *chizmoq, yozmoq, yasamoq, qurmoq, yaratmoq, bino qilmoq, asos solmoq, bo'yamoq, tozalamoq, yig'moq, yemoq, artmoq, sayqal bermoq, o'chirmoq, nobud qilmoq* va h.

4. Holat fe'llari: *titramoq, jovdiramoq, sevinmoq, jilmaymoq, jonlanmoq.*

[52] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2009. – 31-bet.

[53] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2009. – 31-bet.

[54] *Tasnif olindi:* N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2009. – 72-bet.

3-§. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar

Bo'lishli fe'llar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan harakatni ifodalaydi: *yozdi, yozyapti, yozmoqchi.*

Bo'lishsiz fe'llar bajarilmagan, bajarilmayotgan, bajarilmaydigan harakatni bildiradi: *yozmadi, yozmayapti, yozmoqchi emas.* Fe'llardagi bo'lishsizlik ma'nosi fe'l negiziga ***-ma*** qo'shimchasini qo'shish, fe'llardan keyin *emas, yo'q* so'zlarini keltirish, fe'llardan oldin ***na*** so'zini keltirish yoki ohang yordamida hosil qilinadi: *Yozgani yo'q. Na yozdi, na o'qidi. Boradi, boradi-ya! (bormaydi). Keyingi paytlarda she'r* ***yozmay qo'ydi*** gapida davomiy bo'lishsizlik ma'nosi ifodalangan.

4-§. O'timli va o'timsiz fe'llar

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi so'zlarga bog'lana oladigan fe'llardir: *o'qidi* (kitobni), *yozdi* (xatni). Boshqacha aytganda, bironta narsaga, tushunchaga o'tadigan harakatni ifodalovchi fe'llardir.

O'timsiz fe'llar esa tushum kelishigidagi so'zlarga bog'lana olmaydigan fe'llardir: *yugurdi, bordi, turdi, o'tirdi.* Boshqacha aytganda, bironta narsaga, tushunchaga o'tmaydigan harakatni ifodalovchi fe'llardir.

5-§. Fe'l nisbatlari

Ish-harakat bajaruvchisining harakat-holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini ifodalovchi fe'l shakllari **fe'l nisbatlari** deb yuritiladi. Bu jarayonda, odatda, harakat bajaruvchisi, harakat o'tgan narsa (obyekt) va harakat qatnashadi. Fe'l nisbatlari besh xil:

1. Aniq nisbatdagi fe'llar harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya'ni bu fe'llar ifodalagan harakat-holatning bajaruvchisi aniq bo'ladi. Aniq nisbatdagi fe'llarda maxsus nisbat qo'shimchalari bo'lmaydi: *o'qidi, kelyapti, bormoqchi.*

2. O'zlik nisbatdagi fe'llar ish-harakatning boshqa buyumga o'tmay, bajaruvchining o'zida qolganini anglatadi, ya'ni bunda, yuzaki qaraganda, harakat obyekti qatnashmaydi, uning vazifasi bajaruvchiga yuklanadi. Bunday fe'llar, asosan, o'timli fe'llarning unli bilan tugagan negiziga ***-n, -l,*** undosh bilan tugagan negiziga ***-in, -il*** qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi (bir-ikkita fe'lda ***–(i)sh*** qo'shimchasi bilan yasalish bor: *kerishdi, joylashdi*): *tarandi, sevindi, sudraldi. Jonlanmoq, odatlanmoq, harakatlanmoq, quvonmoq, seskanmoq, faxrlanmoq, zavqlanmoq, otlanmoq, afsuslanmoq* fe'llari tarkibida ***-n*** ko'rsatkichi mavjudligiga qaramasdan, bu fe'llar aniqlik nisbatida hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi *–n* qo'shimchasi ajaratilmaydi. *Yayra, qichqir, uxla, bor* kabi fe'llardan o'zlik nisbat yasalmaydi.

3. Majhul nisbatdagi fe'llar ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydi. ("Majhul" so'zi "noma'lum", "noaniq" degan ma'nolarni ifodalaydi),[55] ya'ni bunda, yuzaki qaraganda, harakat bajaruvchisi

[55] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil. – 524-bet.

qatnashmaydi, uning vazifasi obyektga yuklanadi Bu nisbatdagi fe'llar ham ***-n, -in, -l, -il*** qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *barglar to'kildi, xazon to'plandi, eshik ochildi, hosil olindi.*

O'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar bir xil qo'shimcha yordamida hosil bo'lganda, ularning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan yoki fe'ldan oldin ***o'zi*** so'zini keltirib ko'rish bilan aniqlanadi: *Mukofotlar berildi. Alisher o'qishga berildi.* (1-fe'l majhul, 2-fe'l o'zlik nisbatdadir). O'zlik nisbatda harakatning bajaruvchisi aniq bo'ladi va u gapda ega vazifasida keladi *(Sanjar imtihonga tayyorlandi)*, majhul nisbatda esa bajaruvchi noaniq bo'ladi va u gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasini bajarib keladi *(Devoriy gazeta Sanjar tomonidan tayyorlandi).*

Majhul nisbat shakllari, ko'pincha o'timli fe'llardan yoki orttirma nisbat shaklidagi o'timsiz fe'llardan yasaladi: *kitobni o'qidi – kitob o'qildi; mashqni yozdirdi – mashq yozdirildi.*

4. Birgalik nisbatidagi fe'llar ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa-buyum tomonidan birgalikda bajarilganligini bildiradi va unli bilan tugagan negizga ***-sh***, undosh bilan tugagan negizga ***-ish*** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bunday fe'llar ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa tomonidan bajarilganligini yoki birgalik-ko'plik ma'nolarini ifodalaydi: *Karim va Ahmad maqola yozishdi. Bolalar paxta terishdi. To'qnashdi, o'rtoqlashdi, ommalashdi, hazillashdi, go'zallashdi, boqishdi, qarashdi* (yordamlashdi), *aytishdi, tortishdi* (bahslashdi) fe'llari hozirgi o'zbek tilida ajralmas holatga kelib qolganligi uchun aniqlik nisbatidadir.

5. Orttirma nisbatdagi fe'llar ish-harakatning bajaruvchi ta'sirida boshqa biror shaxs yoki narsa-buyum vositasida bajarilganligini bildiradi va ***–t*** (asosan, unli bilan tugagan ko'p bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi), ***-tir*** (jarangsiz undosh bilan tugagan bir bo'g'inli (***kel*** fe'lidan tashqari) ko'p bo'g'inli fe'llarning ko'pchiligiga qo'shiladi), ***-dir*** (asosan, jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi), ***-ir, -ar, -iz, -giz, -kiz, -g'iz, -gaz, -qiz, -sat*** qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *o'qit, keltir, yozdir, bitir, uchir, pishir, qochir, o'chir, toshir, chiqar, qaytar, tomiz, emiz, oqiz, yurgiz, ko'rgaz, turg'iz, ketkiz, tutqaz, o'tkaz, ko'rsat.* Bu qo'shimchalar o'timsiz fe'llarni o'timli fe'llarga aylantiradi: *keldi – keltirdi, yurdi – yurgizdi, uchdi - uchirdi, pishdi – pishirdi, chiqdi – chiqardi, o'tdi –o'tkazdi.*

Ayrim fe'llar orttirma nisbat shaklida yangi ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi va shuning uchun ularni aniq nisbatda qo'llab bo'lmaydi: *erkalamoq – erkalatmoq* (ikkala shaklda ham orttirma nisbat ma'nosini ifodalayapti).

Bir fe'lga ikki-uch xil orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilishi mumkin: *yegiz - yegizdir, yozdir - yozdirtir.*

Fe'lning orttirma nisbati o'zlik va birgalik nisbatdagi fe'llardan ham hosil qilinishi mumkin: *yuvintir, yig'ishtir.* Orttirma nisbatdagi fe'llardan birgalik va majhul nisbatdagi fe'llar hosil qilinishi mumkin: *isitildi, yozdirishdi.*

Orttirma nisbat qo'shimchalari holat fe'llarini ko'pincha natijali faoliyat fe'llariga aylantiradi: *uxlamoq – uxlatmoq, kulmoq – kuldirmoq, yig'lamoq – yig'latmoq.* Majhul va o'zlik nisbati qo'shimchalari esa natijali faoliyat fe'llarini holat fe'llariga aylantiradi: *qurmoq – qurilmoq, bo'yamoq – bo'yanmoq, bukmoq – bukilmoq, yasamoq – yasanmoq.*

Birdan ortiq nisbat qo'shimchalarini olgan fe'llarning qaysi nisbatdaligi oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab belgilanadi: *yuvintirdi* - orttirma nisbat; *yuvintirildi* - majhul nisbat; *yuvintirishdi* – birgalik nisbati.

6-§. Fe'lning munosabat shakllari

Fe'llarning gap tarkibida bajaradigan asosiy vazifasi kesim bo'lib kelish ekanligi bizga ma'lum. Shu vazifani bajarish uchun fe'l ma'lum bir shakllarda kelishi lozim. Bunday shakllarga fe'llarning **munosabat shakllari** deyiladi.

Munosabat shakllariga fellarning **shaxs-son, zamon, mayl** shakllari kiradi. Har qanday fe'l shu shakllarga ega bo'lsa, u **kesim** vazifasini bajara oladi. Bunday shakllarga ega bo'lmasdan *–moq* qo'shimchasini olgan bo'lsa, bu shakl fe'lning **noaniq shakli** deb yuritiladi: *kelmoq, o'ylamoq.*

1. Fe'lning shaxs-son shakllari

Fe'llar birlik va ko'plikda bo'ladi. Birlik shakli harakatning bir kishi tomonidan, ko'plik shakli esa birdan ortiq kishi tomonidan bajarilganini bildiradi. Harakat uch shaxs tomonidan bajariladi. 1-shaxs harakatning so'zlovchi tomonidan, 2-shaxs harakatning tinglovchi tomonidan, 3-shaxs harakatning o'zga (boshqalar) tomonidan bajarilganini bildiradi. Fe'l ifodalagan harakat-holatning bajaruvchi shaxsini ko'rsatadigan va fe'lni gap ichida kesim kabi shakllantiradigan hamda uni ega bilan bog'lovchi shakllar **shaxs-son shakllari** deb ataladi. Bu shakllarni hosil qiluvchi qo'shimchalarga **shaxs-son qo'shimchalari** deyiladi. Fe'llarning 1- va 2-shaxs shakllari maxsus qo'shimchalarga ega, 3-shaxsni fe'lning zamon qo'shimchalari ifodalaydi. Shaxs-son qo'shimchalari fe'lning qanday shakllariga qo'shilishiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi: **1-guruh** ***–di, -sa*** qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi: *bordim, borsam, keldik, bordingiz;* **2-guruh** *–gan, -moqchi, -moqda, -yap, -b(-ib), -a(-y), -r (-ar)* qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi: *borganman, keyapsan, yozmoqchimiz, kelibsiz, ko'rasiz;* **3-guruh** fe'lning asosiga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita qo'shiladi: ***boray, yozing, kelsin, topaylik, yozingiz.***

Fe'lning shaxs-son shakllari bir-birining o'rnida almashib qo'llanishi mumkin: *- Uka, shunaqa narsa bilan hazil qiladimi!?* (3-shaxs, birlik *hazil qilasanmi* – 2-shaxs, birlik o'rnida.)

2. Fe'lning zamon shakllari

Fe'l orqali ifodalangan ish-harakatning qay paytga bajarilishini ifodalaydigan shakllar **fe'l zamonlari** deb ataladi. Fe'llarda uchta zamon shakli mavjud:

1. O'tgan zamon fe'llari nutq paytidan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni bildiradi: *yozdi, keldi, bordi.* Bu zamon shakllari quyidagicha yasaladi:

1) *-di* qo'shimchasidan so'ng ***-m, -ng, -k, ngiz*** qo'shimchalarini qo'shish yordamida hosil qilinadi: *keldi**m**, keldi**ng**, bordi**k**, bordi**ngiz**.* Bunday fe'llar so'zlovchining o'zi guvoh bo'lgan, uning ko'z oldida yuz bergan yoki yuz bermagan harakat-holatni bildiradi.

2) *-gan* qo'shimchasidan so'ng ***–man, -san, -miz, -siz*** qo'shimchalarini qo'shish yordamida hosil qilinadi: *yozgan**man**, yozgan**san**, yozgan**miz**, yozgansiz.* Bunday fe'llar nutq paytidan ilgariroq yuz bergan yoki yuz bermagan harakat-holatni ifodalaydi. Bunday fe'llar tarkibida *edi, ekan, emish* kabi to'liqsiz fe'llar ham ishtirok etishi mumkin, bunday paytda shaxs-son ko'rsatuvchi qo'shimchalar to'liqsiz fe'llarga qo'shiladi: *yurgan ekansan, turgan emishmiz.*

3) *-(i)b* qo'shimchasidan so'ng ***–man, -san, -miz, -siz, -di(-lar)*** qo'shimchalarini qo'shish yordamida hosil qilinadi: *ko'ribman, ko'ribsan, ko'ribdi, bilibmiz, bilibsiz, bilibdi.* Bunday fe'llar nutq paytidan ilgari yuz bergan yoki yuz bermagan harakat-holat haqida so'zlovchining birovdan eshitib bilganini ifodalaydi.

2. Hozirgi zamon fe'llari nutq paytining o'zida yuz berayotgan yoki yuz bermayotgan harakat-holatni bildiradi va *-yap, -moqda, -(a)yotir,*

-(a)yotib qo'shimchalaridan so'ng ***-man, -san, -miz, -siz, -di (-lar)*** qo'shimchalarini qo'shish yordamida hosil qilinadi: *kelyap**man**, bormoqda**san**, yozayotir**miz**, olayotir**siz**. Ket**a**yotib, bir qarab qo'ydi. –yap* qo'shimchasi undoshdan keyin kelganida *-ayap* kabi eshitilsa ham, *-yap* shaklida yoziladi.

3. Kelasi zamon fe'llari nutq paytidan keyin yuz beradigan yoki yuz bermaydigan harakat-holatni bildiradi va fe'l asosiga ***-moqchi, -(a)r, -a, -y*** qo'shimchalarini qo'shish va tuslash yordamida hosil qilinadi: *bor**moqchi**man, kel**moqchi**miz, bor**ar**man, kel**ar**san, o'qir**y**man, kel**a**di, o'qi**y**di.*

Zamon shakllarining bir-biriga ko'chishi. 1) o'tgan zamon *-di* bilan yasalgan shakli kelasi zamon va hozirgi zamon ma'nolarida qo'llanadi: *Hozir qayoqqa ham **bordik**. Shundan so'ng **bilmadim**, qancha vaqt o'tdi.* 2) *-gan* bilan yasalgan shakl hozirgi zamon ma'nosida qo'llanadi: *Birov kitob **o'qigan**, kimlar shaxmat atrofida.* 3) hozirgi zamon fe'lining kelasi zamon ma'nosida qo'llanishi *ket, bor, yubor, boshla* kabi fe'llar doirasida uchraydi: *Ularni poytaxtga o'qishga **yuboryapmiz**.*

4) hozirgi zamonning o'tgan zamon ma'nosida qo'llanishi ko'p uchraydigan holatdir: *Kimdir kitob o'qigan, kimdir xat yozish bilan band, ayrimlar **ovqatlanishmoqda**.*

3. Fe'lning mayl shakllari

Fe'l ifodalagan harakat-holat haqidagi xabarni, shartni yoki buyruq-istakni ifodalaydigan fe'l shakllari **mayl shakllari** deb ataladi. Fe'llarda uchta mayl bor:

1. Xabar maylidagi fe'llar harakat-holatning bajarilish-bajarilmasligi haqidagi darakni bildiradi: *yozdim, kelyapti.* Bu mayl shaklini hosil qiluvchi maxsus qo'shimchalar yo'q, shuning uchun zamon va shaxs-son qo'shimchalarini olgan shakl xabar maylidagi fe'l hisoblanadi.

2. Buyruq-istak maylidagi fe'llar harakat-holatni bajarish-bajarmaslik haqida buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni bildiradi: Bunday fe'llar *-(a)y, -gin, -sin, -aylik, -ing(iz), -sinlar* qo'shimchalari yordamida yasaladi: *yozay, o'qiy, yozgin, yozsin, o'qiylik, boring(iz).* Faqat asosdan iborat bo'lgan 2-shaxs fe'llari ham shu mayl shakli hisoblanadi: *o'qi, kel.*

3. Shart maylidagi fe'llar biror harakat-holatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan harakat-holatni, biror ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida istak, maslahat, orzu, taxmin-gumon kabi ma'nolarni anglatadi va ***-sa*** qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: *borsa, kelsam, yursak.* Bu mayl orqali mayl ifodalanishi uchun fe'llardan keyin ***edi, ekan*** to'liqsiz fe'llari qo'llanadi: *kelsa edi* (ba'zan *kelsaydi*), *yozsa ekan.*

Bu mayldagi fe'llar sof shart ma'nosini *(Kelsa, boramiz),* orzu-istak *(Qani endi, o'qishga kirsam),* iltimos, maslahat *(O'sha kishini chaqirib bersangiz),* faraz *(Yomg'ir yog'sa kerak),* payt *(Tashqariga chiqsam, ukam turibdi),* buyruq-istak mayliga xos *(Gapirsangiz-chi!)* ma'nolarini ifodalaydi.

16-MAVZU.
FE'L (davomi)

1-§. Fe'lning vazifa shakllari

Fe'lning gap ichida ma'lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan shakllari **vazifa shakllari** deb ataladi. Bularga **sof fe'l (kesimlik shakli), ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi** kiradi.

I. Sof fe'l (kesimlik shakli) gap ichida fe'l-kesim vazifasini bajarishga moslashgan fe'l shaklidir. *U **yozyapti**.* Sof fe'llar fe'lga xos bo'lgan barcha xususiyatlarga, ya'ni bo'lishli-bo'lishsizlik, o'timli-o'timsizlik, nisbat, zamon, shaxs-son, mayl xususiyatlariga ega: *Men **boraman*** - bo'lishli, o'timsiz, aniq nisbatda, kelasi zamon, 1-shaxs, birlikda, xabar maylida, gapda fe'l-kesim vazifasini bajargan.

II. Harakat nomi ish-harakatning nomini bildirib, zamon, shaxs-son va mayl ko'rsatmaydigan fe'l shaklidir. Harakat nomi fe'lning otga xoslangan shaklidir.

U quyidagicha yasaladi:

1. Fe'l asosiga *-sh, -ish* qo'shimchalarini qo'shib: *o'qish, yozish.*

2. Fe'l asosiga *-v, -uv* qo'shimchalarini qo'shish bilan: *o'quv, yozuv.* Bunda unli bilan tugagan asos tarkibidagi ***a*** tovushi ***o*** unlisiga, ***i*** unlisi ***u*** unlisiga aylanadi va shunday yoziladi: *bag'ishla+v=bag'ishlov, to'qi+v=to'quv.*

3. Fe'l asosiga *–moq (-mak)* qo'shimchasini qo'shib: *yozmoq, demak.*

Harakat nomlari shaxs-son ko'rsatmaydi, otlar kabi kelishik, egalik, va ko'plik qo'shimchalarini oladi. Gapda ega ***(Sevish va sevilish** – ulkan baxt.)*, ot-kesim *(Maqsadim – **o'qish**.)*, to'ldiruvchi ***(O'qishni** boshladik.)*, qaratqich aniqlovchi ***(Chizishning** turli usullari bor.)* bo'lib keladi.

III. Sifatdosh fe'lning sifatga xoslangan shakli bo'lib, narsa-buyumning belgisini o'zgarish, harakat natijasi sifatida ifodalaydigan fe'l shaklidir. Sifatdosh fe'l singari ish-harakatni anglatib, zamon, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlikni bildiradi: *qolgan* - bo'lishli, o'tgan zamon, aniq nisbatda. Sifatdosh sifat kabi otga bog'lanib, uning belgisini bildiradi, gapda aniqlovchi yoki kesim bo'lib keladi: ***O'qigan** odam hayotda qiynalmaydi. Vazifalar **bajarilgan**.*

Sifatdoshlarning bo'lishsiz shakllari quyidagicha yasaladi: *borgan–bormagan, borayotgan – bormayotgan, borar – bormas.*

Sifatdoshlar zamon bo'yicha quyidagicha yasaladi:

1. O'tgan zamon sifatdoshi *-gan, -kan, -qan* qo'shimchalari bilan yasaladi: *otgan, tikkan, chiqqan.* Bo'lishsiz shakli: *kelmagan.*

2. Hozirgi zamon sifatdoshi *-(a)yotgan* qo'shimchasi bilan yasaladi: *kelayotgan, o'qiyotgan.* Bo'lishsiz shakli: *kelmayotgan.*

3. Kelasi zamon sifatdoshi *-(a)r, -adigan, -ydigan, -(u)vchi* qo'shimchalari bilan: *oqar* suv, *qaynar* buloq, *boradigan* joy, *o'qiydigan* bola, *keluvchi* odamlar. Kelasi zamon sifatdoshining bo'lishsiz shakli – *ma+s* qo'shimchasi bilan hosil qilinadi: *Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.*

Sifatdoshlar ot o'rnida qo'llanib, ot vazifasini bajarishi mumkin, ya'ni otlashadi. Bunda ular otlar kabi kelishik, egalik, ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ega *(O'qigan o'zar, o'qimagan to'zar.)*, to'ldiruvchi *(Aytganlaringizni bajardik.)*, qaratqich aniqlovchi *(Kelganlarning kiyimlari ho'l edi.)* va undalma (*Charchaganlar, dam oling.)* bo'lib keladi.

IV. Ravishdosh ish-harakatning belgisini, uning maqsadini, paytini, sababini bildirib, ravishga xoslangan fe'l shaklidir. Ravishdosh fe'lga bog'lanib, ko'pincha hol bo'lib keladi. Ravishdoshlar bo'lishli-bo'lishsizlikni, nisbatni bildira oladi: *o'qib* - bo'lishli, aniq nisbatda, *o'qitmay* - bo'lishsiz, orttirma nisbatda.

Ravishdoshlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. *-b, -ib, -bon (ibon)* qo'shimchalari bilan: *borib, o'qib, asrabon.*

2. *-a, -y* qo'shimchalari bilan: *kula-kula, o'qiy-o'qiy.*

3. *-gach , -kach, -kach, -guncha, -kuncha, -quncha, -gancha, -kancha, -qancha* qo'shimchalari bilan: *otgach, to'kkach, chiqqach, kelguncha, oqquncha, tikkuncha, yugurgancha, tekkancha, boqqancha.*

4. *-gani, -kani, -qani* qo'shimchalari bilan: *o'qigani keldi. Ko'chat ekkani bordik. Mol boqqani chiqdi.* Bu qo'shimchalarning *-gali* ko'rinishi ham bor: *Idish so'ragali chiqdi.*

5. *-gudek* qo'shimchasi bilan: *yiqilgudek, yig'lagudek.*

Ravishdoshlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Payt ravishdoshlari *-gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha* qo'shimchalari bilan yasaladi: *Darvozaga yaqinlashgach, to'xtadi.*

2. Holat ravishdoshlari *-b,-ib,-a,-y, -gudek, -gancha, -kancha, -qancha* qo'shimchalari bilan yasaladi: *Ashulani jo'shib kuyladi.*

3. Sabab ravishdoshlari ham *-b,-ib,-a,-y* qo'shimchalari bilan yasaladi: *Uyalib to'rga o'tmadi.*

4. Maqsad ravishdoshi *-gani, -kani, -qani, -gali* qo'shimchalari bilan yasaladi: *Lola tergani adirga chiqishdi.*

Payt, holat, ravishdolarining bo'lishsiz shakllari *–ma* qo'shimchasi yordamida yasaladi: *kelmagach, bormay.* Sabab, maqsad ravishdoshlarining bo'lishsiz shakllari yo'q.

2-§. Yetakchi va ko'makchi fe'llar

O'zbek tilida bittadan ortiq fe'lning birikishidan tuzilgan birliklar ham bor. Ular tarkibidagi asosiy ma'noni ifodalaydigan fe'l **yetakchi fe'l** deb ataladi: ***o'qib*** *chiqdi,* ***ko'ra*** *boshladi,* ***aytib*** *berib tura qol.* Yetakchi fe'lning ma'nosini izohlaydigan, to'ldiradigan fe'l esa **ko'makchi fe'l** deb ataladi: *o'qib* ***chiqdi****, ko'ra* ***boshladi****, sotib* ***yubordi****, berib* ***tur****, yiqila* ***yozdi****, gapirib* ***berib qo'ya qol*** va boshq.

Yetakchi va ko'makchi fe'lning qo'shilishidan qo'shma fe'l, ya'ni yangi so'z hosil bo'lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug'aviy ma'noni ifodalamaydi. Yetakchi va ko'makchi fe'lning birikishidan **ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi** hosil bo'ladi. O'zbek tilida faqat ko'makchi fe'l bo'lib keladigan fe'llar yo'q. Ayrim fe'llar o'z asl ma'nolarini yo'qotib, ravishdosh bilan birgalikda ishlatiladi va ko'makchi fe'lga aylanadi. Ko'makchi fe'llar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) harakatni bajarishga kirishish *(o'qiy boshladi);*

2) harakatni bajarishga imkoniyat *(bajara oladi);*

3) harakatning davomliligini *(borib turibman, ishlab yotibdi, o'qib yuribdi);*

4) harakatning to'la bajarilishi *(o'qib chiqdi);*

5) harakatning tez va oson bajarilishi *(yozib tashladik, sotib yubormoq, pishirib qo'ymoq);*

Ba'zan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarkibidagi yetakchi fe'l uyushib kelishi ham mumkin: *U soat beshgacha* ***yozib, chizib, hisoblab*** *bo'ldi.* Ba'zan ko'makchi fe'l ham birdan ortiq bo'lishi mumkin: *aytib berib tura qol* (*aytib* – yetakchi fe'l, *berib tura qol* – ko'makchi fe'llar).

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'llarga ravishdosh yasovchi ***–(i)b, -a, -y*** qo'shimchalari yordamida bog'lanadi. Ayrim ko'makchi fe'llar yetakchi fe'lga qo'shimchasiz ham birikadi: *yozdi-oldi, ketsin-qo'ysin, ayt-qo'y.*

Yetakchi fe'llarga so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar, ko'makchi fe'llarga esa barcha turdagi (zamon, shaxs-son, nisbat, vazifadosh shakllarning qo'shimchalari) qo'shimchalar qo'shila oladi: *yozib olaman, ishlay boshladik.*

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarida o'zlik nisbat qo'shimchalari faqat yetakchi fe'lga qo'shiladi: *boshlanib ketdi.* Majhul nisbat qo'shimchalari ko'pincha ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *sotib yuborildi.* Orttirma nisbat qo'shimchasi asosan yetakchi fe'lga qo'shiladi: *ayttirib yubordi.* Birgalik nisbat qo'shimchasi esa yetakchi fe'lga ham, ko'makchi fe'lga ham qo'shilaveradi: *ko'tarishib bordilar – ko'tarib borishdi.*

3-§. Fe'llarning yasalishi

1. Qo'shimchalar yordamida fe'l yasalishi

Quyidagi qo'shimchalar **fe'l bo'lmagan so'zlardan** fe'l yasaydi (demak, qo'shimcha yordamida fe'ldan fe'l yasalmaydi):

-la qo'shimchasi fe'ldan boshqa deyarli barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi: *ishla, oqla, sekinlamoq, shivirla, chuhlamoq, senlamoq, yarimlamoq.*

-lan,-lash qo'shimchalari ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: *faxrlandi, achchiqlandi, ikkilandi, ko'maklashdi, suhbatlashdi, yaqinlashdi.*

-illa qo'shimchasi taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *chirqilla;* Tarkibida ***u*** yoki ***v*** tovushlari mavjud bo'lgan so'zlarda bu qo'shimcha *–ulla* kabi aytiladi va yoziladi: *shov+illa= shovulla.*

-ira qo'shimchasi taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *yarqiramoq, yaltiramoq, miltiramoq, chirqiramoq.*

-a qo'shimchasi ot, sifat va taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi (bunda ayrim so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi ***i*** tovushi talaffuzda ham, yozuvda ham tushiriladi): *tunamoq, bo'shamoq, guldura, o'yin+a=o'yna, qiyin+a=qiyna.*

- (a)y qo'shimchasi ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: *qoraymoq, kuchaymoq, ko'paymoq, ozaymoq, zo'raymoq, toraymoq.* ***Past*** va ***sust*** so'zlari oxiridagi ***t*** tovushi talaffuzda ham, yozuvda ham tushiriladi: *past+ay=pasay, sust+ay= susay.*

-(a)r qo'shimchasi ayrim sifatlardan fe'l yasaydi: *qisqarmoq, ko'karmoq, oqarmoq.*

-sira, -sa qo'shimchalari ot va *sen, siz* olmoshlaridan fe'l yasaydi: *qonsiramoq, suvsiramoq, sizsiramoq, sensiramoq, suvsamoq.*

-(i)k, -(i)q qo'shimchalari sanoqli so'zlardangina fe'l yasaydi: *birikmoq, yo'liqmoq, kechikmoq, zo'riqmoq, toliqmoq, ochiqmoq.*

-i qo'shimchasi sanoqli so'zlardan fe'l yasaydi: *boyimoq, tinchimoq.*

-(i,o)t qo'shimchasi sanoqli so'zlardan fe'l yasaydi: *yo'qotmoq, to'latmoq, berkitmoq.*

-ir qo'shimchasi ot, taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *gapirmoq, tupirmoq.*

2. So'zlarni bog'lab qo'shish yordamida fe'l yasalishi (kompozitsiya yoki sintaktik usul)

Bu usul bilan qo'shma fe'llar yasaladi:

1. Fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lning birikishidan: *dam olmoq, himoya qilmoq, paydo bo'lmoq, qars etmoq, yaxshi ko'rmoq* (sevmoq). Ayrimlari sodda fe'lga sinonim bo'ladi: *tasdiq qildi - tasdiqladi, yordam berdi - yordamlashdi.*

2. Ikki fe'lning birikishidan: *sotib olmoq, chiqarib olmoq, olib kelmoq, yutib olmoq, sotib olib bermoq.*

Qo'shma fe'llar ajratib yoziladi: *hal qilmoq, kasal bo'lmoq.* Nutqimizdagi *o'qib chiqdi, ko'rib bo'ldi, boshlab yubordi* kabilar qo'shma fe'l emas, chunki yangi lug'aviy ma'no ifodalamaydi, bular **ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridir.**

4-§. Harakatni qay darajada ifodalashiga ko'ra fe'l turlari

1. Harakatning kuchliligini ifodalaydigan fe'llar:
-la: savala, quvla.
-kila (-gila, -qila, -g'ila): turtkila, tortqila, yugurgila, ezg'ila.

2. Harakatning kuchsizligini ifodalaydigan fe'llar:
-(i)sh: to'lishmoq, oqarishmoq.
-(i)msira: kulimsiramoq, yig'lamsiramoq .
-(i)nqira: oqarinqiramoq, tolinqiramoq.

5-§. Fe'lning tuzilish jihatdan turlari

1. Sodda fe'llar bir asosdan tashkil topadigan fe'llardir: 1) sodda tub fe'llar asos yordamida harakat-holatni ifodalay oladigan fe'llardir: *kelmoq, yurmoq;* 2) sodda yasama fe'llar fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida fe'ldan boshqa turkumlardan yasalgan fe'llardir: *ishlamoq, uyqusiramoq, gapirmoq.*

2. Qo'shma fe'llar birdan ortiq asosdan iborat bo'lib, shu asoslar orasiga boshqa so'z kiritib bo'lmaydigan va bitta so'roqqa javob bo'ladigan fe'llardir: *olib keldi, javob berdi, qarshi oldi, gurs etdi.* Qo'shma fe'llar quyidagicha yasaladi:

1) ot, sifat, son, olmosh, modal, undov, taqlid, so'zlarga *qil, et, bo'l, ol, ber, de* so'zlarini bog'lash bilan: *jilva qilmoq, javob bermoq, qabul qilmoq, qarshi olmoq, xafa bo'lmoq, bir bo'lib, qars etmoq, yo'q qilmoq, nima qilmoq, dod demoq.* Ayrimlari sodda fe'lga sinonim bo'ladi: *tasdiq qildi - tasdiqladi, yordam berdi - yordamlashdi.*

2) fe'l shakllariga *olmoq, kelmoq, ketmoq, chiqmoq* so'zlarini bog'lash bilan: *sotib olmoq, chiqarib olmoq, olib kelmoq, yutib olmoq, sotib olib bermoq,kirib chiqmoq, olib ketmoq.*

3. Juft fe'llar ikki fe'lning qo'shaloq kelishidan hosil bo'ladi: *kirmadi-qo'ydi, aytdi-qo'ydi, gapirdi-qo'ydi.* Bunday fe'llar harakat-holatning birdaniga yuz berishini bildiradi. *Oldi-berdi, qo'ydi-chiqdi (ajralish), keldi-ketdi, bordi-keldi* kabi juft so'zlar **ot turkumiga** mansubdir.

4. Takroriy fe'llar bir fe'lning takrorlanishidan hosil bo'ladi: *o'qidi-o'qidi, yozdi-yozdi, ko'ra-ko'ra, yig'lay-yig'lay.*

Juft va takroriy fe'llar chiziqcha bilan yoziladi.

Fe'l tahlili namunasi	
1. So'rog'i.	*8. Mayl turi.*
2. Ma'no guruhi.	*9. Yetakchi, ko'makchi fe'llar bo'lsa aniqlanadi.*
3. Bo'lishli yoki bo'lishsizligi.	*10. Vazifa shakllari.*
4. O'timli yoki o'timsizligi.	*11. Tuzilish turi.*
5. Nisbati.	*12. Tub yoki yasamaligi.*
6. Shaxs-soni	*13. Gapdagi sintaktik vazifasi.*
7. Zamon turi.	

17-MAVZU. RAVISH

1-§. Ravishning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi **ravish** deb ataladi. Ravish *qanday?, qachon?, qayerda?, qayerdan?, qayerga?, qancha?, nega?, qay darajada?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Ravish ko'pincha fe'lga bog'lanib, ish-harakatning qay holatda bajarilishini, paytini, o'rnini, daraja-miqdorini, sababini, maqsadini bildiradi. Ravishlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) biror so'z bilan bog'langanda, o'z shaklini o'zgartirmaydi, ya'ni so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni olmaydi: *tez yurdi;* 2) o'ziga xos yasalish tizimiga ega: *kamtarona, birin-ketin, shu kuni;* 3) harakat belgisini qisman bo'lsa-da darajalab ko'rsata oladi: *tez, tezroq, juda tez.* 4) otlashadi: ***Ko'pi** ketib, **ozi** qoldi.* 5) gap tarkibida ko'pincha hol *(Ikkisi **do'stlarcha** ko'rishdi.),* ot-kesim *(Uning bahonasi **ko'p**.),* ba'zan otga bog'lanib, aniqlovchi *(**Ko'p** odam to'plandi. Uning yuzida **bolalarcha** samimiy kulgi zohir bo'ldi.)* bo'lib keladi.

2-§. Ravishlarda daraja

Ayrim ravishlar sifat kabi darajani ham bildiradi:

1) bosh daraja: *U **sekin** yura boshladi;* 2) qiyosiy daraja: *Mashina **tezroq** yurdi. **Sal oldinroq** keldi.* 3) orttirma daraja: ***Juda ko'p** paxta terdi.* 4) kuchaytirma daraja: ***Juda-juda** charchadi. **Kuppa-kunduzi** kelishdi.*

3-§. Ravishlarning ma'no jihatdan turlari

Ravishlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Holat ravishlari harakat-holatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganligini bildirib, ***qanday?, qay holda?, qay tarzda?*** so'roqlariga javob bo'ladi: *asta, sekin, tez, birdan, qo'qqisdan, to'satdan, yonma-yon, qo'lma-qo'l, omon-eson, zo'rg'a, piyoda, yayov, do'stona, qahramonona, qadrdonlarcha, naridan-beri, yana, bazur (bahuzur), bafurja, arang, eskicha, birma-bir, qatorasiga* va b.

2. Payt ravishlari harakat-holatning bajarilish paytini bildirib, *qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi: *avval, oldin, ilgari, so'ng, keyin, kechgacha, kechadan, endi, hozircha, hamisha, hamon, erta-indin, qishin-yozin, kecha-kunduz, hozir, doimo, tez orada, shu kuni, bu orada.*

3. O'rin ravishlari harakat-holatning bajarilish o'rnini bildirib, *qayerda?, qayerdan?, qayerga?* so'roqlariga javob bo'ladi: *oldinda, orqada, o'ngda, chapda, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, berida, pastda, o'rtada, tashqarida, olg'a, u yoq-bu yoqqa* va b.

Payt va o'rin ravishlarini payt va o'rin otlaridan farqlash lozim; agar kelishik qo'shimchalari ajratilsa va otligicha qolsa, bu otdir: *yozda, qishda, bahorda; ko'chada, uydan;* agar kelishik qo'shimchasi ajralgandan keyin boshqa turkum so'ziga aylansa, bu ravishdir: *yaqinda, boshda (avval), kunda, chetda, birdan, birga, pastdan* va b.

4. Maqsad-sabab ravishlari harakat-holatning bajarilish sababini yoki maqsadini bildirib, *nega?* so'rog'iga javob bo'ladi: *atay(in), ataylab, jo'rttaga, qasddan, qasdma-qasdiga, azza-bazza, noiloj, ilojsiz(likdan), chorasiz(likdan).*

5. Daraja-miqdor ravishlari harakat-holatning darajasini, miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildirib, *qancha? qay darajada?* so'roqlariga javob bo'ladi: *juda, eng, g'oyat(da), nihoyatda; ko'p, mo'l, bisyor, oz, kam, picha, ancha, bir talay, bir oz, ko'plab.*

4-§. Ravishlarning yasalishi

Ravishlar **tub** va **yasama** bo'lishi mumkin. Tub ravishlar asos yordamida harakat-holatning belgisini ifodalaydigan ravishlardir: *tez, sekin, ko'p, oz, avval.* Yasama ravishlar asosga so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shish yoki birdan ortiq asosning qo'shilishi, juftlanishi, takrorlanishidan yasalgan ravishlardir: *qahramonona, bir zumda, qishin-yozin, bora-bora.* Ravishlar quyidagi usullar yordamida yasaladi:

1. Ravish yasovchi qo'shimchalar bilan: Ravishlar quyidagi ravish yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan, shuningdek, ravishlardan ham yasaladi:

-cha	*qisqacha, o'zbekcha, o'zicha, buguncha, istagancha,*
-larcha	*qardoshlarcha, o'rtoqlarcha*
-chasiga	*yangichasiga, toshkentchasiga, dehqonchasiga.*
-(s)iga	*tikkasiga, yalpisiga, baravariga, birdaniga.*
-ligicha	*xomligicha, tirikligicha, butunligicha, ho'lligicha.*
-dek//-day	*o'qdek, qushday.*
-lab	*ertalab, ko'plab.*
-ona	*do'stona, fidokorona, g'olibona.*
-an	*umuman, taxminan, majburan, asosan, rasman.*
-gacha	*kechgacha, tushgacha.*

-simon	*erkalangansimon, uyalgansimon, hazilsimon.*
-namo	*uyalgannamo, oliftanamo.*
-lay(in)	*butunlay, tiriklayin.*
-incha,-iqcha	*ko'pincha, aksincha, yashiriqcha.*
-siz, be-	*to'xtovsiz, beixtiyor*
-chang	*ko'ylakchang, kavushchang*
-in	*oldin*
-omuz:	*shikoyatomuz, kinoyaomuz*
-aki	*yodaki, og'zaki*

2. So'zlarni qo'shib ravish yasash. Bunda **qo'shma, juft** va **takroriy** ravishlar yasaladi.

1) **qo'shma ravishlar** asosan ikki so'zdan yasaladi va ularning quyidagi turlari ajratib yoziladi:

a) tarkibida *u, bu, shu, o'sha* olmoshlari bo'lgan payt va o'rin ravishlari: *u yoqqa, bu yoqqa, u yerga, shu yerda, o'sha yerda* va b.

b) tarkibida *har, hech, hamma, bir* so'zlari bo'lgan ravishlar: *har vaqt, har zamon, har qachon, hech vaqt, hamma vaqt, bir zum, bir necha, hech yoqqa, bir oz.* Lekin ***biryo'la, birmuncha, birvarakayiga, birpas, ozmuncha, birato'la*** ravishlari qo'shib yoziladi.

d) tarkibida *alla-* elementi bor bo'lgan ravishlar qo'shib yoziladi: *allaqachon, allavaqt.*

2) **juft ravishlarning** tub ravishlardan hosil bo'lganlari kam: *asta-sekin, bugun-erta* va b. O'rin-payt kelishigidagi ba'zi ot va olmoshlar ravishga ko'chib, juft ravish hosil qilinadi: *oyda-yilda, unda-bunda.*

Juft ravishlar tarkiban quyidagicha yasaladi:

a) bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardan: *eson-omon, ochiq-oydin.*

b) antonim so'zlardan: *erta-kech, kecha-kunduz, ochin-to'qin.*

3) takroriy va juft ravishlar **so'z turkumlari** jihatidan quyidagicha yasaladi: a) ot bilan ot takrorlanadi: *qator-qator, yildan-yilga qadam-baqadam;* b) sifat bilan sifat: *chaqqon-chaqqon, uzundan-uzoq, bekordan-bekorga;* d) fe'l shakllari: *uzil-kesil, bilinar-bilinmas, bora-bora, ura-sura, qayta-qayta, borib-borib, turib-turib, qo'yarda-qo'ymay;* e) ravish bilan ravish: *nari-beri, oldin-ketin, birin-ketin, unda-bunda, hali-beri;* f) olmosh, son, taqlid va aralash holda so'zlarning takrorlanishi: *o'z-o'zidan, yakka-yakka, taqa-taq.*

Juft va takroriy ravishlar chiziqcha bilan yoziladi: *asta-asta, nari-beri* va. b.

3. Boshqa turkumlarning ko'chishidan hosil bo'lgan ravishlar. Bunday ko'chish ikki xil ko'rinishda yuz beradi:

1) so'zlar turli kelishik shakllarida ko'chadi: *boshda, yangidan, birdan, birga, charchamasdan, shoshmasdan, indamasdan* kabi.

2) kelishik qo'shimchalarini olmasdan ko'chadi:

a) otlar ko'chadi: *erta, indin, kecha, kech, kechqurun;*

b) sifatlar: *yaqqol, baralla, tugal, bafurja, vaqtli, rosa, baravar, beomon;*

d) ravishdoshlar: *osha, o'ta, qiya, qo'sha, qayta;*

e) taqlidiy so'zlar: *shartta, taqqa, tappa, shig'a, chippa.*

5-§. Ravishlarning otlashishi

Ravishlar ham otlarga xos so'roqlarga javob bo'lib otlashadi. Bunda ular ko'plik, kelishik, egalik qo'shimchalarini oladi: ***Ko'pdan*** *quyon qochib qutulmas.* ***Ko'pi*** *ketib,* ***ozi*** *qoldi.*

6-§. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari

1. Sodda ravishlar: 1) tub: *ko'p, tez,* 2) yasama: *do'stona.*
2. Qo'shma ravishlar: *bir oz, har zamon, ozmuncha.*
3. Juft ravishlar: *unda-bunda, birin-ketin, omon-eson.*
4. Takroriy ravishlar: *asta-asta, tez-tez, bora-bora, o'sha-o'sha.*

Ravish tahlili namunasi	
1. So'rog'i.	*5. Tuzilish turi.*
2. Ma'no turi.	*6. Tub yoki yasamaligi.*
3. Darajasi.	*7. Gapdagi sintaktik vazifasi.*
4. Otlashgan yoki otlashmaganligi	

18-MAVZU.
YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI. KO'MAKCHI

So'roqqa javob bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydigan so'zlar **yordamchi so'zlar** deb ataladi. Bularga **ko'makchi, bog'lovchi, yuklama** kiradi.

1-§. Ko'makchi va uning turlari

Ot va otlashgan so'zlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlar **ko'makchi** deyiladi: *O'z qo'li* ***bilan*** *to'g'riladi.* Ko'makchi qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Ko'makchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof ko'makchilar lug'aviy ma'nolarini butunlay yo'qotib, vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadigan so'zlardir: *bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra , qadar, yanglig'.* Bunday ko'makchilar urg'u olmaydi, urg'u ko'makchidan oldingi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.[56]

[56] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2009. – 62-bet.

2. Vazifadosh ko'makchilar atash ma'nosini yo'qotib, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan, asli ot, sifat, fe'l, ravish kabi mustaqil so'zlarga tegishli bo'lgan so'zlardir. Bularga quyidagi so'zlar kiradi: ot turkumiga oid: *old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, ro'para, tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda;* ravish turkumiga oid: *oldin, avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan;* fe'l turkumiga oid: *atab, qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deydigan, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;* sifat turkumiga oid: *sababli, tufayli, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa;*

2-§. Ko'makchilarning qo'llanishi va ma'nolari

Ko'makchilar **bosh, qaratqich, jo'nalish** va **chiqish** kelishigidagi so'zlardan keyin kelib, bu so'zlarga quyidagi ma'nolarni kiritadi:

1) bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

bilan (qisqa shakllari: ***-la, ila)*** ko'makchisi birgalik, vosita, tez boshlanish, payt, ish-harakat obyekti, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uxlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi.*

Uchun (qisqa shakli: *-chun)* ko'makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarini ifodalaydi: *Bolalar uchun qurildi. O'qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamingiz uchun rahmat.*

Kabi, singari, yanglig' (ba'zan ***misoli*** so'zi) ko'makchilari o'xshatish, qiyoslash ma'nolarini ifodalaydi: *Shamol kabi yeldi. Cho'l singari bepoyon. Oy yanglig' chiroyli.*

Sayin ko'makchisi payt, izchillik, davomiylik ma'nolarini ifodalaydi: *Sovuq kun sayin kuchaydi.*

Sari, yoqalab ko'makchilari yo'nalish ma'nosini ifodalaydi: *Dala sari ketdi. Daryo yoqalab yurdi.*

Sababli, tufayli ko'makchilari aloqadorlik, sabab ma'nosini ifodalaydi: *Chaqirilmaganligi sababli kelmadi.*

Orqali ko'makchisi vosita ma'nosini, ***chog'li, chamasi*** ko'makchilari chama, taxmin, ma'nolarini, ***osha, bo'ylab*** ko'makchisi makon bo'ylab sodir bo'lish ma'nosini, ***bo'yicha*** ko'makchisi moslik ma'nosini, ***uzra*** ko'makchisi biror sath bo'ylab yo'nalish ma'nosini, ***ichra*** ko'makchisi biror predmetning ichida sodir bo'lish ma'nosini, ***degan*** ko'makchisi atash ma'nosini, ***bo'yi*** ko'makchisi davomlilik ma'nosini, ***haqida (to'g'risida)*** ko'makchilari fikr qaratilgan predmet ma'nosini, ***holda (yo'sinda)*** ko'makchilari holat ma'nosini ifodalaydi: *Pochta orqali jo'natdi. O'n chog'li odam to'plandi. Asrlar osha yetib keldi. Ariq bo'ylab yurishdi. Urush haqida so'zladi.*

2) jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

Tomon ko'makchisi ham jo'nalish, ham bosh kelishikdagi so'zlarga bog'lanib, yo'nalish ma'nosini, ***qadar*** ko'makchisi chegara ma'nosini, ***ko'ra*** ko'makchisi sabab, ta'kidlash, qiyoslash ma'nolarini, qarshi ko'makchisi zidlik ma'nosini, ***qarab, qarata*** ko'makchisi yo'nalish, o'lchov ma'nosini,

qaraganda ko'makchisi ta'kidlash, qiyoslash manolarini, ***qaramasdan***, ***qaramay*** ko'makchilari to'siqsizlik ma'nosini, ***yarasha*** ko'makchisi moslik ma'nosini, ***doir*** ko'makchisi aloqadorlik ma'nosini, ***asosan, binoan, muvofiq*** ko'makchilari tayanch ma'nosini ifodalaydi: *Uy tomon ketdi. Kechga qadar kutib o'tirdi. Uning topshirig'iga ko'ra yetib kelishdi. Bilimiga qarab baho qo'yiladi. Uning qarshiligiga qaramay vazifa bajarildi. Shu fikrga asosan qaror qilishdi. Odamlarga qarata nutq so'zladi.*

3) chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

So'ng, avval, keyin, burun, ilgari ko'makchilari payt ma'nosini, ***boshqa, tashqari, o'zga, bo'lak*** ko'makchilari mustasnolik ma'nosini, ***beri, buyon*** ko'makchilari payt ma'nosini, ***nari*** ko'makchisi ish-harakatning chegarasi ma'nosini, ***boshlab, tortib*** ko'makchilari boshlanish vaqt, nuqta ma'nolarini ifodalaydi: *Uch yildan keyin paydo bo'ldi. Sendan boshqa hech kimi yo'q. Shu kundan boshlab ishga kirishamiz.*

4) qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar: *old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, ro'para.* Bu ko'makchlardan oldin kelishik qo'shimchasi ba'zan qo'llanmasligi mumkin: *Uy oldida to'xtadi. Bog' ichiga kirib ketdi. Devor orasida qolib ketdi. Ko'cha o'rtasida ketyapti. Ko'prik boshida kutib turdi.*

Diqqat! -la, -chun shakllari o'zi bog'lanib kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qo'llarim-la, Vatan-chun.*

Uchun, bilan, kabi, singari ko'makchilari qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ham qo'llanishi mumkin: *shuning **uchun**, bunung **kabi**, shuning **singari**.*

3-§. Ko'makchilar va qo'shimchalar sinonimiyasi

Ko'makchilar vazifasi jihatidan ayrim qo'shimchalarga o'xshaydi. Ba'zi hollarda ko'makchilar tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari qo'shimchalari o'rnida almashib kelishi mumkin: *Radio **orqali** eshitdik - Radio**dan** eshitdik. Ukam **uchun** oldim - Ukam**ga** oldim. Qalam **bilan** yozdi – Qalam**da** yozdi. Borgani **haqida** gapirib berdi - Borgani**ni** gapirib berdi. Kabi, singari, yanglig'* ko'makchilari *–day(-dek)* qo'shimchalari bilan sinonim bo'lishi mumkin: *Shamol kabi yeldi – Shamolday yeldi.* Biroq hamma vaqt ham ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi ishlatilaver-maydi: *Do'sti**ga** yordamlashdi* gapida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rnida ko'makchini qo'llab bo'lmaydi.

Ko'makchi tahlili namunasi	
1. Sofmi yoki vazifadosh? *2. Qaysi kelishikdagi so'zga bog'langan?*	*3. Ifodalagan ma'nosi.* *4. Qaysi so'zni qaysi so'zga bog'layapti?*

19-MAVZU.

BOG'LOVCHI. YUKLAMA

1-§. Bog'lovchi va uning turlari

So'zlarni va qo'shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar **bog'lovchi** deb ataladi: *Maysa **va** daraxtlarga jon kiryapti, **chunki** bahorning iliq nafasi sezila boshlagan edi.*

Bog'lovchilar gapda qo'llanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Yakka holda qo'llanadigan bog'lovchilar: *va, ammo, chunki.* Bu bog'lovchilar gap tarkibida bir marta qo'llana oladigan bog'lovchilardir.

2. Takrorlangan holda qo'llanadigan bog'lovchilar: *yo...yo, yoki... yoki, goh...goh, xoh...xoh, bir...bir, ba'zan...ba'zan, dam...dam.* Bu bog'lovchilar *(yo...yo, yoki...yoki* bog'lovchilaridan tashqari) gap tarkibida faqat takroriy qo'llana oladigan bog'lovchilardir.

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra **teng bog'lovchilar** va **ergashtiruvchi bog'lovchilarga** bo'linadi.

2-§. Teng bog'lovchilar

Bu bog'lovchilar so'zlarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog'laydi va ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatlarni qay tarzqa ifodalashiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) biriktiruv bog'lovchilari: *va, ham, hamda: Ham* so'zi uyushiq bo'laklar oldidan kelgandagina bog'lovchi hisoblanadi: ***Ham** akamni, **ham** ukamni tabriklashdi **va** sovg'alar topshirishdi **hamda** dam olish uyiga yo'llanma bilan mukofotlashdi. **Bilan*** ko'makchisi ham biriktiruvchi bog'lovchi *(va)* o'rnida kelishi mumkin: *Karim **bilan** Salim maktabga birga borishgan.*

2) zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin* (yoki *lek), biroq, balki, holbuki.*

3) ayiruv bog'lovchilari: *yo, yoki, yoxud, yoinki, yo...yo, yoki...yoki, goh...goh, xoh...xoh, dam...dam.* Bu bog'lovchilar uyushgan bo'laklarni yoki qo'shma gap qismlarini bir-biridan ayirib bog'laydi: *Alijon **goh** menga, **goh** yerga qarab jim turaverdi. **Yo** sen borasan, **yo** men kelaman. Ba'zan* ravishi, *bir* soni takrorlangan holda ayiruv bog'lovchisi bo'lib keladi: ***Ba'zan** u keladi, **ba'zan** biz boramiz. **Bir** kuladi, **bir** yig'laydi.*

4) inkor bog'lovchisi so'z va gaplarga inkor ma'nosini yuklaydigan bog'lovchidir: *na...na: Unda **na** kitob bor, **na** daftar. **Na** o'qidi, **na** yozdi.* Ko'rinyaptiki, bu bog'lovchi ishtirok etgan gaplarning kesimi bo'lishli shaklda keladi.

3-§. Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Bu bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo'li bilan bog'laydi va quyidagi turlarga bo'linadi:

1) aniqlov bog'lovchilari: *ya'ni, -ki(-kim), toki: U ko'rdi**ki**, kamchiliklar ko'p.* Ba'zan ***-ki*** ot turkumidagi so'zlar bilan birga kelib,

ta'kidlash, uqtirish ma'nolarini anglatadi, bunda u bog'lovchi emas, yuklama sanaladi: *...ko'ksi to'la nuqul ordenki, bir-biridan chiroyli.*

2) sabab bog'lovchilari: *chunki, negaki: Ish o'z vaqtida bajarildi, **chunki** bunga puxta tayyorgarlik ko'rilgan edi.* Ba'zan *uchun* ko'makchisi ham shu vazifada qo'llanadi: *Ular yetib kelsin **uchun**, Salimjon kutib turdi.*

3) shart bog'lovchilari: *agar(da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti: Agar ishimiz o'ngidan kelsa, bugun qaytib ketamiz.*

4-§. Bog'lovchilarning kelib chiqishiga ko'ra turlari

1. Sof bog'lovchilar faqat bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir: *va, lekin, chunki, agar.*

2. Vazifadosh bog'lovchilar boshqa turkumlarga mansub bo'lib, o'rni bilan bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir. Bular quyidagi turkumlardan bog'lovchilarga o'tgan: 1) ***bilan*** ko'makchisi ***va*** bog'lovchisiga sinonim bo'lib kelganida bog'lovchi hisoblanadi: *Akam **bilan** (va) ukam kelishdi.* So'zlarni o'zaro tobe qilib bog'laganida ko'makchi hisoblanadi. 2) ***ham, na, -u(-yu), -da*** yuklamalari: *O'qishga qabul qilishdi **ham** (va) stipendiya tayinlashdi.* 3) ***balki*** modal so'zi: *Bundan keyin uning g'ayrati susaymadi, **balki** yana oshdi.*

5-§. Yuklama haqida umumiy ma'lumot

Mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchilar **yuklama** deb ataladi. Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **1) so'z yuklamalar:** *faqat, ham, axir, hatto.* So'z yuklamalar o'zi bog'lanib kelgan so'zlardan vergul bilan ajratilmaydi. **2) qo'shimcha ko'rinishdagi yuklamalar:** *-ku, -mi, -a, -gina.*

Yuklamalar ham **sof** yoki **vazifadosh** bo'lishi mumkin. Faqat yuklama guruhiga kiradigan *faqat, hatto, -mi, -ku* kabi birliklar **sof yuklamalar** hisoblanadi. Ayiruv-chegaralov yuklamalari o'rnida qo'llanadigan *yolg'iz* (asli sifat) so'zi **vazifadosh yuklamadir:** *Bu **yolg'iz** nom, boshqa narsa emas.*

6-§. Yuklamalarning ma'no jihatdan turlari

1. So'roq-taajjub yuklamalari o'zi ishtirok etayotgan gap mazmuniga so'roq yoki taajjub ma'nolarini kiritadigan yuklamalardir. Bularga *-mi, -chi, -a(ya)* yuklamalari kiradi: *Nimaga yo'qlaganimni bilarsiz-a, hofiz? (T.Malik)*

2. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari o'zi qo'shilgan so'z ma'nosini yoki o'zi ishtirok etgan gap mazmunini kuchaytirib, ta'kidlab ifodalaydigan yuklamalardir: Bularga *nahotki, axir, g'irt, hatto(ki), -oq(-yoq), -ki(-kim), -ku, -da, -u(-yu)* kabi yuklamalar kiradi: *O'ldi demoq mumkin emas, **axir** uning o'zi-**ku**, Tug'ilgandir inson uchun hayotning o'zi bo'lib. (S.Z.)*

3. Ayiruv-chegaralov yuklamalari o'zi bog'langan so'zning ma'nosini ajratib yoki chegaralab keladigan yuklamalardir. Bularga *faqat, -gina (-kina, -qina),* yuklamalari kiradi: *Darboza oldi jimjit, **faqat** o'tin ortgan ikki-uch eshak**kina** bozor tomon dikillab borardi. (Mirm.)*

4. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari o'zi bog'lanib kelgan so'zga o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini kiritadigan yuklamalardir. Bularga *xuddi, go'yo* so'zlari kiradi: *Burgut va kalxatlar ham qayoqqadir g'oyib bo'lgan, **go'yo** osmon bag'riga singib ketgan.(O.Y.)*

5. Gumon yuklamasi o'zi bog'lanib kelgan so'zga noaniqlik, gumon ma'nolarini kiritadigan *-dir* qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamadir. Bu yuklama *-dir* kesimlik qo'shimchasi bilan shakldoshdir. Qiyoslang: *Vatanni sevmoq iymondandir.*(kes. qo'sh.) - *Uyiga yetib borgandir.* (gum. yukl.)

7-§. Yuklamalarning yozilishi

1) *-mi, -oq(-yoq), -gina (-kina,-qina), -dir* yuklamalari o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *Shu bugunoq ota-onasigagina emas, butun mahallaga yetib bormaydimi?*

2) *-chi,-ku,-u(-yu), -da, -a(-ya)* yuklamalaridan oldin chiziqcha qo'yiladi: *Sen-chi? Keldi-ku!*

3) *faqat, ham, hatto, axir* kabi so'z yuklamalar ayrim yoziladi: *Tog'larda **hatto** yoz oylarida **ham** yomg'ir yog'adi.*

Bog'lovchi tahlili namunasi	
1. Sofmi yoki vazifadosh? *2. Qo'llanishiga ko'ra turi.*	*3. Vazifasiga ko'ra turi.* *4. Nimalarni bog'lagan?*
Yuklama tahlili namunasi	
1. Sofmi yoki vazifadosh? *2. Tuzilishiga ko'ra turi.*	*3. Ma'nosiga ko'ra turi.*

20-MAVZU.
ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR GURUHI

1-§. Modal so'zlar va ularning turlari

So'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradigan so'zlar **modal so'zlar** deb ataladi: ***Ehtimol**, bugun yetib kelar.* Bunday so'zlar boshqa so'zlardan vergul bilan ajratiladi.

Modal so'zlar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Ishonch: *shubhasiz, shaksiz, so'zsiz, albatta, tabiiy, o'z-o'zidan, to'g'ri, xoynaxoy, aslida, darvoqe, rostdan.*

2. Tasdiq: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda.*

3. Gumon: *shekilli, chamasi, chog'i, ehtimol, balki, aftidan.*

3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, qolaversa.*

4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan.*

5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom, umuman.*

6. Afsuslanish, achinish: *afsus, attang, esiz.*

8. Quvonch: *xayriyat.*

Bulardan tashqari *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal so'zlar ham mavjud.

Modal so'zlar ham kelib chiqishi jihatidan ikkiga bo'linadi: **1) sof modal so'zlar** modal ma'no ifodalash uchungina xizmat qiladigan so'zlardir: *haqiqatan, afsuski, attang, taxminan, albatta, xullas, masalan, umuman, shekilli, avvalambor, avvalo, darhaqiqat;* **2) vazifadosh modal so'zlar** boshqa turkumlardan o'tgan modal so'zlardir: *aftidan, mazmuni, ehtimol, yaxshi(ki), to'g'ri, so'zsiz, shubhasiz, tabiiy, balki, chamasi.*

Modal so'zlar gap tarkibida ko'pincha **kirish so'z** bo'lib keladi.

2-§. Undov so'zlar va ularning turlari

His-hayajon, tuyg'uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so'zlar turkumi **undov so'zlar** deb ataladi: *eh, uh, o, e, uf, voy, ura, barakalla, ofarin, salom, xayr, xo'sh, rahmat, balli, bay-bay, voy-bo'y, a, ax, ohho, obbo, ey, ehhe, i, iye, o'h, o'hho', hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o', ha, iyi.*

Undovlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. His-hayajon undovlari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) hayron qolish: *iye, o, voy, voy-ey, eh;* 2) sevinch, xursandchilik, zavqlanish: *ho, o'h-ho', ehe*; 3) qoyil qolish, rohatlanish: *hay-hay* (takrorlansa), *oh-oh;* 4) mamnuniyat, faxrlanish, mag'rurlanish, xayrihohlik: *e-ha, eh, ha-ya, o';*

His-hayajon undovlari, odatda, gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi. Ular yo kirish so'z, yoki so'z-gap bo'lib kelishi mumkin: ***Iye**, men kimni ko'ryapman? - **Dod**! - ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi.*

Undovlar yozuvda gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo'lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi qo'yiladi: ***Eh**! Havo naqadar sof va musaffo!*

2. Buyruq-xitob undovlari ikki xil bo'ladi: 1) odamlarga qaratilgan undovlar: a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo'llanadigan undovlar: *hoy, hay* (bir marta aytilsa), *hey, allo, ey;* b) ta'kid, buyurish uchun qo'llanadigan undovlar: *ma, tss, jim, marsh;* 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qo'llanadigan undovlar: *kisht, bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, beh-beh, qurey-qurey;* b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to'xtatish uchun qo'llanadigan undovlar: *ishsh, ho'k, tak*); d) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladigan undovlar: *pisht, drr, xix, hov-hov, cho'k, tek, hayt, chu.*

3. Urf-odat undovlari: *rahmat, marhamat, salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qulluq* va b.

Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo'llanishi mumkin: *oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay.*

Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi. Undovlar odatda ***deb*** so'zi bilan qo'llanib, hol *("Chuh" deb otini haydadi)*, ***degan*** so'zi bilan

qo'llanib, gapda ko'pincha sifatlovchi-aniqlovchi *(Uzoqlardan "qurey-qurey" degan ovozlar eshitilar edi)* bo'lib keladi. Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega *(Ularning dod-voyi osmoni falakka chiqdi.)*, to'ldiruvchi *(Uning oh-vohiga kim quloq soladi?)*, qaratqich-aniqlovchi *(Dod-voyning foydasi yo'q.)* vazifalarini bajaradi.

Undovlarning asosiy qismi yasama emas, lekin mustaqil so'zlardan undovlarga ko'chgan so'zlar ham mavjud: 1) olmoshdan: *qani;* 2) fe'llardan: *kel, hormang, yo'qol, bor-ey, yashang, kechirasiz:* ***Keling**, murosalashib qo'ya qolaylik!*

3-§. Taqlid so'zlar va ularning turlari

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so'zlar **taqlid so'zlar** deb ataladi. Bunday so'zlar nimalarga taqlidni bildirishi jihatidan ikki turga bo'linadi:

1. Tovushga taqlid bildiradigan so'zlar narsa va mavjudotlarning ovozlariga taqlidni ifodalaydigan so'zlardir: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g'arch-g'urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov, uv, irr, mo'o', maa, baa, mee, ing-ing, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g'a-g'a, qag'-qag', pit-pildiq, parr, viz-viz.*

2. Holatga taqlid bildiradigan so'zlar narsa va mavjudotlarning holatiga taqlidni ifodalaydigan so'zlardir:: *yalt-yult, apil-tapil, g'uj-g'uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, mo'lt-mo'lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, g'ivir-g'ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi.

Taqlid so'zlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qo'llanadi. Juft va takrorlangan taqlid so'zlar orasiga chiziqcha qo'yiladi.

Taqlid so'zlar mustaqil so'zlar kabi gap bo'lagi bo'la oladi: *Shamol g'ir-g'ir* (hol) *esmoqda.*

Tovushga taqlid so'zlar ba'zan otlashib, ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi va ega, qaratqich aniqlovchi hamda to'ldiruvchi vazifalarini bajaradi: *Odamlarning **g'ovur-g'ovuri** bosildi. Yuragining **duk-dukini** eshitdi. **Chug'ur-chug'urning** to'xtashi amri mahol.*

4-§. Tasdiq va inkor so'zlar

Tilimizda dialogik nutqda ma'qullashni ifodalaydigan ***ha, xo'p, mayli, bo'pti*** kabi so'zlar ham mavjud bo'lib, ular **tasdiq so'zlar** deb yuritiladi: *- Ertaga kelasizmi? – **Ha**.*

Xuddi shular kabi dialogik nutqda qo'llanib, inkor ma'nosida ishlatiladigan ***yo'q, mutlaqo, aslo*** kabi so'zlar **inkor so'zlar** deb ataladi:

*– Bu kitob siznikimi? – **Yo'q**.*

Modal so'zlar tahlili namunasi:	
1. Ma'no turi. *2. Qaysi turkumdan kelib chiqqan?*	*3. Gapda bajargan vazifasi.*
Undov va taqlid so'zlar tahlili namunasi	
1. Ma'no turi. *2. Tuzilish turi.*	*3. Otlashgan-otlashmaganligi.* *4. Gapda bajargan vazifasi.*

21-MAVZU.
SINTAKSIS. SO'Z BIRIKMASI

1-§. Sintaksis haqida umumiy ma'lumot

Sintaksis (grekcha ***"tuzish"*** demakdir) grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, unda so'z birikmalari, gap turlari o'rganiladi. Demak, sintaksis **so'z birikmasi sintaksisi** va **gap sintaksisi** degan ikkita bo'limni o'z ichiga oladi. Barcha til birliklari (tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap) mana shu sintaksis bo'limida amaliy jihatdan o'zlarini namoyish qiladi.

2-§. So'z birikmasi haqida ma'lumot

So'zlar bir-biri bilan ikki xil bog'lanadi:

1. Teng bog'lanish. Bunda bir so'z boshqasiga tobe bo'lmaydi, bir-biri bilan sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. Masalan, *Ertalab maydonda erkaklar va ayollar to'planishdi* gapida *erkaklar va ayollar* qo'shilmasi teng bog'lanishga misol bo'la oladi. Teng bog'lanish natijasida **so'z qo'shilmasi** tuziladi.

2. Tobe bog'lanish. Bunda bir so'z boshqasiga tobe bo'ladi: *Ertalab to'planishdi, maydonda to'planishdi*. Tobelikning asosiy belgisi: **bir so'z boshqa so'zni izohlab keladi.** Bir-biriga tobe bog'langan so'zlar so'z birikmasini hosil qiladi.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no, grammatik va ohang jihatdan birining boshqasiga tobe bo'lib bog'lanishi **so'z birikmasi** deb ataladi.

So'z birikmasi tarkibida **hokim** va **tobe** so'zlar farqlanadi. So'z birikmasida ma'nosi izohlanayotgan so'z **hokim so'z**, uning ma'nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to'ldirayotgan so'z **tobe so'z** hisoblanadi. So'roq hamma vaqt hokim so'zga qarab beriladi, so'roqqa javob bo'lgan so'z tobe so'z hisoblanadi: *Shirin olma (qanday olma?).*

Hokim so'z ot, sifat, son, olmosh, ravish bilan ifodalansa, **otli birikma** hisoblanadi: *baland bino, asalday shirin, intizomda birinchi, bolalarning hammasi, menda ko'p.*

Hokim so'z fe'lning ravishdosh va harakat nomi shakllari bilan ifodalansa, **fe'lli birikma** hisoblanadi: *kitobni o'qish, ishni bajarib.*

So'z birikmasi zanjiri. Ba'zan gap takibidagi so'z bir so'zga nisbatan hokim, boshqa so'zga nisbatan esa tobe holatda bo'lishi yoki bir hokim

so'z bir necha tobe so'zga, bir tobe so'z esa bir necha hokim so'zga bog'langan bo'lishi mumkin. So'z birikmalarining bu tarzdagi holati **so'z birikmasi zanjiri** deb ataladi: *Hozir hamrohining yuzidan hech qanday ma'no uqib bo'lmasdi.* Bu gapda quyidagi so'z birikmalari mavjud:

1) hozir uqib bo'lmasdi; 2) hamrohining yuzidan;
3) yuzidan uqib bo'lmasdi; 4) hech qanday ma'no;
5) ma'no uqib bo'lmasdi;

Ko'rinyaptiki, *yuzidan* va *ma'no* so'zlari ham tobe, ham hokim so'z mavqelarida kelgan. Yana misollar keltiramiz: *Bugun ona tili darsida o'tilgan yangi mavzuni yaxshi o'zlashtirdim.* Bu gapdagi so'z birikmalari zanjiri quyidagicha hosil bo'ladi: *1) yangi mavzuni; 2) o'tilgan yangi mavzuni; 3) ona tili darsida o'tilgan yangi mavzuni; 4) bugun ona tili darsida o'tilgan yangi mavzuni.*

Diqqat! Ega va kesimi qatnashgan gap tarkibida nechta mustaqil so'z mavjud bo'lsa, shundan 2 ta kam miqdorda so'z birikmasi mavjud bo'ladi: *Men bugun maktabga bordim* (4 ta must. so'z). So'z birikmalari: *1) bugun bordim; 2) maktabga bordim.* Egasiz gaplarda esa so'z birikmalari soni mustaqil so'zlar sonidan bitta kam bo'ladi: Ertaga tong bilan jo'naymiz (3 ta must. so'z). So'z birikmalari: *1) ertaga jo'naymiz; 2) tong bilan jo'naymiz.*

3-§. So'z birikmasining boshqa til birliklaridan farqi

1. So'z birikmasi va so'z. So'z narsa, belgi, shaxs, ish-harakatni umuman ifodalash uchun xizmat qiladi: *Kitob* deganda umuman kitoblarni, *bordi* deganda umuman borilganlikni tushunamiz. So'z birikmasi ham narsa, belgi, ish-harakatni ifodalaydi va bu jihatdan so'zga o'xshab ketadi, ammo so'z birikmasi narsa, belgi, ish-harakatni boshqa narsa, belgi, ish-harakatlardan ajratib, aniqroq qilib ifodalaydi: *o'quvchi - a'lochi o'quvchi, yozish - tez yozish.* Ayniqsa, so'z birikmasini qo'shma so'zdan farqlash kerak. Ular o'zaro quyidagicha farqlanadi:

1) so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'z ma'no mustaqilligini saqlaydi, qo'shma so'z qismlari esa ma'no mustaqilligini yo'qotgan bo'ladi. Qiyoslang: *kitobni sevmoq* (so'z birikmasi) – *kitobsevar* (qo'shma so'z)

2) so'z birikmasi qismlari o'rtasidagi grammatik aloqa sezilib turadi, qo'shma so'z qismlari o'rtasidagi grammatik aloqa esa sezilmaydi. Qiyoslang: *bilakning uzugi* (qaratqich + qaralmish munosabati) - *bilaguzuk* (bitta bo'lak)

3) so'z birikmasi tarkibidagi har bir so'z alohida-alohida so'roqlarga javob bo'ladi, qo'shma so'z bir so'roqqa javob bo'ladi. Qiyoslang: *jo'shib kuylamoq* (qanday kuylamoq? jo'shib nima qilmoq?), *sotib olmoq* (nima qilmoq?) – qo'shma so'z.

4) so'z birikmasi qismlariga alohida-alohida urg'u berish mumkin, qo'shma so'z qismlari esa bitta umumiy urg'uga egadir. Qiyoslang: *ertá pishmóq – ertapishár.*

So'z birikmalari qo'shma so'zlarning birinchi bosqichidir: *ko'zning oynagi – ko'zoynak, sarv qomatli – sarvqomat, dunyoni qarash – dunyoqarash* va h.

2. So'z birikmasi va turg'un bog'lanma (ibora) quyidagicha farqlanadi:

1) so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro erkin bog'langan bo'lib, kamida ikkita tushunchani bildiradi, ibora tarkibidagi so'zlar esa bir tushunchanigina ifodalash uchun birlashib, yaxlitlanib qolgan: *ko'z yummoq* (2 ta tushuncha: a'zo va harakat) - so'z birikmasi; *ko'z yummoq* (1 ta tushuncha: *o'lmoq*) – ibora.

2) turg'un bog'lanma (ibora) ma'no jihatidan bir so'zga teng, ajralmas holatga kelib qolgan birlikdir, shuning uchun uni lug'atlarda so'zlar qatorida berish mumkin. Uning tarkibidagi so'zlarni hokim yoki tobe birliklarga ajratish mumkin emas. Qiyoslang: *tosh yo'l* (so'z birikmasi – aniqlovchi-aniqlanmish) – *oq yo'l* (ibora). So'z birikmasi lug'atlarda berilmaydi.

3) so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning o'rnini almashtirish mumkin, iborada esa bunday qilib bo'lmaydi: *uning qaddi - qaddi uning* (so'z birikmasi).

3. So'z birikmasi va gap quyidagicha farqlanadi:

1) gap fikr, tasdiq yoki inkor hukmni bildirib, tugallangan ohang bilan aytiladi: *Ko'cha katta.* So'z birikmasi esa atash ohangi bilan aytiladi: *katta ko'cha.*

2) gap bitta so'zdan ham iborat bo'lishi mumkin va u kesimlik qo'shimchalari bilan shakllangan bo'ladi, so'z birikmasi esa har doim eng kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi: *Bahor* (gap). *Atrof* ***yam-yashil libosga*** (so'z birikmasi) *burkangan.*

4-§. Tobe so'z bilan hokim so'zning birikish usullari

Tobe so'z hokim so'z bilan quyidagi usullar yordamida birikadi:

1. Boshqaruv. Hokim so'zning talabi bilan tobe so'zning ma'lum grammatik vositani olishi **boshqaruv** deyiladi. Boshqaruvda tobe so'z bilan hokim so'zning birikishi ikki xil bo'ladi:

1) kelishikli boshqaruvda tobe so'z bilan hokim so'z o'zaro tushum, jo'nalish, o'rin-payt yoki chiqish kelishigi qo'shimchasi yordamida birikadi: *Ilg'orlarni tabriklash, uyga ketish, shaharda yashash, qishloqdan kelish, senga sovg'a.*

2) ko'makchili boshqaruvda tobe so'z bilan bosh so'z o'zaro ko'makchilar yordamida birikadi: *sayr haqida suhbat, paxta uchun kurash, sayohat to'g'risida gapirish.*

Ayrim hollarda grammatik vosita (qo'shimcha) tushirilishi ham mumkin: *Olma terish, shahar borish.*

Boshqaruvda tobe so'z ot yoki ot o'rnida qo'llanadigan so'zlardan, shuningdek, harakat nomi va sifatdoshdan iborat bo'ladi. Hokim so'z vazifasida esa ko'pincha fe'l qo'llanadi. Ba'zan bu vazifada ot, sifat, ravish va boshqa so'zlar ham qo'llanishi mumkin.

Boshqaruvda ko'pincha tobe so'z avval, hokim so'z keyin keladi, she'riy asarlarda qofiya talabi bilan hokim so'z oldin, tobe so'z keyin kelishi mumkin: *Bir ajib his bor edi menda...*

2. Moslashuv. Bu hokim so'z bilan tobe so'zning shaxs-sonda mosligidir. Bunda hokim va tobe so'z qaratqich kelishigi hamda egalik qo'shimchasi yordamida birikadi; qaratqich kelishigi qo'shimchasi tobe so'zga, egalik qo'shimchasi hokim so'zga (ba'zan har ikkalasiga ham) qo'shiladi: *ukamning kitobi.* Ega va kesim ham moslashuv usuli yordamida bog'lanadi: *Men ketdim* (1-shaxs, birlik).

Moslashuvda odatda tobe so'z avval, hokim so'z keyin keladi. Ba'zan she'riy asarlarda hokim so'z avval, tobe so'z keyin keladi: ***Qalbim mening*** *quvonchga to'ldi.*

Moslashuvda ba'zan qaratqich kelishigi yoki egalik qo'shimchasi tushirilishi mumkin: *maktab(ning) hovlisi, bizning maktab(imiz)* kabi.

Moslashuv usuli bilan shakllangan birikmalar asosan otli birikmalar hisoblanadi, chunki ot bilan ot qaratqich kelishigi yordamida bog'lanishi ma'lum.

Nutqimizda uchraydigan *a'zoyi badan, oynai jahon* kabi fors-tojik tilidan kirgan birikmalar bir so'z sifatida qo'llanaveradi.

3. Bitishuv. Tobe so'zning hokim so'z bilan grammatik vositasiz, faqat ma'no jihatdan yoki so'z tartibi yordamida birikishi **bitishuv** deyiladi. Bitishuvda doimo tobe so'z avval, hokim so'z keyin keladi: *tiniq suv, katta ko'cha.* Ularning o'rni o'zgartirilsa, gap hosil bo'ladi: *Suv tiniq. Ko'cha katta.*

Bitishuvda tobe so'z vazifasida sifat, ravish hamda ular vazifasidagi boshqa so'zlar keladi: *qizil gul, tez yurmoq, tilla bilaguzuk, bunday odam, o'qigan odam, jo'shib kuylamoq.* Hokim so'z ot va fe'l so'z turkumidagi so'zdan iborat bo'ladi.

Birga o'qish, birdan gapirish, qunt bilan tinglash, zavq bilan kuylash, yolg'ondan gapirmoq kabi birikmalar tarkibida o'rin-payt, jo'nalish, chiqish kelishigi qo'shimchalari, ko'makchilar borday ko'rinsa ham, boshqaruv emas, balki bitishuv sanaladi, chunki bu birikmalar tarkibidagi kelishik va egalik qo'shimchalari "qotib" qolgan va ularning ikkita so'zni bog'lashda hech qanday roli yo'q.

Devor soat, uy vazifa, ot to'rva, non zavod kabi xoslik, mansublik munosabatini bildiradigan birikmalar ham bitishuv munosabatiga misol bo'ladi.

So'z birikmasi tahlili	
1. Gapdagi so'z birikmalari aniqlanadi. *2. Hokim va tobe so'zlar aniqlanadi.* *3. Hokim va tobe so'zlarning bog'lanish usuli (moslashuv, boshqaruv, bitishuv)*	*4. So'z birikmasining hokim so'z turkumi bo'yicha turi aniqlanadi.* *5. So'z birikmasining tuzilish turi aniqlanadi.*

22-MAVZU.
GAP

1-§. Gap va uning asosiy belgilari

Muomala vositasining eng kichik birligi gapdir.

Gap orqali tugallangan fikr ifodalanadi: *Paxta terimi qizg'in davom etyapti. Oltin kuz qanday go'zal!*

Gap hosil qilish uchun so'z va so'z birikmalarini grammatik jihatdan bog'lash kerak: *Xatni qalam bilan yozdi* gapida *-ni* va *bilan* bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Bu gapning grammatik jihatdan shakllanganligidir.

Gap ohang jihatdan tugallangan bo'lishi kerak: *Kuz. Hamma yoqda ish qaynayapti.* Bu gapdagi *Kuz* so'zi ham tugallangan ohang bilan aytilgani uchun gap hisoblanadi.

Shunday qilib, gapning quyidagi belgilari mavjud:

1. Muomalaning eng kichik birligidir. 2. Nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi. 3. Grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi. 4. Tugallangan ohang bilan aytiladi.

Yuqoridagi belgilarga tayangan holda gapning quyidagi ta'rifini keltirib chiqarish mumkin:

Tugallangan ohang va fikrga ega bo'lib, kesimlik shakllari vositasida ifodalangan, muomalaning eng kichik vositasi hisoblangan yakka so'z yoki so'zlar yig'indisi *gap* deb ataladi.

2-§. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Har qanday gap ma'lum maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ana shu jihatdan gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Darak gap orqali biror narsa haqida ma'lum qilinadi, xabar beriladi; bunday gapning oxiriga nuqta qo'yiladi: *Bugun yaxshi baho oldim.*

Darak gaplar darak-xabar, orzu-umid, ishonch, ta'kid, g'urur, maslahat, tashviq, sevinch, taajjub, gumon, achinish, tashvish, g'azab, norozilik, kinoya kabi mazmun turlarini ifodalaydi.

2. So'roq gap orqali so'zlovchi o'zi bayon qilgan fikrga suhbatdoshini fikr bildirishga undaydi, tasdiqlash yoki inkor qilishga undaydi: *Bugun keldingizmi?* Yozuvda so'roq gapning oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. So'roq gaplar quyidagi vositalar orqali shakllanadi:

1) so'roq olmoshlari *(kim? nima? qanday? qancha? necha? qaysi?)* yordamida. Bunday gaplar so'roqqa javob bo'luvchi so'zni talab qiladi: - *Bugun darsga **kim** kelmadi? - **Ahmad.***

2) so'roq yuklamalari *(-mi, -chi, -a, -ya)* yordamida. Bunday gaplar *ha* yoki *yo'q* degan javobni talab qiladi: - *Bu kitobni o'qidingmi? – **Ha.***

3) so'roq ohangi vositasida: *Soat ikki bo'ldi. **Ikki bo'ldi?***

Misollardan ma'lum bo'lyaptiki, bunday gaplar ko'proq **dialogik** nutqda uchraydi.

So'roq gaplar javob talab qilish-qilmasligi jihatidan ikki guruhga bo'linadi: **1) sof so'roq gaplar** javob talab qiladigan gaplardir: *Siz ertaga kelasizmi?(Ha* yoki *yo'q* deb javob beriladi) **2) ritorik so'roq gaplar** so'roq gaplarning javob talab qilmaydigan turi bo'lib, javobi o'z ichida yashiringan va barcha uchun ma'lum bo'ladi: *Men uning to'satdan kelib qolishini qaydan bilay?* Ritorik so'roq gaplar quyidagi ma'nolarni ifodalashi mumkin: *Bu Vatanda nimalar yo'q* (tasdiq). *O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga* (inkor). *Bu nimasi?!* (taajjub) *Meni tashlab ketmaysanmi?!* (tashvish) *Maqsad nima, maqsad?!* (g'azab) *Paxtalar ham yaxshi ochilmagandir?* (gumon) *Tokaygacha ezilamiz, ota?!* (kuchli hayajon)

3. Buyruq gaplarda suhbatdoshni nimadir qilishga undash, da'vat qilish maqsad qilib qo'yiladi. Bunday gaplar iltimos, buyruq, taklif, maslahat, hayratlanish, tashviq, gumon, tashvish, hayajon, g'azab, yalinish tarzida bo'lishi mumkin: *Aytadigan gapingni oldin o'ylab olgin* (maslahat). *Tez borib kel!* (buyruq) *Juft bo'lsin* (iltimos). *Qani endi, hamma orzularimiz amalga oshsa!* (orzu) *Nahotki, akam kelgan bo'lsa!* (hayratlanish) *Oyog'ingni va boshingni ehtiyot qilib yurgin* (g'amxo'rlik). *Izg'irinda turguncha, issiqqina uyga kirsang-chi!* (tashviq) *Qochgan bo'lsa kerak!* (gumon) *Topib ber o'g'limni hozir!* (g'azab, do'q) Yozuvda buyruq gaplarning oxiriga ko'pincha undov belgisi, ohangiga qarab esa nuqta ham qo'yilishi mumkin.

4. Istak gaplarda biror-bir narsa haqida istak, xohish, orzu kabi tuyg'ular aks ettiriladi. Bunday gaplarning kesimi shart maylidagi (*–sa* qo'shimchali) fe'llar bilan ifodalangan bo'ladi: *Qani endi, A'zamjon ham shunaqa bo'la qolsa edi. (S.Ahm.)* Istak gaplar oxiriga nuqta (.) qo'yiladi.

3-§. Gaplarning his-hayajon ifodalashiga ko'ra turlari

Gaplar ohangiga, his-tuyg'uni ifodalashiga ko'ra 2 xildir:

1. His-hayajonli (undov) gaplar inson ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular - quvonch, shodlik, taajjub, qayg'u, afsuslanish, qo'rqinch singari tuyg'ularni ifodalaydi va *eh, oh, uh, o, uf, obbo* kabi undovlar, *qanday, qancha, naqadar, shunday* kabi so'zlar yoki faqat his-hayajon ohangi bilan hosil bo'ladi: *Eh, bahorning gashtiga nima yetsin! Farg'ona vodiysi naqadar go'zal! Paxta terimi boshlandi!* His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so'roq, buyruq gaplar his-hayajon gapga aylanadi: *Dalada qancha odam bor?* (so'roq gap) *Dalada qancha odam bor!* (undov gap)

2. His-hayajonsiz gaplar his-tuyg'u ifodalamaydi, oddiy xabar, buyruq yoki so'roqni ifodalaydi, ya'ni his-hayajon qatnashmagan darak, so'roq va buyruq gaplar shu guruhga mansubdir.

23-MAVZU.
GAP BO'LAKLARI. BOSH BO'LAKLAR

1-§. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot

Gapda biror **so'roqqa** javob bo'lgan va o'zaro **tobe** bog'langan so'z yoki so'z birikmasi **gap bo'lagi** deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi **sintaktik aloqadir**. So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarining turlarini belgilashda asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo'lak bo'lmas ekan, u yoki bu gap bo'lagi haqida gapirish mumkin emas. Gap bo'laklari gapda egallagan **mavqeiga** qarab ikki turli bo'ladi: **bosh bo'laklar** va **ikkinchi darajali bo'laklar.** Ega va kesim gapning bosh bo'laklaridir. Ular o'zaro faqat tobe bog'lanadi. Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil etadi.

Gap bo'laklari **tuzilishiga** ko'ra ham ikki turga bo'linadi:

1. Oddiy (sodda) bo'laklar yakka so'z bilan ifodalanadi (qo'shma, juft so'zlar bilan ifodalansa ham, oddiy bo'lak hisoblanadi): *Dars boshlandi. U sekin javob berdi. Qo'lidagi uzuklar qosha-qo'sha.*

2. Murakkab bo'laklar turg'un bog'lanmalar (to'g'ri ma'noli va ko'chma ma'noli), erkin bog'lanmalar bilan ifodalangan bo'laklardir: *Aravani quruq olib qochish* (nima? turg'un bog'lanma) *sizga yarashmaydi. Uch og'ayni* (kim? erkin bog'lanma)) *shirin suhbat qurishyapti.*

2-§. Gapning bosh bo'laklari

1. Kesim va uning ifodalanishi, turlari

Gapning markazini tashkil etib, boshqa bo'laklarni o'z atrofiga birlashtiruvchi, tasdiq-inkor, shaxs-son, zamon va mayl ma'nolarini ifodalovchi bosh bo'lak **kesim** deb ataladi. Kesim **nima qildi? nima qiladi? nima qila? qandaydir? (u) kim? (u) nima? (u) nechta?** singari so'roqlarga javob bo'ladi. *Safarov aytgan gaplarni hammamiz tushundik. Havo mayin, osmon tip-tiniq.*

Kesim gapning mazmuniy markazini tashkil etganligi uchun boshqa bo'laklar qatnashmasdan ham kesim orqali gap hosil qilish mumkin: *Kelyapti. Boramiz.*

Kesim ifodalagan hukm ikki xil (tasdiq va inkor) bo'lganligi uchun kesim ham t a s d i q kesim va i n k o r kesimga ajraladi: *Men bordim. Men bormadim.* Agar gap tarkibida *sira, aslo, hech, zinhor, birorta ham* so'zlari ishtirok etgan bo'lsa, kesim ham inkor shaklida bo'ladi. Kesimlar **mustaqil** va **nomustaqil** turlarga bo'linadi. Shart maylidagi fe'llar, ravishdosh shakllari bilan ifodalanib, qo'shma gap qismlaridan birining kesimi bo'lib kelgan shakllar **nomustaqil** kesimlar deb ataladi: *Dovul ko'tarilib, yomg'ir yog'adigan bo'lib qoldi. U kelsa, men ketaman.* Har doim alohida qo'llana oladigan gaplar tarkibida qatnashadigan kesimlar esa **mustaqil** kesimlar hisoblanadi: *Dars boshlandi.*

Kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab 2 xil bo'ladi:

1. Fe'l-kesim quyidagicha ifodalanadi:

1) sof fe'l bilan: *Karimjon maktabdan keldi.*

2) sifatdosh bilan: *Bu kitoblarning barchasi o'qilgan.*

3) ravishdosh bilan: *Bolta tushguncha, to'nka dam oladi. (Maqol)*

2. Ot-kesim quyidagicha ifodalanadi:

1) bosh, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar bilan: *O'zbekistonning poytaxti - Toshkent. Bu sovg'a ukamga. Uyning kaliti onamda. Bularning hammasi sevinchdan.*

2) sifat bilan: *Shahar go'zal.*

3) olmosh bilan: *Bu narsa o'z-o'zimniki.*

4) otlashgan son bilan: *O'nning yarmi besh.*

5) ravish bilan: *Dangasaning vaji ko'p.*

6) undov so'z bilan: *Buyruqni bajarmaganning holi voy.*

7) modal so'z bilan: *Uning ezgu niyatlari bor.*

Kesimlar tuzilishiga ko'ra ham ikki turga bo'linadi:

1. Sodda kesim bir so'zdan iborat bo'ladi:

1) sodda fe'l-kesim: *Men keldim.*

2) sodda ot-kesim: *Uyat o'limdan qattiq.*

2. Murakkab kesim kamida ikkita so'zdan tuzilgan bo'ladi:

1) murakkab fe'l-kesim quyidagicha tuziladi:

a) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan iborat bo'ladi: *Odamlar tarqala boshladi.*

b) sifatdosh va to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi. *Mashg'ulot haftada bir marta o'tadigan bo'ldi. U kelgan edi.*

2) murakkab ot-kesim quyidagicha tuziladi:

a) ot, sifat, son, olmosh, ravish hamda *"bo'lmoq"* fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: *Mehnat qancha qiyin bo'lsa, noni shuncha shirin bo'ladi.*

b) *yo'q, bor, oz, ko'p, zarur, lozim, kerak, darkor* kabi so'zlar hamda *bo'lmoq* fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: *Uzoqda ko'ringan sharpa bir zumda yo'q bo'ldi.*

d) harakat nomi hamda *kerak, lozim* kabi so'zlardan iborat bo'ladi, bunda kesimni ega bilan moslashtiruvchi shaxs-son qo'shimchalari harakat nomiga qo'shiladi: *Choyxona yangi solingan qishki binoga ko'chib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi.*

2. Ega va uning ifodalanishi

Gapda kesim bilan bog'lanib, shu kesimdagi qo'shimchalar ifodalagan shaxs-sonni bildiruvchi va *kim? nima? qayer?* so'roqlariga javob bo'ladigan bosh bo'lak **ega** deb ataladi. *Odam (kim?) ko'p, ish (nima?) kam. Atrof (qayer?) jimjit.*

Ega bosh kelishikda bo'lib, odatda, quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Shamol gullar hidini atrofga taratdi.*

2. Olmosh bilan: *Ular to'garak mashg'ulotlariga muntazam qatnashadilar.*

3. Harakat nomi bilan: *O'qish tugadi.*

4. Otlashgan so'zlar bilan:

a) sifat bilan: *Oqlar yurishni boshladi.*

b) son bilan: *Uchovimiz dala aylandik.*

d) sifatdosh bilan: *Qimirlagan qir oshar.*

e) ravish bilan: *Ko'plar qatnashdi.*

f) taqlid so'z bilan: *To'plarning gumbur-gumburi eshitilardi.*

g) modal so'zlar bilan: *Bor boricha, yo'q holicha.*

5. Ibora bilan: *Hafsalasi pir bo'lgani sezilib turardi.*

6. Sintaktik birliklar (so'z birikmasi) bilan: *Otlarning otxonaga olib o'tilmagani Ziyodillani taajjublantirdi.*

Ayrim paytlarda teng aloqadagi bir necha so'z ham butunicha yoki bo'lak-bo'lak ravishda ega bo'lib kelishi mumkin: *Otam bilan akam bozorga ketishdi.*

Ba'zan ega **chiqish** kelishigidagi so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday paytlarda haqiqiy ega tushirilgan bo'lib, undan oldin kelayotgan chiqish kelishigidagi so'z ega vazifasini ifodalaydigan bo'lib qoladi: *Unda ham bu kitoblardan bor.* Bu gapdagi haqiqiy egani tiklash mumkin: *Unda ham bu kitoblardan biri bor.*

3-§. Bog'lama

Ot-kesimni ega bilan bog'lovchi vosita **bog'lama** deb ataladi. Bog'lama *-dir* kesimlik qo'shimchasi *(Mehnatning noni shirin**dir**)*, shu qo'shimchaga sinonim bo'lgan *bo'lmoq, hisoblanadi, sanaladi* fe'llari *(U kishi mening ustozim **hisoblanadi**)*, to'liqsiz fe'llar *(U mening do'stim **edi**)*, shuningdek, ot-kesimlarga qo'shilgan shaxs-son qo'shimchalari *(Men o'quvchi**man**)* bilan ifodalanadi. Bog'lama ot-kesimga mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini kiritadi.

4-§. Ega bilan kesimning shaxs va sonda o'zaro mosligi

1. Shaxsda mosligi

Ega va kesim bir-biri bilan shaxsda hamma vaqt mos bo'ladi: *Biz maktab jamoat ishlarida faol qatnashamiz.* Ega *(Biz)* – 1-shaxsda, kesim *(qatnashamiz)* - 1-shaxsda.

Diqqat! Nutqda *"Hayron bo'lasan kishi"* tarzidagi gaplar qo'llanadi. Bu gaplarda ega va kesim shaxsda moslashmagan: ega (*kishi*) 3 -shaxsda, kesim esa 2-shaxsdadir.

2. Sonda mosligi

I. Fe'l-kesim I va II shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos bo'ladi. *Biz yordam berdik.*

II. Kesim III shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda moslashavermaydi:

1. Kimsani bildirgan III shaxsdagi ega bilan fe'l-kesim sonda mos bo'ladi: *Dehqonlar ishni boshlab yubordilar.*

2. Ko'plikdagi kimsani emas, narsa-buyumni bildirsa, fe'l-kesim, odatda, ega bilan sonda moslashmay, birlikda ishlatiladi: *Kitoblar olindi.*

3. Ot-kesim ko'plikdagi ega bilan ko'pincha moslashmaydi: *Uyda akam, opam va singlim bor edi.*

4. Gapda eganing aniqlovchisi miqdor son bilan ifodalansa, kesim va ega birlik shaklida bo'ladi: *Uchta qiz keldi.*

5-§. Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi

I. Quyidagi holatlarda ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi:

1. Gapning kesimi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanib, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Toshkent – go'zal shahar.*

2. Gapning egasi yoki kesimi yoxud ularning har ikkalasi harakat nomi bilan ifodalansa va bog'lama bo'lmasa, egadan so'ng tire qo'yiladi: *Kulish – umrni uzaytirish vositasi.*

3. Gapning egasi yoki kesimi birikmalar bilan ifodalanib, tenglik, o'xshatish, kabi ma'nolarni bildirsa va bog'lama bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Yaxshi qiz – yoqadagi qunduz.*

4. Ega yoki kesim ko'rsatish olmoshi yoxud miqdor son bilan ifodalanib, alohida ajratib ko'rsatilsa, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Ana shu – mening uyim. Uch karra uch – to'qqiz.*

5. Ega bilan kesim ***bu, u, mana bu*** so'zlari bilan ajratilgan holatlarda tire shu so'zlardan oldin qo'yiladi: *Istiqlol – bu o'zbek xalqining azaliy orzusi.*

II. Quyidagi holatlarda ega bilan kesim orasida bog'lama bo'lmasa ham, tire qo'yilmaydi:

1. Ega kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, tire qo'yilmaydi: *U tajribali iqtisodchi.*

2. Kesim kelishik qo'shimchasini olgan bo'lsa: *Butun umidimiz sendan.*

3. Ega bilan kesim o'rtasida ***ham*** yordamchi so'zi bo'lsa: *Men ham kichik paxtakor.*

4. Kesim sifat, son (miqdor sondan tashqari), ravish bilan ifodalansa: *Shahrimiz go'zal. Kitoblar soni beshta. Mening orzularim ko'p.*

Diqqat! Ba'zan ta'kidlash ma'nosini kuchaytirish uchun kesimlik qo'shimchasi bo'lishiga qaramay, egadan keyin tire qo'yilishi mumkin: *Adabiyot – hayotning in'ikosidir.*

24-MAVZU.
GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklarga tobe bo'lib, ularni to'ldirib, aniqlab, izohlab keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar 3 xil: ***to'ldiruvchi, aniqlovchi*** va ***hol.***

1-§. To'ldiruvchi, uning turlari va ifodalanishi

Gapdagi biror bo'lakni to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan tobe holatda bog'langan bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi. To'ldiruvchi asosan fe'l-kesimga bog'lanadi: *Men bu gapni ukamdan eshitdim.*

To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi:

1. Vositasiz to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat bevosita o'ziga o'tgan predmetni bildiradi va *kimni? nimani? qayerni?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Bu to'ldiruvchi harakatni butunlay o'ziga qabul qilgan predmetni bildirib, quyidagicha ifodalanadi:

1) ot bilan: *Yosh havaskorlar ashulani zavq bilan aytdilar.*
2) olmosh bilan: *Sizni chaqirishyapti.*
3) harakat nomi bilan: *Yurishni oqlar boshlab beradi.*
4) otlashgan so'zlar bilan:
a) otlashgan sifat bilan: *Yaxshini maqtasang yarashadi.*
b) otlashgan son bilan: *Uchni uchga ko'paytiring.*
d) otlashgan sifatdosh bilan: *Bo'linganni bo'ri yer.*
e) otlashgan ravish bilan: *Ko'pini sizdan o'rgangan.*
f) otlashgan taqlid so'z bilan: *Etigining g'arch-g'urchini eshitdi.*
g) otlashgan undov so'z bilan: *Oh-vohini hech kim eshitmasin.*
h) otlashgan modal so'z bilan: *Borini sarfladi.*
5) ibora bilan: *O'ziga birovning oz-moz til tegizishini ko'tarmasdi.*
6) so'z birikmasi bilan: *Sen ko'rganni u ham ko'rgan.*

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishik qo'shimchasisiz ham qo'llanadi: *O'quvchilar hozir kitob o'qishyapti.*

Vositasiz to'ldiruvchi ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanadi, bunda u harakatni qisman o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi: *Qani, oshdan oling!*

2. Vositali to'ldiruvchi *kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim haqida?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1) ot bilan: *Xatni qalamda yozdi.*
2) olmosh bilan: *Ravshan senga gapirdi.*
3) harakat nomi bilan: *Yugurishda gap ko'p.*
4) otlashgan so'zlar bilan:
a) otlashgan sifat bilan: *Yaxshiga yondash, yomondan qoch.*
b) otlashgan son bilan: *Beshdan ikkini ayirish kerak.*
d) otlashgan sifatdosh bilan: *Aytganimga ko'nishmadi.*
e) otlashgan ravish bilan: *Kamiga uzr so'raymiz.*

f) otlashgan taqlid so'z bilan: *Zambaraklarning gumbur-gumburiga quloq soldi.*
g) otlashgan undov so'z bilan: *Uning dod-voyiga quloq solmadi.*
h) otlashgan modal so'z bilan: *Boriga shukur qilish kerak.*
5) ibora bilan: *Og'zi bo'shga ishonib bo'lmaydi.*
6) so'z birikmasi bilan: *Kecha kelmaganlarga xabar berish kerak.*

2-§. Aniqlovchi, uning turlari va ifodalanishi

Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo'lak **aniqlovchi** deyiladi. Anihlovchi gap ichida har doim **otga** yoki **otlashgan** so'zga bog'lanadi: *Mayda qor yog'yapti. Qovunning og'iri, tarvuzning yengili shirin bo'ladi.*

Aniqlovchi gap ichida egaga ham, kesimga ham, to'ldiruvchiga ham, holga ham tobe bo'la oladi. *Oppoq mashina keng ko'chada navbatdagi chorrahani kesib o'tmoqda edi. Toshkent juda chiroyli shahar.*

Aniqlovchi ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Sifatlovchi-aniqlovchi

Sifatlovchi-aniqlovchi predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va *qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qaerdagi?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Sifatlovchi-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **sifatlanmish** deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish **bitishuv** yo'li bilan bog'lanadi: *Notanish kishi unga qaradi.*

Sifatlovchi-aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Sifat bilan: *G'ulomjon mehribon onasining yoqimli ovozini darhol tanidi.*
2. Ot bilan: *Asfalt yo'ldan mashinalar g'iz-g'iz o'tib turibdi.* Bunday aniqlovchilar ba'zan majoziy (ko'chma) ma'noni ifodalashi mumkin: *Kumush choyshab yopib dalalar...*
3. Son bilan: *Yuzta daftar olindi.*
4. Olmosh bilan: *Bu kitob meniki.*
5. Sifatdosh bilan: *O'qigan odam hayotda qiynalmaydi.*
6. Ravish bilan: *Ko'p gapning ozi yaxshi, oz gapning o'zi yaxshi.*
7. Taqlid so'z bilan: *Shitir-shitir ovoz eshitildi.*
8. Modal so'z bilan: *Bor uyda bol tomadi.*
9. Ibora bilan: *Unda og'zining tanobi qochadigan odat bor.*

Ba'zan sifatlovchi aniqlovchilar so'z birikmalari bilan ifodalanib, yoyiq holda kelishi mumkin: *Misdek qizarib turgan yuzini ikki kafti orasiga olib, peshonasiga yuzini bosdi.*

2. Qaratqich-aniqlovchi

Qaratqich-aniqlovchi biror narsa tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradi va *kimning?, nimaning?, qayerning?* so'roqlariga javob bo'ladi. Qaratqich-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak

qaralmish deb yuritiladi. Qaratqich va qaralmish **moslashuv** orqali birikib, shaxs va sonda albatta moslashgan bo'ladi: *Odamning (3-shaxs) qo'li (3-shaxs) gul.*

Qaratqich-aniqlovchi, odatda, quyidagicha ifodalanadi:

1. Qaratqich kelishigidagi ot bilan: *Gulnor yigitning so'zlarini diqqat bilan tingladi.*
2. Qaratqich kelishigidagi olmosh bilan: *Bu bizning yangi maktabimiz.*
3. Harakat nomi bilan: *Q'qishning qiyinchiligi bor.*
4. Otlashgan so'zlar bilan:

1) otlashgan sifat bilan: *Baxilning bog'i ko'karmas, ko'karsa ham meva bermas.*

2) otlashgan son bilan: *Q'nning yarmi - besh.*

3) otlashgan sifatdosh bilan: *Qlarning berari ham bor.*

4) otlashgan ravish bilan: *Ko'pning haqiga xiyonat qilmang.*

5. Ibora bilan: *Qg'zi bo'shning ichida gap yotmas.*

Qaratqich-aniqlovchi ***-ning*** qo'shimchasisiz (belgisiz) ham qo'llanadi: *Bolalar xonasi ozoda edi.*

3-§. Izohlovchi va uning ma'nolari

Izohlovchi aniqlovchining alohida bir turi bo'lib, bunda izohlovchi ot boshqa bir otni izohlaydi, ya'ni boshqa nom bilan ataydi. Izohlovchi izohlagan ot **izohlanmish** bo'ladi: *General Sobir Rahimov.*

Izohlovchilar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) ilmiy, harbiy unvonni bildiradi: *dotsent Dolimov, mayor Ahmedov.*
2) kasb-hunarni bildiradi: *Salim bo'zchi, mashinist Bo'ronov.*
3) laqabni bildiradi: *Ali tajang, Asqar polvon.*
4) qarindoshlikni bildiradi: *Karima xola, Qobil bobo.*
5) jinsni bildiradi: *erkak tarbiyachi, ayol haydovchi.*
6) o'xshatishni bildiradi: *Ona-Vatan, qizchalar-gulchalar.*
7) taxallusni bildiradi: *Abdulla Qodiriy (Julqunboy)*

Izohlovchi va izohlanmish umumiy va aniq ma'noni bildiruvchi turdosh otdan iborat bo'lsa, aniq ma'noni bildiruvchi ot **izohlovchi**, umumiy ma'noni bildiruvchi ot **izohlanmish** bo'ladi. Yozuvda ular orasiga chiziqcha qo'yiladi: *mexanik-**haydovchi**.* O'xshatishni bildirgan izohlovchi bilan izohlanmish orasiga chiziqcha qo'yiladi: ***ona**-Vatan .*

Gazeta, jurnal, korxona, muassasa va hokazolarning nomini bildirgan atoqli otlar ham izohlovchining bir turi hisoblanadi: *"**Yoshlik**" jurnali, "**Turkiston**" gazetasi.* Bunday izohlovchilar shaxs nomi bilan ifodalansa, qo'shtirnoqqa olinmay *nomli, nomidagi* so'zlari bilan birga qo'llanadi: ***G'ayratiy** nomli maktab.*

4-§. Hol, uning turlari va ifodalanishi

Ko'pincha fe'l-kesimga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak **hol** deb ataladi: *Yomg'ir to'xtovsiz yog'yapti.*

Hol ba'zan ot-kesimga ham bog'lanadi: *Ko'chada odam ko'p.*

Ma'nosiga ko'ra hol quyidagi turlarga bo'linadi:

1) vaziyat (ravish, tarz) holi *qanday? qay holda? qay tarzda?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va har doim **fe'lga** bog'lanadi. Vaziyat hollari ravish, ravishdosh, ot, sifat, olmosh, taqlidiy so'zlar, ibora bilan ifodalanadi: *U diqqat bilan tingladi. Ukam chiroyli yozadi. U shoshmasdan jo'nadi. Rais bilan ikkisi do'stlarcha xayrlashdi. U qorovul bo'lib turdi. Daraxt barglari duv to'kildi. Buni qanday bajarasiz? Boshini eggan holda kelardi.*

Ko'makchilar yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchilar bilan xuddi shu ko'rinishda shakllangan vaziyat hollari savollariga qarab farqlanadi: *Hosil mashina bilan terildi* (nima bilan? - to'ld.). *Mevalar havas bilan terildi* (qanday? - hol).

Ravishdosh bilan ifodalangan vaziyat holi o'ziga tobe bo'lgan bo'laklar bilan so'z birikmasini hosil qilishi mumkin: *Eshikni sekin ochib, ichkariga qaradi.* Bu **yoyiq vaziyat holi** deb ataladi.

2) o'rin holi *qayerga? qayerda? qayoqqa? qayerdan?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha o'rin ravishi, ot, olmoshlar bilan ifodalanadi: *Bolalar ko'chaga chiqib ketishdi. U ordadan qochdi. Bunda bulbul kitob o'qiydi...(H.O.)* Jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigidagi so'zlar ham hol, ham to'ldiruvchi bo'lib keladi, bunda ular savolga qarab farqlanadi: *U maktabga bordi* (qayerga? - hol). *Menga gapirdi* (kimga? - to'ld.).

3) payt holi *qachon? qachongacha? qachondan beri? qayvaqt?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha ot, payt ravishi, olmosh, payt ravishdoshi, sifatdosh, harakat nomi, son, sifat bilan ifodalanadi: *Imtihonlar yozda bo'ladi. Bugun maktabim yonidan o'tdim. Shunda men bir sapchib tushganman. Nafasimni rostlagach, tikilibroq qaradim. O'qiyotganimda buni sezib qoldim. Qaytishda siznikiga kirib o'tamiz. Qo'lim bo'shida o'qiyman. Yig'ilish uchda bo'ladi.*

4) miqdor holi *qancha?, qanchalab?, nechalab?, necha marta?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha miqdor-daraja ravishlari, son, sifat va miqdor-daraja ma'nosini bildirgan so'z birikmalari bilan ifodalanadi: *Men juda ko'p qayg'urdim. O'n marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal. Bir onda o'z kuchining o'lchovsiz darajada o'sganini sezdi. Siz qancha terdingiz? Bular qop-qop terib qo'yishdi. Men o'ylagan darajada qilisharmikan?*

5) sabab holi *nima sababdan? nima sababli? nima uchun? nimaga? nega?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

a) sabab ravishi bilan: *Otasi noiloj ko'ndi.*

b) *-lik, -siz+lik, -gan+lik* qo'shimchali chiqish kelishigidagi otlar, sifatdoshdan keyin *-dan* qo'shimchasini keltirish bilan: *Salima opa quvonganidan hech gapira olmas edi.*

d) *-gani, -ganligi* qo'shimchali so'zlardan keyin *sababli, tufayli, uchun* so'zlaridan birini keltirish bilan: *U o'qimagani uchun bilmadi.*

6) maqsad holi *nima maqsadda? nima uchun? nima qilgani? nima qilgali? nega?* so'roqlariga javob bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

a) maqsad ravishi bilan: *Men aytayin gapirmadim.*

b) jo'nalish kelishigidagi harakat nomi yoki harakat nomidan keyin ***uchun*** ko'makchisini keltirish bilan: *U o'qish uchun keldi.*

d) maqsad ravishdoshi bilan: *U o'qigani keldi.*

e) fe'ldan so'ng *uchun, deb* so'zlarini keltirish bilan: *O'qiyman deb keldi.*

f) harakat nomidan keyin ***maqsadida, maqsadda, maqsadi bilan*** so'zlarini keltirish yordamida: *Gulnor opa bafurja gaplashish maqsadida keldi.*

7) shart holi *nima qilsa(-m , -ng, -k , -ngiz)* so'rog'iga javob bo'ladi va bir harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan ish-harakatni bildiradi: *Eksang o'rasan. Qaytarish sharti bilan oldi.*

8) to'siqsizlik holi *nima qilsa (-m, -ng, -k , -ngiz) ham//-da?* so'roqlariga javob bo'lib, bir ish-harakatning bajarilishi uchun to'siq bo'la olmaydigan ish-harakatni bildiradi va *shart fe'li+ham//-da),* ravishdosh, sifatdosh+***bilan*** ko'makchisi, ***qaramay, qaramasdan*** so'zlari qatnashgan qurilma orqali ifodalanadi: *Chaqirilmasa ham qatnashdi. Kichik bo'lgani bilan ancha og'ir edi. Shoshganiga qaramay kutib turdi.*

Ayrim darsliklarda **qurol-vosita holi** ajratiladi. Bu hol *nima bilan? qanday usul bilan?* degan so'roqlarga javob bo'ladi: *Xat qalamda (qalam bilan) yozilgan edi.*

5-§. Gap bo'laklarining joylashish tartibi

O'zbek tilida bu tartib ikki xil:

1. Odatdagi tartib:

1) ega (o'z aniqlovchisi bilan) oldin, kesim gapning oxirida keladi:
Yosh havaskorlar to'plandilar.

2) payt holi egadan oldin keladi:
Bugun yosh havaskorlar to'plandilar.

3) to'ldiruvchilar o'z aniqlovchisi bilan egadan keyin keladi:
Bugun yosh havaskorlar dehqonlarga katta tomosha ko'rsatdilar.

4) vaziyat holi kesimdan oldin keladi:
Daryo uzoqdan toylanib ko'rinardi.

2. O'zgargan tartib (bu **inversiya** ham deyiladi):

1) ega kesimdan keyin keladi: *Yo'qolsin urush!*

2) to'ldiruvchi kesimdan keyin keladi: *Yozing buyruqni!*

3) vaziyat holi fe'l-kesimdan keyin keladi: *Yaproqlar to'kilar duv-duv.*

Odatdagi tartib ilmiy uslubga xos bo'lsa, o'zgargan tartib og'zaki va badiiy uslub uchun xosdir.

25-MAVZU.
GAPNING UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO'LAKLARI

1-§. Uyushiq bo'laklar haqida umumiy ma'lumot

Har bir gap bo'lagi gapda birdan ortiq bo'lishi mumkin. Bir xil so'roqqa javob bo'lib, gapdagi bir bo'lakka bog'langan bo'laklar **gapning uyushiq bo'laklari** deb ataladi. Bu bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi bilan bog'lanadi: *Bola goh **menga**, goh **unga** qarar edi.* Gapning barcha bo'laklari uyushadi:

1) **ega** uyushadi: *Bugun **Anvar** yoki **Sobir** navbatchilik qiladi.*

2) **kesim** uyushadi: a) fe'l-kesim: *U asta joyiga o'tirdi va gapira boshladi.* b) ot-kesim: *Yo'l **keng** va **tekis edi.***

3) **to'ldiruvchi** uyushadi: a) vositasiz to'ldiruvchi: *Kitob(larni) va daftarlarni keltirdi.* b) vositali to'ldiruvchi: *Akamga va opamga xabar qildik.*

4) **anihlovchi** uyushadi: a) sifatlovchi-aniqlovchi: *Salqin va bahavo bog'da dam oldik.* B) qarathich-aniqlovchi: *Olma(ning) va shaftolining hosili mo'l bo'ldi.*

5) **hol** uyushadi: a) vaziyat holi: *Topshiriqni tez va puxta bajardik.* b) payt holi: *Bugun va ertaga men navbatchilik qilaman.* d) o'rin holi: *Shahar va qishlohlarda qurilishlar avjiga chiqqan.* f) sabab holi: *Quvonch va shodlikdan tili gapga aylanmas edi.* j) mahsad holi: *U shaharga o'qish va ishlash mahsadida kelgan edi.* h) miqdor holi: *Men sizga o'n marta, yuz marta gapirdim.* yo) shart holi: *Mehnat qilmasang, qiynalmasang o'z maqsadingga erisha olmaysan.* j) to'siqsizlik holi: *U charchasa ham, yiqilib qolgudek bo'lsa ham yurishdan to'xtamadi.*

Uyushiq egalar shaxsni anglatsa, kesim birlikda ham, ko'plikda ham bo'lishi mumkin: *Karim, Salim va Ahmad keldi(lar).* Uyushiq egalar jonsiz narsalarni ifodalasa, kesim odatda, birlikda bo'ladi: *Stol va stullar tartibga keltirilgan.*

Gapda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari uyushiq kesim bo'lib kelganda ba'zan ko'makchi fe'l yetakchi fe'llarning eng so'nggisiga bog'lanib kelishi mumkin: *U allaqachon yozib, chizib bo'ldi.*

Uyushiq bo'laklar yoyiq holda ham bo'ladi: *Ma'ruzachiga qiziq, kishini hayratda qoldiradigan savollar berishdi.*

Uyushiq bo'laklar juft-juft bo'lib ham qo'llanadi: *Shahrimizda keng va tekis, toza va yorug' ko'chalar ko'paymoqda.*

2-§. Uyushiq bo'laklarda ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarining hamda ko'makchilarning qo'llanishi

Bularning qo'llanishi uch xil bo'ladi:

1. Son (ko'plik), egalik, kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar uyushiq bo'laklarning oxirgisiga qo'shiladi: *Mashinadan tushgan ayol va erkaklarning barchasi kulgi va shovqin **bilan** uyga kirishdi.*

2. Gapdagi uyushiq bo'laklarning har birida son, egalik, kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar alohida-alohida takrorlanadi: *Har bir so'z**ni**, har bir jumla**ni** zavq **bilan**, hayajon **bilan** qayta-qayta o'qib chiqdi.*

3. Son, egalik, kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar uyushiq bo'laklarda har xil ishlatilishi ham mumkin: *Imon va e'tiqod**ni**, odamgarchilik**ni** insonga go'daklik paytidan chidam va toqat **bilan**, muhabbat **bilan** singdira borish kerak.*

Gapda uyushiq bo'laklar bog'lovchilarsiz, sanash ohangi bilan, biriktiruv bog'lovchilari ***(va, hamda),*** ular vazifasidagi ***-u, -yu*** yuklamalari, ***bilan*** ko'makchisi, zidlov bog'lovchilari ***(ammo, lekin, biroq), na*** yuklamasi, ***-da*** yuklamasi, ***goh, yoki, yoxud, dam, ba'zan, yo*** kabi ayiruv bog'lovchilari bilan bog'lanib keladi: *Mashina sekinladi, lekin to'xtamadi.*

3-§. Umumlashtiruvchi bo'lak (so'z) va unda tinish belgilarining ishlatilishi

Uyushiq bo'laklarning ma'nolarini jamlab, umumlashtirib keladigan so'z ba so'z birikmalari **umumlashtiruvchi bo'lak** deb ataladi. Ko'pincha belgilash, bo'lishsizlik olmoshlari va jamlovchi ot, jamlovchi sonlar, shuningdek, so'z birikmalari, kengaygan birikmalar umumlashtiruvchi bo'lak bo'lib keladi: *Uylar, daraxtlar, ko'chalar – **hammasi** qorong'ilik qa'riga cho'mdi. **Ishga yangi qabul qilinganlar**: Ahmad, Salim va Akbar boshliqning oldiga kirishsin.* Umumlashtiruvchi bo'lak qanday vazifani bajarsa, uyushiq bo'laklar ham shunday vazifani bajaradi.

Umumlashtiruvchi bo'laklar uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Qudratning oldidan ikki o'rtog'i: Ilhom va Rustam chiqib keldi.* Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan keyin kelsa, undan oldin tire qo'yiladi: *Akam, opam, singlim – **barchamiz** aziz onajonimizni tabrikladik.*

4-§. Uyushiq va uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi hamda hollar

Sanash ohangi bilan aytiladigan va yozuvda vergul bilan ajratiladigan aniqlovchi yoki hollar uyushiq aniqlovchi va hollar hisoblanadi (bu haqda yuqorida so'z yuritildi). Sanash ohangi bilan aytilmaydigan, yozuvda orasiga vergul qo'yilmaydigan aniqlovchilar va hollar uyushmagan aniqlovchi va hollar hisoblanadi. Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi va hollar o'zi bog'langan bo'lakning turli tomoniga oid belgilarni anglatadi: *Qop-qora shirin uzumlar g'arq pishgan. Bugun maktabda ota-onalar majlisi bo'ladi.*

5-§. Ajratilgan bo'laklar haqida umumiy ma'lumot

O'zidan oldingi bo'lakni izohlagan bo'lak **ajratilgan bo'lak** deyiladi: *Men ishni mana **shundan**, ya'ni **tushuntirishdan** boshladim.*

Ajratilgan bo'laklarning uyushiq bo'laklardan farqi shundaki, **ular bir tushunchaning ikkita nomidir**, ya'ni bir shaxs yoki bir narsa ikki

marta nomlanadi, uyushiq bo'laklar esa **bir necha shaxs yoki narsani ifodalaydi.**

Gap bo'laklarining ajratilishida gapda so'z tartibining o'zgarishi, gap bo'laklarining kengayishi, bir bo'lakning o'zidan oldingi bo'lakni izohlashi, bir bo'lakni boshqalaridan ajratib bo'rttirib ko'rsatish zaruriyati kabilar sabab bo'lishi mumkin. *Ko'chada borar, **g'amgin** va **o'ychan**. Ukasi, **ko'zlari chaqnagan**, unga g'azab bilan qaradi. Oldinda, **muyulishda**, bir qora ko'rindi. U har kuni, **quyosh tikka kelganda**, shaharga tushadi.*

Quyidagi gap bo'laklari ajratiladi:

1. Ajratilgan ega o'zidan oldin kishilik olmoshlari, ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalanib kelgan egani izohlaydi: *Biz, **yoshlar**, buni esdan chiqarmasligimiz kerak.*

2. Ajratilgan kesim o'zidan oldin kelgan kesimni izohlaydi: 1) fe'l-kesim: *Men uni ko'ndirishga harakat qildim – **yalindim, yolvordim**, hatto **tiz cho'kdim**.* 2) ot-kesim: *U shoir – **inson ruhining bilimdoni**.*

3. Ajratilgan izoh to'ldiruvchi o'zidan oldingi to'ldiruvchini izohlab keladi: *Menga–oddiy **ishchiga** shunchalik hurmat ko'rsatishdi.*

To'ldiruvchi ***tashqari, boshqa, o'rniga, bilan, birga*** kabi so'zli birikmalar bilan ifodalanganda ham ajratiladi: ***Mendan tashqari**, sinfimizdagi barcha o'g'il bolalar ishtirok etishibdi.*

4. Ajratilgan izoh aniqlovchi o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

1) ajratilgan izoh qaratqich-aniqlovchi o'zidan oldingi qaratqich-aniqlovchini izohlaydi: *Bir necha **kishilarning**, **ayol va erkaklarning** qorasi ko'rindi.*

2) ajratilgan sifatlovchi-aniqlovchi sifatlanmishdan keyin kelib uni izohlaydi: *Gullar terdim, **chiroyli**.*

5. Ajratilgan izoh hol gapda o'zidan oldingi holni izohlab keladi. Quyidagi hol turlari ajratiladi: 1) o'rin: *Uning qo'lidan ushlab **ichkariga, mehmonxonaga**, boshladi.* 2) payt: *Anjuman **bugun, soat beshda**, boshlanadi.* 3) ravish(vaziyat): *Qo'llar ishlar **tez** – **mo'jizakor**.* 4) maqsad: *Shaharga borish **uchun**, ya'ni **o'g'lini ko'rish uchun**, ulov qidirdi.* 5) miqdor-daraja: *Bugun sizni **yana, ikkinchi marta** kechirishdi.*

Ko'pincha ravishdosh va sifatdosh bilan ifodalangan hollar ham kengaygan holda ajratilishi mumkin: ***O'zidan o'zi hadiksirab**, atrofga olazarak boqadi. Otasi, **ikki qo'ltig'ida narsa ko'targan holda**, yo'lga tushdi.*

6-§. Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarining ishlatilishi

Yozma nutqda izoh bo'laklar ko'pincha vergul va tire bilan ajratiladi:

1. Izoh bo'laklar ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi: *Kanal bo'yidagi **choyxonada, avtobus bekatida**, A'zamjon uchradi.*

2. Izoh bo'laklarning o'z ichida vergul bo'lsa, ikki tomoniga tire qo'yiladi: *Endi **odamlar – otliq, piyoda, yosh-qari** - uchray boshladi.*

3. Ajratilgan bo'lak kengayib, uyushib, gap oxirida kelsa, undan oldin tire qo'yiladi: *Mening o'z muhabbatim bor – **toza va musaffo**!*

4. Bosh kelishikdagi kishilik olmoshini izohlagan bo'laklardan avval tire, keyin vergul qo'yiladi: *Men - **Fozilova Fotima**, VII sinfda o'qiyman.* Ba'zan izohlanayotgan ega ot turkumiga tegishli bo'lganida ham tinish belgilari shu tarzda qo'yilish mumkin: *Otam - **Ilyos Tohirov**, zavodda ishlaydi.*

26-MAVZU.
GAP BO'LAKLARI BILAN GRAMMATIK JIHATDAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN "BO'LAKLAR"

1-§. Umumiy ma'lumot

Nutqda gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so'zlar qatnashadigan gaplar ham qo'llanadi. Bunday so'zlar ma'no jihatdan butun gapga yoki uning biror bo'lagiga aloqador bo'ladi. Bular **undalma, kirish so'z, kirish birikma** va **kirish gaplardir**. Bunday birliklarga sintaktik aloqa amal qilmaydi, ya'ni ular boshqa gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmaydi.

2-§. Undalma

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgan so'z **undalma** deyiladi. Undalma odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. She'riy asarlarda shoir ba'zan o'ziga, ya'ni so'zlovchiga ham qarata murojaat qilishi mumkin: *Nazm tuz, **Erkin**, axir, erkin zamondur bu zamon.* Undalma boshqa gap bo'laklari bilan faqat mazmunan bog'langan bo'ladi.

Undalma ko'pincha bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanganligi uchun egaga o'xshab ketadi, lekin ega kesim bilan shaxs va son (birlik va ko'plik)da bog'langan bo'ladi, undalma esa bog'lanmaydi: *Karimjon* (ega -3-shaxs, birlikda) *ertaga keladimi?* (kesim – 3-shaxs birlikda) *Karimjon*, (undalma – 3-shaxs, birlikda) *ertaga kelasizmi?* (2-shaxs, ko'plikda)

Ayrim hollarda, ayniqsa, she'riy asarlarda hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarning nomini bildirgan so'zlar ham undalma bo'ladi: *Xayr, **maktabim**!* Bir so'z bilan ifodalangan undalma **yig'iq undalma** deyiladi: *Do'stim, biznikiga mehmon bo'lib keling.* So'z birikmasi bilan ifodalangan undalma **yoyiq undalma** deyiladi: *Hurmatli talabalar, yangi yilingiz muborak bo'lsin!* Undalmani kuchli ifodalash uchun undalmadan oldin ***e, ey, hoy, obbo*** kabi undovlar ham qo'llanadi, bulardan keyin vergul qo'yiladi.

Undalmalar quyidagicha ifodalanadi: **1) ot bilan:** ***Ahmadjon**, kitobingizdan foydalansam bo'ladimi?* **2) olmosh:** *Hoy **sen**, menga qarachi.* **3) otlashgan so'zlar**: *Shunday demaysizmi, **azizim**!* (sifat) ***To'rtinchi**, birinchiga javob bering* (son). **4) undov so'zlar:** ***Hoy**! Beri keling!* **5) so'z birikmalari bilan:** *Hoy, **soqoling ko'ksingga to'kilgur!*** **6) iboralar bilan:** *Hoy, **yigit tushmagur,** nima qilib qo'yding!*

Undalma gapning boshida kelsa, undalmadan so'ng, gap o'rtasida kelsa, ikki tomoniga, gapning oxirida kelsa, undalmadan oldin vergul qo'yiladi: *So'zla, **ko'zgujon**, Haqiqatni et bayon!*

3-§. Kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplar haqida

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabatini bildirgan so'z **kirish so'z**, shunday so'z birikmasi esa **kirish birikma** deb ataladi. Kirish so'zlar va kirish birikmalar asosan **modal** so'zlar bilan ifodalanib, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Ishonch va tasdiqni: *Albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan, darhaqiqat, haqiqatan ham, so'zsiz.*
2. Gumonni: *ehtimol, shekilli, chamasi, balki, taxminimcha, mumkin.*
3. Shodlik yoki achinishni: *Baxtimga, baxtga qarshi, attang, afsus.*
4. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini: *menimcha, mening fikrimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, sizningcha.*
5. Bayon qilingan fikrning tartibini: *birinchidan, ikkinchidan...*
6. Bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligini: *demak, shunday qilib, umuman, aksincha, ba'zan, aks holda, xullas, shuningdek, ayniqsa, asosan, binobarin, xususan.*
7. Tasdiq yoki inkorni: *ha, yo'q, mayli, to'g'ri.*

Kirish so'z yoki kirish birikma gapning boshida kelsa, undan keyin, gapning o'rtasida kelsa, ikki tomoniga, gapning oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi: ***Nihoyat**, ular jo'nashdi. Ular, **nazarimda**, ketishdi. Bugun ular kelishmaydi, **shekilli**.*

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga qo'shimcha mulohazasini bildirgan gap **kiritma gap** deyiladi. Kiritma gap asosiy fikrni to'ldirish, izohlash uchun ishlatiladi. Kiritma gap, odatda, vergul bilan ajratiladi: *Bu, **Salim aytmoqchi**, ularning asosiy maqsadlari bo'lgan.*

Kiritma gap yoyiq bo'lsa, tire bilan ajratiladi yoki qavs ichiga olinadi: *Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (**maqtanchoqlikni yomon ko'rar edi**), ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi (O.). Qabulxona - **bu yer ilgari katta boyning mehmonxonasi bo'lgan bo'lsa kerak** - qorong'i edi.(O.)*

Kiritma gaplarning tuzilish jihatdan turlari: 1) bir bosh bo'lakli: *U yog'ini so'rasang, **aytaymi**, men bunga rozi emasman.* 2) ikki bosh bo'lakli: *Ibrohimov, **Qurbon ota aytmoqchi**, gullarni o'z ilmidan bahramand qildi.*

27-MAVZU.
GAPNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI. SODDA GAP

1-§. Sodda va qo'shma gaplar haqida umumiy ma'lumot

Gaplar tuzilish jihatdan ikki xil bo'ladi va ular o'zaro grammatik asoslar miqdoriga ko'ra farqlanadi:

1. Sodda gaplarda bitta ega va kesim munosabati, ya'ni bitta grammatik asos mavjud bo'ladi: *Dars boshlandi. Yomg'ir yog'madi. Bahor keldi.* Ba'zan sodda gap egasiz, faqat bitta kesimdan iborat bo'lib, boshqa bo'laklar shu kesim atrofiga birlashadi: *Bugun Moskvadan ukam bilan uchib keldim.*

2. Qo'shma gaplarda ikki va undan ortiq ega va kesim munosabati, ya'ni grammatik asos mavjud bo'ladi: *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.*

2-§. Sodda gaplar va ularning turlari

Sodda gaplar **eganing bor-yo'qligiga** ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Egasi ifodalangan (egali) gaplarda ega qatnashadi: *Biz maktabga bordik.*

2. Egasi ifodalanmagan (yashiringan) gaplarda ega ishtirok etmaydi, lekin uni tiklasa bo'ladi: *Ota-onalarga yordamlashdik.* (Biz)

Bunday gaplar o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

1) egasi(shaxsi) ma'lum gaplarning egasini kesimdagi shaxs-son qo'shimchalaridan, nutqiy vaziyatdan, gapning mazmunidan aniqlash mumkin. Yana bir belgisi shuki, bunday gaplarning kesimi 1- va 2-shaxs shaklida bo'ladi: *Ko'pdan beri bilib yuribman. Qurilishga kichkina niyat bilan kelmagansiz.(J.Abd.)* Bunday gaplarning kesimi tarkibida harakat nomi ishtirok etsa, uning tarkibida egalik qo'shimchasi mavjud bo'ladi: *Bu topshiriqni puxta bajarishi kerak.*

2) egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar mazmunan barchaga, umumga qaratilgan bo'ladi, kesimi 2- va 3-shaxs shaklida bo'ladi: *Bel olishsang, kuchli polvon bilan olish. (As.M.)* Maqollar ko'pincha shunday gaplar ko'rinishida bo'ladi: *Bugungi ishni ertaga qo'yma.*

3. Egasiz gaplarda ega umuman qatnashmaydi va uni tiklab ham bo'lmaydi. Bunday gaplar shaxs tushunchasining ifodalanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) shaxsi noma'lum gaplar egasini topib ham, gap tarkibiga kiritib ham bo'lmaydigan gaplardir: *U yerda intizom haqida so'zlashga to'g'ri keldi.* Shaxsi topilmas gaplarning kesimlari III shaxs majhul nisbatdagi fe'llar, ***bo'ladi, bo'lmaydi*** so'zlari orqali, ***-mas*** qo'shimchali so'z orqali, harakat nomidan keyin ***kerak, zarur, lozim, mumkin*** so'zlarini keltirish orqali ifodalanadi: *Majlisda intizom haqida gapirilsin. Muammoni shu yo'l bilan hal qilsa bo'ladi.* Bu gaplarning kesimi tarkibida harakat nomi ishtirok etsa, uning tarkibida egalik qo'shimchasi bo'lmaydi: *Bu topshiriqni puxta bajarish kerak.* Shu belgisi bilan bunday gaplar egasi(shaxsi) ma'lum gaplardan farq qiladi.

2) atov (nominativ) gaplar bosh kelishikdagi ot yordamida ifodalangan bo'ladi va narsa-buyumning borligini, mavjudligini anglatadi va ko'pincha badiiy va publitsistik asarlarda payt va o'rinni ifodalash uchun ishlatiladi: ***Kuz.*** *Izg'irin shabada esyapti.* Ba'zan atov gap tarkibida aniqlovchi ishtirok etadi yoki bunday gap kengaygan harakat nomi bilan ifodalanadi va natijada kengaygan atov gaplar hosil bo'ladi: ***Qorongi tun.*** *Ikki qadam narini ko'rib bo'lmaydi.* ***Erta turish.*** *Ko'pchilik uchun bu naqadar qiyin ish.* Atov gaplar matnda yolg'iz qo'llanmaydi, ulardan keyin uning mazmunini ochuvchi boshqa bir gap kelishi shart.

Atov gaplarning oxiriga, odatda nuqta qo'yiladi, agar kuchli ohang bilan aytilsa, undov belgisi qo'yiladi: *Tog'lar! Baland tog'lar!*

3) so'z-gaplar tarkibida gap bo'laklarini ajratish mumkin bo'lmaydigan, inson his-tuyg'ularini yoki turli ma'nolarni ifodalaydigan yakka so'zlardan iborat gaplardir: *Ertaga unikiga borasizmi? -* ***Ha.***

So'z-gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) modal so'z-gaplar qat'iy ishonch, taxmin, gumon ma'nolarini ifodalab keladigan gaplardir: *- Ertaga kelasizmi? –* ***Albatta.***

2) undov so'z-gaplar his-tuyg'u va haydash-chaqirish yoki javob ma'nolarini ifodalaydigan gaplardir: *-* ***Oh****, - dedi-yu, sekin divanga o'tirib qoldi.*

3) tasdiq so'z-gaplarga *ha, mayli, xo'sh, xo'p* kabi so'zlar kiradi;

4) inkor so'z-gaplarga *yo'q, mutlaqo, aslo, sira, aksincha* so'zlari kiradi;

5) taklif so'z-gaplar tinglovchiga qaratilib, biror ish-harakatni bajarishga undaydigan gaplardir. Bularga *ma, mang, qani, marhamat* kabi so'zlar kiradi. Yozuvda so'z-gaplarning oxiriga nuqta, undov belgisi, ko'p nuqta qo'yilishi mumkin. *Ha, yo'q, mayli* so'zlaridan keyin vergul qo'yilib, keyin gap bo'laklari qo'llansa, bu so'zlar kirish so'zlarga aylanadi va so'z-gaplar hisoblanmaydi: *– Kecha muzeyga bordingizmi? –* ***Ha****, bordik.*

Ofarin, tashakkur, rahmat, barakalla, salom, marhamat, uzr kabi so'zlar bilan ifodalanib, minnatdorlik, salomlashish, kechirim, iltimos kabilarni ifodalaydigan gaplar ham **so'z-gaplar** hisoblanadi.

3-§. Yig'iq va yoyiq sodda gaplar

Sodda gaplar tarkibida ikkinchi darajali bo'laklarning bor-yo'qligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Yig'iq sodda gaplar tarkibida faqat bosh bo'laklargina mavjud bo'ladi: *O'quvchilar yig'ildilar.* Ba'zan ega va kesim birikma bilan ifodalanib, kengayib keladi va ikkinchi darajali bo'laklar borga o'xshab ko'rinadi, lekin bu gaplar ham yig'iq gaplar hisoblanadi: *Yigit ham shunaqa bo'ladimi? Ikki dugona termilib qolishdi.*

2. Yoyiq sodda gaplar tarkibida bosh bo'laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklar ham qatnashadi: *Bir guruh o'quvchilar darsdan so'ng maydonga yig'ilishdi.*

4-§. To'liq va to'liqsiz gaplar

Fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan gap bo'laklarining barchasi qatnashgan gaplar **to'liq gaplar** deyiladi: *Ulardan xat keldimi?*

Nutq vaziyatidan ma'lum bo'lgan ayrim bo'laklari tushirilgan gaplar **to'liqsiz gaplar** deyiladi: *– Siz maktabga borasizmi? –* ***Boraman*** (ega - *men*, hol – *maktabga* tushirilgan).

To'liqsiz gaplarning turlari: **1) dialogik nutq tarkibidagi**: *Kim kelmadi? -* ***Ahmad.*** **2) ibora tarzidagi:** *Tug'ilgan kuningiz bilan!*

Navro'zingiz muborak! **3) qo'shma gap tarkibidagi:** *Yaxshidan ot qoladi, **yomondan dod** (qoladi).*

To'liqsiz gaplar suhbatda, so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ko'proq qo'llanadi. Qaysi bo'lakning tushirilishi nutq vaziyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Sodda gap tahlili	
1. Gap bo'laklari aniqlanib, tagiga chiziladi va ustiga turi yoziladi. *2. Uyushiq va ajratilgan bo'laklar bo'lsa, turlari aniqlanadi.* *3. Gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan "bo'laklar" bo'lsa, turi aniqlanadi.* *4. Gap bo'laklarining joylashuv tartibi aniqlanadi.*	*5. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi aniqlanadi.* *6. Gapning his-hayajon ifodalashiga ko'ra turi aniqlanadi.* *7. Yig'iq yoki yoyiq sodda gapligi aniqlanadi.* *8. To'liq yoki to'liqsizligi aniqlanadi.* *9. Egali yoki egasizligi (uning turlari) aniqlanadi.*

SODDA GAP TAHLILI

1. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi (so'z birikmasi) bo'yicha.
2. Gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha.
3. Gap qurilishi bo'yicha.

GAPDA SO'ZLARNING BOG'LANISHI BO'YICHA TAHLIL

1. Birikmaning teng bog'lanishdagi yoki tobe bog'lanishdagi turi.
2. Tobe bog'lanish bo'lsa, tobelanish turi (moslashuv, boshqaruv, bitishuv).
3. Teng yoki tobe bog'lanishni yuzaga keltirgan vositalar (bog'lovchilar, ohang, so'z shakllari, ko'makchilar, so'z tartibi) aniqlanadi.

GAP BO'LAKLARINI ANIQLASH BO'YICHA TAHLIL

1. Gap bo'laklari belgilanadi, uyushiq va ajratilgan bo'laklar bor yoki yo'qligi izohlanadi.
2. Gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmagan "bo'laklar" (kiritma, kirish gap, undalmalarning mavjud yoki mavjud emasligi) ko'rsatiladi.
3. Gap bo'laklarining joylashuv tartibi (me'yoriy tartibda yoki o'zgargan tartibda) izohlanadi.

GAP QURILISHI BO'YICHA TAHLIL

1. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi (darak, so'roq, buyruq, istak).
2. Gapning his-hayajonning ifodalanishiga ko'ra turi (his-hayajonsiz yoki his-hayajonli (undov) gap).
3. Yig'iq yoki yoyiq sodda gapligi, to'liq yoki to'liqsiz gapligi, egali yoki egasiz gapligi; egasiz gap bo'lsa, uning shaxsi ma'lum gap, shaxsi noma'lum gap, shaxsi umumlashgan gap, shuningdek, atov gap, so'z-gapligi izohlanadi.

28-MAVZU.

QO'SHMA GAP VA UNING TURLARI. BOG'LANGAN QO'SHMA GAP

1-§. Qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot

Ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap **qo'shma gap** deyiladi: *Dekabr boshlanib, qish o'z hukmini o'tkaza boshladi.*

Sodda gap tarkibida bitta ega va kesim birligi ishtirok etsa, qo'shma gap tarkibida ikki va undan ortiq ega va kesim birligi (ya'ni grammatik asos) qatnashadi.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

1) bog'lovchilar (teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar);

2) bog'lovchi vazifasidagi vositalar (yuklamalar, *bo'lsa, esa, deb* so'zlari, nisbiy so'zlar, ko'makchili qurilmalar, fe'l shakllari);

3) ohang.

Mazmun munosabati va bog'lovchi vositalarining qo'llanishiga ko'ra qo'shma gaplar 3 xil bo'ladi: **bog'langan qo'shma gaplar, ergash gapli qo'shma gaplar** va **bog'lovchisiz qo'shma gaplar.**

2-§. Bog'langan qo'shma gaplar va ularning turlari

Teng munosabatdagi sodda gaplarning o'zaro teng bog'lovchilar yoki shu bog'lovchilar vazifasidagi vositalar yordamida bog'lanishidan tuzilgan qo'shma gap **bog'langan qo'shma gap** deyiladi: *Kechasi qalin qor yog'di, lekin havo sovimadi.*

Tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro mazmun munosabatiga ko'ra bog'langan qo'shma gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar:

Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o'zaro *va, hamda* bog'lovchilari, *ham, -u(-yu), -da* yuklamalari yordamida bog'lanadi va payt hamda sabab-natija munosabatlarini ifodalaydi, shuning uchun ikkinchi qism oldidan "***natijada***" so'zini keltirish mumkin:[57] *Mashg'ulotlar tugadi va hamma o'z uyiga tarqaldi. Odam qo'li tegdi-yu, tashlandiq yerlar obod bo'ldi. Qattiq izg'irin ko'tarildi-da, hech kim uydan chiqmay qo'ydi.*

2. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi. Bunday gaplar tarkibidagi sodda gaplar o'zaro *ammo, lekin, biroq* bog'lovchilari, *-u(-yu), -da* yuklamalari yordamida bog'lanadi: *Yurtimizning bu kuni chiroyli, lekin ertasi, indini yana chiroyliroq, baxtliroq bo'ladi. Havo ochildi-yu, harorat sezilmadi.*

[57] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2010. – 24-bet.

Ba'zan zidlik mazmunini kuchaytirish uchun zidlov bog'lovchisi va bu vazifada qo'llangan *-u(-yu)* yuklamasi birga ishlatiladi: *Kechasi qor yog'di-yu, lekin havo unchalik sovimadi.* Yozuvda zidlov bog'lovchilaridan oldin, yuklamalardan keyin vergul qo'yiladi.

3. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar va ularda vergulning ishlatilishi. Bunday gaplardagi sodda gaplar o'zaro ayiruv bog'lovchilari *goh...goh, yo...yo, yoki...yoki, ba'zan...ba'zan, dam...dam, yoxud...yoxud* yordamida bog'lanadi. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar voqea-hodisalarning galma-gal bo'lishini yoki ulardan biri bo'lishini ifodalaydi: *Goh osmonni tutib ashula yangrar, goh allaqayerdan garmon tovushi eshitilib qolar edi.*

Takrorlanib qo'llangan ayiruv bog'lovchilarning ikkinchisidan oldin vergul qo'yiladi, ayiruv bog'lovchilari yakka qo'llansa, sodda gaplar o'rtasida hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi.

4. Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gaplar. Bunday gaplar qismlari o'zaro ***na*** inkor yuklamasi orqali bog'lanadi va orasiga vergul qo'yiladi: *Na suv bor, na biron yemish qolibdi.*

5. *Bo'lsa, esa* so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar.

Bunday qo'shma gaplar qismlari o'rtasida zidlash yoki qiyoslash munosabatlari ifodalanadi, ***bo'lsa, esa*** so'zlari qiyoslanuvchi so'zdan keyin keladi:[58] *Ertoyev qo'llarini siltab va'z aytmoqda, ular **esa**, ichki bir tug'yondan qaltirab, cho'yan haykalday qotib turishardi. (O.Y.)*

29-MAVZU.
ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

1-§. Ergashgan qo'shma gaplar haqida umumiy ma'lumot

Ikkita sodda gapning mazmun jihatdan tobe-hokim munosabati asosida, ya'ni birining boshqasiga ergashishidan tuzilgan qo'shma gap **ergash gapli qo'shma gap** deyiladi: *Ildiz oziq bersa, novda ko'karar.* Ergashgan qo'shma gapda bosh gap va ergash gap bo'ladi.

Boshqa gapni o'ziga tobe qilib kelgan gap **bosh gap** hisoblanadi. Bosh gapga ergashib, uni izohlab kelgan gap **ergash gap** deyiladi: *Ukam kelgandan keyin, mashg'ulotni boshlaymiz.* Bu gapda *Ukam kelgandan keyin* gapi ergash gap, *mashg'ulotni boshlaymiz* gapi esa bosh gap; ergash gap bosh gapni vaqt jihatidan izohlayapti. Ergash gap bosh gapni butunicha yoki uning biror bo'lagini izohlaydi: *Rais kirgach, hamma tinchlandi* gapida ergash gap bosh gapni butunicha izohlayapti. *Siz shuni unutmangki, kurashchilar yolg'iz emas* gapida esa ergash gap bosh gap tarkibidagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchini (*shuni*) izohlayapti. Ergash gap bosh gapdan oldin, undan keyin yoki uning ichida kela oladi: *Biz, **hamma yig'ilgach**, yo'lga tushamiz.* Bu gapda ergash gap bosh gap ichida kelgan.

[58] N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2010. – 30-bet.

Ergash gaplar bosh gaplarga *chunki, shuning uchun, -ki, agar, garchi, mabodo, go'yo(ki)* kabi ergashtiruvchi bog'lovchilar, fe'lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari, shuningdek, yuklama, ko'makchilar, turli vazifadagi ko'rsatish olmoshlari, *kim - u, qanday – shunday, qancha – shuncha, qaysi – o'sha, qayerda – u yerda* kabi bir-biriga ishora ma'nosini bildiradigan so'roq olmoshlari va ko'rsatish olmoshlaridan iborat nisbiy so'zlar, *sababli, tufayli, deb* so'zlari orqali bog'lanadi: *1. Biz kitobni sevamiz, **chunki** u bilim manbaidir. 2. Hosil to'kin bo'lsa, to'ylar to'xtamas.*

Diqqat! Kesimi tarkibida ***–ki,*** tarkibida ***shuning uchun*** bog'lovchisi qatnashgan gaplar **ko'pincha** bosh gap hisoblanadi, kesimi tarkibida ***–sa, -sa ham, -b(-ib), -gach, -guncha, -ganda, -r(-ar) ekan*** bog'lovchi vositalari, shuningdek, ko'makchilar, ***chunki, agar, go'yo(ki), toki*** bog'lovchilari qatnashgan gaplar esa **har doim** ergash gap hisoblanadi.

2-§. Bog'lovchi vositalariga ko'ra ergashgan qo'shma gaplarning turlari[59]

1. Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar qismlari o'zaro **sabab, maqsad, qiyoslash-chog'ishtiruv** bog'lovchilari orqali bo'langanda, bu bog'lovchilar bosh gapdan keyin kelgan ergash gap boshida keladi: *Gulsun opa hammadan ko'ra bu odamning mana shunday kishi ko'nglini ovlamoqchi bo'lishidan qo'rqardi, **chunki** buning tagida hamisha bir yomon gap, bir sovuq xabar yotardi.(O.Y.) Yomonlarning jazosini berish kerak, **toki** ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasinlar. (H.G'.)*

Shart bog'lovchilari vositasida bog'langanda, bu bog'lovchilar bosh gapdan oldin kelgan ergash gap boshida keladi: ***Agar** Murodjonimning yoniga yuborishadigan bo'lsa, sira o'ylanib o'tirmasdim. (O.Y.)*

2. Ko'makchili qurilmali ergashgan qo'shma gaplar qismlari bosh gap tarkibida keladigan ***shuning uchun, shu sababli, shu bois(dan), shu tufayli*** kabi qurilmalar orqali bog'lanadi: *Zinnatullanning ishi shoshqich emas, **shu bois** ikkinchi hukm unga nasib etdi. (T.Malik)*

3. *Deb (yoki **uchun)* so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplar** qismlari ergash gap tarkibida keladigan ***deb*** so'zi orqali bog'lanadi: *Sharif ham shunday o'ylamasin **deb**, hanuz gapirganim yo'q. (A.Q.)*

4. Shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplar qismlari ergash gap kesimi tarkibida keladigan ***–sa*** qo'shimchasi vositasida bog'lanadi: *Bola o'qi**sa**, foydasi o'ziga, keyin ota-onasiga tegadi. (O.)*

5. Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplar qismlari bosh gap tarkibida keladigan ko'rsatish olmoshi va ***-ki*** yuklamasi orqali bog'lanadi: *Alam qiladigan yeri **shuki**, bu qo'rg'onni ko'z oldimizda tiklashdi. (T.Malik)*

6. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar qismlari bosh va ergash gaplar tarkibida "savol-javob" juftligini hosil qilib, bir-biriga nisbatan

[59] *Tasnif olindi:* N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2010. – 38-47-betlar.

qo'llanuvchi ***kim - u, nima - o'sha, qanday - shunday, qayerda - o'sha yerda, qaysi - o'sha, qancha - shuncha, qanday – shunday*** kabi nisbiy so'zlar va *–**sa*** qo'shimchasi yordamida bog'lanadi: ***Kimki*** *boshqalar taqdiriga o'z taqdiridek, boshqalar shodligi va qayg'usiga o'z shodligi va qayg'usidek qarar ekan,* ***u*** *chinakam insondir. (M.Ism.)*

3-§. Bosh gapni qanday izohlashiga ko'ra ergash gaplarning turlari

1. Ega ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan egani izohlagan ergash gapdir. Ega ergash gap bosh gap bilan birgalikda **ega ergash gapli qo'shma gap** hisoblanadi. Ega ergash gap *-ki* bog'lovchisi va fe'lning shart mayli qo'shimchasi *-**sa*** hamda so'roq va ko'rsatish olmoshlari ***(kimki – u, kimki – o'sha, kimki- o'zi, nima – o'sha, nimaiki – hammasi)*** yordamida bog'lanadi: *Kimki yomonlar suhbatidan qochsa, u yaxshilar suhbatiga erishadi.* Ba'zan bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan ega tushirilishi mumkin: *Sizga ayonki, siz o'z oilangizdasiz.* Bu gapda ***shu*** (ega) tushirilgan. Sxemasi quyidagicha:

1. Kim .....-sa, u .....
2. Kim .....-sa, o'zi .....
3. Kimki .....-sa, u .....
4. Kimda-kim .....-sa, u .....
5.Nimaiki .....-sa, o'sha ..... .
6.Nima.....-sa, o'sha.....
7. Shunisi .....-ki, ...
8. .....-ki, ...

2. Kesim ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimni izohlagan ergash gap bo'lib, u bosh gap bilan birgalikda kesim ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi: *Ikkinchisi shuki, xalq boshiga ko'p ofat keltirgan Andijon zilzilasi Qorabuloqni suvdan mahrum qilib qo'ydi. (M.Ism.)* Kesim ergash gaplar bosh gapga ***-ki*** bog'lovchisi, o'rin-payt yoki bosh kelishikdagi ***shu*** olmoshi yordamida bog'lanadi. Ba'zan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesim tushiriladi: *Yaxshisi, sen darsingni tayyorlagin.* Sxemasi quyidagicha:

1.....shuki, ...
2.....shu yerdaki, ...
3.....shundaki, ...
4. ..... shundayki, ...

3. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan to'ldiruvchini izohlaydigan ergash gapdir. To'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi. To'ldiruvchi ergash gap, odatda, bosh gapga ***-ki*** bog'lovchisi, shart mayli qo'shimchasi ***-sa*** yordamida bog'lanadi. *Shuni bilingki, har bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi. Kimda gumoning bo'lsa, uni ko'zdan qochirma.(O.)* Bosh gap tarkibida *shuni, shunga, shundan* kabi to'ldiruvchilar qatnashadi. Ba'zan bu to'ldiruvchilar tushirilishi mumkin.

Iltimos qilamanki, oldin rais so'zlasinlar. Bu gapda *shuni* tushirilgan. Sxemasi quyidagicha:

1. Shuni.....-ki, ...
2. Shundan.....-ki, ...
3. Shunga.....-ki, ...
4. .....-ki, ...
5. Nima (ni) .....sa, shuni ..... .
6. Kimda.....-sa, uni.....
7. Nima bilan.....-sa, o'shani.....
8. Buni...:.....-ki, ...

4. Aniqlovchi ergash gap bosh gapda aniqlovchi bo'lib kelgan olmosh va ayrim sifatlarni izohlab kelgan ergash gapdir. Aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap deb yuritiladi. Aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan ***-ki*** bog'lovchisi (bunda bosh gap tarkibida ko'pincha aniqlovchi bo'lib kelgan *shunday, ayrim, ba'zi* so'zlari ishtirok etadi) yoki shart mayli qo'shimchasi *-**sa*** (bunda ergash gap tarkibida *qanday, qaysi, kimning* kabi olmoshlar, bosh gap tarkibida esa *shu, shunday, o'sha, uning, ba'zi, bir xil, ayrim, bir, bir qancha* kabi olmoshlar bo'ladi) yordamida bog'lanadi: *1. Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi gavhardir. 2. Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri.* Ba'zan bosh gapdagi aniqlovchi tushirilishi mumkin: *Odam borki, hayvon undan yaxshiroq.* Sxemasi quyidagicha:

1. Shunday.....-ki, ...
2. ..... shunday.....-ki, ...
3. ...shunday....-ni....-ki, unday .. .
4. .....shunday (aniql.) .....-ki, ...
5. .....shunday(hol).....-ki, ...
6. ....qaysi..... – sa, o'sha..... .

5. Ravish ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirgan ergash gapdir. Ravish ergash gap bosh gap bilan birga ravish ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi: Bog'lovchi vositalar: *-b(-ib), -may, -masdan, deb. Yulduzlar bitta-bitta so'nib, ufq oqara boshladi. Naimiyning biror ishi o'ngidan kelmasdan, umri bekorga o'tib ketdi.(As.M.) Chambil obod bo'ldi deb, kelayotir Avazxonday zo'ravon.(F.Y.)* Sxemasi quyidagicha:

1.....-ib, ...
2. .....-may, ...
3.....-masdan, ...
4. .....deb, ...

6. Payt ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning paytini bildirgan ergash gapdir. Payt ergash gap bosh gap bilan payt ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi: *U kelguncha, hamma tarqalgan edi. Otliqlar jarlik osha tepaliklardan ko'tarilgandan keyin, cho'l boshlandi. Sobirjon priyomnikni endi qo'ygan edi, eshik taqillab qoldi. Qushlar to'p-to'p bo'lib uchsa, havo ochiq bo'ladi.* Sxemasi quyidagicha:

1. .....-ganda, ...
2. .....-gan zahoti, ...
3. .....-gan vaqtda, ...
4. .....-gan paytda, ...
5. .....-gan zamon, ...
6. .....-gandan keyin, ...
7. .....-gunga qadar, ...
8. .....-gan edi, ...
9. .....-ganicha yo'q edi, ...
10. .....-ar ekan, ...
11. .....-sa, ...
12. .....-masdan avval, ...
13. .....-ib, ...
14. .....-gach, ...
15. .....-guncha, ...
16. .....-may, ...
17. .....-ishi bilan(oq),..... .

7. O'rin ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiradigan ergash gapdir. U bosh gap bilan birgalikda o'rin ergash gapli qo'shma gap deyiladi: *Qayerda intizom kuchli bo'lsa, shu yerda tartib bo'ladi.* Bog'lovchi vositalar: *-sa (qayerdan, qayga, qayerga, qayerda, shu yerda, o'sha yerda, shunda, shu yerga, shu yerdan, u yerda) –mang, -masin, ekan: Qayerda suv bo'lsa, o'sha yerda hayot bo'ladi.* Sxemasi quyidagicha:

1.....qayerga ...-sa, o'sha yerga.....
2. ....qayerda ...-sa, o'sha yerda, ...
3.....qayga.....-sa o'sha yerda, ...
4.....-mang, u yerda ..... .
5. .....-masin, o'sha yerda.....
6. .....qayerda, shu yerda.....

8. Sabab ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga sabab ergash gapli qo'shma gap deb nomlanadi. *Qayrilishlar tobora ko'payib, mashinaning tezligi susaya boshladi. Bu uylar ilgari bedaxona bo'lganidan, darchasi ham yo'q edi.* Sxemasi quyidagicha:

1. .....,shuning uchun.....
2. .....-ganidan ..... .
3. .....-gani uchun, ...
4. .....-ganidan keyin,..... .
5. .....-ganidan so'ng,.....
6. .....shekilli, ...
7. .....-gunga qadar, ...
8. .....-gan bo'lsa kerak..... .
9. .....-mi, ...
10. ....., chunki ..... .
11. ....., negaki..... .
12. .....-masdan avval, ...
13. ....., sababki..... .
14. .....-gach, ...
15. .....shuning uchun.....-ki, ...
16. .....-may, ...
17. .....-ki, ...
18. .....-ib, ...

9. Maqsad ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish- harakatning nima maqsadda yuzaga kelishini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga maqsad ergash gapli qo'shma gap deb nomlanadi. Bog'lovchi vositalar: *deb, -sin deb, -di deb, -ar deb, -sa deb, -mi ekan (deb, deya,*

uchun), toki: Odamlar yaxshi yashasin deb, tinchlikka imzo chekdik. G'o'za miriqib ichsin uchun, suv tekis oqizildi. Sxemasi quyidagicha:

1.....deb, ...
2. .....-sin deb, ...
3. .....-di deb , ...
4. .....-ar deb, ...
5. .....-sa deb, ...
6. .....-mi ekan deb, ...
7. .....-deya, ...
8. .....uchun, ...
9. ..... , toki..... .
10. ....., ...-sin deb.

10. Shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan bajarilishini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga shart ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi. Bog'lovchi vositalar: *-sa, -sa edi, agar, mabodo, bordi-yu, -ganda(edi), -r(-ar) ekan, -gan ekan, -mi, bo'lmasa, yo'qsa, -may, bo'lay desang, -sinki: Agar suv bo'lsa, cho'l-u sahrolar bo'stonga aylanadi.* Sxemasi quyidagicha:

1. (Agar) .....-sa, ...
2. (Agar).....-sa edi, ...
3. (Agar).....-ganda, ...
4. (Agar).....-ganda edi, ...
5. (Bordi-yu).....-r(-ar) ekan, ...
6. (Mabodo).....-gan ekan, ...
7. (Agar).....-moqchi ekan, ...
8.....-mi, ...
9. ....., bo'lmasa ..... .
10. ....., yo'qsa ..... .
11. .....-may, ...
12. .....-masdan avval, ...
13. .....bo'lay desang, ...
14. .....-sinki, ...

11. To'siqsiz ergash gap bosh gapning mazmuniga zid bo'lsa ham, unda ifodalangan voqea-hodisaning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmaydigan fikrni anglatgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Bog'lovchi vositalar: *-sa ham(ki), qancha, qanchalik, naqadar, garchi, garchnd, -ganda ham, -sa-da, -ganda-da, -gani bilan, -masin, qaramay, qaramasadan, -i(ib), -gani holda, -di hamki, xoh...xoh (-sa -masa), -sa: Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali so'nmagan edi.* Ba'zan *garchi* so'zi qo'llanishi mumkin. Sxemasi quyidagicha:

1. Qancha .....-sa ham, ...
2. Qancha ....-sa hamki, ...
3. .....-ganda ham, ...
4. .....-sa-da, ...
5. .....-gani bilan, ...
6. .....-masin, ...
7. .....-qaramay, ...
8. .....qaramasdan, ...
9. .....-gani holda,..... .
10. .....hamki, ...
11. Xoh.....xoh..., ...
12. .....-sa...-masa, ...
13. .....-sa... -diki, ...
14. .....-sa, ...

12. Miqdor-daraja ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish miqdor-darajasini bildirgan ergash gapdir. Bu gaplar bosh gap bilan birga miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap deb yuritiladi: *U qancha qizishsa, men shuncha sovuqqon tus olardim.*

1.....qancha.....-sa, ...shuncha....
2....qanchalik...-sa, shunchalik..
3. ...qancha.....-sa, ...shunchalik.... .
4. qanchalik..-gan sayin,..shunchalik..

13. O'xshatish ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilishini o'xshatish yo'li bilan bildirgan gapdir. U bosh gap bilan birga o'xshatish ergash gapli qo'shma gap deb nomlanadi: *Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi.* Sxemasi quyidagicha:

1. .....kabi, ...
2. .....-day, ...
3. .....-singari, ...
4. ..... yanglig', ...
5. .....-ki, go'yo ..... .
6. .....-ki, xuddi..... .
7. Go'yo.....-ganday, ...
8. .....degandek, ...
9. ....qanday....-sa, shunday ..... .
10. .....-guncha, ...
11. .....-gandan ko'ra, ...
12. .....-ishdan ko'ra, ...

14. Natija ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga natija ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Natija ergash gap bosh gapga ***-ki*** bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Bosh gap tarkibida *shunday, shu qadar, shunchalik, shu darajada, shuncha, chunon* kabi so'zlar, ergash gaplar tarkibida esa *natijada, oqibatda, hatto* kabi so'zlar qo'llanishi mumkin: *Do'l bir zumda shunday yog'diki, yer oppoq bo'lib ketdi. Azimboy shunday zulm o'tkazdiki, oqibatda xalqning sabr-kosasi to'ldi.* Sxemasi quyidagicha:

1. ...shunday.....-ki, natijada.... .
2. ...shu qadar....-ki, oqibatda... .
3. ...shunchalik.....-ki, ...
4. ...shu darajada.....-ki,..... .
5. ...shuncha.....-ki, ...
6. ...chunon.....-ki, ...

4-§. Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gaplar bilan ma'nodoshligi

Yuqorida ko'rib o'tilgan **ega, kesim, to'ldiruvchi** va **aniqlovchi ergash gapli** qo'shma gaplar mazmunan sodda gaplarga ma'nodosh bo'lishi mumkin. Bunda ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi o'rniga qo'yiladi, natijada qo'shma gap sodda gapga aylanadi:

1. Ega ergash gapli qo'shma gap sodda gapga aylanadi: *Shunisi achinarliki, ular g'animat umrlarini g'iybat bilan o'tkazib, jamiyat nafi*

uchun arzirli biron narsa qilmaydilar.(M.Ism.) - *Ularning g'animat umrlarini g'iybat bilan o'tkazib, jamiyat nafi uchun arzirli biron narsa qilmasliklari achinarli.*

2. Kesim ergash gapli qo'shma gap sodda gapga aylanadi:

Ajablanarli yeri shundaki, tor ko'ngil daladan panoh izlamoqda edi. (T.Malik) - *Tor ko'ngilning daladan panoh izlashi ajablanarli edi.*

3. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap sodda gapga aylanadi: *Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo'tabar bolsin. (O.)* - *Biz butun el qoshida manzur va mo'tabar boladigan kutubxona bino qilaylik.*

4. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap sodda gapga aylanadi: *Kim mendan sir yashirsa, o'shanga qiziqaveraman. (T.Malik)* - *Mendan sir yashirgan odamga qiziqaveraman.*

Misollardan ko'rinyaptiki, ergash gap sodda gap tarkibida murakkab bo'lakka aylanar ekan.

30-MAVZU.

BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP. MURAKKAB QO'SHMA GAP. KO'CHIRMA GAPLI QO'SHMA GAP. O'ZLASHTIRMA GAP

1-§. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ularning turlari

Maxsus bog'lovchi vositalarsiz, asosan ohang yordamida birikkan sodda gaplardan tuzilgan qo'shma gaplar **bog'lovchisiz qo'shma gaplar** deyiladi: Bunday qo'shma gap qismlari ohangdan tashqari ayrim so'zlarning takrorlanishi, gap qurilishi, umumiy bo'laklar vositasida birikadi: *Kech kirdi, tevarak-atrofga qorong'ilik tusha boshladi.* Bu qo'shma gapdagi sodda gaplar o'zaro faqat ohang yordamida bog'langan, ularning o'rnini almashtirib bo'lmaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap: *Tig' yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi.* Bu gapni zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gapga aylantirish mumkin: *Tig' yarasi tuzaladi, **lekin** til yarasi tuzalmaydi.*

2. Ergashgan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap: *Qor yog'di – don yog'di.* Bu gapni o'xshatish ergash gapli qo'shma gapga aylantirish mumkin: *Qor yog'di, go'yo don yog'di.*

3. Bog'lovchili qo'shma gapga sinonim bo'lmagan bog'lovchisiz qo'shma gap: *Xushxabar olib keldim: garnizon yanchildi.(Sh.)*

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibida tinish belgilari quyidagicha qo'llanadi:

1. Agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket yuz bergan voqea-hodisalarni ifodalasa, ular orasiga vergul qo'yiladi: *Arava g'ijirlab borar, aravakash xirgoyisini bir zumga ham to'xtatmas edi.*

2. Agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro mazmunan bir-biridan ancha uzoq bo'lsa, ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi: *Yomg'ir chelakdan quyganday sharillab yog'ardi; uning xayoli uzoq yoshlik paytlarida kezar edi.*

3. Bog'lovchisiz qo'shma gapning ikkinchi qismi birinchi qismning sababini bildirsa, izohlasa, to'ldirsa, ular orasiga ikki nuqta qo'yiladi: *Gap shu: ertaga men bilan yo'lga chiqasiz.*

4. Agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro zidlik yoki o'xshashlik munosabatiga kirishgan bo'lsa, ular orasiga tire qo'yiladi: *Qor yog'di – don yog'di. Yoshim yetmish ikkida – o'zim yigitman.*

2-§. Qo'shma gap turlarining o'zaro ma'nodoshligi

Qo'shma gaplarning har uchala turida (bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz) ham zidlik, sabab, shart, payt munosabatlari ifodalanishi mumkin: *Yomg'ir tindi va biz safar anjomlarini tayyorlay boshladik.* (bog'langan qo'shma gap) – *Yomg'ir tindi, shuning uchun biz safar anjomlarini tayyorlay boshladik.* (ergashgan qo'shma gap) – *Yomg'ir tindi, biz safar anjomlarini tayyorlay boshladik.* (bog'lovchisiz qo'shma gap)

3-§. Murakkab qo'shma gaplar haqida umumiy ma'lumot

Nutqimizda kamida uchta sodda gapning bog'lanishidan tuzilgan qo'shma gaplar ham mavjud. *Qo'lidagi bo'r tushib singandan keyin(1), butun sinf qah-qah urib kulib yuborgach(2), u o'ziga keldi(3). (J.Abd.)* Bunday gaplar **murakkab qo'shma gaplar** deb yuritiladi. Bu gaplarning qismlari turli ko'rinishlarda bog'lanishi mumkin, shu jihatdan ular quyidagi 4 guruhga bo'linadi:[60]

1. Bir necha ergash gapli qo'shma gap

Birdan ortiq ergash gap bir bosh gapga tobelanib kelsa, **bir necha ergash gapli qo'shma gap** deyiladi. Bunday gaplar tarkibidagi ergash gaplar bosh gapdan, shuningdek, bir-biridan vergul bilan ajratiladi: *Tomosha zaliga kirganimda, chiroq o'chib, parda projektor nurida porlab turardi.*

Bunday gaplardagi ergash gaplar bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

1. To'g'ridan-to'g'ri ergashish (birgalik ergashish). Ergash gaplarning har biri to'g'ridan-to'g'ri bosh gapga bog'lansa, **birgalik ergashish deyiladi.** Bunday gaplardagi ergash gaplar: 1) bir xil ergash gaplar (uyushgan) bo'ladi: *Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta*

[60] *Tasnif olindi:* N.Mahmudov va boshq. Ona tili (Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Tasvir, 2010. – 68-bet.

ham ko'payadi. 2) har xil ergash gaplar (uyushmagan) bo'ladi: *Bordi-yu, rost bo'lsa, hammasi emas, yarmi rost bo'lganda ham, juda xunuk gap-ku!*

2. Ketma-ket ergashish. Har bir ergash gap to'g'ridan-to'g'ri bosh gapga bog'lanmasdan, biri ikkinchisiga ketma-ket bog'lansa, **ketma-ket ergashish** deyiladi. Bunday gaplar tarkibida turli xil ergash gaplar qatnashadi: *Bahorda havo noqulay kelib, g'o'zaning parvarishi kechikkan bo'lsa ham, hosil mo'l bo'ldi.*

2. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar

Bunday gaplar tarkibida ikki va undan ortiq bosh gap bitta ergash gapga bog'langan bo'ladi: *Tog' va osmon shunday tiniq**ki**, nafas olish shunday yengil**ki**, keksa odam ham bu yerda musaffo bolalik yillarini eslaydi.*

3. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar

Bunday gaplar tarkibida uchta va undan ortiq sodda gap o'zaro bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'langan bo'ladi: *Bu sahroda maysalar ham, chechaklar ham yo'q, qushlar, bulbullar ham sayramaydi, buloqlar qaynab toshmaydi.*

4. Aralash murakkab qo'shma gaplar

Tarkibida ham ergashgan qo'shma gap, ham bog'langan qo'shma gap yoki bog'lovchisiz qo'shma gap ishtirok etgan gaplar **aralash turdagi qo'shma gaplar** deyiladi. Bunday qo'shma gaplar to'rt va undan ortiq sodda gaplardan ham tashkil topadi: *Eshik birdan taraqlab ochildi, shuning uchun hamma qayrilib qaradi, lekin hech kim kirmadi; sovuq havo xonani qopladi.*

4-§. Ko'chirma gap va muallif gapi haqida umumiy ma'lumot

Muallif o'z nutqida boshqalar ifodalagan fikrlardan ham foydalanishi mumkin. Bunday fikrlar **ko'chirma gap** va **muallif gapi** vositasida beriladi. Ko'chirma gap va muallif gapi tarkibiy jihatdan qo'shma gapga o'xshaydi, shuning uchun bunday qurilmalar **ko'chirma gapli qo'shma gap** deb ataladi: - *Qudrat akamning cho'ldan oladigan alamlari bor, - qo'shib qo'ydi Gulchiroy. (J.Abd.)*

O'zgalarning hech o'zgarishsiz berilgan gapi **ko'chirma gap** deyiladi. Shu gapni o'z nutqida keltirayotgan shaxsning gapi **muallif gapi** hisoblanadi. Ana shu ikkita gap ko'chirma gapli qo'shma gapning doimiy qismlari hisoblanadi. Muallif gapining kesimi ***dedi, deb so'radi, deb javob berdi, gapirdi, so'zladi, aytdi*** kabi fe'llar bilan ifodalandi. Ko'chirma gaplar so'zlashuv va badiiy uslublarda ko'p ishlatiladi. Ko'chirilgan gap

muallif gapidan avval, undan keyin, uning ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin: *"Mehnat ishtaha ochar", – deydi bobom. Cho'pondan so'radik: "Bu qo'ylar kimning qo'yi?" "Men, – dedi u, – ertaga kelaman". Bosh injener nihoyatda bosiqlik bilan: – Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo'q, – dedi.(J.Abd.)*

Ko'chirma gapli qo'shma gaplarning ko'chirma gap qismi turli qo'shma gaplar shaklida bo'lishi mumkin: *O'z aybiga iqror bo'lib, dedi: – Ko'rinib turibdiki, men shu kun chap yonim bilan turgan ekanman.*

Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

Ko'chirma gap qo'shtirnoq ichiga olinadi, badiiy asarlarda tire bilan ajratib beriladi.

Ko'chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi quyidagicha bo'ladi:

1. Ko'chirma gap darak gap bo'lib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qo'yiladi: *"Yuring, men o'sha tomonga boraman", - dedi Komila* (badiiy asarlarda tire ishlatiladi). So'roq va undov belgilari qo'shtirnoq yopilmasdan oldin qo'yiladi.

2. Ko'chirma gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bir kun Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga shunday debdi: – Olib keling! ("El desa Navoiyni")*

3. Muallif gapi ko'chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi bo'lmasa yoki vergul yoxud ikki nuqta bo'lsa, bu belgilar tushirilib, muallif gapi har ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: *"Hazrat, –debdi Xudoyberdi unga qarab, – tandirni qurolmadim". ("El desa Navoiyni")*

2) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng nuqta qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan so'ng esa nuqta qo'yiladi: *"Noyib to'raning gaplaridan bilinadi o'zi, – dedi Miryoqub. – Siz bo'lgan gaplarni aytib bering". (Ch.)*

3) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng so'roq yoki undov belgisi qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan avval o'sha belgi va tire qo'yiladi, muallif gapidan so'ng nuqta va tire qo'yilib, ko'chirma gapning davomi bosh harf bilan boshlanadi: *Xadichaxon ko'zlarini ayyorlik bilan o'ynatib turib, kundoshiga qaradi: - Gapni eshitayotirsizmi? – dedi. – Ertaga biznikiga shaharlik mehmonlar kelishar ekan! .(Ch.)*

4. Ko'chirilgan gap muallif gapining o'rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) muallif gapining uzilib qolgan qismining oxiriga ikki nuqta qo'yilib, ko'chirilgan gap qo'shtirnoq ichiga olinadi; ko'chirilgan gapdan keyin vergul va tire qo'yilib, keyin muallif gapining davomi yoziladi: *Saodat: "Biz ham astoydil mehnat qildik", – dedi.*

2) ko'chirilgan gap so'roq yoki his-hayajon gap bo'lsa, ularning belgilari qo'shtirnoq ichida bo'ladi: *O'qituvchimiz: "Sen qaysi badiiy kitoblarni o'qib chiqqansan?" – deb so'radilar.*

5. Ko'chirma gaplar hamsuhbatlarning luqmasi tarzida ifodalanganida yozma nutqda har bir luqmadan avval tire qo'yiladi. Bu luqmalarda muallif gapi bo'lmaydi: – *Shaharda qarindoshingiz bormi? – Yo'q.*

5-§. O'zlashtirma gap

O'zgalarning shakli o'zgartirilib, mazmuni ifodalangan gapi **o'zlashtirma gap** deyiladi. O'zlashtirma gap ko'chirma gapli qo'shma gapga aylantirilishi mumkin bo'lgan gapdir: *Qurbon ota ertaga kelishini aytdi* (o'zl. gap) – *Qurbon ota dedi: "Men ertaga kelaman"* (ko'ch. gap).

So'roq, buyruq mazmunini ifodalagan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi.

Ko'chirma gapli qo'shma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, qo'shma gap sodda gapga aylanadi.

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
- Bu qanday bino, nimaga mo'ljallaysiz - dedi O'ktam.	*O'ktam bu qanday bino ekanligini, uning nimaga mo'ljallanishini so'radi.*

Undalma, kirish so'z qatnashgan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, kirish so'zlar tushib qoladi, undalma vositali to'ldiruvchiga aylantiriladi, 1-, 2-shaxslarni ko'rsatuvchi so'zlar 3-shaxsga aylantiriladi:

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
1. - Xo'sh, Kanizakxon, qanday yangiliklar bor? - so'radi O'ktam. *2. - Men ketdim, - dedi ukasi.*	*1. O'ktam Kanizakxondan qanday yangiliklar borligini so'radi.* *2. Ukasi o'zining ketayotganini aytdi.*

O'zlashtirma gapning kesimi *aytmoq, gapirmoq, buyurmoq, so'ramoq, undamoq* (*demoq* fe'lidan tashqari) so'zlari bilan ifodalanadi.

31-MAVZU.
USLUBIYAT (STILISTIKA) VA UNING TURLARI. NUTQ USLUBLARI. IJODIY MATN

1-§. Uslubshunoslik haqida umumiy ma'lumot

Uslubshunoslik tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til vositalaridan maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. So'zning tilshunos olimlar tomonidan farqlanadigan ikkita ma'nosi mavjud: **1) denotativ** ma'no

so'zning asl, tub ma'nosi hisoblanadi: **2) konnotativ ma'no** so'zning ko'chma, qo'shimcha ma'nosidir: *O'rtoqlaring bilan bir o'ynab kelgin, **toychog'im***. Bu misoldagi ***toychog'im*** so'zining denotativ, asl ma'nosi **otning bolasi** ma'nosidir. Farzandga bo'lgan ijobiy munosabat ma'nosi esa konnotativ ma'nodir.

Uslubiyatda ana shu konnotativ ma'no o'rganiladi.

Tilning ma'lum shaxslar – tilshunos va adabiyotshunoslar, badiiy ijod vakillari bo'lmish shoirlar va yozuvchilar tomonidan sayqal berilgan, muayyan qoidalarga bo'ysundirilgan shakli **adabiy nutq** deb yuritiladi. Adabiy nutq jarayonida qo'llanadigan har bir til birligi qat'iy me'yorlar asosida talaffuz qilinadi, yoziladi va talqin qilinadi.

Lug'aviy, grammatik, uslubiy me'yorlar adabiy tilning **barcha** ko'rinishlari uchun xarakterli, imlo va tinish belgilarga oid me'yorlar adabiy tilning faqat **yozma** shakli uchun, to'g'ri talaffuz me'yorlari esa faqat **og'zaki** nutq shakli uchun xosdir.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan, bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ko'rinishi **adabiy til uslubi** deyiladi. Uslub orqali so'zlovchi shaxslarga, narsalarga, voqealarga shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

O'zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor: **so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub.**

Har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud. Bularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Leksik vositalar: Sinonim, omonim, antonim, paronim, ko'p ma'nolilik, tag ma'no (gapning tagida yashiringan ma'no), sifatlash, o'xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so'zlar (jargon, argo, so'kish, qarg'ish kabilar) kasb-hunar so'zlari, mubolag'a (giperbola), arxaik va tarixiy so'zlar, atamalar.

2. Fonetik vositalar: nutq tovushlari, ohang, urg'u.

3. Grammatik vositalar: a) morfologik vositalar: har bir so'z turkumi; b) sintaktik vositalar: gap bo'laklari, ritorik so'roq gaplar, undalma, kirish so'z, kirish birikma, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.

Ma'lum bir uslubga tegishli bo'lgan so'zlar **uslubiy xoslangan so'zlar** deb yuritiladi: *yanglig'* so'zi badiiy uslubga, *omonim, sinonim* so'zlari ilmiy uslubga, *balli, ketvorgan* kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga, *faollar yig'ilishi, siyosiy maydon* kabi so'z birikmalari ommabop uslubga xosdir. So'zlashuv uslubida ham, kitobiy uslubda ham ishlatilaveradigan so'zlar **uslubiy betaraf so'zlar** hisoblanadi: *suv, tog', bola, xat.* Bu so'zlar ko'chma ma'noda qo'llansa, ma'lum bir uslubga tegishli bo'lishi mumkin.

2-§. Uslubiyat turlari

LEKSIK USLUBIYAT

1. Omonimlarning uslubiy xususiyatlari. Nutqda omonimlardan foydalangan holda turli so'z o'yinlari hosil qilinadi: *Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot, Nasihatim yod qilib*

ol, farzandim, Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot[61]. Bu o'rinda *ot* omonim so'zlari turlicha ma'nolarni ifodalayapti. Omonim so'zlardan foydalangan holda so'z o'yinlarini yaratish **tajnis (jinos)** san'ati deyiladi. Badiiy adabiyotda shu badiiy san'at qo'llanib yaratilgan to'rt qator she'r esa **tuyuq** deb ataladi.

2. Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari. Sinonimlarni qo'llashda hissiy-ta'siriy bo'yoq mavjudligi jihatidan farqlanadi: *yuz, aft, bashara, bet, chehra, jamol, ruxsor, diydor* sinonimik qatoridagi *yuz* so'zi ma'nosi betaraf so'z bo'lsa, *bet, aft* so'zlari salbiy bo'yoqqa ega, *bashara* so'zida esa salbiy bo'yoq yanada kuchli, *turq* so'zida *bashara* so'ziga nisbatan ham kuchliroqdir; *chehra* ijobiy bo'yoqqa ega, *jamol* so'zida bu bo'yoq yanada kuchli. Shuningdek, sinonimlarning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo'lishi mumkin: *keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo'ysafid* sinonimik qatoridagi *qari* so'zining ishlatilish doirasi keng, qolganlariniki esa chegaralangan.

3. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari. Antonimlardan to'g'ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatoliklarni keltirib chiqaradi: ... *choyxona mudiri Yusufjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o'xshaydi.* Bu gapdagi *issiq-chuchugini* juftligi o'rnida *achchiq-chuchugini* juftligi ishlatilishi kerak edi. Antonimlardan foydalangan holda yaratiladigan badiiy san'at **tazod (antiteza)** deb ataladi.

4. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari. Paronimlarni to'g'ri qo'llamaslik natijasida ham xatoliklar kelib chiqadi: *Chanoqlardagi lo'ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi.* Bu gapdagi *toblanadi* so'zi o'rnida *tovlanadi* so'zi ishlatilishi kerak edi.

5. Turli sabablarga ko'ra qo'llanishi chegaralangan so'zlarning uslubiy xususiyatlari. Bunday so'zlarga eskirgan va yangi so'zlar, sheva, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar kiradi. Nutqda bu kabi so'zlar ham muhim uslubiy vazifalar bajaradi. Arxaizmlardan badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini kiritish uchun foydalanilsa, tarixiy so'zlardan o'tmish voqeligini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Sheva so'zlari mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atamalar ilmiy va badiiy asarlarda fan-texnikaga oid tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi, jargonlar esa ma'lum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarurdir.

Nutqda ibora, tasviriy ifoda va maqollar ham ma'lum uslubiy vazifa bajaradi. Iboralardagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyatlari, tasviriy ifodalardagi balandparvozlik, maqollardagi mazmuniy ixchamlik katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi: *Bir yoqadan bosh chiqarmoq* iborasi badiiy nutqqa mansub bo'lsa, *bir jon, bir tan bo'lmoq* iborasi umumnutqqa xosdir.

6. Mubolag'a (yoki giperbola) uslubiy vosita bo'lib, ifodalangan tushunchaning ko'pirtirib, orttirilib tasvirlanishidir. Mubolag'a xalq dostonlarida, ertaklarda, aytishuv va loflarda faol ishlatiladi: *To'qson molning terisidan kavushi...* ("*Alpomish*" dostonidan)

[61] *Misollar olindi:* A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, X.Rustamov. O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983. – 44-bet.

7. Sifatlash (yoki epitet) narsa, shaxs, hodisalarning belgisini ifodalash vositasidir. Bu vazifada tilimizdagi belgi bildiruvchi so'z turkumlari (asosan, sifatlar) qo'llanadi: *Zolim jallod, bilmaganim bildirgin...* (*"Kuntug'mish"* dostonidan)

FONETIK USLUBIYAT

Nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari

1) *asir, devon* kabi so'zlardagi tovushlarning noto'g'ri *(asr, divan* kabi) talaffuz qilinishi oqibatida nutqda tushunmovchilik yuzaga keladi.

2) *–da, -va, -qa (*yoki *-q)* kabi bo'g'inlardan keyin yana shunday tovushlar bilan boshlanadigan so'zlarni keltirish nutqiy g'alizlikni keltirib chiqaradi: *So'zlarning gapda qo'llanishi va vazifalari...*

Urg'uning uslubiy xususiyatlari

So'z urg'usining ko'chishi shu so'z ma'nosini o'zgartirishi mumkin: *yangí kiyim* (sifat) - *yángi damlandi* (ravish). Gapda ohangning o'zgarishi ham yangi uslubiy mazmun paydo bo'lishiga olib keladi: *Siz ahmoq odam emassiz* jumlasida *ahmoq* so'zidan keyin to'xtam (pauza) qilinsa, fikr qaratilgan shaxsning ham ahmoq, ham odam emasligi ifodalanishi mumkin: *Siz ahmoq, odam emassiz.*

GRAMMATIK USLUBIYAT

Morfologik uslubiyat

Ot turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

Kelishik qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari

Kelishik qo'shimchalari o'zaro almashib qo'llanishi mumkin:

1) *–ni* va *–dan* qo'shimchalari almashib qo'llanishi mumkin: *Qani, oshdan (ni) oling, mehmon.*

2) *–ni* va *–ga* qo'shimchalari almashib qo'llanishi mumkin: Gapingizga (gapingizni) tushunmadim.

3) *–ni* va *–da* qo'shimchalari almashib qo'llanishi mumkin: *Dalani(da) aylandim.*

4) *–ning* va *–dan* qo'shimchalari almashib qo'llanishi mumkin: *kelganlarning biri – kelganlardan biri.*

5) kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar almashib qo'llanadi:

a) *–ga* qo'shimchasi o'rnida *uchun* ko'makchisi qo'llanadi: *Ukamga oldim – Ukam uchun oldim.*

b) *–da* qo'shimchasi o'rnida *bilan* ko'makchisi qo'llanadi: *Xatni qalamda yozdi – Xatni qalam bilan yozdi.*

d) *–dan* qo'shimchasi o'rnida *orqali* ko'makchisi qo'llanadi: *Xabarni radiodan eshitdik – Xabarni radio orqali eshitdik.*

e) *–ni* qo'shimchasi o'rnida *haqida* ko'makchisi qo'llanadi: *Akasi kelganini gapirdi – Akasi kelgani haqida gapirdi.*

Egalik qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari

1) otlarda qo'llangan egalik qo'shimchasi qaratqich kelishigi qo'shimchasining mavjudligini, qaratqich kelishigi qo'shimchasi esa egalik qo'shimchasining mavjudligini ko'rsatib turadi: *maktab hovlisi, bizning maktab.*

2) egalik (qarashlilik ma'nosi) *–niki* qo'shimchasi yordamida ham ifodalanishi ham mumkin, faqat bu qo'shimcha shaxs-son ko'rsatmaydi: *Bizning maktab – maktab bizniki.*

3) qaratqichli birikmalarda shaxs almashib qo'llanishi ham mumkin: *Mening uyim shu yerda – Kaminaning uyi shu yerda.*

Ot yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari. Bu qo'shimchalar orasida o'zaro sinonim bo'lgan qo'shimchalar ham uchraydi: *adabiyotshunos – adabiyotchi, mehnatkash – mehnatchi.*

Sifat turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. Sifatlardagi qiyosiy darajani yasovchi –roq qo'shimchasi o'rnida *–mtir*, -imtil, *-ish* qo'shimchalari qo'llanishi mumkin: *ko'kroq – ko'kish, qoraroq – qoramtir.*

2. Sifat yasovchi qo'shimchalar orasida sinonimlik hodisasi ko'plab uchraydi: *aybdor – aybli, serg'ayrat – g'ayratli, chopqir – chopag'on, beg'ubor – g'uborsiz, bama'ni – ma'nili.*

3. Bu qo'shimchalar orasida antonimlik hodisasi ham uchraydi: *suvli – suvsiz.*

Olmosh turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. ***U, bu, shu*** olmoshlari o'rnida ***bir*** so'zi (yoki ***bir xil*** so'zlari) qo'llanadi: *Bir (shunday) chamanki, atrofida bulbullar giryon. Bir xil (shunday) odamlar tushunmaydi.*

2. ***Men*** olmoshi o'rnida *kamina* so'zi, *siz* o'rnida *o'zlari* so'zi qo'llanadi: *Bu ishda kaminaning zarracha tajribasi yo'q. Siz va'da bergan edingiz – O'zlari va'da bergan edilar.*

3. Ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda, yig'ilishlarda *men* olmoshining o'rnida *biz* olmoshi ishlatiladi: *Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda ko'rsatish olmoshlarining xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.*

4. Hurmatni ifodalash uchun *sen* olmoshi o'rnida *siz* olmoshi ishlatiladi. *Siz bugun kelasizmi?* Aksincha hurmatsizlikni ifodalash uchun esa *sen* olmoshiga ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi: *Senlar buni tushunmaysanlar.*

5. Ko'rsatish olmoshlari ta'kidlash, ajratish ma'nolarini ifodalaydi: *Kitob – bu dono maslahatchi.*

Fe'llarga xos uslubiy xususiyatlar

1. Shaxs-son qo'shimchalarining sinonimiyasi:

1) fe'lning 2-shaxs birlik qo'shimchasi o'rnida 2-shaxs ko'plik qo'shimchasi qo'llanadi: *Amaki, ertaga kelasizmih*

2) fe'lning 1-shaxs birlik qo'shimchasi o'rnida 2-shaxs birlik qo'shimchasi ishlatiladi: *Tabiatning ishlariga hayron qolasan kishi.*

3) 2-shaxs ko'plik o'rnida 1-shaxs ko'plik qo'shimchasi qo'llanadi: *Bolalar, bugun diktant yozamiz.*

4) 2-shaxs ko'plik o'rnida 3-shaxs birlik qo'shimchasi ishlatiladi: *U norozi ohangda dedi: - Shunaqa ish bilan hazillashib bo'ladimih*

2. Zamon qo'shimchalarining sinonimiyasi:

1) hozirgi zamon davom fe'li o'rnida hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llanadi: *Butun qishloq ular haqida gaplashishadi (gaplashishyapti).*

2) kelasi zamon o'rnida hozirgi zamon shakli qo'llanadi: *Ertaga terimga tushyapmiz.*

3) hozirgi zamon o'rnida o'tgan zamon shakli keladi: *Qarasam, yugurib kelayotibdi.*

3. Mayl qo'shimchalari sinonimiyasi:

1) ijro maylidagi fe'l buyruq mayli o'rnida keladi: *Qani, ketdik, bolalar.*

2) ijro mayli shart mayli o'rnida keladi: *Kelaman dedingmi, kelish kerak.*

4. Nisbat qo'shimchalari sinonimiyasi:

1) birgalik nisbati qo'shimchasi ko'plik qo'shimchasiga sinonimdir: *Ular kelishdi – Ular keldilar.*

2) nisbat qo'shimchalari ichida o'zaro sinonimlikni hosil qiladiganlari ham bor: *-l, il,-n, -in, -sh, -ish; -t, -tir, -dir, -ir, -giz; -kiz, -kaz, -qiz, -qaz.*

5. Fe'l yasovchi qo'shimchalar sinonimiyasi:

1) ba'zi yasama fe'llar iboralarga sinonim bo'ladi: *gulladi – gulga kirdi.*

2) qo'shimcha yordamida yasalgan fe'llar qo'shma fe'llarga sinonim bo'ladi: *himoyaladi – himoya qildi.*

3) fe'l yasovchilar o'zaro sinonim bo'ladi: *sizlamoq – sizsiramoq, suvsamoq- suvsiramoq.*

Sintaktik uslubiyat

1. Gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlari:

1) ega bilan kesimni moslashtirishda bog'lamalardan (shaxs-son qo'shimchalari, to'liqsiz fe'llar, *bo'ldi, qildi, etdi* yordamchi fe'llari, *sanaladi, hisoblanadi* kabi fe'llar) foydalaniladi: *Men o'quvchiman. U talaba bo'ldi. Bu tarix hisoblanadi.*

2) qaratqich aniqlovchilardagi –ning qo'shimchasi she'riyatda ba'zan *–im* tarzida qo'llanadi: *O'zbekiston – vatanim manim.*

3) sifatlovchi aniqlovchilar ot bilan ifodalansa, ma'joziy ma'no kasb qiladi: *Kumush choyshab yopib dalalar, qor tagida uxlab yotadi.*

4) sifatlovchi aniqlovchilar turli so'z turkumlaridan tizilib, sifatlash vazifasini bajargan ibora va so'z birikmalari bilan ifodalanadi: *Osmon o'par tog'lar, bag'ri keng inson, cheki yo'q qirlar, fikri tiniq insonlar.*

2. Ayrim gap turlari o'rtasidagi sinonimiya:

1) ayni bir fikr gapning har xil turlari bilan ifodalanadi: a) sodda gap bilan: *Har kim ekkanini o'radi.* b) qo'shma gap bilan: *Kim nimani eksa, shuni o'radi.*

3. Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyatlari:

1) bog'langan qo'shma gaplar tarkibida biriktiruv va zidlov bog'lovchilari o'rnida *–u, -yu, -da* yuklamalari sinonim holatda qo'llanishi mumkin: *Havo bulutlashdi va yomg'ir yog'a boshladi. Havo bulutlashdi-yu, yomg'ir yog'a boshladi.*

2) ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplarga sinonim bo'ladi: *Shunisi aniqki, biz bugun yo'lga chiqa olmaymiz - Bizning bugun yo'lga chiqa olmasligimiz aniq.*

3) sabab, maqsad, o'xshatish ergash gaplarning kesimlari sifatdosh, harakat nomi, ot bilan ifodalansa, sodda gaplarga sinonim bo'ladi: *Tog' etagi juda go'zal edi, go'yo chiroyli gilam to'shalganday – Chiroyli gilam to'shalganday tog' etagi juda go'zal edi.*

4) payt, sabab, shart, to'siqsiz, natija, ravish ergash gaplarni o'z doirasida sinonimlari bilan almashtirish mumkin: *U kelsa(kelgan paytda, kelar ekan), hamma ketib bo'libdi.*

5) bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi: *Qor yog'di – don yog'di (Qor yog'sa, don yog'adi. Qor yog'di-yu, don yog'di).*

3-§. Adabiy nutq uslublari

1. So'zlashuv uslubi

Uyda, ko'chada, insonlarning o'zaro so'zlashuvida qo'llanadigan uslub **so'zlashuv uslubi** deb ataladi. Bu uslubning adabiy til me'yorlariga rioya qiladigan ko'rinishi **adabiy so'zlashuv uslubi** deb yuritilsa, bunday me'yorlarga rioya qilinmaydigan ko'rinishi **oddiy so'zlashuv uslubi** deb ataladi. So'zlashuv uslubidagi nutq ko'pincha dialogik shaklda bo'ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasidan tuzilgan nutq **dialogik nutq** deyiladi.

So'zlashuv uslubida ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: ***Kep qoling! Obbo, hamma ishni do'ndiribsiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!***

So'zlashuv uslubida gapdagi so'zlar tartibi ancha erkin bo'ladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar ko'plab ishlatiladi. Ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

2. Ilmiy uslub

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: *Yomgir - suyuq tomchi holidagi atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo'ladi.*

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.

3. Rasmiy-idoraviy uslub

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda, ixcham bo'lishi. Bu uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi; *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, tayinlansin* kabi so'z va so'z birikmalari ko'plab uchraydi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi: *O'z lavozimini suiiste'mol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan e'lon qilinsin.*

4. Ommabop (publitsistik) uslub

Tashviqot-targ'ibot ishlarni olib borishda qo'llanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi **ommabop uslub** hisoblanadi. Soddalik, tushunarli bo'lish, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televideniyeda ishlatiladigan ko'rinishi **og'zaki ommabop uslub** deyilsa, gazeta, jurnallarda ishlatiladigan ko'rinishi **yozma ommabop uslub** hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi. Nutq ta'sirchan bo'lishi uchun ta'sirchan so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan ham

foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, hishayajon va ritorik so'roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan unumli foydalaniladi: *1. Azamat paxtakorlarimiz mo'l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti. 2. Partiya faollari o'zlarining navbatdagi majlisiga yig'ilishdi.*

5. Badiiy uslub

Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik jihatdan ta'sir qiluvchi, badiiylikka, ifodaviylikka, ta'sirchanlikka ega bo'lgan uslub **badiiy uslub** deb ataladi. Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi: *O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda.* Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi.

Badiiy uslub **aralash uslub** hisoblanadi, chunki bu uslubda so'zlashuv va kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi.

Badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish *(kommunikativ vazifani bajarish)*dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish *(ekspressiv)* vazifasini ham bajaradi.

4-§. Ijodiy matn va uning turlari[62]

Ma'lumki, inson voqelikni, borliqni til orqali, uning vositalari yordamida aks ettiradi. Shu jarayonda u turli matn ko'rinishlarini yaratadi. Bular quyidagilardir:

1. Yuz bergan voqea-hodisa haqidagi oddiy axborot ko'rinishida yaratilgan matn **ma'lumotnoma matni** deb ataladi. Bu matnning quyidagi belgilari bor:

1) so'zlar o'z ma'nolarida qo'llanadi;

2) tilda mavjud bo'lgan badiiy-tasviriy vositalardan (masalan, badiiy san'at turlaridan) deyarli foydalanilmaydi;

3) yuz bergan voqea-hodisa oddiy so'zlar vositasida tasvirlanadi.

2. Yuz bergan voqea-hodisa haqida ijodiy-tavsifiy bayonni aks ettiruvchi matn **ijodiy-tavsifiy matn** deb yuritiladi. Bu matnning quyidagi belgilari bor:

1) yuz bergan voqea-hodisa haqida shaxsiy fikr-mulohaza bayon qilinadi;

[62] *Tasnif olindi:* M.Qodirov va boshq. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik). – T.: Cho'lpon, 2010. – 14-15-betlar.

2) tilning badiiy-tasviriy vositalaridan unumli foydalaniladi;

3) har bir voqea-hodisa muayyan dalillar bilan ishonarli tarzda aks ettiriladi.

Bu matn turlariga ilmiy, ommabop va badiiy uslublarda yaratilgan matnlarni, shuningdek, **inshoni** kiritish mumkin.

5-§. Insho va uning turlari

Insho nima, uning qanday belgilari va turlari mavjud? Birinchi navbatda **"insho"**so'zi haqida ma'lumot berish kerak. Bu so'z aslida arab tilidan olingan bo'lib, "yaratmoq", "barpo qilmoq" degan ma'nolarni bildiradi. **"Inshoot"** so'zi ham shu so'z bilan asosdoshdir. Inshoni maktab o'quvchilari tomonidan yoziladigan yozma ish ma'nosida tushunadigan bo'lsak, bu – o'quvchi savodxonligini va bilim hamda mustaqil mulohaza yuritish darajasini aniqlashga yordam beradigan kichik bir mustaqil asardir.

Insho ikki nuqtai nazardan turlarga bo'linadi:

1. Inshoni yozishdan ko'zlangan **didaktik maqsadga** ko'ra:

1) ta'limiy insholar o'quvchining ijodiy fikrlashini, muayyan mavzuni qay darajada tushunganligini aniqlash uchun yozdiriladigan insho turidir;

2) sinov insholari o'quv yurtida bilim olish jarayonida ma'lum vaqt oralig'ida olingan bilimlarni sinash uchun yozdiraladigan insholardir.

2. Insholarning **mazmuniga** ko'ra uch turi mavjud:

1) agar insho adabiyot darsligidagi mavzular bo'yicha o'qituvchining tushuntirishi asosida yozilsa, bu **adabiy mavzudagi insho** deb yuritiladi. Bunday insholarda ma'lum badiiy asar qahramonlari fe'l-atvoriga xos xususiyatlar tahlil qilinadi;

2) agar insho muayyan mavzuga o'quvchining shaxsiy munosabatlari asosida yozilgan bo'lsa, bu **adabiy-ijodiy mavzudagi insho** deb yuritiladi. Bunday insholarda o'quvchining ijodiy fikrlashi birinchi planga chiqadi.

3) agar insho darslikda mavjud bo'lmagan mavzu bo'yicha yozilgan bo'lsa, bu **erkin mavzudagi insho** deb ataladi. Bunday inshoda o'quvchining muayyan mavzuga doir bo'lgan bilim va ko'nikmalari, shaxsiy dunyoqarashi aks etgan bo'ladi.

Ba'zan, ijodkorlar o'z asarlari kirish qismida shu asar mazmuni o'zida mujassam etgan, qisqa ko'rinishdagi hikmatli so'z, maqol yoki iboralarni qo'llashadi. Bu **epigraf** deb ataladi. O'quvchi tomonidan yoziladigan insholarda ham epigrafdan foydalanish mumkin. Shuni aytish kerakki, epigrafning inshodagi o'rni qat'iydir: u rejadan keyin, asosiy matndan oldin, betning o'ng tarafiga yoziladi. O'rinli qo'llangan epigraf inshoning badiiy qimmatini oshiradi.

32-MAVZU.

TINISH BELGILARNING ISHLATILISHI (PUNKTUATSIYA)

1-§. Nuqta

Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqalib, u tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan.

Nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov (his-hayajon) gaplardan keyin: *Oltin kuz fasli kirib keldi. Darslarni o'z vaqtida tayyorlab yurgin. Koshki uning kuchi etsa.*

2. Birinchi qismida nuqta, ko'p nuqta, undov yoki so'roq belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng: *"Men hozir jo'nayman, - dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yo'lga chiqing".*

3. Qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin: *M.Ism. (Mirzakalon Ismoiliy)*

4. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo'llangan raqam yoki harflardan keyin: *27.09.2009* kabi.

5. Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa: *Bobodehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg'in.*

Diqqat! Qavsga olingan manbadan oldingi gap oxiridagi tinish belgilari o'z o'rnida saqlanadi va qavsdan keyin hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi: *Ketdi. (A.Q.)* Shuningdek, sarlavhalardan keyin (darak gap bo'lsa) nuqta qo'yilmaydi.

2-§. So'roq belgisi

So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha *Questio* – so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. Bu belgi o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchrab, 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan.

So'roq belgisi quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. So'roq belgisi so'roq gaplardan keyin qo'yiladi: *Ishga tayyormisiz?*

2. So'roq gaplar bittadan ortiq bo'lib kelishi mumkin: Bunday paytlarda so'roq belgisi quyidagicha qo'yiladi:

1) so'roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki har qaysi so'roq gap mazmuniga ko'ra mustaqil bo'lsa, har biridan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi: *Qishloqlar qanday? Og'aynilar yaxshi yurishibdimi?*

2) agar so'roq gaplar mazmunan umumiy bir fikrni ifodalasa, so'roq belgisi eng so'nggi so'roq gapdan keyin qo'yiladi: - *Tag'in mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi, yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi? (G'.G'.)*

3. So'z yoki ibora noaniq bo'lsa, unda gumon ifodalansa, so'roq belgisi qo'yiladi: *Bu ishlarning hammasini yarim soat (?) ichida bir o'zi bajardimikin?*

D i q q a t ! Ba'zan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplardan biri so'roq gap shaklida, ikkinchisi esa uning izohi sifatida kelishi mumkin, bunday holatda ular orasiga vergul yoki tire qo'yilishi mumkin: *U ertaga keladimi, kelmaydimi, bu menga qorong'i.*

3-§. Undov belgisi

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha *"lo"* – undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqtaning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Undov belgisi quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagan gaplardan so'ng: *Yoshligimizda naqadar baxtiyor edik!*

2. Buyurish, tilak, orzu ma'nolarini ifodalagan gaplardan so'ng: *Hoziroq bularni ko'zimdan yo'qot! Qani endi qush kabi osmonda parvoz qilsa!*

3. Gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan, undov hamda *ha* va *yo'q* so'zlaridan so'ng: *Yo'q! Rustam bunday qabihlikka bormaydi hech qachon! Azizlar! Sizni mustaqillik bayrami bilan tabriklayman!*

4. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan so'ng qavs ichida undov belgisi qo'yilishi mumkin.

4-§. Ko'p nuqta

Ko'p nuqta XIX asrning II yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran "Turkiston viloyatining gazeti"da muntazam qo'llangan.

Ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligi, so'zlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko'rsatish uchun: *Agar hozir gapingizni to'xtatmasangiz...*

2. Ba'zan ko'p nuqta so'zlovchining o'ylashi, mulohaza qilishini ko'rsatadi: *Bugun... bugun oldingizga o'tsam bo'ladimi?*

3. Ba'zan kimningdir savolga javob bermay indamay turganini ko'rsatish uchun ham ko'p nuqta qo'yiladi:

– Mendan rozimassiz, bilaman, kechirmaysiz...

– ...

4. Biror so'z yoki gapning tushirilganini ko'rsatish uchun: *Bugun yettinchi bo'limga kelib, ... fig'oni oshdi.(T.Malik)*

5-§. Ko'p nuqta, undov va so'roq belgilarning birikkan holda kelishi

1. So'roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo'lgan so'roq gaplardan keyin undov va so'roq belgisi birikkan holda (!?) qo'yiladi: *Go'zallik olamni qutqarishiga kim ishonmaydi!?*

2. Kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so'roq gaplardan so'ng so'roq va undov belgisi birikkan holda qo'yiladi: *- Ah! – Xonkeldiyeva turgan yerida surat bo'lib qoldi. - Direktorimiz-a?! (H.G'.)*

3. Kuchli his-hayajon ifodalangan va mazmunan tugallanmagan gaplardan keyin undov belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (!..) qo'llanadi: *-Nafisa!.. Nafisaoy!.. – dedi Aziz o'pkasi yumshab, ko'zlariga qaynoq yosh keldi.(H.G'.)*

4. Mazmunan tugallanmagan so'roq gaplardan so'ng so'roq belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (?..) ishlatiladi: *- Nima dedingiz Bularning hammasi men uchun?..*

6-§. Vergul

Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi.

Vergul quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Uyushiq bo'laklar orasida:

1) bog'lovchisiz birikkan uyushiq bo'laklar orasida: *Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon – O'zbekning chamani, bog'u bo'stoni. (G'.G'.)* 2) takrorlanuvchi bog'lovchilar bilan birikkan uyushiq bo'laklar orasiga: *U goh kulimsiraydi, goh chuqur o'yga toladi.* 3) zidlovchi bog'lovchilar yordamida birikkan uyushiq bo'laklar orasiga: *Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. (P.Q.)*

2. Undalmalarni ajratish uchun: *Ertaga, azizim, toqqa jo'naymiz.*

3. Kirish so'zlarni va tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lmagan kirish gaplarni ajratish uchun: *Xullas, ertaga shu yerda yig'iladigan bo'ldilar. Men sizga aytsam, odamning yomoni bo'lmaydi.*

4. *Ha* va *yo'q* so'zlarini gap bo'laklaridan ajratish uchun: *Ha, bu gapingiz to'g'ri. Yo'q, ertaga kela olmayman.*

5. Gapning ajratilgan bo'laklarini ayirib ko'rsatish uchun: *«Biz, yoshlar, ota-bobolarimiz qoldirgan bebaho merosni ko'z qorachig'iday asrashimiz kerak».*

6. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda: *Eshik ochildi, ichkariga muzday havo yopirilib kirdi.*

7. *Va, ham, hamda, yoki* (yolg'iz kelgan) bo'lovchilaridan boshqa bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplarda: *Hamma gapirdi, lekin u bir chekkada xomush o'tirar edi.*

8. Ergash gaplarni ajratish uchun: *Hamma yig'ilgach, majlis boshlandi.*

9. Muallif gapini ko'chirma gapdan ajratish uchun:

- Bugungi qilgan ezgu ishlarimiz, - dedi ota, - kelajak uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

7-§. Nuqtali vergul

Nuqtali vergul o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi.

Nuqtali vergul quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. O'z ichida vergul bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklar orasida:

Mehnat, ijod, odam sharafi;
Dil yorug'i, hayot quvonchi
Hammasining asli manbai
Sen, Vatanim - tinchlik tayanchi. (S.Nazar)

2. O'z ichida verguli bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega soddа gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda: *Daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuziga urildi.*

8-§. Ikki nuqta

Ikki nuqta o'zbek tilshunosligida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan.

1. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan so'ng: *Yig'ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Abdukarim aka va Sobirjonlar so'zga chiqishdi.*

Diqqat! Ba'zan umumlashtiruvchi so'z yashirinishi mumkin, lekin ikki nuqta qo'yilaveradi: *Qilinishi kerak: traktorlar ta'mirdan chiqarilsin, ishchilarga yetarli sharoit yaratilsin.*

2. Quyidagi ma'nolarni ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: 1) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko'rsatsa: *U ichkariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.*

2) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko'rsatsa: *Shamol juda zo'raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi.*

3) agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa: *Vazifangiz shu: bironta odam bu xonaga kirmasligi kerak.*

3. Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng: *U baland ovozda so'radi: - Kim bor?*

9-§. Tire

Bu belgini yozuvga rus yozuvchisi N.M.Karamzin (XVIII asr) kiritgan. Tire o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan.

Tire quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega va kesim orasiga: *O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ikki o'n besh – bir o'ttiz. Bularni amalga oshiradigan – siz. O'qish – hayotni uqish.*

2. Uyushiq bo'laklardan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *Akam, opam va singlim – barchasi meni kutib o'tirishgan ekan.*

3. Ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish bo'lak orasiga: *Men – Valiyev Mahmud, 1954-yilda Toshkentda tug'ilganman.*

4. Kirish gap bilan gap bo'laklari orasiga: *Tunov kungi ovchi – men uni o'rmonda uchratib qoldim – menga qiziq bir voqeani so'zlab berdi.*

5. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: *- Bugun kelasizmi? – so'radi qizi.*

6. Dialog tipidagi ko'chirma gaplarda: *- Keldimi? - Keldi.*

7. Kutilmagan voqea-hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin: *Kecha tog'amlarnikiga borgan edim – Asqarjon kelibdi!*

8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida: *Jismimiz yo'qolur - o'chmas nomimiz.*

9. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa: *Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.*

10-§. Qavs

Qavs o'zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Birinchi marta 1873-yilda "Turkiston viloyatining gazeti"da ishlatilgan.

Qavs belgisidan quyidagi holatlarda foydalaniladi:

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z yoki iboralar qavsga olinadi: *Karimjon (sinfimizning a'lochisi) oliy o'quv yurtiga kiribdi.*

Diqqat: Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan keyinga ko'chiriladi: *Chavandoz bu gaplarni Ertoyevga aytishni ham, aytmaslikni ham bilmay (aytsa Ertoyev xafa bo'ladi, aytmasa bir joydan chatog'i chiqishi mumkin), boshi qotib ... turganda... Gulchehra mojarosi chiqsa bo'ladimi? (O.Y.)*

2. Kirish gaplar yoki remarkalar qavs bilan beriladi: *Ukam (sen uni taniysan) bu yil maktabni bitirdi. A z i z K a m o l (xayol og'ushida). Vatanimizga qarshi ko'tarilgan ruhiy va iqtisodiy hujum shu kunlarda cho'qqisiga chiqdi. (S.Az.)*

3. Misol yoki ko'chirmaning manbai: *...Eshik qars etib yopildi.(O.Y.)*

4. Kirish so'z yoki iboraga oid tinish belgilar qavsning ichiga olinadi: *To'satdan uning xayoliga akasining bundan besh-olti oy oldin... yozgan xati (o'shandan beri undan dom-darak yo'q!) ... tushdi.(O.Y.)*

11-§. Qo'shtirnoq

Qo'shtirnoqni tilshunoslikka rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. Tinish belgisi sifatida o'zbek yozuvida u XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Qo'shtirnoq quyidagi holatlarda qo'llanadi:

1. Ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun: *"Ertaga kelaman",– dedi.*

2. Ko'chma ma'nodagi, shartli nom yoki taxallus ma'nosidagi ayrim so'z va so'z birikmalari ham qo'shtirnoqqa olinishi mumkin: *"Tog' asali" sotadigan yigit ... dovonning nariyog'iga o'tib ketgan. (S.Ahm.)*

D i q q a t! Qo'shtirnoqqa olinishi kerak bo'lgan so'zlarda turlovchi (kelishik) qo'shimchalar mavjud bo'lsa, bu qo'shimchalar qo'shtirnoqdan keyin qo'yiladi: *Bularni ko'rgan Aziz o'zi haydab kelayotgan «GAZ-69»ning yurishini tezlatib, yo'lga chiqdi-da, «Jiguli» tomonga burildi. (H.G'.)*

ILOVALAR

1-ilova

O'ZBEK TILIDAGI QO'SHIMCHA TURLARI

I. SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

1. Ot yasovchi qo'shimchalar

1.1. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-chi	suv**chi**	-do'z	etik**do'z**
-dosh	sinf**dosh**	-soz	aravasoz
-kor	paxta**kor**	-xo'r	choy**xo'r**
-kar	mis**kar**	-xon	gazet**xon**
-gar	zar**gar**	-shunos	til**shunos**
-gor	talab**gor**	-sil	yo'q**sil** (arx.)
-kash	arava**kash**	-go'y	duo**go'y**
-dor	chorva**dor**	-parast	shaxsiyat**parast**
-bon	saroy**bon**	-furush	meva**furush**
-boz	dor**boz**	-vachcha	tog'a**yachcha**
-paz	osh**paz**	-(u)vchi	yoz**uvchi**,uchuvchi
ham-	**ham**suhbat	-(o)vchi	tinglo**vchi**

1.2. Narsa-buyum oti yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-gich - kich -qich -g'ich	tishkovla**gich** ko'rsat**kich**, qis**qich** chiz**g'ich**	-gi -ki -qi -g'i -g'u	supur**gi** tep**ki** tutat**gi** chal**g'i** tuy**g'u**
-dak -doq -	yugur**dak** qovur**doq**	-iq -ik	topshiri**q** teshi**k**
-ma	to'qi**ma**,	-uq	uchu**q**, yutu**q**
-m, -im	to'pla**m**, kiyi**m**	-q, -oq	taro**q**, o'ro**q**
-um	unu**m**, uy+**im** =uyu**m**	-don	qalamdo**n**, tuzdo**n**
-t -it -at -ot	qurt(quri+t) chiqi**t** ko'cha**t** sizo**t**	-qin -qun -g'in -g'un	to'lqi**n** uchqu**n** yong'i**n** yulg'u**n**
-in -un -on	yig'i**n** tugu**n** to'zo**n**	-qoq -kak -gak	botqo**q** eshka**k** ilga**k**
- k,-ak	kura**k**, varra**k**	-(i)sh	qurili**sh**, turlani**sh**
-(u)v	yozu**v**, saylo**v**	-ak -oq	qarsa**k** qaldiro**q**

-ildoq	shaq**ildoq**	-a	sharshar**a**, jizz**a**.
-os	guldur**os**	-(i)ndi	chir**indi**, cho'k**indi**
-poya	beda**poya**, g'o'za**poya**	-chiq	yopin**chiq**, suyan**chiq**
-machoq	bekin**machoq**	-iz	bo'g'**iz**
-chak	bur**chak**, kemir**chak**	-noma	taklif**noma**
-miq	bula**miq**	-moq -mak	quy**moq** chert**mak** (o'yin turi)
-mish	o'**tmish**, qil**mish**	-ka	yo'l**ka**
-kilik -gilik	ich**kilik** ko'r**gilik**	-cha	qizil**cha**, ola**cha**

1.3. O'rin-joy otini yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-zor	gul**zor**, paxta**zor**	-iston	O'zbek**iston**, gul**iston**
-loq	o'**tloq**, tosh**loq**	-goh	sayl**goh**, o'ying**oh**
-xona	osh**xona**, choy**xona**	-obod	Yunus**obod**, Yangi**obod**

1.4. Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-chilik	dehqon**chilik**, tirik**chilik**	-lik - liq	bola**lik**, bor**liq**
-ot, -at	targ'ibot madaniyat	-ch	sevin**ch**, quvon**ch**
-garchilik	odam**garchilik**, og'ayni**garchilik**	-sh -ish	o'qi**sh** tuzili**sh**
-(u)v	undo**v**, uq**uv**	-i	suyunch**i**

2. Sifat yasovchi qo'shimchalar

2.1. Otdan sifat yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-li	kuch**li**	-lik	toshkent**lik** (bola)
-siz	tuz**siz**	-iy, -viy	tarbiya**viy**, devor**iy**
-gi -ki	bahor**gi** ishlar qish**ki** kiyim	-aki	jizz**aki**, dahan**aki**, og'z**aki**
-yi	havo**yi**	-chan	ish**chan** bola
ser-	**ser**hosil	ba-	**ba**davlat

be-	**beg**'ubor, **be**xabar	-simon	shar**simon**
-dor	vafo**dor**	-kor,-gar	isyon**kor**, ig'vo**gar**
-i	qishloq**i**	-cha	arab**cha** (o'yin)
-namo	darvesh**namo**	-parvar	xalq**parvar**
-dek -day	muz**dek** (suv) jo'jabir**day** (jon)	-lik, -liq	ko'ylak**lik** (chit), bola**lik** (chog'lar)
-shumul	olam**shumul**,	-mand	kasal**mand**
-don	gap**don**, bilim**don**	-kash	dil**kash**, hazil**kash**
-bop	palov**bop**, qish**bop**	xush-	**xush**fe'l, **xush**havo
-in	erk**in**, otash**in**	bar-	**bar**hayot
-parast	mansab**parast**, maishat**parast**	-vor	devona**vor**, afsona**vor**
-chil	xalq**chil**, iz**chil**.	bad-	**bad**baxt, **bad**nafs
-i	jannat**i** (kampir)	-loq	baqa**loq**
-kor	Fusun**kor** (husn)	-kash	zahmat**kash**
-chi	vahima**chi**(odam)	-von	zo'ra**von** (kishi)
-qa	loy**qa**(suv)	-omuz	hazil**omuz** (gap)
-xo'r	g'am**xo'r**(odam)	-soz	soat**soz** (usta)

2.2. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-gir	sez**gir**	-kun	tush**kun**
-g'ir	ol**g'ir**	-qin	jo'sh**qin**
-kir	o't**kir**	-g'in	oz**g'in**
-qir	topq**ir**	-g'un	tur**g'un**
-qur	uch**qur**	-qun	tut**qun**
-chiq	qizg'an**chiq**	-uk	tuz**uk**
-choq	maqtan**choq**	-k	chir**ik**
-chak	kuyun**chak**	-ik	tesh**ik**
-q	il**iq**	-ak	g'alvir**ak**
-uq	buz**uq**	-qoq	tirish**qoq**
-iq	sin**iq**	-g'oq	toy**g'oq**
-qi	sayro**qi** qush	-oq	qoch**oq**
-ag'on	bil**ag'on**, chop**ag'on**	-mon	bilar**mon**,
-ma	bur**ma** ko'ylak	-(a)rli	et**arli**, zerik**arli**
-ch	tin**ch**, jirkan**ch**	-g'ich	yul**g'ich** (odam)
-ong'ich	tep**ong'ich**, suz**ong'ich**	-ovuch	hurk**ovuch**, isk**ovuch**
-mas	o'**tmas**(pichoq)	-(i)ndi	asra**ndi** (bola)
-a	ko'tar**a** (savdo)	-msiq	qari**msiq**, achi**msiq**

2.3. Sifat, ravish, taqlid so'zlardan sifat yasovchi qo'shimchalar			
Qo'shimcha	**Misollar**	**Qo'shimcha**	**Misollar**
-gi	kechagi, dastlabki	no-	noma'lum
-lom	sog'lom,	-ildoq	bijildoq

3. Fe'l yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-la	ishla, oqla, sekinlamoq, shivirlamoq, chuhlamoq, senlamoq	-lan	faxrlanmoq, ikkilanmoq
-illa	chirqilla	-lash	ko'maklashmoq, suhbatlashmoq
-ira	yarqiramoq	-sa	suvsa
-a	tuna, bo'sha, o'yin+a=o'yna	-sira	sensira
-(a)r	qisqar, ko'kar	-(a)y	qoray, kuchay
-(i)k -(i)q	birikmoq, yo'liqmoq	-(i,o)t	yo'qot, to'lat, berkit
-i	boyi, tinchi	-ir	gapir, tupir

4. Ravish yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-cha	qisqacha, o'zicha, boshqacha, eskicha	-larcha	qardoshlarcha, o'rtoqlarcha
-dek -day	o'qdek qushday	-siga	tikkasiga, yalpisiga
-ligicha	xomligicha, tirikligicha, butunligicha, ho'lligicha	-chasiga	yangichasiga, toshkentchasiga, dehqonchasiga
-lab	ertalab, ko'plab	-ona	do'stona,
-an	majburan	-gacha	kechgacha,
-simon	hazilsimon	-namo	uyalgannamo
-lay(in)	butunlay, tiriklayin	-siz	to'xtovsiz
-incha	ko'pincha, aksincha	-chang	ko'ylakchang
-in	oldin	be-	beixtiyor

II. SHAKL YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

1. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar

№	Qo'shimcha	Misollar	Vazifasi
1.	-a I	buramoq, chopa-chop, qasira-qasir	Ma'noni kuchaytiradi
2.	-a II	yugura-yugura, ola boshladi	ravishdosh shaklini yasaydi
3.	-ajak	kelajak, borajak	sifatdosh shaklini yasaydi
4.	-ala	uchala, o'nala	jamlovchi son shaklini yasaydi
5.	-alak	do'ngalak	kichraytirish ma'nosini hosil qiladi
6.	alla-	allakim, allanima	gumon olmoshini yasaydi
7.	-asi	kelasi (yil)	sifatdosh shaklini yasaydi
8.	-b yoki -ib	o'qib, borib	ravishdosh shaklini yasaydi
9.	-gan, -kan -qan	borgan, tekkan, chiqqan	fe'lning o'tgan zamon sifatdoshi shaklini hosil qiladi
10.	-gaz, -qaz, -qiz	ko'rgaz, tutqaz, yotqiz	orttirma daraja shaklini yasaydi
11.	-gani -kani, -qani	o'qigani, ekkani, tuqqani.	kelasi zamon maqsad ma'nosidagi ravishdosh shaklini hosil qiladi:
12.	- gancha	yugurgancha ketdi, shu ketgancha qaytmadi	holat yoki payt ravishdosh-larini hosil qiladi
13.	- gach -kach, -qach	U kelgach, biz ketdik (payt) . U kelmagach, biz bordik (sabab)	payt yoki sabab ravishdoshlarini yasash uchun xizmat qiladi
14.	- gi I	borgim keldi.	egalik qo'shimchalari bilan birgalikda xohish, istak ma'nosini ifodalaydi
15.	- gi(-g'i) II	yugurgilamoq, to'zg'imoq.	fe'lga qo'shilib, takroriylik, davomlilik ma'nolarini ifodalaydi
16.	-giz, -iz, -kaz, -qaz, -g'az, -g'iz	yurgizmoq, o'tkazmoq, yutqizmoq, turg'azmoq, oqizmoq	fe'llardagi orttirma nisbatni hosil qiladi
17.	-gil, -gin	borgin, kelgil	fe'llardagi buyruq-istak maylini hosil qiladi

18.	**-gina -kina -qina**	*Qizginam, balandgina, oppoqqina, tuzukkina*	a) otlardagi erkalash-kichraytirish, achinish ma'nosini ifodalaydi b) sifatlardagi ozaytirma darajani hosil qiladi
19.	**-guncha -kuncha -quncha**	*kelguncha, tekkuncha, chiqquncha*	payt ravishdoshlarini hosil qiladi:
20.	**-gur**	*qurmagur*	fe'llardagi istak ma'nosini ifodalaydi
21.	**-gusi (-g'usi)**	*borgusi, bo'lg'usi*	eskirgan qo'shimcha bo'lib, kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
22.	**-di**	*yozdi*	yaqin o'tgan zamon fe'lini hosil qiladi
23.	**-dir I**	*Kitob bilim manbaidir*	kesimlik qo'shimchasi, ya'ni ot-kesimni ega bilan bog'lovchi vosita (bog'lamaning bir turi)
24.	**-dir II**	*kimdir, nimadir*	gumon olmoshini hosil qiladi:
25.	**-dir III** *yoki* **-tir**	*yozdir, sezdir*	orttirma daraja hosil qiluvchi qo'shimcha:
26.	*-digan*	*Keladigan*	kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
27.	*-yotgan*	*Ko'rayotgan*	sifatdosh shaklini hosil qiladi
28.	*-yotir*	*borayotir*	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi
29.	*-jon*	*Karimjon*	otlardagi hurmat ma'nosini hosil qiladi
30.	*-i*	*to'zimoq*	fe'llardagi ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimcha
31.	*-b (-ib)*	*borib, o'qib*	holat ravishdoshlarini hosil qiladi
32.	*-imtir yoki* *-mtir*	*ko'kimtir, qoramtir*	sifatlardagi ozaytirma darajani hosil qiladi
33.	*-in I (yoki -n)*	*kiyinmoq* (o'zlik), *olinmoq* (majhul)	o'zlik yoki majhul nisbat yasovchi qo'shimcha
34.	*-in II*	*borayin*	fe'llardagi ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimcha hisoblanadi
35.	*-inchi yoki* *-nchi*	*uchinchi, oltinchi*	tartib son yasovchi qo'shimcha
36.	*-ir*	*toshirmoq*	fe'llardagi orttirma nisbat qo'shimchasi

37.	**-ish yoki** **-sh I**	*borish, o'qish*	fe'llarning harakat nomi shaklini yasovchi qo'shimcha
38.	**-ish yoki** **-sh II**	*yozishdi, to'qishyapti*	fe'lning birgalik nisbat qo'shimchasi:
39.	**-ish III**	*Ko'kish*	sifatlardagi ozaytirma daraja hosil qiluvchi qo'shimcha
40.	**-ish IV**	*to'lishdi*	Kuchsiz harakatni ifodalaydi
41.	**-iq**	*oshiqmoq, toliqmoq*	fe'lning o'zlik nisbatini hosil qiluvchi qo'shimcha:
42.	**-y I**	*o'qiy boshladi*	ravishdosh hosil qiluvchi qo'shimcha
43.	**-y** *yoki* **-ay II**	*to'qiy, boray, kelay*	fe'lning buyruq-istak mayli shaklini yasaydi
44.	**-ka**	*surkamoq*	fe'lning kuchaytirma shaklini hosil qiladi
45.	**-l** *yoki* **-il**	*Ishga qattiq berildi* (o'zl. nisb.) *Navbat berildi* (maj. nisbat)	fe'lning o'zlik yoki majhul darajasini hosil qiladi
46.	**-la**	*quvlamoq, savalamoq*	fe'llarning kuchaytirish shaklini yasaydi
47.	**-lar I**	*uylar*	ko'plik ma'nosini hosil qiladi
48.	**-lar II**	*onamlar*	hurmat ma'nosini hosil qiladi
49.	**-lik**	*aytmoqlik*	harakat nomiga qo'shilib, ma'noni kuchaytiradi
50.	**-loq** *yoki* **-aloq**	*qizaloq, bo'taloq*	kichraytirish va erkalash ma'nosini hosil qiladi
51.	**-ma**	*yurma, kelma*	fe'lning bo'lishsiz shaklini hosil qiladi
52.	**-mish**	*kelmish, olmish*	eskirgan shakl bo'lib, o'tgan zamon sifatdoshini hosil qilgan
53.	**-moq**	*bormoq, qolmoq*	harakat nomini hosil qiladi
54.	**-moqda**	*kelmoqda, yozmoqda*	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi
55.	**-moqchi**	*o'qimoqchi*	kelasi zamon maqsad fe'llarini yasaydi
56.	**-niki**	*kitobniki, meniki*	qarashlilik shaklini hosil qiladi
57.	**-ov**	*ikkov, uchov*	jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimcha
58.	**-ovlan**	*beshovlan.*	jamlovchi sonlarni yasaydi
59.	**-oy**	*Barchinoy, Hulkaroy*	ayol ismlariga qo'shiladi va erkalash-hurmatlash ma'nolarin ifodalaydi

60.	**-on**	*boribon, kelibon*	eskirgan qo'shimcha bo'lib, ravishdosh shaklini hosil qiladi
61.	**-roq**	*kattaroq, oqroq*	sifatlarning qiyosiy daraja shaklini hosil qiladi
62.	**-r yoki -ar**	*borar, o'qir*	kelasi zamon sifatdoshini yasaydi
63.	**-sa**	*borsa*	fe'llardagi shart mayli shaklini hosil qiladi:
64.	**-sin**	*olsin*	fe'llardagi buyruq-istak maylini yasaydi
65.	**-t**	*o'qit*	fe'llardagi orttirma nisbatni hosil qiladi
66.	**-ta**	*beshta, o'nta*	dona son shaklini hosil qiladi
67.	**-tacha**	*beshtacha, o'ntacha*	chama son shaklini hosil qiladi
68.	**-uv**	*boruv, keluv*	fe'lning harakat nomi shaklini hosil qiladi
69.	**-xon**	*Karimaxon*	odam ismlariga qo'shilib, hurmat ma'nosini hosil qiladi
70.	**-cha**	*qushcha, kitobcha*	otlardagi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalaydi
71.	**-chak**	*kelinchak, tugunchak*	otlardagi kichraytirish ma'nosini ifodalaydi
72.	**-choq**	*toychoq, qo'zichoq*	otlardagi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalaydi
73.	**-yap**	*ketyapman*	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi

2. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar

2.1. Kelishik qo'shimchalari

№	Kelishik nomi	Qo'shimchasi	Savollari
1.	*Bosh kelishik*	–	*kim? nima?*
2.	*Qaratqich kelishigi*	*-ning , -n*	*kimning? nimaning?*
3.	*Tushum kelishigi*	*-ni, -n, -i*	*kimni? nimani? kimimi?*
4.	*Jo'nalish kelishigi*	*-ga, -ka,-qa, -na, -a*	*kimga? nimaga?*
5.	*O'rin-payt kelishigi*	*-da*	*kimda? nimada?*
6.	*Chiqish kelishigi*	*-dan*	*kimdan? nimadan?*

2.2. Egalik qo'shimchalari

Shaxs	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	*dalam, kitobim*	*dalamiz, kitobimiz*
2-shaxs	*dalang, kitobing*	*dalangiz, kitobingiz*
3-shaxs	*dalasi, kitobi*	*dalalari, kitoblari*

2.3. Shaxs-son qo'shimchalari

Shaxs	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	*yozdim, yozaman, yozay(in)*	*yozdik, yozamiz, yozaylik*
2-shaxs	*yozding, yozasan, yoz(gin)*	*yozdingiz, yozasiz, yozing(iz)*
3-shaxs	*yozdi, yozadi, yozsin*	*yozdi(lar), yozadi(lar), yozsin(lar)*

KO'P MA'NOLI QO'SHIMCHALAR

Qo'shimchalar	Misollar
-li	aql**li**(mavjudlik ma'no), yog'**li** (ortiqlik ma'no), o'tirish**li** (moslik)
-ma	qovur**ma** (harakat natijasi), bura**ma** (odatdagi xususiyat)
-la	moy**la**(ega holatlik), randa**la**(vosita), bola**la** (paydo qilish)
-chi	chorva**chi** (kasbga mansublik), bo'yoq**chi** (aniq sohaga tegishlilik),
-chilik	paxta**chilik**(soha), to'kin**chilik**(mavjudlik), tirik**chilik** (holat)
-dor	ayb**dor** (mavjudlik ma'no), bo'y**dor** (ortiqlik ma'no)
no-	**no**umid (ega emaslik), **no**mard (qarama-qarshilik ma'no)
be-	**be**g'ubor (yo'qlik ma'no), **be**g'am (kamlik ma'no)
-siz	asos**siz** (ega emaslik ma'no), mador**siz** (kamlik ma'no)
-lik	ota**lik** (qarindoshlik), bola**lik** (holat), mudir**lik** (kasb, hunar)
-sa	Ber**sa**, eyman (shart); Qani o'qishga kir**sa** (orzu)

OMONIM (SHAKLDOSH) QO'SHIMCHALAR

Qo'shim-chalar	Ot	Sifat	Fe'l	Ravish	Yuklama Bog'lovchi
-a	jizz**a** (s/y)	ko'tar**a** (savdo) (s/y)	qon**a** (s/y) bor**a** (l/sh/y) bur**a** (l/sh/y)	-	sen-**a**
-ay	-	-	kuch**ay** (s/y) bor**ay** (l/sh/y)	-	-
-ak	g'ij**jak** (s/y)	qirmiz**ak** (s/y)	-	-	-

-ar	-	-	ko'kar (s/y) kelar (l/sh/y)	-	-
-ga	bolaga (s/sh/y)	-	surgamoq (l/sh/y)	-	-
-gi	supurgi (s/y)	yozgi (s/y)	borgim (l/sh/y)	-	-
-gina	qizgina (l/sh/y)	-	-	-	qizimgina
-da	uyda (s/sh/y)	-	undamoq (s/y)	tezda (l/sh/y)	keldi-da
-day	-	kaftday (s/y)	-	o'qday (s/y)	-
-dir	-	-	sezdir (l/sh/y)	-	kelgandir
-don	qalamdon (s/y)	qadrdon (s/y)	-	-	-
-dor	chorvador (s/y)	puldor (s/y)	-	-	-
-i	do'sti (l/sh/y)	jannati (s/y)	tinchi (s/y), boyi (s/y), to'zi (l/sh/y)	-	-
-ik	ko'rik (s/y)	yugurik (s/y), egik (s/y)	birik (s/y)	-	-
-il	-	-	egildi (o'zl. l/sh/y) ichildi (maj. nisb.l/sh/y)	-	-
-in	ekin (s/y) tiqin (s/y) yig'in (s/y)	sog'in (sigir) (s/y) to'lin (s/y) erkin (s/y)	ko'rin (l/sh/y) ilin (l/sh/y)	oldin (s/y) ostin-ustin (s/y)	-
-im	uyim (s/sh/y) bilim (s/y)	ayrim (s/y)	-	chekim (s/y)	-
-ing	uying (s/sh/y)	-	oching (s/sh/y)	-	-
-ingiz	Uyingiz (s/sh/y)	-	ochingiz (s/sh/y)	-	-
-ir	-	-	gapir (s/y) o'chir (l/sh/y)	-	-

-(i)sh	-	oqish (l/sh/y)	sakrash (l/sh/y) kelish (l/sh/y) olishdi (l/sh/y	-	-
-iq	chiziq (s/y)	ochiq (s/y)	yo'liq (s/y) siniqmoq (l/sh/y)	-	-
-y	-	-	qoraydi (s/y) o'qiy (l/sh/y)	-	-
-k	to'shak (s/y)	chirik (s/y)	bordik (s/sh/y)	-	-
-ka	yo'lka (sh/y) etikka (s/sh/y)	-	iska (s/y) surka (l/sh/y)	-	-
-kash	xaskash (s/y)	noskash (s/y)	-	-	-
-ki	tepki (s/y)	kechki (s/y)	-	-	demakki biladiki
-kin	epkin(s/y)	keskin (s/y)	to'kkin (l/sh/y)	-	-
-kor	Paxtakor (s/y)	fusunkor (s/y)		-	-
-la	-	-	ishla (s/y) quvla (l/sh/y)	-	-
-lab	Yuzlab (son, l/sh/y)			haftalab (s/y)	
-lik	yoshlik(s/y)	sirdaryolik (s/y)	-	-	-
-m	chidam (s/y) otam(s/sh/y)	-	ko'rdim (s/sh/y)	-	-
-ma	tugma(s/y), pistirma (s/y), qatlama (s/y)	yasama (s/y), bo'g'ma (s/y), burma (s/y)	kelma (l/sh/y), gapirma (l/sh/y)	yonma-yon (l/sh/y)	-
-miz	Onamiz (s/sh/y)	-	olamiz (s/sh/y)	-	-
-moq	quymoq	-	ichmoq (l/sh/y)	-	-

-n	o'zi**n**(i) (s/sh/y)	-	yasa**n**moq (l/sh/y)	-	-
-ng	uka**ng** (s/sh/y)	-	bordi**ng** (s/sh/y)	-	-
-on	to'z**on**(s/y)	shod**on** (s/y)	-	-	-
-oq	o'r**oq**(s/y)	qo'rq**oq** (s/y)	-	-	kelib**oq**
-sa	-	-	suv**sa**di (s/y) kel**sa** (l/sh/y)	-	-
-si	Ota**si** (s/sh/y)	-	garang**si**moq (l/sh/y)		
-siz		yuz**siz** (s/y)	yoza**siz** (s/sh/y)	so'z**siz** (s/y)	
-t	-	-	to'la**t**di (s/y) o'qi**t**di (l/sh/y)	-	-
-xon	Kitob**xon** (s/y) Dilafro'z**xon** (l/sh/y)	-	-	-	-
-ch	quvon**ch**(s/y)	tin**ch** (s/y)	-		-
-cha	Qizil**cha** (s/y), qiz**cha** (l/sh/y)	farg'ona-**cha** (s/y)	-	erkak**cha** (s/y)	-
-chak	kelin**chak** (l/sh/y)	erin**chak** (s/y)	-		-
-chan	-	yashov-**chan** (s/y)	-	mahsi-**chan** (s/y)	-
-chi	ish**chi** (s/y)	ayirma**chi** (s/y)	-	-	kel-**chi**
-chiq	Qop**chiq** (l/sh/y)	sirpan-**chiq** (s/y)	-	-	-
-choq	o'yin**choq** (s/y), toy**choq** (l/sh/y)	maqtan-**choq** (s/y), erin**choq** (s/y)	-	-	-
-q	taro**q**(s/y)	yumsho**q** (s/y)	-	-	-
-qa	o'q**qa** (s/sh/y)	qis**qa**(s/y)	chay**qa** (l/sh/y)	-	-

-qi	chop**qi**(s/y)	sayro**qi** (s/y)	-	-	-
-qin	tosh**qin**(s/y)	jo'sh**qin** (s/y)	boq**qin** (s/sh/y)	-	-
-qoq	tut**qoq**(s/y)	yopish-**qoq** (s/y)	-	-	-
-g'oq	to'l**g'oq**(s/y)	toy**g'oq** (s/y)	-	-	-

Shartli qisqartmalar:
s/y – so'z yasovchi qo'shimcha
l/sh/y – lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha
s/sh/y – sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha

SINONIM (MA'NODOSH) QO'SHIMCHALAR

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-dan/-ni	osh**dan** oling – osh**ni** oling	*no-/-siz*	**no**o'rin – o'rin**siz**
-dan/-ga	eshik**dan** sig'madi – eshik**ka** sig'madi	*-ona/-larcha*	mard**ona** - mard**larcha**
-dan/-ning	ular**dan** biri - ular**ning** biri	*-sa/-sira*	suv**sa**moq - suv**sira**moq
-ga/-ni	bun**ga** tushunmadi-bu**ni** tushunmadi	*-chi/-shunos*	til**chi** - til**shunos**
-digan/-ar	ko'ra**digan** ko'z - ko'**rar** ko'z	*-lab/-dan*	sahar**lab** - sahar**dan**
-don/-li	bilim**don** - bilim**li**	*-(u)v/-(i)sh*	o'qu**v** - o'qi**sh**
ser-/-li	**ser**suv-suv**li**	*be-/-siz*	**be**hayo – hayo**siz**
ba-/-li	**ba**savlat - savlat**li**	*-qir/-ag'on*	chop**qir** - chop**ag'on**
-do'z/-chi	etik**do'z** - etik**chi**		
-yotir/ -moqda/ -yapti	kel**yapti** – kela**yotir** – kel**moqda**	*-imtir/-ish/ -roq*	oq**ish** – oq**imtir** - oq**roq**
-loq/-zor	o't**loq** - o't**zor**	*-iz/-dir*	tom**iz** - tom**dir**
-ish/-lar	kel**ish**di - keldi**lar**	*-li/-dor*	shira**li** - shira**dor**
-soz/-chi	kema**soz** - kema**chi**	*-larcha/ -chasiga*	mard**larcha** - mard**chasiga**
-lay/-ligicha	ho'l**lay** - ho'l**ligicha**	*-li/-kor*	itoat**li**-itoat**kor**
-li/ bo-	Obro'**li** – **bo**obro'	*-chi/-kash*	arava**chi**-arava**kash**
-chi/-kor	g'alla**chi**-g'alla**kor**		

ANTONIM (ZID MA'NOLI) QO'SHIMCHALAR

Qo'shimchalar	Misollar	Qo'shimchalar	Misollar
-li/-siz	aql**li**-aql**siz**	*ser-/-siz*	**ser**o'-t-o't**siz**
-li/be-	Ibo**li**-**be**ibo	*-dor/be-,-siz*	shira**dor**-**be**shira, shira**siz**
-li/no-	o'rin**li**-**no**o'rin	*ba-/be-,-siz*	**ba**obro'-**be**obro', obro'**siz**
ba-/-siz	**ba**davlat-davlat**siz**		

2-ilova

QISQACHA PARONIMLAR LUG'ATI

A

Abadiy – mangu	**Adabiy** – badiiy adabiyotga oid
Abro' – qosh	**Obro'** – e'tibor, hurmat
Abzal – ot, eshak egar-jabdug'i	**Afzal** – a'lo, yaxshi
Abgor – nochor, xarob	**Afkor** – fikrlar
Adib – yozuvchi	**Adip** – ko'rpa, to'n chetidagi mag'iz
Adl – adolat, odillik	**Adil** – tik, egilmagan
Adresat – xat, telegramma oluvchi	**Adresant** –xat, telegramma yuboruvchi
Azm – qat'iy qaror, jazm	**Azim** – g'oyat katta, ulkan
Ayon – ma'lum, ravshan	**A'yon** – amaldorlar
Alamon – olomon	**Al'amon** – omonlik uchun murojaat
Alo – ustiga: "Nur alo nur"	**A'lo** – eng yuqori, eng yaxshi
Alam – jismoniy og'riq	**A'lam** – diniy arbob, bosh mufti
Alpoz – ahvol, vaziyat, holat	**Alfoz** – lafzlar, so'zlar, iboralar
Amr – buyruq, farmon	**Amir** –podsho, xon (qad. Buxoroda)
Ariq – suv oqadigan joy	**Oriq** – ozg'in
Artish – tozalash	**Archish** – po'stlog'idan ajratish
Asl – tub, negiz, haqiqiy	**Asil** – a'lo sifatli, eng yaxshi, toza
Ato – in'om, sovg'a	**Ota** – farzandli er kishi
Achipti – oshiq o'yini turi	**Achibdi** – (qatiq) achibdi
Ahil – totuv, inoq	**Ahl** – bir soha odamlari

B

Bad – yomon, yaramas	**Ba'd** – keyin, so'ng
Badnafs – nafsi buzuq	**Badnafas** – nafasi sovuq
Bayon – yozma ish	**Bayan** – musiqa asbobi
Bazur – bahuzur, bemalol	**Bazo'r** – zo'rg'a
Bakor – koriga yaramoq	**Bekor** – ishsiz
Bal – raqs kechasi	**Ball** – baho o'lchovi birligi
Band – modda, paragraf; mashg'ul	**Bant** – sochga taqiladigan lenta
Barmoq – a'zo	**Bormoq** – borish

Biyron – so'zamol, gapdon	**Biron** - biror
Bikr – iffatli qiz, bokira	**Bikir** – pishiq, baquvvat
Birov – kimdir	**Burov** – burash, buramoq
Bob – kitobning qismlari	**Bop** – munosib
Bod – kasallik	**Bot** – tez; botmoq
Borlik – majudlik	**Borliq** – mavjudot
Boshda – avval	**Boshida** – yonida, oldida
Bog'li – bog'i bor	**Bog'liq** – bog'langan
Bud – bor-yo'q narsa	**But** – to'liq, bekamu ko'st
Burj – 12 ta yulduz turkumi	**Burch** – majburiyat
Buril – burilmoq	**Burul** – xoldor, ko'kish (ot)
Burg'i – parma	**Burg'u** – qadimgi cholg'u asbobi
Buqa – yosh erkak qoramol	**Buq'a** – madrasadagi hujra

D

Davo – dori-darmon	**Da'vo** – arz, talab
Davr – vaqt oralig'i	**Dovur** – ot yopinchig'i
Dazmol–kiyim tekislaydigan asbob	**Dastmol** – qozon yuvg'ich
Devon – shoirning she'rlari to'plami	**Divan** – yumshoq mebel turi
Dala – ekin ekiladigan joy, maydon	**Dara** – ikki tog' oralig'idagi jarlik
Darz – yoriq, yorilgan	**Dars** – mashg'ulot, saboq
Dadil – dovyurak	**Dalil** – isbot
Diplomat – davlat xizmatchisi	**Diplomant** – diplom yozuvchi kishi
Dub – daraxt	**Dup** – tovushga taqlid bild. so'z

E

Ellik – son	**Enlik** – ikki enlik (xat)
Esiz – attang, afsus	**Essiz** – esi yo'q, nodon
Ehzon – qayg'u hukm surgan kulba	**Ehson** – xayrli ish, ezgulik

F

Faqir –kambag'al	**Paqir** – chelak

G

Ganj – boylik, xazina	**Ganch** – suvoq materiali, alebastr
Gilos – meva	**Go'los** – to'q jigarrang

I

Ilk – avvalgi	**Ilik** – suyak ichidagi yog'simon modda

J

Jodi – o't qirqadigan asbob	**Jodu** – sehr
Juda – eng, g'oyat	**Judo** - ayriliq

K

Kampaniya – ma'lum ishlar tizimi	**Kompaniya** – korxona, birlashma
Kaft – qo'lning qismi	**Kift**- elka
Kat – yog'och karavot	**Kart** – kart dumba
Kvadrat – teng yoqli to'rtburchak	**Kvadrant** – doiraning choragi
Kontakt – aloqa, bog'lanish	**Kontrakt** – shartnoma
Kuyindi – kuyishdan qolgan iz	**Kuyundi** – kuyunmoq

L

Lahm – suyaksiz go'sht	**Lahim** – yerosti yo'li
Lop – birdan	**Lof** – mubolag'a

M

Matal – hikmatli so'zlar	**Ma'tal – kutib qolgan, muntazir**
Metr – uzunlik o'lchovi: 100 sm.	**Metr** –hurmat bildiruvchi so'z (frans.)

N

Nasha – narkotik modda	**Nash'a** – estetik lazzat, huzur
Naq – xuddi, ayni	**Naqd** – puli darhol to'lanadigan
Nufuz – obro', e'tibor	**Nufus** – aholi

O

Olu – olxo'ri	**Oluv** – olish
Ora –o'rta	**Oro** – pardoz
Oxir – chegara, poyon	**Oxur** – hayvonlarga yem solinadigan joy
Oqlik – oq ranglik	**Oqliq** – sut mahsulotlari
Orasida – o'rtasida, ichida	**Orasta** – bezatilgan, yasatilgan

Q

Qad – qomat	**Qat** – qavat, qatlam
Qayd – ta'kid	**Qayt** – o'qchish, qusish
Qala – o'tinni taxla	**Qal'a** – shahar
Qalmoq – millat	**Qolmoq** - qolish
Qarz – qaytariladigan pul, buyum	**Qars** – tovush: qars etdi
Qari – keksa, mo'ysafid	**Qa'ri** – chuqur eri, osti, ichi
Qat'i – qat'i nazar	**Qat'iy** – uzil-kesil
Qiyq – tovush: qiyq etdi	**Qiyiq** – qiyilgan; ro'mol
Qiymat – baho	**Qimmat** – narxi baland
Qism – bo'lak	**Qisim** – siqim
Qolib – qolmoq	**Qolip** – oyoq kiyimi moslamasi
Quyildi – oqdi	**Quyuldi** – quyuqlashdi
Qura – qura boshladi	**Qur'a** – chek
Qurt – hasharot	**Qurut** – suzma qurut

S

Sayd – ov	**Sayid** – payg'ambarimiz avlodlari
Sanat – sanatmoq	**San'at** – badiiy ijodiyot turi
Saqov – ot, eshaklar kasalligi	**Soqov** – gung, tilsiz
Suyilmoq – sevilmoq	**Suyulmoq** – suyuqlashmoq
Surat – rasm	**Sur'at** - tezlik, temp
Surgin – surmoq	**Surgun** – badarg'a

T

Tab – taft, harorat	**Ta'b** – kishining ichki tabiati; mijoz
Talat – talatmoq	**Tal'at** – yuz, chehra
Tambur – vagon kiraverishidagi bo'lma	**Tanbur** – cholg'u asbobi
Tana – gavda	**Ta'na** – gina, kudurat
Tarif – baholar ko'rsatkichi	**Ta'rif** – tavsif, tasvir
Tasir – tasir-tusur	**Ta'sir** – tazyiq
Taqib – taqib qo'ydi	**Ta'qib** – yashirincha kuzatish
Tib – meditsina	**Tip** – toifa
Tub – tag, ost	**Tup** – o'simlik, daraxtning har donasi
Tutin – tutinmoq	**Tutun** – olov tutuni

U

Uzik – uzilgan	**Uzuk** – taqinchoq
Uyim – mening uyim	**Uyum** – to'da
Ulish – ulimoq(it,bo'ri)	**Ulush** – bo'lak, hissa
Urish – urmoq	**Urush** – jang
Unim – (mening) unim	**Unum** – hosil, baraka

V

Vaqf – diniy muassasa mulki	**Voqif** – xabardor
Voqe – sodir (bo'lmoq)	**Voqea** – hodisa

X

Xayoli – o'yi, fikri	**Hayoli** – iffatli
Xalq – el,ulus	**Halq** – halqum
Xam – egik, quyi solingan	**Ham** – (men) ham
Xar – eshak	**Har** – har kim
Xiyol – sal, ozgina	**Xayol** – o'y, fikr
Xiyla – ancha	**Hiyla** – makr, firib
Xil-xil – turli-tuman	**Hil-hil** – hil-hil (pishgan)
Xirs – ayiq	**Hirs** – kuchli istak, intilish

Xol – badandagi qora tug'ma dog'	**Hol** – ahvol
Xoli – yolg'iz, bo'sh, band emas	**Holi** – ahvoli
Xosiyat – xxususiyat	**Hosiyat** – his etish
Xur – tovush: xur-xur	**Hur** – erkin, ozod
Xush – yaxshi, ma'qul, durust	**Hush** – ong, aql, idrok, es-hush

V

Yagana – ekinni siyraklatish	**Yagona** – yakka, tanho, yolg'iz
Yetdi – yetib bordi	**Yetti** – son
Yondash – yaqinlash	**Yondosh** – yonidagi
Yoriq – yorilgan	**Yorug'** – nur
Yuvindi - suv bilan tozalandi	**Yuvundi** – iflos suv

Z

Zafar – g'alaba	**Za'far** – sap-sariq rang

Sh

Sher – hayvon: arslon	**She'r** – vazn, qofiyali kichik badiiy asar
Shox – daraxt yoki hayvon shoxi	**Shoh** – podsho
Shuba – mo'ynali qishki kiyim	**Shu'ba** - bo'lim, idora

3-ilova

NAVOIY ASARLARI LUG'ATIDAN

Bosh oqarmoq — sochi oqarmoq, qartaymoq.
Bosh olib chiqmoq — hamma narsaning bahridan o'tmoq, kechmoq, tark qilmoq.
Bosh uchurmak, bosh tushirmoq — o'ldirmoq, boshini kesmoq.
Bosh ura kirishmoq — ko'rina boshlamoq.
Bosh o'g'irlamoq — bosh olmoq, o'ldirmoq.
Bosh o'ynamoq — o'yinda boshni tikmoq, qurbon bo'lmoq.
Bosh indurmak — 1. Ta'zim qilmoq; 2. Pisand qilmoq.
Bosh tortmoq — ko'tarilmoq, yuqorilashmoq.
Bosh chiqarmoq — o'zini tortmoq, o'zini ayamoq, saqlamoq.
Ollida bosh quymoq — o'zini kichik olmoq, itoat qilmoq, iltijo etmoq.
Boshidin quymoq — esidan, yodidan chiqmoq.
Boshdin quymoq — bahridan o'tmoq, kechmoq, tark qilmoq.
Boshiga yetmoq — tepasiga kelmoq, oldiga kelmoq.
Boshi falakdin o'tmoq — ulug' martaba hosil qilmoq.
Xotindin bosh ko'tarmak — itoatda bo'lmoq, chizgan chizig'idan chiqmaslik.

4-ilova

SO'ZLARNING QISQACHA IZOHLI LUG'ATI
(Maktab, akademik litsey va kollej darsliklari asosida)

A	
Abadiy - oxiri, poyoni bo'lmagan; mangu, doimiy	**anqo** - afsonaviy ulkan qush (noyoblik ramzi).
abajur - lampa ustiga o'rnatiladigan qalpoq	**antiqa** - 1) kamyob, kishini hayratda qoldiradigan narsa va hodisalarni tasvirlovchi so'z; 2) qora ko'l terining bir turi.
abgor - yomon ahvolga tushib qolgan; nochor, xarob	**antroponimlar** – shaxs nomlari
abjir - epchil, chaqqon	**anvar** - juda nurli, eng yorug' (demak, *anvar* va *munavvar* - bir o'zakdan yasalgan).
abr - bulut	**an'ana** - avloddan avlodga o'tib, davom etib kelgan urf-odatlar, axloq me'yorlari; qarashlar va sh. k.
abror - yaxshilar, pok kishilar	**aqd** - bog'lash, nikohlash
abstrakt - mavhum	**arbitr** - hakam
abzal - ot-ulovni egarlash yoki aravaga qo'shish uchun zarur asboblar majmuyi	**arbob** - 1) fan, madaniyat, san'at sohasida yoki davlat ishida o'z faoliyati bilan tanilgan shaxs; 2) o'tmishda qishloq, mahalla oqsoqoli
adad - ko'p, ko'plik, miqdor	**arenda** - ijara
adolat - odilona va xolisona ish tutish	**arg'uvon** - qip-qizil bo'lib gullaydigan daraxt
afg'on - nola, fig'on	**arjumand** - aziz, qadrli, hurmatli, e'tiborli
afgor - jarohatlangan, majruh	**arsh** - osmonning eng yuqorisi; oliy taxt
aftoda, uftoda - 1. Yiqilgan; 2. Xor	**arxitektor** - me'mor
ag'yor - g'ayr (o'zga)ning ko'pligi	**asad** - sher; falakning 12 burjidan birining nomi; Quyosh yilining 5-oyi
ahad - yolg'iz, yagona	**ashk** - ko'z yoshi
ahkom - hukmlar, qonunlar	**ashraf** - eng sharafli
ahl - 1. Istiqomat qiluvchi; 2. Odamlar, guruh; biror toifaga mansub kishilar guruhi	**ashyo** - har qanday narsa, buyum.
ajdarho - afsonaviy yirik ilon	**asig'** - foyda, naf, ulush
ajun - olam, dunyo	**asror** - sirlar, yashirin narsalar
akbar - eng ulug', eng katta	**avom** - oddiy xalq ommasi
akobir - ulug'lar, kattalar	**asru** - juda, haddan ziyod, ortiq darajada
aksioner - paychi	**atfol** - go'dak, yosh bola, tifl (bola)ning ko'pligi

akt - dalolatnoma	**auditoriya** - ma'ruza qilinadigan, dars o'tiladigan joy
aktiv - faol	**auksion** - kimoshdi (savdo)
alfoz - lafzlar, so'zlar; tariqa, zayl	**avaxta** - turma
alhaq - borliqning haqiqati, haqiqiy, bor, mavjud	**avbosh** - bebosh, sayoq, bezori, daydi
alhol - hozirda, shu paytda	**Avliyo** - bashorat qila oladigan odam, valiyning ko'pligi.
alif - eski alifboning birinchi harfi; abjad hisobida 1 ga teng	**avra** - kiyim yoki ko'rpaning sirtqi qavati
aljabr - algebra	**axiy** - birodar, oshna
alvon - qizil ip gazlama	**ayg'ir** - uch-to'rt yosh o'rtasidagi erkak ot.
amal - umid, istak, orzu; ish-harakat	**aymoq** - demoq, gapirmoq
amin - 1) o'tmishda daha boshlig'i yoki qishloq oqsoqoli; 2) bildirilgan fikrga, sodir bo'lajak voqea-hodisaga ishonch.	**ayru** - ayrilgan, ajralgan
amir - xonlik, podsholik unvoni hamda ushbu unvon egasi.	**aysh** - kayf-u safo, ishrat
andora - 1. O'lchov; 2. Miqdor	**aziyat** - ozor, azob, uqubat
anduh - g'am, qayg'u	**adl** - adolat, odillik
anis - do'st, yor	**al'omon** - 1. Omonlik berish. 2. Omonlik berishga chaqiriq
anjuman – keng ko'lamli, katta muammolarni hal qilishga bag'ishlangan yig'in, majlis	**amn** - xavfsiz bo'lish
al – qizil	**art** – tepa, dovon
B	
Bafurja - xotirjamlik bilan, shoshmasdan, bamaylixotir.	**baqo** - davom etish, saqlanish
bahr - dengiz	**barq** - chaqmoq, yashin
bahramand - bahra oluvchi, manfaatdor	**barqaror** - qaror topgan, qat'iy, uzil-kesil o'rnashgan; mustahkam.
bahrayn - bahrning ikkiligi, ikki dengiz	**barter** - mol almashtirish
Bahrom - Mars sayyorasi	**bashar** - inson, odamzod
bakalavr - to'rt yillik oliy ta'lim bosqichini o'tagan mutaxassis.	**baytal-** urg'ochi ot
bakovul - 1. Podshoh, amir, xon saroyida ularga atalgan ovgatdan totib ko'ruvchi ya ovqat tayyorlash ishiga mas'ul mansabdor. 2. Oshpaz. 3. Tayyorga ayyor odam haqida	**bedil** - oshiq, maftun
balans - muvozanat	**bedov** - kulrang, arabiy chopqir ot

baliyat - musibat, ranj, mashaqqat, balo.	**benavo** - faqir, bechora, notovon
bankrot - bankrot, sinish, qarzni uzishga ham qurbi yetmaslik (shaxs yoki korxona)	**benazir** - tengsiz, o'xshashi yo'q
banogoh - birdan, to'satdan	**bexonumon** – uy-joysiz, darbadar
billoh - xudo haqqi	**boj** - savdo solig'i
billur - xrustal, kumush aralashtirib quyilgan va ishlov berilgan shishanamo buyumlar, xomashyo	**boloxona** - yuqorida, balandda qurilgan xona
birja - qimmatbaho qog'ozlar va har xil mollar bilan savdo-sotiq qiladigan muassasa	**boqiy** - davomli, uzluksiz, abadiy
bitig - yozma, yozma asar	**bot** - tez, ildam, darrov
biya - bolasi bor baytal	**botil** - puch; noto'g'ri, asossiz
biznes - shaxsiy boylik, foyda orttirishga qaratilgan ish.	**broker** - bitim tuzishda vositachilik qiluvchi shaxs, dallol, vositachi
biznesmen - tijorat bilan shug'ullanuvchi shaxs, ishbilarmon, usta savdo xodimi	**budjet** - daromad (kirim) va buromad (chiqim)
bo'yinbog' – 1) galstuk; 2) uy hayvonlarining bo'yniga bog'lanadigan arqon yoki qayish.	**burj** - quyoshning yillik harakati doirasidagi o'n ikki nuqtaning har biri; qal'aning cho'qqisi
bo'yra - qamishdan yasalgan yer-to'shak	**buzrug** - ulug', katta
bol - asal.	**byurokrat** - rasmiyatchi
bod - shamol, yel; beldagi og'riq	**baxil** - qizg'anchiq, xasis.
boda - may, sharob	**burch** - ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa, majburiyat.
bodiya - jom, mis idish; cho'l-u biyobon, sahro	**bashorat** - oldindan ko'ra bilish, oldindan aytib berish.
bois - sabab, sababchi, bahona	**bomdod** - erta bilan kun chiqmasdan o'qiladigan birinchi namoz
